ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

**Muassis:**
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

# PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**6-son**
(maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

# MUNDARIJA


## TAHRIRIYAT

| | | |
|---|---|---|
| | 4 | Professional ta'lim – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosi |

## TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

| | | |
|---|---|---|
| **R. Choriyev** | 6 | Oliy ta'lim muassasasi faoliyatini dual tizim asosida tashkil etishning konseptual asoslari |
| **Z. Ismailova<br>M. Mamataliyeva** | 10 | Pedagogik texnologiya turlari va dars modullari |
| **S. Jo'rayeva<br>B. Tursunov<br>S. Jumayev** | 14 | Zamonaviy ta'limni rivojlantirishda pedagog imijini shakllantirishning ahamiyati |
| **G. Aripova** | 17 | O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tafakkurini shakllantirishning pedagogik asoslari |
| **P. Maxsudov** | 20 | Kasb ta'limi metodikasining fan va o'quv predmeti sifatidagi tahlili |
| **D. Mustafoyeva<br>S. Kazakbayeva** | 23 | Pedagog nutqini rivojlantirishda pedagogik-psixologik munosabatlarning ahamiyati |
| **D. Abidova** | 26 | O'quvchilarning intellektual kompetensiyalarini shakllantirish komponentlari |
| **B. Xaydarov** | 29 | Professional ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv rejalarni takomillashtirish |
| **G. Jo'rayeva** | 32 | Professional ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiq qilish bo'yicha mulohazalar |
| **F. Sadikova** | 36 | Talabalarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishning nazariy asoslari |
| **D. Kambarova** | 39 | Ta'lim jarayonida tabbiy xodimlarni amaliy kompetensiyasini shakllantirishning zarurati |
| **G. Kadirova** | 42 | Kimyo ta'limi samaradorligini oshirishda kreativ yondashuv |
| **Z. Abdullayeva<br>N. Alimova** | 46 | Iqtidorli bolalarda tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi |

## TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

| | | |
|---|---|---|
| **N. Karimova** | 49 | Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda individual-psixologik xususiyatlarning o'rni |

## ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

| | | |
|---|---|---|
| **S. Jo'rayeva<br>A. Shamshetova** | 52 | Kursantlarda kasbiy kompetentlik va kreativlikni shakllantirish mexanizmlari |
| **M. Mamataliyeva** | 55 | Maxsus fanlarni o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyalari |
| **B. Muqimov** | 58 | Talabalarni mustaqil ish jarayonida interfaol ta'lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini takomillashtirish usullari |
| **X. To'ychiyev** | 61 | Bo'lajak pedagoglarda interfaol ta'lim vositalarini qo'llash bo'yicha didaktik ko'nikmalarni shakllantirish |

## TA'LIMDA MENEJMENT

| | | |
|---|---|---|
| **D. Mukumova<br>S. Yarova** | 65 | Samarali hamkorlikni yaratishda boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish psixologiyasi |

## HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA

| | | |
|---|---|---|
| **B. Karimova** | 68 | O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kursantlari huquqiy tarbiya subyekti sifatida |

## MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

**X. Xakimjonova** 73 — Professional ta’lim muassasalari rahbar xodimlarining kasbiy kompetenligini andragogik yondashuv asosida takomillashtirishning samaradorligi

## PSIXOLOGIYA

**Sh. To‘raxonov** 78 — Harbiy oilalarda psixologik muhitning farzandlar tarbiyasidagi vatanparvarlik sifatlarining o‘rni

**S. Sadriddinov, G‘. Ikmatullayev** 82 — Axborot xurujining yoshlarga psixologik ta’siri

**O. Avlayev, U. Butayeva** 87 — Shaxs kamolotining psixologik determinanti

**N. Karimova** 92 — Pedagogning kasbiy kompetentligi darajasini diagnostika qilishning o‘ziga xos jihatlari

**X. Sharafutdinova** 95 — Oilaviy munosabatlar destruksiyasida kognitiv psixoterapiyani qo‘llash

**O. Eshmuradov** 100 — Oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishning zamonaviy psixologik omillari

**S. Almardanova** 103 — Talabalar kasbiy shakllanishi psixologik muammo sifatida

**T. Maratov** 107 — Identifikatsiya muammosining nazariy-metodologik tahlili

**B. Mamaradjabova** 111 — Shaxs o‘z-o‘zini anglashining psixologik tuzilmasi

## QIYOSIY PEDAGOGIKA

**S. Jo‘rayeva, M. Karimova** 115 — Harbiy xizmatchilar oilasida pozitiv ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish (Xoijiy tadqiqotlar misolida)

## XALQ PEDAGOGIKASI

**G. Qayumova, D. G‘afforova** 120 — Nikoh motivlari va oilaviy ajrimlarning ijtimoiy-psixologik omillari

## ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

**М. Комилова, Ф. Искандженова** 124 — Роль и критерии эффективности системы смешанного обучения студентов

**И. Ёкубова** 129 — Интерактивная программа “русский язык для военных юристов” как средство совершенствования профессиональной компетенции будущих военных юристов

**Х. Валиева** 134 — Особенности организации занятий русского языка в образовательных учреждениях

## ПСИХОЛОГИЯ

**Н. Разикова** 137 — Стрессоустойчивость педагога как субъекта профессиональной педагогической деятельности

**Г. Утенбаева** 140 — Учёт индивидуально-психологических особенностей будущих военных психологов с целью совершенствования речевой компетенции при обучении русскому языку

# PROFESSIONAL TA'LIM – IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH ASOSI

Professional ta'limning yangi, uzluksiz tizimi malakali o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash bilan birga jamiyatimizda inson resurslarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda O'zbekistonda yangi professional ta'lim tizimi mamlakat iqtisodiyotining har bir sohasiga, jamiyatning har bir bo'g'iniga, har bir oila, har bir fuqaro hayotiga daxldor yirik ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqeadir.

Professional ta'limda ish beruvchi korxona bilan ta'lim muassasalarining munosabati muhim ahamiyatga ega. Bu munosabat va maqsadlarni uyg'unlashtirishning yagona tizimi bo'lgan professional ta'lim standartlarida o'z aksini topadi. Ish beruvchi professional ta'lim tizimida ham buyurtmachi, ham pudratchi vazifasini bajarishi kerak. Chunki professional ta'lim standarti ish beruvchi tomonidan qo'yiladigan malaka talablarining barcha jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bir so'z bilan aytganda, ish beruvchi ta'lim beruvchiga ishonchli hamkor bo'lishi lozim.

Professional standart – ish beruvchining har bir ish o'rni yoki unga da'vogar bajaradigan mehnat vazifalari tafsiloti, tajribasi, kasbiy mahorati tavsifi, tasnifi (mehnat faoliyati natijasida yetishtirayotgan, ishlab chiqarayotgan mahsulot hamda ko'rsatayotgan xizmatlarining sifati) belgilangan me'yoriy hujjat. U o'zida xodimning bilim, ko'nikma va imkoniyatlarini aks ettiradi.

Yana bir muhim jihati shundaki, professional ta'lim standartida xodimning malaka darajasi aniq belgilangan bo'ladi. Eng asosiysi, ana shu malaka darajasi xodimning o'sishi va keyingi ixtisoslashuv darajasi yuksalishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda har bir ish o'rni va lavozimning vazifalari, tasnifi va uni samarali, muvaffaqiyatli bajarish uchun lozim bo'lgan ko'nikma, bilim va layoqatlilik yoritilgan malaka talablarining yangi tizimdagi me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Endi professional ta'lim dasturlarining mazmuni, ta'lim natijalari, ta'limning sifati shu me'yoriy asoslarga muvofiq shakllantiriladi. Bu tizim biz tayyorlayotgan mutaxassislarning ham mahalliy ham xorijiy mehnat bozori o'zgarishlariga moslasha olishiga imkoniyat yaratadi. Hozirgi paytda mehnat bozorida raqobat muhiti ancha keskinlashgan, korxonalarning ishchi yoki mutaxassis yollash tizimlari takomillashgan, talablar mutlaqo o'zgargan.

Bugun professional ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning istiqboli, samara va natijasi ish beruvchi va ta'lim muassasasining o'zaro

hamkorligiga, ishlab chiqarish va o‘quv jarayonining uzviyligi, milliy malaka tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishi, mukammal professional standart va sifatli ta’limga bog‘liq. Bu tizimning muvaffaqiyatli joriy etilishi yaqin istiqboldagi taraqqiyotimiz jadallashuvini ham belgilaydi.

Yoshlarni zamonaviy kasb egallashlari, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish ishlarini yanada jonlantirish hamda yangi professional ta’lim tizimining strategiyasi, asosiy ustuvor vazifalari belgilab berildi. Tizimning yangi strategiyasi mohiyati shuki, professional ta’lim muassasalarida tahsil oladigan har bir yosh, har bir shaxs hayotda o‘z o‘rnini topishi, avvalo, o‘zi daromad qilishi, shu orqali iqtisodiy yuksalishga xizmat qilishi, o‘z mehnati bilan hayoti farovonligini ta’minlab, pirovard natijada jamiyat rivojlanishiga munosib hissa qo‘shishi lozim.

O‘rta maxsus ta’lim tizimi isloh qilinishidan avval kadrlarni tayyorlashda davlat, jamiyat, iqtisodiyot, ishlab chiqarish korxonalari, ta’lim oluvchilar talablari inobatga olinmagan. Ishlab chiqarish korxonalari va ta’lim muassasalari bitiruvchilari soni mutanosibligi ta’minlanmagan. Ta’lim muassasalari o‘quv-uslubiy ta’minoti zamonaviy talablarga butunlay javob bermagan, tayyorlov yo‘nalishlariga oid o‘quv adabiyotlar mazmuni eskirgan hamda texnikaviy ta’minotiga umuman e’tibor berilmagan.

Professional ta’limda esa ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo‘lgan talablarini qondirish, mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash, asosiy maqsad qilib olingan.

O‘zbekistonda joriy yildan boshlab ilk bor milliy va tarmoq ixtisoslashuv tizimi, kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha professional standartlar va tabaqalashtirilgan ta’lim standarti va dasturlari joriy etilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mehnat bozori bilan ta’lim sohasi integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Professional ta’limni har tomonlama rivojlantirish mehnat bozori talablari asosida malakali o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlash imkoniyatini oshiradi. Ushbu jarayon davlat va jamiyat manfaatlariga mos kelgan holda shaxslarning bilim olish bo‘yicha huquqlarini amalda ta’minlash bilan ham ajralib turadi. Xalqaro ta’lim tizimi bilan O‘zbekiston ta’lim tizimini o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlash orqali bitiruvchilarning malakalarini xalqaro mehnat bozorida ham tan olinishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mehnat bozorida kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni shakllanishida va ish beruvchilarning talablarida ma’lumot darajasiga qo‘shimcha ravishda bitiruvchilarda amaliy ko‘nikmalar ya’ni tegishli kompetensiyalar mavjudligiga ishonch hosil qilish uchun har tomonlama puxta o‘ylangan ta’lim tizimini yaratishni taqozo etadi.

**Ruzimurat CHORIYEV**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti,
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori,
pedagogika fanlari doktori

# OLIY TA'LIM MUASSASASI FAOLIYATINI DUAL TIZIM ASOSIDA TASHKIL ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Annotatsiya**

Maqolada kasb ta'limida zamonaviy pedagogik va metodologik xususiyatlar, shuningdek, mavjud muammolarni va rivojlanish tendensiyalari; dual ta'lim tizimi mohiyatining metodologik kategoriyalari, uning muhandislik-pedagogika va kasbiy ta'limda qo'llanilishining o'ziga xosligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Duallik, metodologiya, fenomen, ishlab chiqarish ustalari, tendensiyalar, o'quv ustaxonasi, laboratoriya.

В статье рассматриваются современные педагогические и методологические особенности профессионального образования, а также существующие проблемы и тенденции развития; методологические категории сущности системы двойного образования, специфика ее применения в инженерно-педагогическом и профессиональном образовании.

**Ключевые слова.** Дуализм, методология, феномен, мастера производства, тенденции, учебный цех, лаборатория.

The article deals with modern pedagogical and methodological features in vocational education, as well as existing problems and development trends; methodological categories of the essence of the dual education system, the peculiarity of its application in engineering-pedagogy and vocational education.

**Key words.** Duality, methodology, phenomenon, masters of production, trends, training workshop, laboratory.

Pedagogikada "dual tizimi" tushunchasi ilk bor Germaniyada 1960-yillarda keyinchalik nemis tilida so'zlashuvchi bir qator mamlakatlar (Avstriya, Shveytsariya)da keng tarqalgan kasbiy ta'limni tashkil qilishning yangi shaklini ifodalash uchun qo'llangan.

Germaniyada kasbiy ta'limning dual tizimi o'z ichiga kasbiy ta'lim, kasbiy o'qitish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq rasmiy tan olingan ta'limning ikkita mustaqil sohiblariga tegishli tashkiliy va huquqiy munosabatlarini o'z ichiga oladi. Mazkur tizim bitta maqsad – ta'lim oluvchilarni kasbiy tayyorlashni amalga oshiruvchi ikkita turli muhiti, ya'ni xususiy muassasa va davlat ta'lim maktablarini o'z ichiga oladi.

Muassasaning o'quv-ishlab chiqarish muhiti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— mehnatiga qisman haq to'lash sharti bilan ta'lim oluvchi uchun ish o'rni;

— o'quv ustaxonasi va laboratoriya;

— ishlab chiqarish ichidagi ta'lim.

Kasbiy maktabning o'quv ishlab chiqarish muhiti quyidagilarni nazarda tutadi:

— o‘quv sinfi;
— ustaxona (yoki laboratoriya).

Muassasada kasbiy ta’limning didaktik asosini “Kasbiy tayyorgarlikni tashkil qilish to‘g‘risida”gi Nizomda nazarda tutilgan uchta asosiy unsur tashkil qiladi:

— o‘qitilayotgan kasbning tavsifi;
— ta’limning namunali rejasi;
— imtihonlarga bo‘lgan talablar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “dual tizim” tushunchasi birinchi bor kasbiy ta’lim olayotgan o‘quvchilarning qismiga tarqaladi. Kelgusida ta’lim kasbiy malakani oshirish bosqichida amalga oshiriladi.

Dual tizimida ikkita o‘quv ishlab chiqarish muhiti – muassasa va maktabning pedagogik o‘zaro aloqadorligini izlash amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda ta’lim o‘quv ishchi o‘rinlarida, kasb-hunar maktablarida esa ta’lim o‘quv xonalarida o‘quv mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi.

Muassasada o‘qitish ko‘pincha kasbiy-amaliy xususiyatga ega bo‘lsa, kasb-hunar maktablarida u ko‘proq kasbiy-nazariy yo‘nalishga ega bo‘lib, o‘rta umumta’limni davom ettirilishini nazarda tutadi. Shu bilan bir vaqtda kasbiy malakalar tobora nazariy jihatdan murakkablashib ketayotgan zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida ko‘rsatib o‘tilgan farq borgan sari yo‘qolib bormoqda. Agar avval muassasada “nima” “qay tarzda”, maktabda esa “nimaga” egallansa, bugungi kunga kelib, muassasada bilim va ko‘nikmalar tobora o‘sib borayotgan nazariy ma’no-mazmun kasb etadi.

Bundan tashqari, o‘qitishning mazkur shakllari o‘zaro kesishadi. Ularning kesishish sohasida bugungi kunda katta ahamiyatga ega bo‘lib borayotgan soha bor. U ham bo‘lsa – laboratoriya sifatida jihozlangan maxsus xonalarda eksperimental-konstruktiv o‘qitishdir. Faraz qilinadiki, o‘z tasarrufida yuqori malakali o‘qituvchilarga ega bo‘lgan kasb-hunar maktablari texnologik tajriba-eksperimentlar va loyihalash bo‘yicha mashqlarni tashkil etishni o‘z zimmasiga oladi.

Kasb-hunar maktabida ta’lim faqat alohida federal o‘lka uchun haqiqiy bo‘lgan dasturlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bu har bir o‘lka muayyan o‘quv kasb-hunariga o‘qitishda faqat o‘zining o‘quv dasturiga tayanadi, degan ma’noni bildiradi. Shunday bo‘lishiga qaramay, bunday dasturlar taxminiy dasturlar asosida yaratilib, alohida tarkibiy tuzilma – federal o‘lkalar madaniyat va ta’lim vazirlarining doimiy konferensiyasi (KMK) darajasida tuziladi va kelishiladi. Taxminiy o‘quv dasturi u yoki bu federal o‘lka darajasida o‘quv dasturini tuzishda tavsiyaviy xususiyatga ega. Bunda u o‘zgarishsiz qabul qilinishi yoki tegishli o‘quv kasb-hunar uchun o‘z o‘quv dasturining asosiga aylanishi mumkin. Dual tizimda maktab ta’limini huquqiy nazorat qilish federal madaniyat va ta’lim vazirligi hamda tegishli federal o‘lkaning unga bo‘ysunuvchi instansiyasiga yuklangan bo‘lishi va agar mavjud bo‘lsa, hududiy qonunlar bilan tartibga solinishi mumkin.

Boshqa tarafdan, hech kimni muayyan kasb-hunarga muayyan korxonada o‘qishga majbur qilib bo‘lmaydi. Shaxsiy ehtiyojlar ham kasb-hunar ta’lim dual tizimining amal qilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Korxonalar ta’lim oluvchilar kasblarda turli ehtiyoj sezadilar, shuning uchun ushbu talab turli vaqtlarda turlicha o‘zgarib turadi. Shu bois tabiiyki, bir kasblarga talab ko‘payganda, boshqa kasblarga qiziqishning kamayishi bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi. Bunda ko‘pincha mazkur talab mehnat bozorining ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Mazkur holatga qaysidir ma’noda faqat kasbga yo‘naltirish tizimi orqali ta’sir qilish mumkin bo‘lib, u kasbni yakka tartibda tanlashga yo‘naltiradi.

Kasbiy ta’limda dual tizimning boshqa muammosi korxona va kasb-hunar maktabi orasida ta’lim mazmunida yetarlicha o‘zaro muvofiqlikning yo‘qligidan kelib chiqadi. Muvofiqlik muammosi mazkur tizimning tarkibiy tuzilishining o‘zidan yaqqol ko‘rinib turadi. Jumladan, ikkita o‘quv ishlab chiqarish muhiti (korxona va kasb-hunar maktabi) ma’muriy va huquqiy nuqtayi nazardan umuman bir-biridan ajralib qolgan. Korxona va kasb-hunar maktabi ikkita mustaqil tashkilot bo‘lib, ular bir birlariga bog‘lanmagan holda faoliyat yuritishi mumkin. Umumiy vazifa – korxonada ta’lim oluvchilar va kasb-hunar maktabida o‘quvchi sifatida o‘qiyotgan odamlarga kasbiy ta’lim berishdir. Biroq bunda bir sinfda turli korxonalardan kelgan ta’lim oluvchilar bo‘lishi mumkin. Basharti mazkur korxonalarda ta’lim berishda faqat buyurtmani bajarishga o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ta’lim oluvchilar turli darajadagi kasbiy-amaliy bilimlarga ega bo‘ladilar. Ba’zilar uchun o‘z mazmuniga ko‘ra kasbiy-nazariy bilimlar kasbiy-amaliy bilimlardan o‘zib ketadi, ba’zilar uchun – ular o‘zaro bir maromda boradilar, uchinchilar uchun esa – ular orqada qolganlar.

Umuman olganda, turli dual tizim segmentlarida ta’lim mazmunini muvofiqlashtirish muammosini hal qilish mumkin, biroq, amaliyotning ko‘rsatishicha, u mahalliy tuzilmalarga borib taqaladi.

Dual tizimning yana bir sezilarli muammosi – bu korxonalar darajasida kasbiy tayyorgarlikning turli sifatga ega bo‘lishi muammosidir. Mazkur tafovutlar bir o‘quv kasbidan boshqasiga qadar kuzatilib, kasbiy ta’lim amalga oshirilayotgan korxona turiga qarab, o‘quv kasbining ichida mavjud bo‘lishi mumkin. Yirik korxonalarda o‘quv ustaxonasida tizimli ta’lim bir yildan ortiq, ba’zida ikki yil va undan ortiq davom etishi mumkin.

Shuningdek, sifat tafovutlari kasbiy maktablar orasidagi moddiy-texnik ta’minlanganlik va o‘qituvchilar shtati bilan jamlanganlikda ifodalanishi mumkin.

Korxonalardagi ta’limning turli sifatiga javoban, yuqorida tilga olingan ishlab chiqarishlararo o‘quv markazlarini yaratish hisoblanadi. Mazkur markazlarda kasbiy ta’limni amalga oshiruvchi korxonalarda olib borib bo‘lmaydigan kasbiy-amaliy bilim va ko‘nikmalar olinishi mumkin.

Dual tizim muammosi qatoriga kasbiy ta’lim bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarni bajarishda korxonalarda ta’lim oluvchilardan foydalanish holatini kiritish mumkin. Tekin yoki arzon ishchi kuchi sifatida foydalaniladigan ta’lim oluvchi bunda yetarlicha kasbiy tayyorgarlikni o‘tay olmaydilar. Ta’lim oluvchilarni bu kabi suiste’mol qilish holati ko‘proq kichik korxonalar uchun xosdir. Kasbiy ta’limni amalga oshiruvchi korxona qanchalik katta bo‘lsa, tizimli ta’lim berish imkoniyati shunchalik ortadi. Biroq boshqa tarafdan, korxona qanchalik katta bo‘lsa, bugungi kunda ta’lim oluvchilarga ishlab chiqarishda qatnashish va kasbiy talablardan kelib chiqqan holda tayyorgarlik o‘tash shunchalik murakkablashadi.

Bizning tadqiqotimizda oliy ta’lim muassasasida muhandis-pedagogik kasbiy ta’limning dual tizimini tashkil qilish konseptual-nazariy va didaktik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Nazarimizda, kasbiy ta’limning mazkur sohasi uchun dual model muhandis-pedagogik kasbiy ta’lim xususiyatidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir, zero, faqat ta’lim sohasining vositalari bilan jamiyat va ishlab chiqarishnng muhandislik sohasida kasbiy ta’lim kadrlariga bo‘lgan obyektiv ehtiyojini qondirib bo‘lmaydi. Ayniqsa, texnika oliy ta’lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash haqida so‘z yuritilganda, kasbiy ta’limni tizimli tashkil qilishning ushbu modeli ta’lim maqsadlariga ko‘proq mos keladi.

Bundan tashqari, kasbiy-pedagogik ta’lim uchun dual tizimning maqsadga muvofiqligining yana bir sababi shundaki, mazkur ta’lim sohasi birinchi navbatda

yo‘naltirilgan kasbiy-texnik ta’lim tizimi ham kasbiy ta’limning dual modelini amalga oshirish maqsadida rivojlanayapti, garchi uning mamlakat ta’lim va ishlab chiqarish sohasining tashkiliy-normativ shart-sharoitlariga moslashuvi sezilarli urinishlarni talab etadi. Yana bir narsani qayd etish muhimki, ta’lim oluvchilarni “toza” ishchi kuchi sifatida suiste’mol qilish ehtimolining mavjudligi holati, agar biror ishni bajarish mobaynida ta’lim oluvchining manfaatlari hisobga olinmagan sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, mazkur muammo o‘qitilayotgan kasb-hunar va ta’lim berayotgan korxonaning turiga qarab, turlicha ahamiyat kasb etadi. Odatda, korxonada ta’lim oluvchilar jalb etiladigan bir maromdagi, takrorlanadigan va holdan toydiradigan faoliyat turlari, haqiqatdan ham kasbiy ta’lim vaqtida o‘rganilishi zarur.

Afzalliklardan biri shundaki, dual tizimda unga muqobil bo‘lgan kasb-hunar ta’limidan farqli ravishda, ta’lim kasbiy amaliyot bilan bog‘liq. Kasbiy-amaliy bilim va ko‘nikmalarni muassasa ustaxonasida ham o‘zlashtirish mumkin bo‘lsada, ularni real voqelikka mos ravishda ishlatmay, aksincha, amaliy qo‘llanishini qolip tarzida olish mumkin. Bu esa faqat korxonada o‘qitishda ehtimolli bo‘ladi.

Shunisi muhimki, zamonaviy ishlab chiqarishda doimiy ravishda yuz berayotgan texnologik o‘zgarishlar korxonada tez hisobga olinadi va kasbiy ta’limga tez kirib keladi. Korxona kelgusida taraqqiy etishi uchun bozor ehtiyojlariga mos ravishda mahsulot ishlab chiqarishi zarur, bu esa yangi texnikani tez joriy qilishni talab qilib, u o‘z navbatida, kasbiy ta’limda bir muncha tez qo‘llanila boshlashi zarur. Kasbiy ta’limning ta’lim tizimi texnologik o‘zgarishlarga sustroq javob beradi.

Kasbiy ta’lim dual tizimining ikkinchi afzalligi shundaki, yoshlar kattalar hayotiga tez kirib keladilar, aynan shu orqali ta’limni bu kabi tashkil qilishning tarbiyaviy ahamiyati ortadi. Kasbiy ta’lim davomida ishchi brigadasida o‘z ish joyida bo‘lgan yosh yigit yoki qiz jiddiy ishlab chiqarish holatlaridagi o‘z mehnat faoliyati orqali o‘zi, atrofdagi boshqa insonlar, ishlab chiqarish muammolari, umuman ishlab chiqarishning o‘zi va uni tashkil qilish yo‘llari haqida ko‘p narsani bilib oladi. Korxonadaga ta’lim olayotgan shaxs oddiy o‘quvchi emas, aksincha mas’uliyat va ijodiy tarzda amal qiladigan mustaqil insondir. U ta’lim olish jarayonida to‘liq o‘quv haftasiga ega ta’lim muassasasi ta’lim tizimi bera olmaydigan haqqoniy munosabatlarni bilib oladi. Mazkur haqqoniy munosabatlar funksional pedagogik tarzda amal qiladi, aksincha, ta’lim muassasasi ko‘proq intensional-pedagogik tarzda amal qilishga qodir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Чориев Р. Совершенствование методики подготовки специалистов профессионального образования к профессиональной деятельности на базе дуальной системы. Автореф. дисс… док.пед.наук. – Т.: 2021. – С. 35-43.

2. Берсенев М.П. Европейская концепция организации непрерывного образования // Теория и практика профессионального образования: педагогический поиск / Под ред. Т.Д. Бухаровой; ГОУ ВПО “Рос. гос. проф.-пед. унт”. – Екатеринбург, 2007. – Вып. 8. – С. 18-24.

3. Гейжан Н.Ф. Психолого-педагогические основы индивидуализации профессионального воспитания учащихся профессиональных учебных заведений: Автореф. дис.... д-ра пед. наук. – СПб, 1995. – С.54.

4. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс… док.пед.наук. – Т.: 1995. – С.43.

**Zuxra ISMAILOVA,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, pedagogika fanlari doktori, professor
**Mohinur MAMATALIYEVA,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti magistratura talabasi

# PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TURLARI VA DARS MODULLARI

**Annotatsiya**

Maqolada ta’lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o‘tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib borishi hamda inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari ulardan ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya’ni texnologiyalarning takomillashishi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Texnologiya, modul, emperik, kognitiv, kommunikatsiya, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv.

В статье говорится о том, что в результате расширения содержания, целей и задач образования с течением времени совершенствуются как его формы, так и методы, а также совершенствуются целостные системы, то есть технологии, позволяющие в полной мере реализовать цели, предусмотренные основными направлениями человеческой деятельности.

**Ключевые слова.** Технология, модульная, эмпирическая, когнитивная, коммуникативная, эвристическая, креативная, инверсионная, интегративная, адаптивная, инклюзивная.

The article says that as a result of the expansion of the content, goals and objectives of education, both its forms and methods are improved over time, as well as holistic systems are improved, that is, technologies that allow to fully realize the goals provided for by the main directions of human activity.

**Key words.** Technology, modular, empirical, cognitive, communicative, heuristic, creative, inversion, integrative, adaptive, inclusive

Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab, XX asrning o‘rtalarida AQShda paydo bo‘lib, 1940-1950-yillar o‘rtasigacha “Ta’lim texnologiyasi” deb yuritilib kelingan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o‘qitishga nisbatan qo‘llanilgan. 50-60-yillarda programmalashtirilgan ta’lim nazarda tutilgan, 70-yillarda “pedagogik texnologiya” iborasi qo‘llanilib u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o‘quv jarayonini bildirgan. 1979-yilda AQShning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan Pedagogik texnologiyani kompleks, integrativ jarayon deb asoslangan. 80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb, ta’lim sohasining kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratish nazarda tutlgan.

Hozirda bu tushunchaga quyidagi turli ta’riflar berilgan: Texnologiya – biror ishda, san’atda, mahoratda qo‘llaniladigan usullar, yo‘llar yig‘indisi. Texnologiya – ishlov berish, ahvolni o‘zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyati metodlar yig‘indisi.

(V.M.Shepel). Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantiruvchi jarayondir. (N.Saydaxmedov).

Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning quyidagi eng qisqa va umumlashtirilgan ta’rifini keltirishimiz mumkin: “Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakllantirish faoliyatidir”. Shu bilan birga pedagogik texnologiyaning keng ko‘lamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta’riflarini keltirishimiz mumkin.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya haqidagi aniq tushuncha va tasavvurlar kamligi tufayli, uni xususiy metodikalar bilan deyarli tenglashtirish hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo‘lib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi. Pedagogik texnologiya – o‘quvchini mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Metodika – o‘qituvchining bilimi, ko‘nikmasi mahorati, shaxsiy sifatlari, temperamentiga bog‘liq bo‘lib, ma’lum shaxs o‘qituvchi uchun qulay bo‘lgan o‘qitish usullari va yo‘llari majmuasidir. U alohida metodikalarga ajratiladi. Pedagogika fani ma’lum o‘quv fanlarini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

1. Ta’riflar. Pedagogik texnologiya – insonga oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’limiy va tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iborat. Metodika – ma’lum o‘quv fanini o‘qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq etadi.

2. Maqsad. Komil insonni shakllantirish alohida o‘quv fanlarini o‘qitish va tarbiyaviy ishlarni sifatli bo‘lishini ta’minlash.

3. Qo‘llash. Barcha ta’lim-tarbiya jarayonida xususiy fanlarni o‘qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda qo‘llaniladi.

4. Vositalar. Barcha ta’limiy va tarbiyaviy vositalar xususiy metodikalar. Alohida o‘quv fanlarini o‘qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda qo‘llaniladigan vositalar.

5. Pedagogik jarayon. Ta’lim-tarbiya texnologiyasi asosida, ta’lim menejmenti va marketingi asosida, ta’lim-tarbiya sohasidagi ilg‘or tajribalarni umumlashtiruvchi loyihalar asosida rivojlanib boradi. Yetarli tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan qo‘llanganda o‘zaro o‘xshash natijalar olinishi ta’minlanadi. Ta’lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o‘qituvchilarning ilg‘or tajribalariga tayanib rivojlanadi. Xususiy tajribalar asosida boyitib boriladi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi har bir pedagogning natijasi har xil bo‘ladi.

6. Natija kafolati. Oldindan belgilangan maqsadga erishish kafolati bor. Oldindan belgilangan maqsadga har bir o‘qituvchi o‘z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o‘qituvchilargina yaxshi natijalarga erishadi.

7. Kelib chiqishi. Xususiy metodikalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o‘qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e’tiborni nimaga qaratilishida farqlar mavjud. Texnologiyalarda ko‘proq prossesual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo‘naltiruvchi tomonlari ko‘proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o‘zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg‘unligi, ko‘plab “agar”lar (agar o‘qituvchi iste’dodli, agar bolalar qobiliyatli bo‘lsa, agar yaxshi ota-onalar bo‘lsa) yo‘qligi bilan farq qiladi.

Hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo‘nalishlari ham mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardan iborat. Bu yo‘nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Empirik – (tajriba) sezgi a’zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e’tibor sezgi a’zolarining tabiiy rivojlanganlik imkonyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv – (bilishga oid) atrofdagi olam to‘g‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik – (haqiqatni topish) yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilan ta’lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o‘quv-izlanish ta’lim metodi.
Kreativ-(ijodiy) tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi. Inversion – (almashtirish) axborotlarni turli tomondan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ – (yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash.

Adaptiv – (moslashtirish) axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv – (tenglik) o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida ta’lim tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qishini tashkil qilish pedagogik texnologiyasi. Pedagogik texnologiyaning asosiy yo‘nalishlari hozirgi an’anaviy ta’limni turli yo‘nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda rivojlanib bormoqda. Turli fan o‘qituvchilari tomonidan har bir o‘quv fanining asosiy xususiyati, mazmunining tarkibi, amaliy, nazariy qismlarining nisbatiga muvofiq ravishda eng qulay pedagogik texnologiyalarning empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv va boshqa yo‘nalishlarini to‘g‘ri tanlash jiddiy ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiya materiallarini modullariga ajratish modullashtirish jarayoni bilan, kichik modul, modullar to‘plami, birlamchi modul va modul darajasi tushunchalaridan foydalaniladi va quyidagicha ta’riflanadi:

– kichik modul – pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlikni ifodalaydi. Amalda bunday kichik modulni tashkil qiluvchi boshqa kichik modullarga ajratish mumkin emas deb hisoblanadi.

– birlamchi modul – pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlashga dastlabki modul sifatida tanlangan va o‘z tarkibiga bir yoki bir nechta kichik modullarni oladigan modul.

– modullar to‘plami – pedagogik texnologiyani biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yig‘indisi. Bundan tashqari, bir nechta turdosh o‘quv fanlarini yoki ayrim fanlarni o‘qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar; DTSning tarkibiy bo‘laklarini va ularni bajarish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar; o‘quv reja va dasturlarning tarkibiy bo‘laklarini va ularni bajarish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar;ta’lim vositalarini tashkil qiluvchi modullar; pedagogik texnologiya jarayonida qo‘llaniladigan usullarni tashkil qiluvchi

modullar. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim-o‘quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta’lim texnologiyasida har bir o‘quvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega. O‘quvchi-o‘qituvchi hamda o‘quvchi-o‘quvchi hamkorligi ko‘zda tutilgan ijobiy natijalarni beradi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilarini ko‘rib chiqamiz.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishning quyidagi asosiy mezonlari mavjud:

1. Har bir o‘quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.

2. Ta’limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o‘quvchi o‘zini shaxs deb sezsin, unga bo‘lgan e’tiborni tuysin.

3. Bolaga tazyiq o‘tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo‘rttirmaslik, bilimlarni o‘zlashtirmasligi, o‘zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish.

O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini ta’lim – tarbiya jarayonida hisobga olish, ularning shaxsiy sifatlarini bilish, tahlil qilishga yakka tartibda yondashishda hozirgi yosh psixologiyasi va pedagogikasining qoidalari va talablaridan kelib chiqiladi. Bunda o‘quvchilarning bir - birlariga nisbatan tayyorgarliklari, qiziqishlari va fanlarni turlicha o‘zlashtirishlari bilan farqlanishini hisobga olish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda o‘qituvchilarning ham bir-biridan o‘qitish uslubi, o‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish bo‘yicha farqlanishini hisobga olgan holda har bir o‘qituvchining ma’lum vaqt davomida optimal natijaga, ya’ni o‘quvchilarning ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtirishlariga erishish yuzasidan individual yondashuvlari mavjud.
O‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish asosida shu sifatlarni ijobiylashtirish va rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun darsda o‘quvchilarga mustaqil vazifalar berish, ularning mustaqil xulosalar chiqarishlarini, bir-birlaridan o‘rganishlarini tashkil qilish, ularning o‘qishlari uchun qulay muhit yaratishga alohida e’tibor berish talab qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xamidov J.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2017-y.

2. Tolipov O‘.Q. Pedagogika jarayonini loyihalash texnologiyasi. Uzluksiz ta’lim, 2004. №4 – 3-10 b.

3. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss. ... ped. fan. nomz. – T., 2000. – 186 b.

4. Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni modul texnologiyasi asosida o‘qitish. Kasb-hunar ta’limi. – 2004. – 14-15-betlar

**Sohibjamol JO‘RAYEVA,**
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, psixologiya fanlari nomzodi, “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi dotsenti
**Burxon TURSUNOV,**
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi, podpolkovnik
**Salim JUMAYEV,**
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, “Sohaviy huquqiy fanlar” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

# ZAMONAVIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOG IMIJINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada bugungi kunda oliy ta’lim tizimidagi pedagog imijini mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida har tomonlama ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari, zamonaviy ta’limni rivojlantirishda pedagog imijini shakllantirishga qo‘yilgan asosiy talablar, hamda, ularning samaradorligini oshirish masalalariga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar.** Dinamika, imij, kompetentlik, ta’lim, mahorat, pedagog, axborot, zamonaviy, diagnostik, jamiyat, sifat, kommunikatsiya.

В данной статье рассматриваются вопросы комплексных мер социального развития в высших учебных заведениях нашей страны, основные требования к формированию педагогического имиджа в условиях развития современного образования, а также вопросы повышения их эффективности.

**Ключевые слова.** Динамика, имидж, компетентность, образование, мастерство, педагогика, информация, современность, диагностика, общество, качество, коммуникация.

This article focuses on the issues of comprehensive social development measures in the higher educational institutions of our country, the basic requirements for the formation of the pedagogical image in the development of modern education, as well as the issues of increasing their effectiveness.

**Key words.** Dynamics, image, education, skill, pedagogic, information, modern, diagnostic, society, quality, communication.

Oliy ta’limni axborotlashtirish, axborot tengligi, ta’lim resurslaridan erkin foydalanish holati va oliy maktab amaliyotida masofaviy ta’limdan foydalanish zamonaviy pedagoglarni axborot eksklyuzivligidan mahrum qiladi va o‘z sa’y-harakatlarini pedagogik faoliyatning boshqaruv funksiyasiga qaratadi. Axborotlilik pedagogik muloqotning xususiyati va turli xil axborot turlarini uzatish va qabul qilish uchun kasbiy ehtiyoj sifatida (nafaqat mavzu, balki diagnostik, hissiy boshqaruvga turli ijtimoiy-madaniy tajribadagi farqlar tufayli nuqtai nazarlar) shuni talab qiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimining rivojlanishi bilan yosh oralig‘i trening ishtirokchilari soni

kengroq bo‘ladi, bu esa oliy maktab pedagogini yosh bilan bog‘liq holatlarini talab qiladi, axborot-kommunikatsiya ehtiyojlari dinamikasini hisobga olgan holda ularni qondirish yo‘llari, shaxsiy rivojlanishning turli bosqichlarida hissiy, kognitiv va nutq sohalarining xususiyatlarini bilishga olib keladi.

Talabalarning yo‘nalganligi va tabiatiga qarab samara beradigan pedagog imkon qadar samarali kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniga ega zamonaviy pedagog kompetentligidir.

Zamonaviy pedagog kompetentligi deganda – pedagogning turli ziddiyatli holatlarni hal qilishi mumkin bo‘lgan ijobiy, samarali imijga ega bo‘lishi, turli pedagogik vaziyatlarda o‘zining taassurotlarini boshqarishga, o‘zaro ta’sir ya’ni imij malakasiga ega inson tushuniladi.

V.M.Shepel “imij – bu inson hayotidagi eng muhim shakl, belgi, shu tufayli odamlar kuchli shaxsiy va ishbilarmonlik xususiyatlarini namoyon qiladilar” deb ta’kidlab o‘tgan.

Imij – muayyan umumlashtiruvchi mavjud shaxsning xususiyatlari, uning barqaror individual sifatlari, vaqt tufayli muayyan qatlamga mansub, tipik yashash sharoitidir. Imijning asosiy qismi unda xulq-atvor, imo-ishoralar va yuz ifodalari eng ta’sirli qismi hisoblanadi.

Imij deganda, aqliy tafakkur natijasi tushuniladi, obyektiv hodisaning, inson obyektiv borliqni idrok etish asosida axborotni siqib chiqaradi, uning yaxlit, umumlashgan imiji shakllanadi.

Imijning muhim xususiyatlarini tahlil qilish, ta’kidlangan G.G. Zmanovskaya Pereligina Pochepsov va hokazolar quyidagicha talqin qiladi:

– imij faoliyati, uni idrok etuvchilarning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati subyektlar va shu bilan birga uning ijtimoiy mazmuniga bog‘liqligi idrok predmetlarining in’ikosi va stereotiplari;

– informatsion imij, ko‘rsatilgan narsalar haqida ma’lumot berish qobiliyati sifatida namoyon bo‘lishi;

– haqiqiy yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin bo‘lgan mavzu;

– yaratilishdagi kombinatsiyaning aqliy va hissiy jihatlar imijini idrok etish;

– dinamizm, imijning moslashuvchanligi;

– imijning belgisi ifodalangan imij sifatida fan va ta’lim masalalarini o‘z ichiga oladi.

Imijning mohiyati talabaning hissiy sohasiga pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalari va bu orqali ta’limda uning ongi, xulq-atvori, faoliyati to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishga erishiladi.

Texnologiyalarni qo‘llashda ko‘proq pedagogning muhim kasb-hunar faoliyati motivlari yotadi. Oliy ta’limda samarali o‘qitish uchun zarur bo‘lgan kompetentlik turlarini tahlil qilishda muvaffaqiyatli ishlaydigan pedagoglar borligini aniqlay olish quyidagilarda ko‘rinadi:

a) talabalarning shaxsiy sifatlarini aks ettirish va ularga g‘amxo‘rlik qilishni rivojlantirish;

b) bilish, oldindan ko‘rish va reaksiyasini hisobga olish;

v) namoyish etish o‘z imkoniyatlarini va qadriyatlarni, shaxsiy fikrlash yo‘llarni chuqur bilishi va tajribaga ega bo‘lishi;

d) tashqi ijtimoiy omillarni tushunishi. Schneider, Klemp va Kastendiek, shuningdek, tergov pedagoglar samarali mehnat qilishlari zarur bo‘lgan xislatlardir.

Ta’lim oluvchi bilan subyekt-subyekt munosabatlarini qurishning eng maqbul yo‘li gumanistik markazlashtirishdir. Pedagogning talabani individuallashtirishi, uning kas-

biy va shaxsiy mayllarini aniqlash jarayoniga qaratilgan ishi, ijobiy shakllanishi va rivojlanishi, kasbiy o‘z-o‘zini anglashi alohida o‘rin tutadi.

Oliy ta’lim pedagogining zamonaviy imiji ko‘p funksiyali faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va tinglovchilarning psixologik xususiyatlari, uning yo‘nalganligini aks ettiradi.

Pedagogik qulaylik yaratishda ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, ta’lim sifatini mahsuldorligini oshirishda kasbiy-pedagogik jarayon mavzularini maxsus uslubidan kelib chiqqan holda pedagoglarning muloqoti va shaxsi shakllantiriladi.

Funksional e’tiborga ega bo‘lgan pedagog imiji psixologik qulaylik yaratish orqali” “talaba bilan muloqot qilish”, “uyushgan muloqotda ishtirok etish”, “yuksalish” kabi ifodalangan shart-sharoitlar talaba yaqin kelajakda erisha oladigan darajaga erishadi.

Oliy ta’lim pedagogining imij vakolatlari hali juda muhim mavzuga aylanmagan, olimlarning ilmiy tafakkurlari, salohiyati, o‘zini namoyon qilishi va jamiyatdagi roli biz istagan holatda emas.

Bugungi kunda oliy ta’limda rivojlangan pedagogik voqeliklar oliy ta’lim pedagogining qo‘shimcha kasbiy tayyorgarligini zamon talablariga mos ravishda amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Bizning fikrimizcha, oliy ta’limni rivojlantirishning yangi sharoitida imij kompetensiyasi oliy ta’lim pedagogi kasbiy mahoratining zarur tarkibiy qismiga, pedagog idrokining yuqori darajasini ta’minlaydigan psixologik va pedagogik kompetensiyaning o‘ziga xos turiga aylanadi va u uzatadigan bilim va qadriyatlar ta’lim jarayonining turli subyektlari (talabalar, hamkasblar, ma’muriyat) orasida o‘z aksini topadi.Yuqori darajadagi kasbiy vizual va muloqot qobiliyatlari shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilishi mutaxassis kasbiy madaniyatining zaruriy tarkibiy qismi bo‘lib, uning asoslarini shakllantirish kasbiy tayyorgarlik tizimiga kiritilishi lozim.

Shunday qilib, pedagogning xatti-harakati modelini tanlash uning imijini shakllantirishda omil sifatida tushuniladi. Xulq-atvor yaratish uchun quyidagi mezonlarga e’tibor qaratish lozim:

– axloqiy mukammallikni, halollik, adolatlilik, vijdonlilik va ularning qat’iyatliligi kabi tushunchalarni to‘g‘ri talqin qilish, insoniy xulq-atvor modelini tanlash to‘g‘riligining ma’naviy kafolati hisoblanadi. Inson o‘ziga xos vaziyatlarni hisobga olgan holda yoki vaziyatni tasodifan topishi orqali o‘zini rivojlantiradi. Xulq-atvor modelini optimallashtirishning eng muhim sharti vaziyatni intuitiv baholashdir.

Insonning oldiga qo‘ygan maqsadi, maqsadni izchil qurilgan vazifalarga ajratish foydalidir, shuning uchun ularni amalga oshirishda unga qo‘yilgan muhim qadam hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jo‘rayeva S.N. O‘qituvchining malaka va kasbiy kompetensiyasini baholash/ Monografiya. Navro‘z nashriyoti, 2018. –144-b.

2. Баранова В. А. Имидж личности как социально – психологическое явление // Магистр. –1994. – № 2. – С. 29.

3. Берд П. Продай себя. Тактика совершенствования вашего имиджа. – Мн.: Амалфея, 1997. – С.208.

4. Дейвис Ф. Ваш абсолютный имидж. – М.: Внешсигма, 1997. – С. 320.

5. Криксунова И. Создай свой имидж. – СПб: Лань, 1997.

6. Шепель В.М. Имиджеология: секреты личного обаяния. –М., 1997.

**Gulnora ARIPOVA,**
Toshkent kimyo texnologiya instituti, “Kasb ta’limi” kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

# O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya**

Maqolada Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi huzuridagi Milliy markazlar tasarrufidagi turli millat va turli dinlarga mansub o‘zbek millatidan boshqa yoshlar o‘rtasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik (MT va DB) asosidagi maqsadli pedagogik jarayonni tashkil qilish xususiyatlari va olingan amaliy natijalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik, shakllantirish, milliy markazlar, yoshlarga oid xususiyatlar va yoshlar qadriyatlari.

В статье рассматривается вопрос о формировании межнационального согласия и конфессиональной терпимости (МС и КТ) на базе деятельности национальных центров при Комитете межнациональных отношений и обществ дружбы с зарубежными странами при Кабинете Министров, так как целенаправленная работа с молодежью этой категории групп не проводилась.

**Ключевые слова.** Межнациональное согласие и конфессиональная терпимость, формирование, национальные центры, специфика молодежи и их ценности.

The article discusses the issue of the formation of interethnic harmony and confessional tolerance (IH and CT) on the basis of the activities of the National Centers under the Committee for Interethnic Relations and Societies for Friendship with Foreign Countries under the Cabinet of Ministers, since purposeful work with young people of this category of groups was not carried out.

**Key words.** Interethnic harmony and confessional tolerance, formation, national centers, the specifics of youth and their values.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20-sentabr 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlangan nutqida BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish va Bosh Assambleyaning “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi berilgan edi. “*Bu hujjatning asosiy maqsadi — barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat*” qilib belgilandi.

XXI asr dunyo miqyosida inson huquqlarini ta’minlash barcha davlatlar siyosatining asosiy indikatoriga aylanishi, globallashuv oqibatida odamlar yashash tarzining

unifikatsiyalashuvi, shuningdek, siyosiy, milliy, madaniy va diniy plyuralizm, xalqaro integratsiya kuchayishi bilan belgilanmoqda. Globalizatsiya ijtimoiy o‘zgarishlarning makrofaktori bo‘lib, ijtimoiy jarayonlarning intensiv tarzda amal qilishi, jamiyat a’zolarining turli manfaatlarini ifodalovchi kuchlarning faollashuvini taqozo etmoqda. Bu obyektiv shart-sharoitlarning o‘zgarishi barcha dunyo davlatlari qatorida O‘zbekistonda ham bugungi davrda yoshlarda Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tafakkurini shakllantirish jarayoni xususiyatlarini o‘rganishni taqozo etmoqda.

Tolerantlikni zamonaviy tushunish va anglash jarayonlari 1995-yili 16-noyabrda Parij shahrida YUNESKO tashkilotining yigirma sakkizinchi Sessiyasida 185 ta dunyo davlatlari ishtirokida “Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi” imzolanishi bilan boshlangan bo‘lib, mazkur hujjat YUNESKO tashkilotining Bosh Assambleyasi konferensiyasining 5.61 Rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan. Deklaratsiyada (MT va DB) dunyo rang-barangligi asosidagi shaxs erkinligi va inson huquqi muhofazasi sifatida baholanadi, yoshlarni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash esa barcha davlat hukumatlari va milliy ta’lim tizimlari zimmasidagi bosh vazifalardan biri ekanligi ta’kidlanadi.

Mazkur muammolarni hal etish yo‘llaridan biri sifatida yoshlarda Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tafakkurini shakllantirish ekanligi e’tirof etilmoqda.

Binobarin, xalqaro miqyosdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, mamlakatdagi strategik vazifalar talabi millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tafakkurini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan ekanligini namoyon etadi. Mamlakatimizda tinchlik va taraqqiyotni aslida milliy totuvlik va diniy bag‘rikenglik tafakkurini shakllantiruvchi pedagogik tizimni yaratmasdan turib, samarali hal etib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, yoshlarning ichki dunyosi, ularning orzu havaslari, asl qadriyatlari va intilishlari zamonaviy jamiyatlarda davlat va mana shu jamiyatlar istiqboli uchun hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Demak, yoshlar manfaatlari va ularning psixo-emotsional holatini inkor etish mumkin emas, balki ularni tushunishga harakat qilish, anglash, mushohada qilish, yoshlarni (MT va DB) ruhida tarbiya qilish taqozo etiladi.

Eng avvalo, yoshlar qatlamining o‘zi mana shunday tarbiyaviy jarayonlarga muhtojlik sezadi va o‘zini bunyodkor his qilishni istaydi. Binobarin, yuqorida aytilgan shunday salbiy va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi o‘z irodasini ishlatib, o‘z manfaatlarini muhofaza qila oladigan bunyodkor shaxslarga bo‘lgan talab ortib borayotgan bo‘lib, yoshlarda tinchlik, totuvlik, do‘stlik, bag‘rikenglik, osoyishtalik, birdamlik, hamkorlik asosi bo‘lgan g‘oyalarni shakllantirish dolzarb bo‘lib bormoqda. Yoshlarning ichida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini shakllantirish jamiyatimizda mehr va oqibat, muruvvat, bunyodkorlikni rivojlantirish demakdir.

Zamonaviy turli yot g‘oyalar ichida ekstremizm, terrorizm, rasizm, ksenofobiya, millatchilik, milliy shovinizm, diniy aqidaparastlik, fundamentalizm, etnosentrizm, separatizm, radikalizm, diniy riyokorlik, genotsid, xudbinlik, kosmopolitizm, inqiloblar qilishga moyillik, ikki xil standartlar, axborot xurujlari, ommaviy madaniyat, giyohvandlik, toksikomaniya, turli spayslar, ximik vositalardan foydalanish, kompyuter o‘yinlari va xakerlik tahdidlari, xususan, “siniy kit” va boshqalar, narkotrafik, ekologik muammolar, turli tabiiy ofatlar, ijtimoiy (tuberkulyoz, anemiya, buqoq), venerik (30 dan ortiq turlari) va zamonaviy virusli yuqumli kasalliklar (OITS, SARS, MERS, COVID 2019), individualizm, mehnat resurslarining ko‘chishi va migratsiyasi, odam savdosi, ijtimoiy tarmoqlar salbiy ta’siri va oqibatlari, umidsizlik, kelajakka ishonmaslik va boshqa rang-barang tahdidlar yoshlar tafakkurini maqsadli tarzda egallamoqda. Binobarin, ularga qarshi sa’yi-harakatlar tizimini ishga tushirish zarur.

(MT va DB) – *tarixiy-ijtimoiy va axloqiy-psixologik norma* bo‘lib, uning mazmuni yangi zamon bilan hamnafas tarzda o‘zgarib, boyib va takomillashib boradi. Yoshlarda (MT va DB) tafakkurini shakllantirish ilmiy-pedagogik muammosining o‘ziga xos tarixiy-ijtimoiy va pedagogik-psixologik xususiyatlari mavjud. Ular, *avvalo,* yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shuningdek, pedagogik manfaatlari qaysi sathlarda yotadi va ular mavjud jamiyat, o‘z hayotidan nimalarni istaydi, degan savollarni ko‘ndalang qo‘yadi. *Ikkinchidan esa,* zamonaviy jamiyatlarda (MT va DB) tushunchasi nimani anglatadi va nima mazmun orqali o‘zini namoyon etadi, mazkur tushunchaning yoshlar qatlamiga taalluqli joyi nimalardan iborat degan savollar o‘z javobini kutib qoladi. *Uchinchidan esa,* (MT va DB) tafakkurini shakllantirish masalasi o‘zining juda nozik va murakkab masalalardan biri ekanligini namoyon etadi hamda individning shaxsga aylanishi jarayonida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida alohida preventiv-profilaktik amallar majmuini taqozo qiladi. Binobarin, yoshlarda (MT va DB) tafakkurini shakllantirish jamiyat, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holati, jamiyatdagi yoshlar mavqei va qadriyatlari tizimi, mamlakat ta’lim tizimida mavzuning nechog‘liq aks etganligi bilan uzviy bog‘liq axloqiy-normativ kategoriya sanaladi.

Bugungi davr o‘z shiddati va murakkabligi bois yoshlar masalalarida mavjud muammolar yechimiga ham o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazishi mumkinligi sababli, bir tomondan, yoshlar (MT va DB) tafakkurini shakllantirish masalasini hal etishda o‘ziga xos noziklik, ehtiyotkorlik, salobat, bosiqlik va mulohazakorlikni taqozo qiladi. Ikkinchi tomondan, mazkur amaliy muammoni hal qiluvchi ijtimoiy institutlar zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Mazkur institutlar, ya’ni shaxsning o‘zi va oila, mahalla, ta’lim yurti, fuqarolik jamiyati maqsadli, davomiy, muntazam va o‘zaro birlashgan, yaxlit faoliyat olib borishi talab etiladi. (MT va DB) ayni mana shunday bunyodkor, hayotiy, tinch va osuda hayot tarzini ta’minlovchi g‘oya sifatida baholanishi darkor.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda (MT va DB) tafakkurini shakllantirish ilmiy-pedagogik muammosining o‘ziga xos tarixiy-ijtimoiy va pedagogik-psixologik xususiyatlari mavjud. Ular, avvalo, yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shuningdek, pedagogik manfaatlari qaysi sathlarda yotadi va ular mavjud jamiyat, o‘z hayotidan nimalarni istaydi, degan savollarni ko‘ndalang qo‘yadi. Ikkinchidan esa, zamonaviy jamiyatlarda (MT va DB) tushunchasi nimani anglatadi va nima mazmun orqali o‘zini namoyon etadi, mazkur tushunchaning yoshlar qatlamiga taalluqli joyi nimalardan iborat degan savollar o‘z javobini kutib qoladi. Uchinchidan esa, (MT va DB) tafakkurini shakllantirish masalasi o‘zining juda nozik va murakkab masalalardan biri ekanligini namoyon etadi hamda individning shaxsga aylanishi jarayonida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida alohida priventiv-profilaktik amallar majmuini taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20-sentabr 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.*

*2. Shavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017.*

*3. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasida rahbar kadrlar oldida turgan vazifalar: mavjud holat, muammolar va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. –T., 2019. – 234-b.*

**Po‘lat MAXSUDOV,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, texnika fanlari nomzodi, “Professional ta’lim va jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti

# KASB TA’LIMI METODIKASINING FAN VA O‘QUV PREDMETI SIFATIDAGI TAHLILI

**Annotatsiya**

Ushbu maqola kasb ta’limi metodikasini fan va o‘quv predmeti sifatida aniqlashtiruvchi tarixiy-ilmiy manbalar tahliliga bag‘ishlangan. Kasb ta’limi o‘qituvchisini metodik tayyorlashning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan “Kasb ta’limi metodikasi” fanining paydo bo‘lishi, uning mazmuni va mohiyati to‘g‘risidagi dastlabki yondashuvlardan, to hozirgi kungacha bo‘lgan ilmiy qarashlarning tizimli tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Muhandis-pedagog, o‘qitish metodikasi, didaktika, kasb ta’limi, kasb ta’limi metodikasi.

В данной статье дается анализ научно-исторической литературы, раскрывающая профессиональное образование как науки и как учебной дисциплины. Также был сделан системный анализ дисциплины “Методика профессионального обучения” считающаяся основным звеном в методической подготовки преподавателя профессионального обучения первоначальное содержание учебной дисциплины и научных концепции по настоящее время.

**Ключевые слова.** Инженер-педагог, методика, дидактика, профессиональное образование, методика профессионального обучения,

This article provides an analysis of scientific and historical literature, revealing professional education as a science and as an academic discipline. Also, a systematic analysis of the discipline “Methods of vocational training” was made, which is considered the main link in the methodological training of a teacher of vocational training, the initial content of the discipline and scientific concepts to the present.

**Key words.** Educational engineer, teaching methodology, didactics, vocational education, vocational training methodology.

Kasb ta’limining o‘z yechimini kutayotgan muammolaridan biri – bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisini metodik tayyorlash bilan bog‘liq. Bunday tayyorlashning markaziy, tizimlashtiruvchi bo‘g‘ini bo‘lib, kasb ta’limi metodikasi kursi xizmat qiladi. Uning tarkib topishi pedagogika institutlarida umumta’lim fanlarini o‘qitish metodikalari davrasida kasb-hunar ta’limi metodikasi sifatida hukm surib kelgani bilan bog‘liq.

Metodika – pedagogika fanining ma’lum bir o‘quv fanini o‘qitish va o‘rganish qonuniyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi chetga surilib qoladi. Shu asosda B.A.Sokolov, “Texnik fanlar” degan o‘quv predmeti bo‘lmagani va bo‘la olmasligi sababli “Texnik fanlar metodikasi”ning ham bo‘lishi mumkin emas, degan xulosaga keladi. “Texnik fanlar” o‘qitish turi bo‘lib, mohiyatiga ko‘ra, kasb ta’limi didaktikasida nazariy mashg‘ulotlar deb qaraladi, shuning uchun uni didaktikaning bir qismi deb qarash kerak. Shundan so‘ng, B.A. Sokolov muhandis-o‘qituvchini metodik tayyorlashda “Texnik fanlarni o‘qi-

tish metodikasi” kursi istiqbolsiz bo‘lib, uning o‘rniga mustaqil o‘quv fani shaklida “Kasb ta’limi didaktikasi” darajasiga o‘tkazilishi kerak, degan xulosa yasaydi.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, fan sifatida metodika ta’rifida B.A.Sokolov pozitsiyasi va uning “texnik fanlar” deb nomlangan o‘quv fanining yo‘qligi va bo‘lishi ham mumkin emasligi haqidagi xulosalari bahsga molikdir.

Bahsga molik bu – masalaga ma’lum bir munosabat “O‘rta maktab didaktikasi” (M.N.Skatkin tahriri ostida) nomli kitobda mavjud. Kitobda metodlarning rivojlanish jarayoni ma’lum bir vaqtda notekis va turli usullar bilan davom etishi, ularning mustaqil fanlar sifatida shakllanishining turli bosqichlarida ekanligi ta’kidlanadi. Bu notekislik ba’zan metodikaning ikki xil to‘g‘ri talqinini chalkashtirishga olib keladi: metodika ilmiy fan ekanligi (fizika, biologiya, chet tili o‘qitish metodikasi) va metodika o‘qituvchi uchun amaliy ko‘rsatmalar to‘plami ekanligi (nutq malakalarini rivojlantirish metodikasi, o‘qishga o‘rgatish metodikasi). “Metodika va didaktikaning obyekti umumiy bo‘lsa-da, har bir metodika o‘z predmetiga ega. Didaktika va metodika predmetlari o‘rtasidagi farq metodik tadqiqotlar natijasida olingan bilimlarning umumiyligi bilan biroz darajada va ularning o‘quv predmetining aniq mazmuniga ko‘proq bog‘liqligidan kelib chiqadi”.

XXI asrga o‘tsak, A.K.Radchenko texnik fanlarni o‘qitish metodikasining asosiy tushunchalarini ko‘rib chiqib, kasb ta’limi metodikasining nazariy asoslari metodika va o‘qitish nazariyasining, metodika va o‘qitish texnologiyasining o‘zaro aloqadorlik, o‘zaro munosabat, o‘zaro bog‘liqlik holatlari; nazariy va ishlab chiqarish ta’limi jarayonida ta’lim oluvchilar kognitiv faoliyatining asosiy dasturlari ekanligini ta’kidlaydi.

N.Y. Erganova professional-pedagogik kadrlar tayyorlash tarmog‘ini kengaytirish, oliy ta’lim muassasasida o‘qitishda metodik faoliyatga oid bilim va ko‘nikmalarni kasbga yo‘nalganlikni kuchaytirish yo‘li bilan shakllantirish muammosi dolzarb bo‘lib qolayotganini qayd etadi. Bu bilim va ko‘nikmalar psixologik-pedagogik va maxsus fanlar o‘rtasida oraliq mavqeni egallagan hamda muhandislik-pedagogik bilimlar tarkibida o‘zak bo‘lgan metodik fanlar majmuasini o‘rganishda shakllanadi.

S.K. Zavrajnova tadqiqotida erishilgan muhim xulosa nazariy ta’lim va ishlab chiqarish ta’limi metodikasini o‘qitish tuzilmalarini birlashtirish imkoniyati hisoblanadi. Uning fikricha, kasb ta’limi metodikasining mustaqil qismlarga bo‘linishi va ularning xususiy o‘qitish metodikasi (elektrotexnika o‘qitish metodikasi, ishlab chiqarish ta’limi metodikasi, chizmalarni o‘qishga o‘rgatish metodikasi va b.) sun’iydir. N.Y. Erganovadan keyin, u kasb ta’limi metodikasini ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda o‘stirishda muhandis-o‘qituvchi faoliyatini tartibga solishning maxsus vositalarini tayyorlash, qo‘llash va rivojlantirish haqidagi pedagogik bilimning nisbatan mustaqil tarmog‘i sifatida belgilaydi.

V.I. Nikiforov mashinasozlik fanlarini o‘qitish metodikasi asoslarini o‘quv fani sifatida ajralib chiqish muammosini, uning mazmuni, tuzilishi va hatto o‘qitish metodikasini asoslashda juda muhim metodologik ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Metodika faniga kiruvchi mashinasozlik fanlarining mazmunini didaktik tahlil qilish muallifga mashinasozlik fanlarini o‘qitish metodikasining asosini tashkil etuvchi bilimlar kasb ta’limi didaktikasiga tegishli, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Bu fan tarkibida hozirgi kunda ishlab chiqarish ta’limi didaktikasi, nazariy ta’lim didaktikasi, umumiy texnik va maxsus fanlar didaktikasi singari alohida fan sohalari sifatida ajralib chiqdi va shakllandi.

Tadqiqotda amalga oshirilgan “Mashinasozlik fanlarini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanining asoslarini tahlil qilish V.I. Nikiforovga elektr-energetik, qurilish, texnik va qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitish metodikalarining tuzilishi va mazmuni muhandis-pedagoglarni tayyorlashda juda muhim o‘quv fanlari ekanligi haqida xulosa chiqarishga

imkon berdi.

S.Y. Bayev metodika muammolarini tadqiq etib, har bir metodika barcha o‘quv predmetlari uchun umumiy bo‘lgan pedagogik qoidalar, umumiy didaktik va maxsus prinsiplarga asoslanadi, deydi. U kompleks (umumiy) va maxsus (xususiy) o‘qitish metodikalariga bo‘linadi. Birinchisi o‘qitishning umumiy masalalari strukturasini, ikkinchisi o‘quv materiali mazmunini xossalariga bog‘lab, maxsus metodikani bayon etadi. Muallif metodikaning predmeti bo‘lajak ishchi shaxsining ajralmas-yaxlit fazilatlarini shakllantirishni ta’minlaydigan murakkab pedagogik hodisalarni tadqiq qilish, ular orasidagi qonuniyatli bog‘lanishlarni ko‘rsatish, maxsus fan o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta’limi ustalari faoliyatini ochib berish va boshqalar ekanligini ta’kidlaydi.

Hozirgi kunda Respublikamizda kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalaridagi barcha “Kasb ta’limi” yo‘nalishlari o‘quv rejalari bo‘yicha yuqoridagi fan “Kasb ta’limi metodikasi” fani nomi bilan o‘qitilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida “Kasb ta’limi metodikasi” fanini o‘qitishning hozirgi holati tahlili ushbu fanni o‘qitishning yagona nazariy metodik asoslarini mustahkamlash, fanni o‘qitishda barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun yagona universallikka ega bo‘lgan metodikaga asoslangan o‘quv dasturini yaratishni talab etadi.

Kasb ta’limi yo‘nalishlarining amaldagi o‘quv rejalarida “Kasb ta’limi metodikasi” fanining o‘qitilishi asosan 6-7-semestrlarga rejalashtirilgan. 6-semestrda kasb ta’limi metodikasining umumiy masalalari o‘rganiladi, ular quyidagilar: fanning predmeti, maqsadi va vazifalari; o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillari; professional ta’limning o‘quv-rejalashtirish hujjatlari; ta’lim shakllari va metodlari; ta’lim vositalari va ulardan foydalanish; o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholash. 7-semestrda professional ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan va ta’lim rejasidan o‘rin olgan umumkasbiy va maxsus fanlarni o‘qitishning xususiy metodikasi o‘rganiladi. Demak, fan qismlari ko‘rsatib o‘tilgan semestrlarda uzviy ketma-ketlikda va mazmunan bir-birini to‘ldiruvchi hamda davom ettiruvchi sifatida o‘qitilishi ko‘zda tutiladi.

Shunday qilib, kasb ta’limi metodikasining nazariy asoslari o‘qitish metodikasi va nazariyasining, o‘qitish metodikasi va texnologiyasining o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro munosabatlari, hamda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida ta’lim oluvchilar faoliyatining asosiy dasturlari haqidagi qoidalar bilan belgilanadi.

Tarixiy-ilmiy manbalar misolida qilingan yuqoridagi tahlil va “Kasb ta’limi metodikasi” fani o‘qitilishining bugungi holati kasb ta’limi metodikasining mohiyatini aniqlashda yagona yondashuv mavjud emas va yetarli darajada o‘rganilmagan, degan xulosaga kelish imkonini beradi va mazkur muammoni yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Штраух Р. Дидактика и методика преподавания в сельскохозяйственных школах. – Санкт-Петербург: Изд-во “Якорь”, 1914. – С.380.

2. Евстигнеев-Беляков А.Ф. К вопросу о подготовке преподавателей специальных дисциплин для учебных заведений профобразования. // Народное просвещение. – 1927. – №8-9. – С.104-111.

3. Рубинштейн М.М. Проблема инженера-педагога. / Инженер-педагог: Сб. Под. ред. А.Ф. Евстигнеева-Белякова, М.М. Рубинштейна. – М.: Изд-во: ВПК при МВТУ, 1928. – С. 2-28.

**Durdona MUSTAFOYEVA,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti dotsenti
**Saodat KAZAKBAYEVA,**
Namangan muhandislik-texnologiya instituti o‘qituvchisi

# PEDAGOG NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya**

Ta’lim muassasasi rahbarlari, pedagoglarda muomala odobi, xulqi va notiqlik san’ati ta’lim-tarbiya sifatini oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Rahbar pedagogning nutq madaniyati ta’lim jarayonini boshqarish, keng ko‘lamli ta’lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirishda hal etuvchi ahamiyatga ega. Maqolada ana shular xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Muomala odobi, nutq madaniyati, rahbar shaxsi, notiqlik san’ati, intuitiv bashorat.

Культура общения, поведения и ораторское искусство руководителей и педагогов образовательных учреждений являются одними из основных факторов, влияющих на повышение качества образования и воспитания. Культура речи руководителя-педагога играет решающую и очень важную роль в управлении процессом образования, а также осуществлении широкой воспитательно-образовательной деятельности. В статье высказаны мнения об этих вопросах.

**Ключевые слова.** Культура общения и речи, личность руководителя, искусство, риторика, интуитивное прогнозирование.

The culture of communication, behavior and oratory of leaders and teachers of educational institutions are one of the main factors influencing the improvement of the quality of education and upbringing. The culture of speech of the leader-teacher plays a decisive and very important role in the management of the educational process, as well as in the implementation of broad educational and educational activities. The article provides opinions on these issues.

**Key words.** The culture of communication and speech, the personality of the leader, art, rhetoric, intuitive forecasting.

Ta’lim muassasasi rahbarlari, pedagoglarda muomala odobi, xulqi va notiqlik san’ati ta’lim-tarbiya sifatini oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Rahbar pedagogning nutq madaniyati ta’lim jarayonini boshqarishda, keng ko‘lamli ta’lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Pedagog nutqining madaniyligi – uning bilim darajasi, aql-idrokining mantiqiy fikrlashdagi yetukligi bilan bir qatorda ona tilining boyligidan foydalana olishiga ham bog‘liq.

Til – har bir pedagogning quroli, o‘z fikr-munosabatlarining bevosita voqelikka chiqishidir. Donolar ta’kidlaganlaridek, inson aql-zakovati, tafakkuri va ongining eng boy yutuqlari, teran bilimlar, keng miqyosli ilm-fanlar, otashin his-tuyg‘ular nutqda ochiq-oydin, jarangdor va jozibador ifodalanmas ekan, tinglovchiga noma’lum bo‘lib qolaveradi. Binobarin, rahbar yoki pedagogning notiqlik vazifasi bayon etiladigan fikr-

larni o‘quvchi, talaba, tinglovchilar bevosita qabul qilishlari uchun ularga qulayligini inobatga olishga erishishdan iborat. Bu esa notiqning o‘z fikrini qanday shaklda ifoda qilishiga ham bog‘liq.

Xalq oldida tez-tez so‘zga chiqib turuvchi rahbar o‘z nutqida badiiy tasvirlardan o‘rinli foydalanadi, hayotdagi ayrim voqealar, shaxslarni badiiy adabiyot qahramonlari bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi, natijada, uning nutqi jonli, hayotiy, ta’sirli bo‘ladi. Pedagoglar, maktab rahbarlari uchun ibratli hikmatlardan yana biri shundaki, biror so‘z aytishdan avval uning ortidan “keladigan” oqibatini o‘ylash zarur.

Samarali muloqot asosini tashkil etuvchi rahbarlikka xos xislatlar bizningcha quyidagilar:

1. Istiqbolli strategik rejalashtirishga moyillikning kuchliligida.
2. Xodimlar, mehnat resurslarini taqsimlash bo‘yicha maqbul va o‘z vaqtida qaror qabul qila olishida.
3. Samarali faoliyat doirasini yo‘naltirish yoki yuksak tartibda mehnat qilish evaziga o‘z mas’uliyatini oshirishga intilishda.
4. Turli vaziyatlarda ijodiy va ratsional hamda to‘g‘ri qaror qabul qila olishda.
5. O‘z kuchi va imkoniyatiga cheksiz ishonishda.
6. O‘z huquqlarini anglashi va vazifasiga mas’uliyatliligida.
7. Payti kelganda odilona hukm qabul qilishida.
8. Muloqot malakalarini mukammallashtirishiga intilishda.

Faoliyati davomida aybdorni izlash emas, balki muammoni hal etishga intilishida, tavakkaldan qo‘rqmaydigan va muhim fikrga ega xodimlar bilan ishlash xohishining yuqoriligida.

Ushbu boshqaruv ma’nolaridan tashqari rahbar psixologiyasida ijtimoiy, siyosiy va mustaqil boshqaruvni va huquqiy yetuklikni o‘zida jam ettiradigan botiniy ma’nolarni qanday aniqlash mumkin? Fikr mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ma’no qatlamlarini ajratishda quyidagi uch xususiyat inobatga olinishi lozimligi tushuntiriladi:

– rahbar faoliyat olib borayotgan davrdagi mavjud an’analar, ya’ni qanday qadriyatlar, an’analar ta’siri ostida boshqaruvchining ijodiy tafakkuri shakllanganligi;

– rahbarning xodimlaridagi o‘z mehnatiga bo‘lgan munosabatiga ta’siri;

– mavjud mafkuraviy voqelik, ya’ni rahbar ijodiy tafakkuri shakllanishiga ta’sir etgan g‘oyalar, mafkuralar va boshqalar.

Samarali muloqot boshqaruviga to‘sqinlik qiluvchi shaxs xislatlari. Sohaga oid olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, quyidagilar menejer faoliyati samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi:

– o‘z-o‘zini boshqara olmaslik. Rahbar his-hayajon va zo‘riqishlarga to‘la. Bunday sharoitda xulqda aniq maqsadning yo‘qligi nafaqat jamoa faoliyati, balki rahbarning sog‘lig‘iga ham salbiy ta’sir etadi.

– shaxsiy qadriyatlarning shakllanmaganligi. Rahbar doim qaror qabul qilish vaziyatida bo‘ladi. Vaholanki, qaror samarasi so‘z orqali shaxsiy qadriyatlar, kasbiy va hayotiy tamoyillarga asoslanadi, ularning shakllanganligi rahbar faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Mustahkam qadriyat va tamoyillarga asoslanmagan rahbar beqarorlik va maqsad yo‘lida irodasizlikni namoyon etadi.

– shaxsiy maqsadning aniq ifodalanmaganligi. Zamonaviy rahbar muhimni nomuhimdan ajrata olishi, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay bilishi kerak. Tashkilot maqsadini chuqur anglash yo‘lidagi birinchi qadam rahbarning o‘z shaxsiy maqsadlarini yaxshi tushunib yetishidir. O‘z maqsadini aniq bilgan rahbargina

uning faoliyatiga qo‘yilayotgan talablarni jon-u diliga singdira olishi mumkin. Shaxsiy maqsadning noaniqligi tashkilot manfaati yo‘lidagi maqsadlarni ham anglab olishga xalaqit beradi. Aniq maqsadning yo‘qligi shaxsning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini pasaytiradi va demak, bunday rahbar o‘zgalarning muvaffaqiyatini ham his eta olmaydi.

– mukammallikka intilmaslik. O‘z ustida ishlashdan bosh tortgan rahbar qaltis vaziyatdan o‘zini olib qochadi, o‘z imkoniyat va qobiliyatini rivojlantirish ustida ishlamaydi, tavakkalga bormaydi va eski odat tusiga kirgan xatti-harakatlari doirasidan chiqa olmaydi.

– muammoni yecha olmaslik. Ayrim rahbar muammo ustida sifatli, muntazam va aql-zakovat bilan ishlay olmaydi. U vazifa maqsadini aniqlash, ma’lumot to‘plash, rejalashtirish va nazoratni amalga oshirish malakasiga ega emas. Natijada, hal etilmagan masalalar to‘planadi va rahbarning muammoni hal etish imkoniyati cheklanib qoladi.

– ijodiy yondashuvning yetishmasligi. Ijodiy ixtiroga moyilligi bo‘lmagan rahbar yangi g‘oyalarni taklif etolmaydi, o‘zgalarda mehnatga bo‘lgan ijodiy yondashuvni uyg‘ota olmaydi. Bunday rahbar tajriba, jamoa hayotiga yangilik kiritishdan o‘zini chetga oladi yoki yangiliklar ustidan kuladi. Yuksak ijodiylik to‘siqni yengib o‘tishni va qiyinchilikka bardosh berib maqsadga intilishni taqozo etadi.

– xodimlarga ta’sir eta olmaslik. Rahbar o‘z qo‘li ostidagi xodimlarga ta’sir etishi lozim. Lekin ayrim rahbar o‘z xodimlariga suyana olmaydi va buning o‘rniga ular haqida salbiy fikrda yuradi. Bunday rahbar atrofdagilar bilan yaqin muloqotga kirishmaydi va o‘z ichki dunyosini yaxshi ifoda eta olmaydi.

– boshqaruv faoliyati xususiyatini yaxshi bilmaslik. Rahbar boshqaruv faoliyati samarasi hakida ma’lumotga ega bo‘lmas ekan, o‘z malakasini shakllantira olmaydi. Boshqaruvga o‘z yondashuvini tahlil etolmaydigan rahbar fikr va topshirig‘ini ham xodimga tushuntirishi qiyin bo‘ladi. Bunday rahbar xodimlari u haqda nima deb uylashi bilan qiziqmaydi, o‘z xodimlarini tashabbusga chaqirishi mushkul, ayniqsa, topshiriqlar berishga qiynaladi.

– boshqaruv malakasining sustligi. Tashkilotdagi xodimlarni boshqarish uchun ko‘pgina ko‘nikmalar zarur bo‘lib, ularni rahbarlik qobiliyatlari deyish ham mumkin. Boshqaruv sust bo‘lgan jamoada vaqtni behuda o‘tkazish, xodimlarning o‘z imkoniyati darajasida ishlamasligi, mehnatdan qoniqmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Bunday guruhda vazifalar taqsimoti sust, mehnatni tashkil etishda behudalik ko‘p, o‘zaro munosabatlar esa qoniqarsiz. Bunday jamoada rahbarning mehnati qadrlanmaydi va psixologik muhit sog‘lom bo‘lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov Sh. Interfaol ta ta’lim strategiyalarini loyihalash va amalga oshirishda qo‘llaniluvchi didaktik usul va vositalar. Ilmiy-uslubiy ishlanma. – Namangan, 2012 yil Nammpi. – 50-b.

2. Pardayev S., Abduqodirov R., Ishmuxamedov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. –T., 2008-yil.

**Dilrabo ABIDOVA,**
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, mustaqil tadqiqotchi

# O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH KOMPONENTLARI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada pedagogika kollejlari o‘quvchilarining fanlarni o‘zlashtirish jarayonida intellektual kompetentlikni rivojlanishi, intellektual kompetentlikni tashkil etuvchi komponentlari, pedagogika kollejlarida fanlarni kasbiy sohalarga yo‘naltirib chuqurlashtirib o‘qitish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Intellektual, kompetensiya, model, integratsiya, strategiya, mexanizm, innovatsion texnologiyalar.

В статье рассматриваются содержание интеллектуальной компетентности студентов педагогических колледжей, развитие интеллектуальной компетентности в процессе изучения предметов, компоненты интеллектуальной компетентности, углубленное преподавание предметов в педагогических колледжах с профессиональной ориентацией.

**Ключевые слова.** Интеллектуальный, компетентность, модель, интеграция, стратегия, механизм, инновационные технологии.

The article examines the content of intellectual competence of students of pedagogical colleges, the development of intellectual competence in the process of studying subjects, components of intellectual competence, in-depth teaching of subjects in pedagogical colleges with vocational guidance.

**Key words.** Intellectual, competence, model, integration, strategy, mechanism, innovative technologies.

Respublikamizda pedagogika kollejlarida ta’lim jarayonini tashkil etishda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish muhim o‘rin egalladi. Natijada, pedagogika kollejlarida o‘qitiladigan fanlarni kasbiy sohalarga yo‘naltirib chuqurlashtirib o‘qitish takomillashtirildi. Shu bilan birga, pedagogika kollejlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi, ularning moddiy-texnik bazasini takomillashtirish va yuqori malakali o‘qituvchilar tarkibi bilan ta’minlash, bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish ko‘rsatkichlarini to‘liq ta’minlash muhim vazifalar sifatida belgilab berildi. Mazkur vazifalar, pedagogika kollejlarida o‘quv jarayonini sifati tubdan oshirish va oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun munosib nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Hozirda xalqaro pedagogik tajribalar asosida ta’lim sifatini bitiruvchilarning kompetensiya darajasi asosida baholash va o‘quvchilarni intellektual kompetentligini ta’limning innovatsion texnologiyalari vositasida rivojlantirish, ta’limning yangi paradigmalarini ishlab chiqish, o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish hamda didaktik vositalarning integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, umumkasbiy fanlarni o‘qitishning xususiy-metodik texnologiyasini, o‘qitishning o‘yinli, guruhlarda ishlash, hamkorlikda o‘qitishga yo‘naltirilgan texnologiyalarini ishlab chiqish orqali o‘quvchilarning ijodkorligi va intellektual kompetentligini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlarni yaratish zaruriyati tug‘ildi. Hozirgi zamon ta’lim tizimining o‘ziga xos asosiy xususiyati uning uzluksizligi va davomiyligidir. O‘qitishning yangi shakllari ya’ni, masofadan turib ta’lim olish, elektron ta’limni tatbiq etish va shu bilan birga, intellektual kompetentlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar tayyorlash zarurati har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Pedagogika kollejlari o‘quvchilarining intellektual kompetentligini shakllantirishda quyidagi vazifalarni belgilab olish zarur:

– pedagogika kollejlarida ma’lum predmetlarni chuqur o‘rgatishga mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan ta’limni joriy qilish;

– pedagogika kollejlari o‘quvchilaring umumkasbiy fanlar bo‘yicha intellektual kompetentligi tushunchasi mohiyatini va uning tarkibiy komponentlarini aniqlash;

– umumkasbiy fanlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning intellektual kompetentligini shakllantirish bosqichlarini takomillashtirish, tayanch kompetensiyalar mazmunini ishlab chiqish;

– o‘quvchilarning intellektual kompetentligini shakllanganlik darajasini aniqlashning mezonlari va indekatorlarini aniqlash natijasida intellektual kompetentlikni baholash klasterini ishlab chiqish.

Intellektual kompetentlik – murakkabligi turli darajada bo‘lgan muammolarni qo‘yish va samarali hal qilish imkonini beruvchi, individual tajribani aktuallashtirish asosida kasbiy masalalarni hal qilish uchun o‘z intellektual kompetensiyalar va shaxsiy fazilatlarni safarbar qilishga tayyorlikni ta’minlovchi qobiliyatdir.

| **Intellektual kompetentlik komponentlari** | | |
|---|---|---|
| **motivatsion** | **kognitiv** | **metakognitiv** |
| – rivojlanish va o‘zini-o‘zi rivojlantirshga tayyorlik;<br>– rivojlanish va o‘zini-o‘zi rivojlantirish strategiyasini qurishga intilish;<br>– rivojlanishga qaratilgan;<br>– o‘zini-o‘zi kamolga yetkazish va o‘zini-o‘zi kasbiy jihatdan ro‘yobga chiqarishga intilish;<br>– ahamiyatga ega faoliyatni amalga oshirish istagi;<br>– amalga oshirilayotgan faoliyatda muvaffaqiyatga erishish;<br>– shaxsning yo‘nalganligi;<br>– o‘zini-o‘zi bilishga ehtiyoj;<br>– kompetentli bo‘lishga ehtiyoj;<br>– mustaqil ta’lim qobiliyati | – alohida o‘quv fani doirasidagi bilim;<br>– o‘quv fanidan tashqari bilimlar;<br>– o‘z bilish stereotiplarini anglash;<br>– axborotni izlash, qayta ishlash va taqdim etishga tayyorlik;<br>– axborotni kodlashning turli usullarini o‘zlashtirish va qo‘llash;<br>– axborot o‘zlashtirishning turli texnologiyalaridan foydalanish;<br>– ilgari olingan bilimlarni ijodiy, izlanuvchilik, bilish faoliyatiga ko‘chirish;<br>– tadqiqot, loyihalash faoliyatida o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish. | – intellektual faoliyatda maqsad qo‘yish va uni rejalashtirish;<br>– o‘z bilimlarini boshqarish;<br>– ixtiyoriy va ixtiyorsiz intellektual nazorat;<br>– ochiq bilish pozitsiya; o‘zaro ta’sir, komandada ishlashga tayyorlik;<br>– shaxsning kreativligi va ijodga yo‘nalganligini rivojlantirish;<br>– refleksiya qobiliyati |

**Motivatsion komponent**. Ahamiyatga ega faoliyatni amalga oshirishni uyg‘otuvchi motivlarning borligi motivatsion komponent tuzilishining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Faoliyat motivatsion komponenti yuqori darajada rivojlangan bo‘lsa, o‘quvchi

ta’lim trayektoriyasini bosqichma-bosqich quradi.

Motivatsion komponent tarkibida quyidagi motivlar bo‘ladi: bilishga oid, shaxsga oid, kasbiy, o‘z mavqeini aniqlab olish motivi (shaxsning o‘ziga-o‘zi baho berishi, da’volari darajasi, yutuq motivatsiyasi, o‘zini-o‘zi rivojlantirish motivlari; o‘zini-o‘zi ijodiy ro‘yobga chiqarishga yo‘naltiruvchi o‘quvchilarning kasb egallash bo‘yicha faoliyatini tartibga soluvchi va maqsadga yo‘naltiruvi boshqa motivlar. Motivatsion komponentning ahamiyati uning shakllanganligi boshqa komponentlar rivojlanganligini ifodalashidan iborat. Shunday qilib, bilish motivlari intellektual kompetentlik rivojlanishining birinchi mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

**Kognitiv komponent**. O‘quvchiga shaxsiy va kasbiy rivojlanishda zarur bo‘lgan bilimlar majmuida ifodalanadi. Kognitiv komponent – kognitiv kompetensiyalar yoki intellektual ko‘nikmalar va qobiliyatlardir, bularning hammasi, avvalo, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari: axborotni izlash, olish va unga ishlov berish ko‘nikmasi; axborotni sxema, jadvallar ko‘rinishida tasavvur qilish ko‘nikmasi; axborotni talqin qilish ko‘nikmasi; axborotni taqdim qilish ko‘nikmasi; uni strukturalashtirish, uni bir ko‘rinishdan boshqa ko‘rinishga o‘tkazish, shaklni o‘zgartirish, axborotni kodlashning bir usulidan boshqasiga o‘tkazish, unda asosiy va ikkilamchilarni ajarata olish, tushunchalarning muhim belgilarini aniqlash, tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanish va munosabatlarni aniqlash-fikrlash faoliyatining kognitiv sxemalarini, masalalarni yechishning algoritmlarini tuzish, olingan yechimning tushuntira olish ko‘nikmasi; ma’ruza, referat yozish ko‘nikmasi; umumlashtirish, xulosa chiqarish, olingan natijalarni talqin qilish ko‘nikmasidir.

**Metakognitiv komponent** o‘zini-o‘zi tashkil qilish va o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarida ifodalangan, bular: maqsadlar qo‘yishni bilish, bilish faoliyatini rejalashtirish, baholash, nazorat qilish, refleksiv tahlil qilishni amalga oshirish, o‘zini-o‘zi motivatsiya qilish, o‘zini-o‘zi bilish, o‘zini-o‘zi baholash qobiliyatlari. Maqsad qo‘yish o‘quvchi bilish faoliyatini motivatsiya qiladi.

Pedagogika kollejlari o‘quvchilarning intellektual kompetentligini shakllantirishdan ko‘zlangan maqsad – kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirish, oliy ta’lim muassasalariga kirish va o‘zlari tanlagan kasb yo‘nalishlarida dadil faoliyat ko‘rsatishlari uchun sharoitlar yaratishdir va bunda shunday xulosa qilish mumkin:

— inson individual mental (aqliy) tajribasi intellektual kompetentlik asosini tashkil qiladi, uning xususiyatlarining “psixik tashuvchisi”dir.

— bilish faoliyati sifatidagi tafakkur qadriyatlar va bilish bilan bog‘liq to‘siqlarni bartaraf qilish jarayonida rivojlanishi intellekutal-rivojlantiruvchi ta’limning eng muhim qoidasi hisoblanadi. To‘siq subyektiv ravishda zo‘riqish, qiyinchilik sifatida boshdan kechirilsa, faoliyat rivojlantiruvchi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Jalilova Sh.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. –T.: TDPU, 2010. –135-b.*

*2. Turayev B.Z. Mustaqil ta’lim - talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish vositasi sifatida // Ta’lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar. –T., 2013. –№4.62-66-betlar.*

*3. Байденко В.И. Компетенции в профессиональном образовании // Высшее образование в России. – 2004. –№ 11.*

*4. Гузеев В.В. Эффективные образовательные технологии: интегральная и ТОГИС. – М.: НИИ школьных технологий, 2006.–С.208.*

**Botir XAYDAROV,**
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi

# PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O‘QUV REJALARNI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada professional ta’lim tizimi o‘quv-meyoriy hujjatlardan biri o‘quv reja tahlil qilingan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quv rejani tuzish uchun takliflar berilgan. O‘quv rejani variativ va invariativ qismlariga izoh berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Namunaviy o‘quv reja, ishchi o‘quv reja, variativ va invariativ qismlar, ish beruvchilar talablari, korxona bilan qo‘shma mashg‘ulot.

В статье анализируется учебная программа которая является одной из учебно-нормативных документов системы профессионального образования. Приведенны примеры по разработке учебной программы на основе компетентностного подхода. Объясняются вариативная и инвариантная части учебной программы.

**Ключевые слова.** Типовой учебный план, рабочий учебный план, вариативная и инвариантная части, требования работодателя, совместное обучение с предприятием.

The article analyzes the curriculum, which is one of the educational and regulatory documents of the vocational education system. Examples of developing a curriculum based on a competency-based approach are given. The variable and invariant parts of the curriculum are explained. In the conclusion, the advantages of the proposed training program are outlined.

**Key words.** Typical curriculum, working curriculum, variable and invariant parts, employer requirements, joint training with the enterprise.

O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim tizimida kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash jarayonini shakllantirish va takomillashtirish bugungi kunning eng asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki, mehnat bozorining talabini qondirish uchun faqat bilim va ko‘nikmalarga ega bitiruvchilar emas, balki aynan ushbu bilim va ko‘nikmalarni mehnat faoliyatida qo‘llay olish qobiliyatiga ega, o‘z ustida ishlaydigan, soha bo‘yicha yangiliklarga intiladigan, ijodiy fikrlaydigan, o‘z kasbini qadrlaydigan ishchi va xodimlar kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 Farmonida:

– tayanch o‘quv rejasini takomillashtirish hamda o‘zaro uzviy bog‘liq fanlarni birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish;

– o‘quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o‘z bilim va ko‘nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o‘rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish;

– amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini joriy etish maqsadida professional ta’lim muassasalarida dual ta’lim tizimi joriy etiladi deb vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, ta’lim jarayonini tashkil etuvchi o‘quv-me’yoriy hujjatlardan biri o‘quv reja tadqiqot davomida tahlil qilindi.

Bunda professional ta’lim tizimiga “Dual” ta’lim tizimi va kompetensiyaviy yondashuv asosida modulli texnologiyalarni joriy qilinishi hamda ish beruvchilar talablaridan kelib chiqib mutaxassislarni tayyorlash uchun mavjud o‘quv rejalarni takomillashtirish zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

Tahlil qilish davomida xorijiy davlatlar, jumladan, Rossiya, Qozog‘iston va Belarusiya davlatlarining o‘quv rejalarii o‘rganildi. O‘rganish jarayonida shunga e’tibor qaratildiki, ushbu o‘quv rejalarda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni ishlab chiqarish korxonasida mustahkamlash nazarda tutilmagan va shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, professional ta’lim tizimi uchun kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quv rejasini takomillashtirish lozimligi aniqlandi.

O‘quv reja ta’lim oluvchi bilimi va kasbiy tayyorgarlik mazmunining yetarli va zarur darajasini ta’minlaydigan o‘quv jarayoni va o‘quv yuklamalari hajmi, muddatlari va tayyorlanuvchi mutaxassis sifati, nazorat shakllarini belgilab beruvchi me’yoriy-huquqiy hujjatdir.

O‘quv rejalar tayanch, namunaviy va ishchi o‘quv rejalar turiga bo‘linadi. Namunaviy o‘quv rejalar oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Ishchi o‘quv reja ta’lim muassasasida ish beruvchi bilan ishlab chiqiladi va uni tuzish uchun namunaviy reja asos bo‘lib hududdagi ish beruvchilarni talablari asosida ishlab chiqiladi. Demak, turli hududda ish beruvchilar tomonidan mutaxassisda shakllanadigan kompetensiyalarga turli talab qo‘yiladi. Ularning talablarini qondirish uchun namunaviy o‘quv rejalari variativ va invariativ qismlardan iborat bo‘lishi kerak.

Invariativ – bu o‘zgarmas har bir kasb uchun malaka talablaridagi eng zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ajratilgan o‘quv soatlari. Bir so‘z bilan aytganda, ularsiz kelajakda kasbiy faoliyatni yuritib bo‘lmaydi. Masalan, mehnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi, me’yoriy va texnik hujjatlar, elektrotexnika va materialshunoslik asoslari hamda boshqa fanlarning asoslari, shuningdek, bular jumlasiga o‘quv amaliyotlari ham kiradi. Chunki, o‘quv amaliyotida o‘quvchilarda dastlabki kasbiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Varitiv bo‘limi, bu ish beruvchilar talablari bo‘yicha mutaxassisni tayyorlash va ish beruvchining sharoitlariga mutaxassisni moslashtirish uchun belgilangan o‘quv soatlari belgilanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv rejani hozirgi o‘quv rejalaridan farqi shundaki, unda ish beruvchilarni talablari inobatga olinsa ham faqat variativ qismi o‘zgaradi, invariativ qismi esa o‘zgarmaydi. Bu bilan bitiruvchilarga barcha uchun bir xil qo‘yiladigan talabni o‘zlashtirishini ta’minlay oladi.

O‘quv rejalar yuqorida keltirilganidek, namunaviy va ishchi o‘quv rejalar turiga bo‘linadi. Lekin ularni barchasi o‘quv muassasasida ta’lim berish uchun qaratilgan, faqat ishlab chiqarish va diplomoldi amaliyotlari ish beruvchi korxonada amalga oshiriladi. Ishchi o‘quv rejani ish beruvchilarni takliflari inobatga olib tuzish ko‘zda tutilgan, ammo ushbu talablarni bajarish uchun va o‘quvchilarni kasbga tayyorlash va kompetensiyalarini shakllantirish uchun ishlab chiqarish muhiti mavjud bo‘lishi lozim. Buning

uchun o‘quv rejaga **korxona bilan qo‘shma mashg‘ulot** o‘quv soatlarini kiritish lozim.

O‘quv amaliyotiga kelsak, unda o‘quvchi birlamchi kasbiy ko‘nikmalarni o‘quv ustaxonasida mashqlar orqali shakllantiradi va shu ko‘nikmalarni malaka darajasigacha shakllantirishni ishlab chiqarishning real sharoitida amalga oshiradi. Korxona bilan qo‘shma mashg‘ulotning o‘quv amaliyoti uchun yana bir foydali jihati shundaki: ishlab chiqarish amaliyoti jarayoni boshlanganda o‘quvchi o‘zi bilan tanish bo‘lgan ko‘nikmalari shakllangan muhitda kasbiy kompetensiyalarni ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishda shakllantiradi. Bu esa ishlab chiqarish amaliyotini samarali o‘tish va mutaxassislarni tayyorlashda yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, **o‘quvchi** – ta’lim olish jarayonida o‘zi tanlagan kasb bo‘yicha ishlab chiqarish korxonasi bilan tanishib, muhitni o‘rganib, ishga joylashgunga qadar o‘zini kompetensiyalarini ish beruvchilar oldida namoyon qila oladi, nazariy bilimlarni esa amaliyotda qo‘llay oladi.

**Ishlab chiqarish korxonasi** ham o‘z o‘rnida manfaatdor bo‘ladi, chunki bitiruvchi ta’lim jarayonida korxona talablarini o‘rganib tayyor mutaxassis sifatida ishini boshlaydi.

**Ta’lim muassasi** esa ish beruvchi bilan hamkorlikda bitiruvchilarning sifatini ta’minlaydi va amaliyotlar uchun xomashyo miqdori kamayadi.

Yuqorida keltirilgan fan (modul) misolida boshqa fan (modul)larni o‘quv amaliyotlarni ham keltirish mumkin. Mutaxassislarni tayyorlashda ayniqsa, maxsus fanlarni yuqoridagi taklif asosida o‘qitilsa, o‘quvchining kasb bo‘yicha tasavvuri oshib nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi osonlashadi, chunki u shu bilimlar qay darajada kerakli ekangini va ularni kasbiy faoliyatidagi ahamiyati hamda ishlatishini anglab yetadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 Farmoni.*

*2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-son qaror.*

*3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2020-yil 17-oktyabrdagi “Kasb-xunar maktablarida ta’lim jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 540-son buyrug‘i*

*4. Олейникова О.Н., Муравьёва А.А., Коновалова Ю.Н., Спартакова Е.В. “Модульные технологии: проектирование и разработка образовательных программ”. – М. Альфа-М; ИНФРА-М, 2010 – С.256.*

**Gulbahor JO‘RAYEVA,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti,
“Professional ta’lim va jismoniy madaniyat” kafedrasi tayanch doktoranti

# PROFESSIONAL TA’LIM JARAYONIGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI TATBIQ QILISH BO‘YICHA MULOHAZALAR

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada professional ta’lim jarayonida o‘qituchi va o‘quvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishi uchun doimiy ravishda bilim bazadan kompetensiyaviy yondashgan holda shakllantirib, kasbiy kompetentligini oshirishda e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan omillar haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Kompetensiya, kompetentli shaxs, kompetensiyaviy yondashish, tayanch kompetensiya elementlari, fanga oid kompetensiyalar.

В статье рассматриваются факторы, на которые следует обратить внимание преподавателю и студенту для достижения своих целей в процессе профессионального обучения, постоянно вырабатывая грамотный подход из базы знаний и повышая свою профессиональную компетентность.

**Ключевые слова.** Компетентность, компетентный человек, компетентностный подход, базовые элементы компетентности, научные компетенции.

The article examines the factors that a teacher and student should pay attention to in order to achieve their goals in the process of vocational training, constantly developing a competent approach from the knowledge base and increasing their professional competence.

**Key words.** Competence, competent person, competence-based approach, basic elements of competence, scientific competence.

Dunyo miqyosida ta’lim jarayoniga doim e’tibor bo‘lib kelgan. Bu borada rivojlangan hamdo‘st mamlakatlar o‘rtasida olib borilayotgan tajriba-sinov va ilmiy tadqiqot yangiliklariga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada ham mamlakatimizda ta’lim borasidagi islohotlar jadal davom ettirilmoqda va takomillashtirilmoqda. Ayni damda, yurtimiz aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o‘rin egallashi va o‘z salohiyatini namoyon etish imkoni yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 19-mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu yig‘ilishda yoshlar hayotiga e’tibor masalasi bo‘yicha ko‘plab fikr va takliflar bildirildi. Demak, mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etishini hisobga olgan holda, ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilganligini e’tiborga olish joiz. Shu bilan birga, yoshlarning

bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

Bu borada ta’lim jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar asnosida rivojlangan mamlakatlarda o‘qituvchi va o‘quvchilarning orasida umumkasbiy fanlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan ta’lim paradigmasidan kompetensiyali ta’lim tizimiga o‘tish harakati kuchaydi. Shuning uchun ham jahon pedagogikasida kompetentli shaxs tarbiyasi hamda kompetensiyaviy ta’limga yondashuv tizimli ravishda ko‘tarilmoqda.

Aytish joizki, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy prinsiplaridan biri o‘qituvchi hamda o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malaka bilan bir qatorda shartli va shartsiz kompetensiyalarni shakllantirish, ya’ni ularni egallagan malakaviy bilimlarini mustaqil ravishda kundalik hayotda turli vaziyatlarda qo‘llay olishidir.

Shu o‘rinda kompetensiya, kompetentli shaxs va kompetensiyaviy yondashuv kabi tushunchalarni qarab chiqsak...

**Kompetentli shaxs** deganda, egallagan bilimlari doirasida ma’lum sohada kelib chiqqan muammolarni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan, tashabbus ko‘rsata oladigan shaxs tushuniladi.

Umumkasbiy fanlarni ta’lim jarayonida o‘qitilishida kompetentlilik tushunchasining kiritilishi o‘qituvchi va o‘quvchi shaxsi o‘rtasida nazariy bilim bilan undan amaliyotda foydalanish o‘rtasidagi uzilish, ya’ni o‘quvchi nazariy bilimga ega bo‘lgan holda, undan muammoli vaziyatlarda foydalanishga qiynalish holatlarini bartaraf qiladi. Demak, ana’anaviy ta’limda o‘qituvchi bilim darajasining ustuvor bo‘lgan bilish paradigmasi o‘rniga bilimlardan muammoli vaziyatlarda o‘rinli foydalanishning **kompetensiyaviy yondashish** paradigmasi ustuvor jarayonga aylanadi.

Demak, ta’limda kompetensiyaviy yondashuv o‘qituvchining o‘quvchiga o‘qitgan bilim darajasini inkor qilmagan holda uni muammoli vaziyatlarda qo‘llay bilish paradigmasiga bo‘ysunadigan ikkinchi darajadagi ko‘rsatkichga aylantiradi. Lekin o‘quvchi bilimni o‘zlashtirmasdan turib uni amaliyotda qo‘llay olmaydi.

Shuning uchun o‘qituvchi egallagan bilimlariga ko‘ra, kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quv ishlarining yakuniy natijasiga erishish uchun o‘quv jarayonining boshidan o‘quvchi qanday kompetensiyalarni bilishi kerakligi belgilab olinishi lozim. Kompetensiyaviy ta’lim o‘quvchilarning ma’lum bilimlar yig‘indisini egallabgina qolmasdan, balki shaxsni rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini o‘stirishni mo‘ljallaydi.

Ta’limning barcha bosqichlarida umum kasbiy fanlarni o‘qitish jarayonida asosiy maqsaddan kelib chiqib, kompetentli shaxsni tarbiyalash orqali mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxs tushuniladi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar bilan bir qatorda o‘quvchi shaxsida fikrlash, o‘zgalar fikrini anglash va fikr mahsulini og‘zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, ya’ni mustaqil va ijodiy tafakkurni rivojlantirish vazifasini qo‘yadi.

Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta’lim texnologiyalarini tanlashda kurslar kesimida tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Shundan so‘ng o‘rganilishi zarur bo‘lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda darsni metodini tanlab oladi.

Bunda o‘rganilayotgan fanning murakkablik darajasiga qarab **tayanch kompetensiya elementlaridan** foydalanilishi lozim:

***Kommunikativ kompetensiya*** – jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana

olish; o‘z fikrini og‘zaki va yozma tushunarli bayon qila olish, mavzuni anglay olish; jamoaviy moslashuvchanlik; aratirlik qobiliyatiga ega bo‘lish; turli qarama-qarshi vaziyatlardan samarali yechim bilan chiqa olishlik.

***Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi*** – darslik, o‘quv qo‘llanma va media manbalar (radio, televizor, internet va boshqalar)dan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, media madaniyatga ega bo‘lish, kundalik hayotda uchrayligan hujjatlar bilan mustaqil ishlay olish.

***Shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi*** – doimiy ravishda o‘zini-o‘zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, hayotiy tajribasini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini adekvat baholash, mustaqil qaror qabul qila olish.

***Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi*** – oilada va jamiyatda, umuman ijtimoiy faoliyatda o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o‘z burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish.

***Milliy va umummadaniy kompetensiya*** – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish va sog‘lom turmush tarziga amal qilish.

***Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi*** – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olish, doimiy ravio‘dv hisob-kitob bilan ish yuritish, kundalik faoliyatda turli jadvalli, sxemali modelli ma’lumotlarni o‘qiy olish, yashash tarziga ijobiy ta’sir qiladigan fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

Shu qatorda o‘qituvchi ham o‘quvchi bilan birga shakllantirilishi zarur bo‘lgan fanga oid kompetensiyalar mavjud:

***Mazmun va maqsadga yo‘naltirilgan kompetensiya*** – o‘quvchilarni qiziqishlari va ularning dunyoqarashlarini o‘zida mujassam etishi, ularning atrof muhit bilan bog‘liq holda jamiyatda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan o‘z munosabatini bildira olishi va mustaqil qaror qabul qila olishi. Bu kompetensiya o‘quvchini o‘z oldiga qo‘ygan maqsad-vazifalariga erishish trayektoriyasini belgilab, o‘quv jarayoni va boshqa faoliyatda o‘zini anglash mexanizmini shakllantiradi. O‘quvchining jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishi ushbu mexanizmga bog‘liq bo‘ladi.

***Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish):***

tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushuna oladi; so‘z, ibora va atama (termin)larning ma’nosini tushunib to‘g‘ri o‘qiy oladi; fikrini so‘z va gaplarni mantiqiy bog‘lagan holda, to‘g‘ri va ravon bayon qila oladi; ish qog‘ozlarini (ariza, ma’lumotnoma, xat, tarjimai hol, ixcham hisobot, e’lonlarni) yoza oladi.

***Lingvistik kompetensiya:*** talaffuz va imloda tovush almashishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi kabi hodisalardan o‘rinli foydalana oladi; o‘zlashtirilgan leksik birliklarni gap tarkibida qo‘llay oladi; fonetik, leksik va grammatik tahlil qila oladi; fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay oladi; matnda tilning ifoda vositalaridan foydalana oladi.

O‘qituvchi o‘quvchiga kompetensiyaviy yondashuv asosida dars o‘tish jarayonida ta’lim metodini aniq tanlashi lozim va tanlashda quyidagilarga amal qilishi kerak.

Tanlayotgan metodning o‘rganilayotgan fanning materiali va mazmuniga muvofiq kelishi, mavzuning murakkablik darajasi, o‘rganilayotgan o‘quv materiali yuzasidan o‘quvchilarda tushunchalarning mavjudligini hisobga olishi kerak. Bu metod fanning asosiy maqsadi va o‘rganilishi ko‘zda tutilgan mavzuning xususiy maqsadiga muvofiq

kelishi shart. Shu bilan bir qatorda tanlangan metod o‘quvchilarning o‘zlashtirishini, mustaqil ishlash darajasini, yosh va shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.

O‘quv jarayonida ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his etish, tahlil qilish, qo‘shimcha vositalardan unumli foydalanishga, eng asosiysi o‘qishga, fanga, o‘zi tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi, ta’limda samarali natijalarga erishiladi.

Ta’lim texnologiyalari qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan axborotlarni izlab topishga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratiladi.

O‘qituvchi o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini tarbiyalashda quyidagi uslublardan foydalanadi:

**1. O‘z-o‘zini bilish:**

· o‘zini o‘zi kuzatish;

· o‘z harakatlarini tahlil qilish;

· o‘z-o‘zini sinash;

· atrofdagilarning fikrini tushuna olish.

**2. O‘ziga baho berish:**

· o‘z-o‘zini tanqid qilish;

· o‘ziga xarakteristika berish;

· o‘z-o‘zini taqdirlash.

Xulosa shuki, har bir o‘qituvchi pedagogik mahoratga ega bo‘lish barobarida, har ikki taraf, ya’ni o‘qituchi va o‘quvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishi uchun doimiy ravishda bilim bazasini shakllantirib borishi lozim. Agar shaxs izlansa, o‘z qobiliyatlari ustida ishlasa, o‘zidagi yaxshi fazilatlarni kamol topdirsa, qo‘pol qilib aytganda, qaytatdan ilmiy va shaxsiy ko‘psatkichlarini yuklab, yangilab tursa, uning obro‘si, mavqyei ham shu darajada yuksaladi. Chunki bugungi kun uchun yangilik hisoblangan ma’lumot ertaga eskirish ehtimoli yuqori. Bunda ta’limga kompetensiyaviy yondashish orqali egallagan bilimlari doirasida ma’lum sohada kelib chiqqan muammolarni mustaqil hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan, tashabbus ko‘rsata oladigan shaxs tarbiyalanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi to‘liq nutqi. 23.09.2020-y.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 06.09.2019-yildagi PF-5812-SONLI farmoni.*

*3. Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori.*

*4. А.Абдукаримов. Теоретические и практические особенности развития профессиональной компетентности будущего специалиста. Ўқув методик қўлланма. – Т.: Фан ва технология, 2014.*

**Firuza SADIKOVA,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti mustaqil tadqiqotchisi

# TALABALARNING KASBIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Annotatsiya**

Muallif maqolada talabalarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishda pedagogik integratsiya va ta’lim maqsadlari, tamoyillari, mazmuni birligi, shuningdek, shakllari va o‘quv fanlarining o‘zaro aloqalari asosida integratsiyasi haqida so‘z yuritadi.

**Kalit so‘zlar.** Pedagogik integratsiya, kasbiy faoliyat, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari, metodika.

Автор говорит о педагогической интеграции в повышении профессиональной активности студентов и интеграции образовательных целей, принципов, единстве содержания, а также интеграции форм и дисциплин на основе взаимодействия.

**Ключевые слова.** Педагогическая интеграция, профессиональная деятельность, общие и специализированные науки, методология.

The author talks about pedagogical integration in increasing the professional activity of students and the integration of educational goals, principles, unity of content, as well as the integration of forms and disciplines on the basis of interaction.

**Key words.** Pedagogical integration, professional activity, general and specialized sciences, methodology.

Fanlarning o‘zaro integratsiyasi, fan mavzularining o‘zaro integratsiyasini aniqlash, natijada, umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bilan o‘zaro integratsiyani ta’minlagan holda ta’lim berish orqali talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash amalga oshiriladi.

Talabalarning mustaqil ta’lim jarayonida ishlashida amaliyotga yo‘naltirilgan konsepsiyasini ishlab chiqish biz tomonimizdan ta’lim maqsadlari va tadqiqot vazifalariga moslashtirilgan DTS talablari; mustaqil axborot ta’lim muhitida talabalarni mustaqil ish jarayonini tashkil etish sifatini ta’minlash; jarayonli va tizimli yondashuvlar; axborot ta’lim muhitining doimiy yaxshilab borilishi; ishonchli axborot asosida qarorlar qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Muhitda shaxs faolligi tamoyili talabaning mustaqilligi uchun asos yaratadi, muhitdagi faoliyat adaptivligi va situativligi tamoyili esa, mustaqil ishni bajarish trayektoriyasi va professor-o‘qituvchi bilan o‘zaro aloqa usullarining muhitda shakllanadigan vaziyatga adekvatligiga xizmat qiladi.

Buning uchun, avvalo, kasb ta’limi yo‘nalishi talabalariga bilim berayotgan professor-o‘qituvchining tayyorgarligi muhim hisoblanadi. Professor-o‘qituvchi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga yuqori darajada o‘zi tayyor bo‘lishi, ya’ni ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishi, loyihalovchi,

konstruksiyalovchi, tadqiqotchi, yaratuvchi, boshqaruvchi umuman olganda kasbiy kompetensiyalari rivojlangan bo‘lishi lozim.

Shu o‘rinda talabalarni texnologik-ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlashda fan blokidan quyidagi fanlar tanlab olindi:

Umumkasbiy fanlar blokidan:

1. Tarbiyaviy ish metodikasi;
2. Ta’lim texnologiyalari;
3. Mutaxassislik tanlov fani.

Ixtisoslik fanlar blokidan:

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish.

Integrativ ta’lim (lotinchadan – aloqa, uyushma (birlashish, birikma) – muayyan zanjir atrofida o‘quv materiallarining birlashishi. XX asr boshlarida Germaniya, Avstriya, Belgiya, Shveytsariya va boshqa mamlakatlar ta’limida integrativ (murakkab) metodika (texnika)lari istiqboli va samarasi muhokama qilingan.

Integrativ ta’lim tizimini qo‘llash o‘tgan asrning yigirmanchi yillari o‘qituvchilari u o‘zida o‘rganilayotgan materiallarni tashkil etishning eng yaxshi shaklini taqdim etadi, bilim alohida tarmoqlari o‘rtasidagi dialektik aloqalar o‘rnatish imkonini beradi, deb hisoblaganlar. Lekin o‘ttizinchi yillar o‘rtalarida ta’lim nazariyachilari tizimning kamchiliklariga e’tibor qarata boshladilar.

Ta’limning integrativ tizimi – bu asosiy fanlarni mustahkam va chuqur o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratmaydi, degan fikr uyg‘otadi. Integratsiya ta’lim tizimining tarafdorlari integratsiyani umumiy tizimlashtirishga asos bo‘lgan ta’lim mazmuni, munosabati bo‘yicha ikkilamchi hisoblangan ilmiy bilimlarga, umumiy fanlarni tizimlashtirishda aks etgan faoliyati tarkibiga, shaxsning tuzilishga bog‘liq bo‘ladi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash ketma-ketligini amalga oshirishning birinchi bosqichida fanlararo integratsiyani ta’minlash, bunda asosan ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga doir mutaqil ishlarni tashkillashtirish va uni amalga oshirishda axborot-ta’lim muhitidan samarali fodalanish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalari shakllantiriladi. Nihoyat uchinchi bosqichda talabalar o‘z-o‘zini rivojlantirish asosida texnologik-ishlab chiqarish kasbiy faoliyatga tayyor bo‘lishadi.

Talabaning o‘zini o‘zi boshqarishi uning subyektliligini rivojlantirishni talab qiladi, o‘quv jarayonini birgalikda boshqarish va ochiq muhitdagi tarmoqli o‘zaro aloqa muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan professor-o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi boshqaruvi “professor-o‘qituvchi-talaba” polisubyekti va ularning polisubyekt o‘zaro aloqasi rivojlanishini talab qiladi.

Har qanday ta’lim muhitida mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda talabalarning faoliyati professor-o‘qituvchining bevosita rahbarligi ostida kechadi. Shunday ekan, professor-o‘qituvchi tomonidan ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish kuyidagi boqichlardan iborat:

1. Loyihalash yoki rejalashtirish;
2. Tashkil etish;
3. O‘quv harakatlari;
4. Natijalarni baholash va tahlil qilish.

Professor-o‘qituvchi faoliyatida loyihalash, ya’ni rejalashtirish bosqichida taqvim mavzu yoki darslarning rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ijodiy faoliyat lozim bo‘ladi. Professor-o‘qituvchi

mustaqil ravishda o‘quvchi-talabalarning tayyorgarliklari darajasini, ularning o‘quv imkoniyatlarini o‘rganib chiqishi, o‘quv materiali mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini ishlab chiqishi kerak.

Dars o‘tish faoliyatini tashkil etish uchun professor-o‘qituvchi talabalar oldiga o‘rganilgan mavzu asosida o‘quv masalalarini qo‘yishi va uni bajarishi uchun imkoniyatlar yaratishi lozim. Bunda talabalarning faoliyati bilim olishdan iborat bo‘ladi. Bilim olish borliqni idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajribalar asosida xulq-atvor va ko‘nikma hamda malakalarning mustahkamlanib borishi, mavjud bilimlarning takomillashib borishi jarayonidir. Bilim olishning ushbu komponenti ta’limiy xarakterga ega bo‘lgan faoliyat natijasida rag‘batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

Tashqi o‘quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o‘tkazish); perseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki, ya’ni mnemonik (yunoncha, “mnemonikon” – eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, tasavvur va fikrlash harakatlari kiradi.

Natijalarni baholash va tahlil etish o‘quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta’lim jarayonida talabalar o‘zini nazorat qilish, o‘zini baholash va o‘zini tahlil qilishni amalga oshirish professor-o‘qituvchining o‘rgatuvchi harakatlari asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish o‘quvchi-talabalarni o‘z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o‘zaro nazoratni tashkil etish, o‘rnatilgan mezonlar asosida o‘z faoliyati natijalarini o‘zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

Boshqarish jarayonining mohiyati ishtirokchilar xatti-harakatlarini o‘quv maqsadiga erishish yo‘lida muvofiqlashtirish minimum farqlarga yo‘l qo‘ygan holda maksimal natijaga erishishdan iborat. Ta’lim jarayonini boshqarish, eng avvalo, talabalarning bilimlariga asoslanadi: ularning tayyorgarlik darajasi, imkoniyatlari, tarbiyalanganligi, rivojlanishga tashxislash asosida erishiladi. Talabalarning jismoniy o‘ziga xos jihatlari va ruhiy rivojlanganligi ularning aqliy va axloqiy tarbiyalanganlik darajasi, shart-sharoitlari kabilarni bilmasdan turib, to‘g‘ri maqsad qo‘yib ham, unga erishish vositalarini tanlab ham bo‘lmaydi.

Umuman, ta’lim jarayoni markazida uning ishtirokchilari, maqsad, vazifalari, mazmuni, metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari yaxlit holda mujassamlashtirilib, u ishtirokchilarning bevosita o‘zaro bog‘liq ta’siri natijasida tahsil oluvchilarni rivojlantirish maqsadida loyihalash (rejalash) tiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sadikova F.M. Pedagogik boshqaruv jarayonida talabalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish // Ta’lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar – T., 2011.- №2. – 60-62-betlar.

2. Sadikova F.M. Kompetensiyalarni egallashda professional ta’lim tizimi talabalarining mustaqil ishini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari // Mug‘allim ham uzluksiz bilimlendiriu ilmiy-metodikalьıq jurnali. – T., 2020. – № 2. – 50-53-betlar.

3. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss. ... ped. fan. nomz. – T., 2000. – 186-b.

4. Mustafoyeva D.A., Xudoykulov R. Ta’lim jarayonini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning roli va ahamiyati. Yosh olimlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 1- qism, Termiz - 2016. – 550-551.

**Dilfuza KAMBAROVA,**
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish insituti mustaqil tadqiqotchisi

# TA'LIM JARAYONIDA TIBBIY XODIMLARNI AMALIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ZARURATI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada bo'lajak tibbiy xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim jarayonini kasbiy bilim, sifat, kompetentlik mezonlari asosida takomillashtirish, o'rta tibbiy xodimlarni mehnat funksiyalarini aniqlash orqali ularning amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini to'g'ri tanlash, amaliy ta'limni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Tibbiy ta'lim, simulyatsiya, sifat, funksiya, malaka, kasbiy malaka, amaliy kompetensiya.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования учебного процесса при подготовке будущих медицинских сестер на основе профессиональных знаний, качества, критериев компетентности, правильного выбора методов развития их практических навыков и компетенций путем определения должностных функций медицинских сестер.

**Ключевые слова.** Медицинское образование, моделирование, качество, функция, квалификация, профессиональная квалификация, практическая компетентность.

The article discusses the issues of improving the educational process in the preparation of future nurses on the basis of professional knowledge, quality, competence criteria, the correct choice of methods for developing their practical skills and competencies by defining the job functions of nurses, improving practical skills.

**Key words.** Medical education, modeling, quality, function, qualifications, professional qualifications, practical competence.

Jamiyatda yuz berayotgan dinamik o'zgarishlar, uning moddiy-texnik ehtiyojlarining o'sishi shaxsning ijtimoiy-madaniy shakllanish jarayonlaridan ustun turadi va shunga muvofiq ravishda professional ta'lim negizida tibbiy ta'lim tizimida funksional o'zgarishlarni amalga oshirish zarurligini keltirib chiqaradi. Ma'lumki, ko'p jihatdan bitiruvchining kasbiy salohiyati darajasi yosh mutaxassisning ish joyiga qanchalik tez moslashishi va o'quv jarayonida olingan bilimlarni amalda haqiqiy kasbiy muammolarni samarali hal qilish uchun ko'nikma va malakalarga aylantira olishiga bog'liq.

Tibbiyot texnikumlari bo'lajak o'rta tibbiy xodimlarning shaxsiy rivojlanishi, ularning mustaqil fikrlashi, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak tibbiy xodimlar uchun ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Tibbiy xodimlar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali

foydalanish kabi holatlarni o‘zida mujassam ettiradi.

Hamshiralik ishining asosiy burchi – bemorga tez tibbiy yordam ko‘rsatishda mustaqil bo‘lishdir. Bunda unga tibbiy brigadaning barcha a’zolari-shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, laborantlar yordam beradi. Bemorlar parvarishi hamshiralik ishi jarayonining diqqat markazida turadi. U bemorning klinik, jismoniy va ruhiy ehtiyojlariga javob berib, uning huquqlarini himoya qiladi. Bemorni davolash davomida tibbiyot hamshirasining mehnatsevar, saranjom-sarishta, tartibli, mehr-shafqatli va puxta bilimga ega bo‘lishi asosiy o‘rin tutadi.

Hamshira kasbiy faoliyatining muvaffaqiyati ularni amaliyotda amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan umumiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni talab qiladi. Hamshiralik kasbi “inson-inson” faoliyati sohasini nazarda tutadi, bu turli jarayonlarda hamshiralik faoliyatini amalga oshirishda uning amaliy kompetensiyalarini shakllantirish darajasiga yuqori talablarni qo‘yadi va bo‘lajak hamshiralarda amaliy kompetensiyani shakllantirish zarurati yuzaga keladi.

G.I.Ibragimovning fikrlariga ko‘ra, professional ta’limning yangi maqsadlarini qo‘yish va natijalarini baholashga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv o‘quv jarayonining boshqa tarkibiy qismlari – ta’lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, nazorat va baholash vositalariga o‘z talablarini qo‘yadi, bu esa bunday o‘qitish usullarini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu o‘quvchilarni turli xil faoliyat turlariga (aloqa, muammolarni hal qilish, munozaralar, nizolar, loyihani amalga oshirish) jalb qilish holatlarini yaratadi.

O‘rta tibbiy xodimlarni kasbiy shakllanishi uning vaziyatlarda aqliy, amaliy va motivatsion omillar bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarning ifodalanishi bilan yorqin namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga ushbu omillar ko‘plab umumiy jihatlarga ham ega. Bu sohadagi maxsus izlanishlar natijalari ko‘rsatganidek, kasbiy faoliyatga ta’lim oluvchilarning kompetentligi ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Hamshiraning asosiy faoliyati inson-inson tizimida amalga oshirilganligi bois biz quyidagi mehnat funksiyalarini sanab o‘tishni joiz deb bildik. Hamshiralik jarayonining asosiy mehnat funksiyalari:

· bemorning parvarishga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlaydi;

· bemor ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan parvarish rejasini aniqlaydi;

· tizimli va shaxsiy yondashishda bemor va uning oilasi parvarishini rejalashtirish va ta’minlashda faol qatnashishini ta’minlaydi;

· kasb faoliyati mezonlarini (standartlarini) keng qo‘llashga imkoniyat yaratadi;

· bemorning asosiy muammo va ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan vaqt va vositalardan samarali foydalanadi;

· tibbiy xizmat ko‘rsatishning xavfsizligi ta’minlanadi;

· bemorning tekshirish holatini baholash (ehtiyoj va muammolarini aniqlash), hamshiraning yordam rejasini tuzish, uni amalga oshirish va o‘zgarishlarni kiritgan holda natijalarni baholashni amalga oshiradi;

· tekshiruv maqsadi – bemorning yordam so‘rab murojaat qilgan vaqtidagi sog‘ligi haqida, bir-biri bilan bog‘langan va asoslangan holda axborot to‘plashdan iboratdir. Tekshiruv subyektiv va obyektiv bo‘lishi mumkin. Axborot beruvchi bemorning o‘zi bo‘lib, u o‘z sog‘ligi haqida so‘zlab berishi – subyektiv axborotdir. Axborot beruvchilar – bemorning oila a’zolari, ish bo‘yicha xizmatdoshlari, do‘stlari, tasodifiy yo‘lovchilar bo‘lishi mumkin.

· Obyektiv axborotga hamshira o‘tkazgan tekshiruvlar natijasi kiritilib, ular anamnez (ijtimoiy ahvoli, bemor yashayotgan va ishlayotgan muhitdagi o‘zaro munosabatlar),

madaniy, ma'naviy ahvoli, ruxiy holati (xarakteri, shaxsiy xususiyatlari, o'zini baholash, qarori qabul qilish qobiliyati) va fizikaviy tekshiruvlar natijalarini aniqlashdan iborat. Axborot yig'ish davomida tibbiy hamshira quyidagi vazifalarni bajaradi:

• bemor bilan ''davolash'' munosabatlarini o'rnatadi;

• bemor va uning qarindoshlarini davolash muassasasidan nima kutayotganini aniqlaydi;

• bemorni davolash bosqichlari bilan tanishtiradi;

• bemorni o'z ahvolini to'g'ri baholashga o'rgatib boradi;

• qo'shimcha tekshiruvni talab etadigan axborotni yig'adi (yuqumli bemor bilan muloqot, boshidan kechirgan kasalliklar va operatsiyalar).

Tibbiy ta'limda kasbiy tayyorlash jarayoni bemor bilan birgalikda hamshiralik parvarishiga ehtiyojni, davolash rejasi va uni amalga oshirishni, natijalarni baholash uchun lozim bo'lgan tartibli usullarni o'rgatishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu jarayon bosqichlari uzluksiz tizim bo'lib, har birining aniq bajarilishi talab qilinadi.

Hamshiraning mehnat funksiyalarini bajarishida unda amaliy kompetensiyalar yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim va u o'zining kasbiy, bilim, tajribalarini murakkab va nostandart vaziyatlarda qo'llay olishi kerak.

"Hamshiralik ishi" yo'nalishlarida tibbiy ta'limni tashkil etishda ta'limni bevosita amaliyot bilan bog'lash, amaliy ta'limni amalga oshirish, ya'ni amaliy kompetentlikni rivojlantirish muhim sanaladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, professional ta'lim har doim amaliy yo'naltirilganligi bilan ajralib turardi, bu yerda amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan vaqt byudjetining 60-70 foizini tashkil etishi lozim. "Hamshiralik ishi" ixtisosligi tibbiy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, uning mazmuni malaka talablari asosida belgilanadi.

Kasbiy fanlar va ta'lim amaliyotlari maxsus jihozlangan o'quv xonalarida yoki o'quv muassasasi bazasidagi o'quv amaliy markazlarida amalga oshiriladi. Shuningdek, ijtimoiy sheriklik dasturlarini amalga oshirish doirasida tibbiyot tashkilotlarida tashkil etiladigan ishlab chiqarish amaliyotlari ham nihoyatda muhim sanaladi. Tibbiy ta'limda amaliyotning samarali tashkil etilgan shart-sharoitlari kelajakda hamshiraning amaliy malakasini izchil shakllanishini ta'minlashdir, bu jarayonda o'quvchilar hamshiraning kasbiy faoliyati turlari bilan tanishish, tanlangan kasbning o'ziga xos xususiyatlarini, mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini anglashlari mumkin bo'ladi. O'quvchilar o'qituvchi va tibbiyot xodimlari bilan birgalikda tibbiyot turlarida qatnashadilar, bemorlarni tekshirishda yordam berishadi, operatsiyadan keyingi davrda ularni kuzatish va parvarish qilish, tibbiy xodimlarga tibbiy hujjatlarni to'ldirishda, tibbiy yozuvlarni rasmiylashtirishda yordam berishadi, ya'ni haqiqiy professional muhit shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Вербицкий А.А. Контекстное обучение в системе профессионального образования / А.А.Вербицкий // Медицинская сестра, – 2011. – № 6. –С.25.*

*2. Глухих С.И. Интегративно-деятельностный подход к подготовке медицинских сестёр в непрерывном профессиональном образовании/ С.И. Глухих// Автореф. дис.канд.пед.наук: 13.00.08. – М., 2012, – С.302.*

*3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Эйдос: Интернет-журнал. – 2006. – (Электронный ресурс). – http://www.eigos.ru*

**Gulnora KADIROVA,**
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar tizimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

# KIMYO TA’LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KREATIV YONDASHUV

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ijod va ijodkorlik tushunchasi haqida qisqa tahlil qilingan. Shuningdek, kreativ ta’limning asosiy xususiyatlari va uning ta’lim sifatiga ijobiy ta’siri haqida fikr yuritilgan. Ta’limni kreativ yondashuv asosida tashkillashtirish masalalari kimyo fanini o‘qitish misolida ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar.** Kreativlik, kreativ ta’lim, ijodkorlik, nostandart faoliyat.

В статье дается краткий анализ концепции творчества и творческая деятелность. Обсуждались также основные особенности творческого воспитания и его положительное влияние на качество обучения. Вопросы организации обучения на основе творческого подхода рассматриваются на примере обучения химии.

**Ключевые слова.** Креативность, креативное обучение, творчество, нестандартные деятельности.

This article provides a brief analysis of the concept of creativity. Opinions are also expressed on the main features of creative learning and its positive impact on the quality of education. Questions of organization of training based on creative approach are considered on the example of teaching chemistry.

**Key words.** Creativity, creative learning debate, non-standard activities.

Zamonaviy ta’limning maqsadi nafaqat bilimning sifati va olingan bilim va ko‘nikmalarning miqdori emas, balki maktab bitiruvchisining murakkab vaziyatlarda muhim mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir, harakatchan va raqobatdosh bo‘lib, muhim ijodiy natijalar beradigan kognitiv qidiruvni amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Har bir o‘quvchining potensial imkoniyatlarini ochib berish kreativ ta’limning asosiy maqsadlaridandir.

Kreativ ta’limning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

·bu ta’limning ijodiy turi, uning asosiy yo‘nalishi ijodiy tafakkurni shakllantirish, ijodiy qobiliyat va intellektual salohiyatni rivojlantirish, zamonaviy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlar izlash hisoblanadi;

·bu kelajakka qarash hamda iqtisodiyot va jamiyatning tabiiy rivojlanishini tushunishga asoslangan fundamental va istiqbolli ta’lim;

·bu uzluksiz ta’lim bo‘lib, maktab bitiruvchilarining professionalligi va ijtimoiy mas’uliyatining oshishi bilan tavsiflanadi.

Shu o‘rinda, kreativ ta’limning ta’lim oluvchilarining ijodkorligini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tish joiz.

1-jadval

| *An’anaviy ta’lim* | *Kreativ ta’lim* |
|---|---|
| *Maqsad:* o‘quvchilarga ma’lum bilim asoslarini, qisman ko‘nikmalarni va malakalarni berish | *Maqsad:* nafaqat o‘quv ma’lumotlarini chuqur ongli va tizimli ravishda qabul qilishga, mustaqil ravishda yangi bilimlarni izlashga, yangi g‘oyalarni vujudga keltirishga, balki ijodiy, doimiy ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyor bo‘lgan o‘quvchining yuqori ma’naviy ijodiy shaxsini shakllantirish |
| *Tamoyillari:* fan, tabiatning muvofiqligi; mustahkamlik va izchillikni mavjudligi; chidamlilik; ong va faoliyat; ko‘rgazmalilik; nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik; yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda | *Tamoyillari:* o‘zaro demokratik ishtirok; psixologik qulaylik; refleksivlik (aks) tamoyili; o‘quvchilar bilimlarining samaradorligi; “Dosendo dissimus” (“o‘rgatib – o‘zimiz o‘rganamiz”); bilimlarni tizimli, fanlararo umumlashtirish |
| *Belgilari:* taxminan bir xil yoshdagi va tayyorgarlik darajasidagi o‘quvchilar sinfini tashkil qilishadi, bu butun o‘quv davri davomida doimiy tarkibni saqlab qoladi;<br>– sinf yillik o‘quv reja va jadvalga muvofiq ish olib boradi;<br>– mashg‘ulotlarning asosiy birligi darsdir; | *Belgilari:*<br>– uzluksizlik;<br>– tabaqalashtirilgan va individual yondoshuvli;<br>– o‘quvchilarni profil va profil oldi tayyorlash;<br>– o‘quvchilarning uzluksizligi va faol o‘quv muhitiga qo‘shilishi (dars-ma’ruza, dars-konferensiya, dars-seminar, treninglar va b.);<br>– o‘quvchining mustaqil ravishda ijodiy qobiliyati jarayonini boshqarishi |
| – dars qoida bo‘yicha bir o‘quv faniga, mavzuga oid, sinf o‘quvchilari bir xil material ustida ishlaydi;<br>– o‘quvchilarning darsdagi ishini o‘qituvchi boshqaradi;<br>– darsliklar asosan uy vazifalari uchun qo‘llaniladi | – dars asosida fanlararo bog‘liqliklar kuzatiladi;<br>– darsliklar ta’lim jarayoni vositasi sifatida qo‘llaniladi |
| *Munosabatlar tavsifi va ko‘rinishi:* avtoritarlik, monolog yopiqlik; subyekt-obyektli munosabat | *Munosabatlar tavsifi va ko‘rinishi:* oshkoralik, o‘zaro suhbat, ochiqlik, refleksivlik; subyekt-subyektli o‘zaro munosabat |
| *Tashkillashtirish shakllari: frontal va individual* | *Tashkillashtirish shakllari:* guruhli, jamoa bilan |
| *O‘qitish shakllari:* tasviriy, ma’lumot beruvchi | *O‘qitish shakllari:* muammoli (muammoli ekspozitsiya, evristik, tadqiqot), ijodiy |
| E’tibor berish, idrok etish va ma’lumotlarni eslab qolish va ma’lumotlarni yodlash jarayonlariga asoslangan holda (xotira maktabi) | O‘quvchining shaxsini bilish jarayonlarini ijodiy fikrlash va ijtimoiy faollik (fikrlash maktabi) darajasiga jalb qilishga asoslangan |
| O‘quv materiallari bilan ta’minlangan o‘quvchilarni o‘rtacha tayyorgarlik darajasi bilan ta’minlashga qaratilgan | U o‘quv va rivojlanishning haqiqiy darajasiga qaratilgan bo‘lib, har bir o‘quvchi uchun o‘quv materialini idrok etish uchun maqbul sharoitlarni ta’minlaydi |
| *O‘qituvchi holati:* o‘qituvchi — informator | *O‘qituvchi holati: o‘qituvchi* — tashkilotchi (fasilitator, konsultant) |
| *O‘quvchi holati:* passivlik, qiziqishning yo‘qligi, shaxsiy rivojlanishga turtki yo‘qligi | *O‘quvchi holati: faollik*, o‘zini takomillashtirish, o‘zini o‘zi ijodiy rivojlantirish uchun turtkining mavjudligi |
| *Sifat ko‘rsatkichlari: bilim, ko‘nikmalar* | *Sifatning integral ko‘rsatkichlari* – o‘quv faoliyatida o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi anglashi, o‘zini-o‘zi rivojlantirish qobiliyati darajasi |

An’anaviy va kreativ ta’limning qiyosiy xususiyatlaridan ko‘rinib turibdiki, kreativ ta’limning ustuvor yo‘nalishi ijod va ijodkorlik masalalariga qaratilgan. Ijodkorlikni rivojlantirish masalasining asosiy maqsadi – ta’lim oluvchining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish bo‘lgan kreativ ta’lim uchun muhim ahamiyatga ega. Yuqori sinf o‘quvchisida ijodkorlikning rivojlanishi pedagogning ijodkorlik darajasini rivojlanishi bilan bevosita bog‘langan. O‘zaro hamkorlikni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun yordamchi vosita. O‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirish o‘qituvchi oldiga bir qator aniq vazifalarni qo‘yadi.

2-jadval

| | |
|---|---|
| O‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishdagi pedagogning vazifalari | Yuqori sinf o‘quvchisining individual ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash |
| | Yuqori sinf o‘quvchisini ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirish istiqboliga yo‘naltirish |
| | Hayotiy nostandart vaziyatlarga ijodiy qarashni rag‘batlantirish |
| | Yuqori sinf o‘quvchisining atrofdagi voqelikka bo‘lgan tahliliy, konstruktiv va tanqidiy munosabatini rag‘batlantirish |
| | Yuqori sinf o‘quvchilarini mustaqil ravishda harakat qilishning yangi usullarini izlash qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shish |

Ijodiy ta’limning mazmuni uch darajada shakllantiriladi: umumiy nazariy taqdimot, mavzu va o‘quv materiallari.

Bundan tashqari, u o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar faoliyatida, ya’ni muammolarni hal qilish jarayonida qo‘llaniladi. An’anaga ko‘ra, o‘quv materiallari, avvalo, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni ta’minlaydigan tarzda tuziladi. Biroq, zamonaviy sharoitlar odamdan nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishni, balki uni bilimning bir sohasidan boshqasiga o‘tkazish qobiliyatini, fikrlash, bahslashish, o‘z nuqtai nazarini isbotlash va farazlarni ilgari surish qobiliyatini talab qiladi.

Kreativ ta’limda foydalaniladigan, yuqori sinf o‘quvchisining ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha metodlar mavjud. Masalan, loyiha metodi (loyiha faoliyati), tadqiqot (tadqiqot faoliyati), ijodiy metodlar (“fikrlashning oltita shlyapasi”, “katena”, “aqliy kartalar”, “aqliy hujumi”, “keys-usul”, “tasodifiy rag‘bat”) va boshqalar. Tadqiqotimiz doirasida “Loyihaviy faoliyat” metodiga e’tiborimizni qaratdik.

*Loyihaviy faoliyat (loyiha metodi)* – bu yuqori sinf o‘quvchisi ijodiy shaxsini shakllantirishning murakkab, integratsiyalashgan jarayonidir. Uning o‘ziga xosligi shundaki, bunda o‘quvchilarning o‘qituvchi yoki darslikda berilgan yo‘riqnoma yoki faoliyat algoritmlaridan foydalanmagan holda, o‘qituvchi yoki darslikda tayyor javobi bo‘lmagan muammolarni hal qilishda oldindan tayyorlanmagan, sinovdan o‘tmagan obyektiv bilimlardan foydalanishi, faol va mustaqil faoliyat olib borishi tushuniladi. Loyiha faoliyati yuqori sinf o‘quvchilarining aql-idrokning moslashuvchanligi, bilimlarni nostandart vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati, “o‘xshashlikni izlash, umumlashtirish, turli vaziyatlarga kreativ yondashishda va hokazolarda” ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Fikrlarimizni xususiy holda, umumiy o‘rta ta’lim tizimida kimyo o‘qitish jarayoni misolida taxlil etamiz. Ma’lumki kimyo fani boshqa o‘quv fanlaridan o‘zining tarkibiy qismlari bilan ajralib turadi. O‘quvchilar kimyo fanini nazariy jihatdan o‘zlashtirish bilan bir qatorda laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlar olib boradilar. O‘quvchilarda kimyoviy tajribalarni amalga oshirish jarayonini kreativlikka yo‘naltirilgan ta’lim asosida tashkillash mumkin.

9-sinf kimyo o‘quv fani dasturida berilgan “Metallar korroziyasi” mavzusini olaylik.

Bu amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzulardan biri hisoblanadi. Biroq, o‘quv darsligida bu mavzu nazariy berilgan, laboratoriya ishi yoki amaliy mashg‘ulot bilan bog‘lanmagan. Biz bu mavzuga dars jarayonida yoki uyga vazifa sifatida kimyoviy tajribalarni amalga oshirish taklifini beramiz. Kimyoviy tajribalar kreativ yondashuv asosida amalga oshiriladi. Buni “loyihaviy faoliyat” metodi orqali amalga oshirish mumkin. Unga ko‘ra, o‘quvchilar korroziya jarayoni sodir bo‘layotgan obyekt tanlaydilar yoki ma’lum metallda korroziya hosil qiladilar. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, mavzu doirasida amaliy mashg‘ulotni o‘tkazadilar, metallarni korroziyadan himoyalash bo‘yicha o‘z amaliy loyihalarini taklif etadilar. Nostandart, kreativ yondashuvga ega loyiha taqdim etgan o‘quvchilar guruhi yuqori baholanadilar.

Shunday qilib, yuqori sinf o‘quvchisining ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirishidagi ijodiy ta’limning pedagogik potensiali o‘rta maktab o‘quvchisining manfaatlarini hisobga olishga imkon beradigan ijodiy ta’limning metodlari, shakllari, vositalari va katta maktab yoshidagi sezgir davr haqidagi bilimlarda namoyon bo‘ladigan imkoniyatlar to‘plami sifatida namoyon bo‘ldi. Ijodiy ta’lim tamoyilariga muvofiq ravishda ta’lim berishni tashkil etishda o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari va ijodiy qobiliyatlari, o‘zgaruvchan o‘quv rejalari va dasturlaridan foydalanishga hissa qo‘shadigan ijodiy ta’lim mazmunida mavjud bo‘lgan manbalardan foydalaniladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ijodkorlik darajasini oshirishning oqibatlari hissiy va shaxsiy o‘zgarishlarga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Балл Г.А. Теория учебных задач: психолого-педагогический аспект / Г. А. Балл. – М.: Педагогика, 1990. – С.184.

2. Коротков Э.М. Инновационное образование для инновационной экономики / Э.М. Коротков // Вестник высшей школы. – 2010. – № 7. – С. 6 3. Психологический словарь / под ред. В.П. Зинченко Б.Т. Мещерякова. – М.: Прайм – С.672.

3. Хуторской, А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения / А.В. Хуторской. – М.: Изд-во Московского ун-та, 2003. – С.415.

**Zuhro ABDULLAYEVA,**
**Nargiza ALIMOVA,**
Termiz davlat universiteti, magistratura talabalari

# IQTIDORLI BOLALARDA TASHKILOTCHILIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Annotatsiya**

Maqolada iqtidorli bolalarda tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi, tashkilotchilik qobiliyatining tuzilishi, tashkilotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Qobiliyat, iqtidor, tashkilotchilik, tashkilotchilik qobiliyati.

В статье описаны методы развития организаторских способностей у одаренных детей, структура организационных навыков, способы формирования организаторских навыков.

**Ключевые слова.** Способности, талант, организованность, организаторские способности.

The article describes methods for the development of organizational skills in gifted children, the structure of organizational skills, ways of forming organizational skills.

**Key words.** Abilities, talent, organization, organizational skills.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”, beshinchi – “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” bandida: yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish vazifalari belgilab qo‘yilganligi, mamlakatimizda bolalar iqtidori va iste’dodini yuksaltirishga qaratilgan keng qamrovli ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

O‘quvchilar iqtidori va tafakkurini o‘stirmay turib, ularning kommunikativ va tashkilotchilik ko‘nikmalarini shakllantirib, qobiliyatlarini o‘stirib bo‘lmaydi. Iqtidor – bu hayot davomida psixikani rivojlanish tizimidir. Iqtidor u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishda kuzatiladi. Iqtidor – bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlovchi qobiliyatlarning o‘ziga xos shakli bo‘lib, qobiliyatlarning o‘zaro muvofiqligini ta’minlaydi va boshqa qobiliyatlardagi kamchiliklarni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tashkilotchilik qobiliyati maxsus qobiliyat sifatida guruhdagi faoliyatni boshqarishda yordam beradigan fazilatlar to‘plami hisoblanadi. Iqtidorli bolalarda ijtimoiy faollik, hozirjavoblik, tashkilotchilik qobiliyati sezilarli darajada namoyon bo‘ladi.

Taniqli psixolog L.I.Umanskiy (1921-1983) tashkilotchilik faoliyati va tashkilotchilik qobiliyatlari muammolarini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘p yillik eksperimental tadqiqotlar davomida tashkilotchilik faoliyatni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan maktab o‘quvchilarini sezilarli darajada ajratib turadigan va bu muvaffaqiyatni ko‘rsatmasdan amalga oshiradigan shaxsning psixologik xususiyatlarini aniqlab, tavsiflagan.

L.I.Umanskiy tashkilotchilik (maxsus) qobiliyatlar tarkibiga quyidagi tarkibiy qismlarni kiritgan:

**Psixologik selektivlik** – psixologiyani eng to‘liq va chuqur aks ettirish qobiliyati shaxslararo munosabatlar va umuman guruhning psixologik xususiyatlarini o‘z ichiga olgan umumiy guruh muammosini hal qilish jarayonida uyushgan guruh. Aqlning amaliy psixologik yo‘nalishi, ya’ni amaliy psixologiyani egallash, psixologik hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni guruh muammolarini hal qilish amaliyotiga tatbiq etishga tayyorligi.

**Psixologik takt** – boshqalar bilan munosabatlarda mutanosiblik tuyg‘usini saqlab qolish qobiliyati, ularga va ularning psixologik xususiyatlariga mos harakat qilish. Bunga sezgirlik, obyektivlik hissi, boshqalarga nisbatan rahm-shafqat qo‘shilishi kerak.

**Ijtimoiy energiya** – bu tashkilotchining boshqariluvchilarga o‘z energiyasini yuqtirish va zaryad qilish, ularda hissiyotlarni va irodali harakatlarni yaratish qobiliyatini shakllantirish.

**Talabchanlik va tanqidiylik** – bu guruh vazifasi bilan belgilab qo‘yilgan shartlarni, shuningdek, birgalikdagi faoliyat uchun muhim bo‘lgan belgilangan normalarni (shu jumladan guruh me’yorlarini) aniqlash va ifodalash qobiliyati. Tashkilotchilik faoliyatiga mulk sifatida moyillik, bir tomondan psixologik tayyorlik qobiliyati va guruhiy faoliyatga ehtiyoj, ikkinchi tomondan, uni amalga oshirish jarayonida farovonlik. Yuqoridagi xususiyatlarning har biri bir qator belgilarda namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos sindromdir.

Iqtidorli bolalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini belgilashda “boshqaruvchi” va “tashkilotchi” tushunchalarini ajratish juda muhimdir, chunki, L.I.Umanskiyning fikriga ko‘ra, har bir tashkilotchi rahbar, ammo har bir rahbar tashkilotchi emas. Tashkilotchi ishining obyekti ma’lum bir ijtimoiy jamoatchilikka ta’siri – u undaydigan, ma’lum bir ijtimoiy vaziyatda birgalikdagi faoliyat sharoitida ma’lum bir guruh vazifasini hal qilish uchun birlashtiradigan kichik guruhga ta’sir qilishdir.

Tashkilotchilik faoliyatining tuzilishi:

1. Vazifani o‘zlashtirish.
2. Kichik tashkilotchilarni va uyushganlarni tanlash.
3. Uyushganlarni topshiriq bilan tanishtirish. Guruhiy qaror qabul qilish.
4. Moddiy resurslarni, vaqt va makon sharoitlarini aniqlash.
5. Optimal ma’lumotlarga asoslanib rejalashtirish.
6. Mas’uliyatni taqsimlash. Tashkilot shaklini aniqlash.
8. Ichki muvofiqlashtirish va aloqa.
9. Kichik tashkilotchilar bilan ishlash.
10. Vazifani yakuniy tahlili va ishlashni baholash (individual va jamoaviy).

Iqtidorli bolalarda tashkilotchilik qobiliyati oddiy bolalarga nisbatan yuqori bo‘lishi bilan ajralib turadi. Pedagog va psixologlar maktabda iqtidorli bolalarni aniqlab olishi va ular bilan rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirishlari lozim. Iqtidorli bolalarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan tashkilotchilik xususiyatlari – faoliyatni tashkil qilish qobiliyati; muloqot qobiliyatlari, amaliy aql, boshqalarga yuqtirish va faollashtirish qobiliyati, tanqidiylik, xushmuomalalik, tashabbuskorlik, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlilikni o‘z ichiga oladi. Iqtidorli bolalarda tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirishning xilma-xil metodikalari mavjud bo‘lib, ulardan eng yaxshi samara beruvchisi psixologik treninglardir.

Iqtidorli bolalarda tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirishga mo‘ljallangan mashqlar: Tashkilotchilik qobiliyatlar alohida narsa emas, ular rivojlangan umumiy qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi va muayyan faoliyat turi uchun zarurdir. Shuning uchun, ularni rivojlantirish uchun quyidagi umumiy mashqni taklif qilish mumkin.

**Vaqtni taqsimlash**

Kechqurun ertangi kun uchun qilinadigan ishlar ro‘yxatini tuzish, erta turishni o‘rganish, kun jadvalini tuzing va unga amal qilish. O‘zingizni ish joyingizda, kompyuter stolingizda, uydagi shkafda tartibli bo‘lishga o‘rgatish. Ushbu tartibni sozlash va saqlash.

Iqtidorli bolalarning tashkilotchilik qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.

1. Avtoritet. Bu tashkilotchida bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy fazilat. Vazifalar ikkilanmasdan bajarilishini ta’minlash kerak. Odatda, guruhning boshqa a’zolari ko‘proq tashkilotchilardan o‘rnak olishadi. Guruhdoshlar bilan muomalada o‘zini tuta oladigan ishonchli shaxs eng yaxshi turtki beradi.

2. Konfliktlarni hal qilish. Tashkilotchilik ko‘nikmalar tarkibiga turli sheriklarga ta’sir ko‘rsatishning to‘g‘ri tanlangan usullari o‘tkir vaziyatlarni yumshatadi, psixologik iqlim va muloqot madaniyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Qat’iylik. Tashkilotchilik ko‘nikmalarini nazorat va qat’iyliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Sheriklar, guruhdoshlardagi dangasalikni zudlik bilan bostirish juda muhim, va iqtidorli, tashkilotchi o‘quvchining o‘zi ularga shunchaki namuna ko‘rsatishga majburdir. O‘rtoqlari, guruhdoshlariga itoat qilmaslik jazoga olib kelishi haqida muloyimlik bilan tushuntirish kerak.

4. Rag‘batlantirish. Ko‘pincha turli faoliyat sheriklarning xizmatlari inobatga olinmaydi. Qanday bo‘lmasin, shaxsan yoki jamoat oldida sizning muvaffaqiyatlaringizni qanday nishonlasangiz sheriklar yutug‘iga ham e’tiborli bo‘lish lozim. Aks holda, guruhdagilar to‘liq quvvat bilan ishlash motivatsiyasini yo‘qotadi. Guruh a’zolarini maqtab, butun jamoa ustunlikni egallashga, topshiriqlarni yaxshiroq bajarishga va intizomni buzmaslikka intiladi. Rag‘batlantirish moddiy bo‘lishi shart emas, ba’zilar shaxsiy maqtov va diplomni ko‘proq qadrlashadi.

Iqtidorli bolalarda tashkilotchilik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

– ko‘zgu oldida his-tuyg‘ularni mashq qilish – hissiyotlarni to‘g‘ri yetkazish yoki yashirishga yordam beradi – muayyan vaziyatga qarab;

– ishlarni yozma ravishda rejalashtirish – vaqt ajratish, rejalarni amalga oshirish odatini rivojlantirishga imkon beradi, shuningdek, sustkashlikni yo‘q qiladi;

– ashula – hissiyotlarni yetarli darajada yetkazish uchun mashq, odam o‘ziga savol berganda va ularga javob berganda, so‘zlarni aytganda;

– tanishlar bilan shaxsiy suhbatlar boshlash orqali muloqot qobiliyatlarini oshirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Baratov Sh.R. Ta’limda psixologik xizmat asoslari. – T.: BuxDU, 1999. – 77-85-betlar.*

*2. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. – СПб., 2000. – С. 440.*

*3. Голубева Э.А. Способности и индивидуальность. – М.: Прометей, 1993. – С.114.*

*4. Davletshin M.G. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya asoslari. – T.: TDPU, 2006. – 43-b.*

*5. Уманский Л.И. Психология организаторской деятельности школьников –М., Просвещение, 1980. – С.160.*

**Nozima KARIMOVA,**
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ‘‘Personalni boshqarish‘‘ kafedrasi dotsenti

# PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘RNI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ta’lim mazmunini zamonaviy ta’lim tendensiyalari asosida takomillashtirishda kompetensiyaviy yondashuvlarni qo‘llash, bu jarayonda pedagogning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning muhimligi hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda individual psixologik xususiyatlarning o‘ziga xosligi – bilimga chanqoqligi, pedagogik fikrlashi, salohiyati, kuzatuvchanligi, maqsadga intilishi, qiziqishi va ularning ta’lim jarayonini loyihalashdagi ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Kompetensiya, ijodiy fikrlash, kreativlik, diqqat, sezgi, tafakkur, fantaziya, shakllanish, kasbiy kompetentlik.

В статье рассматривается применение компетентностных подходов к совершенствованию образования на основе современных образовательных тенденций, важность непрерывного развития профессиональных компетенций учителей в этом процессе и специфика индивидуально-психологических характеристик в развитии профессиональных компетенций. А также подчеркнута важность знаний, педагогического мышления, потенциала, наблюдательности.

**Ключевые слова.** Компетентность, творческое мышление, креативность, внимание, интуиция, мышление, фантазия, формирование, профессиональная компетентность.

The article examines the application of competence-based approaches to improving education based on modern educational trends, the importance of continuous development of professional competencies of teachers in this process and the specificity of individual psychological characteristics in the development of professional competencies. It also emphasized the importance of knowledge, pedagogical thinking, potential, observation.

**Key words.** Competence, creative thinking, creativity, attention, intuition, thinking, fantasy, formation, professional competence.

Jahon hamjamiyatida har qanday davlatning mavqei aholisining turmush darajasi hamda siyosiy va iqtisodiy faolligi bilan belgilanadi. Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi omillar ta’lim sohasining rivojlanishiga ham bevosita bog‘liq. Zamonaviy tendensiyalarga ko‘ra, ta’lim sohasining rivojlanish omillaridan biri kompetensiyaviy yondashuvni ta’limga joriy etishdir. Bu o‘z-o‘zidan tayyorlanayotgan pedagog-mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish talabini yuzaga keltiradi.

Kasbiy kompetentlik – “pedagogik faoliyatni oliy darajada amalga oshira oladigan o‘qituvchining mehnatini, pedagogik muloqotni va o‘qituvchi shaxsining salohiyatini

belgilaydiki, uning yordamida ta’lim oluvchilarning ta’lim-tarbiyasi sohasida yaxshi natijalarga erishiladi”. “Kasbiy kompetentlik” tushunchasi o‘qituvchi mehnat faoliyatining umumlashmasi sanaladi: pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, pedagogning shaxsi (protsessual ko‘rsatkichlar) ta’lim darajasi – ta’lim olganlik, tarbiyasi – tarbiya darajasi (natija ko‘rsatkichlari). Bularning har biri o‘z tarkibiga quyidagi muhim jihatlarni biriktiradi:

– pedagogik bilimlar – psixologik ma’lumotlar, o‘qituvchi mehnatining mohiyati haqida pedagogik tushuncha, uning pedagogik faoliyatining o‘ziga xosligi, muomalasi, shaxsi, ta’lim oluvchilarning psixologik o‘sish darajasi, ularning yoshi;

– mahorat – harakat, keraklicha yuqori darajada bajariladigan faoliyat;

– kasbiy psixologik pozitsiyasi – o‘qituvchining ta’lim oluvchiga, hamkasblariga, o‘ziga bo‘lgan munosabatini aniqlovchi xulq-atvori, salohiyati, kasbiy takomillashuv darajasi, o‘z mehnatining mohiyatini tushunishi;

– psixologik o‘ziga xosligi (ma’naviy fazilatlari) – bilimga chanqoqligi, pedagogik fikrlashi, salohiyati, kuzatuvchanligi, maqsadga intilishi, qiziqishi va boshqalar.

Pedagogning ijodiy faoliyati o‘quv-pedagogik faoliyatining nostandart usullarida, o‘z ishini rasmiylashtirishdagi o‘ziga xosliklarda, pedagogik vaziyatlarni hal qilishda mustaqil yechimlarni topa bilishda, izlanish faoliyatiga layoqatlilikda, kasbiy topshiriqlarni va usullarni tanlashga erkin yondashishda, tashabbuskorlikda, o‘z taklif va g‘oyalarini erkin ifodalashda namoyon bo‘ladi. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim oluvchining ijodiy faoliyati katta rol o‘ynaydi. Ijodiy faoliyatda intuitsiya, diqqat, kuzatuvchanlik, hissiyot, idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, iroda va boshqa xususiyatlar safarbar qilinadi. Bu ta’rifni psixologiya nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqamiz.

Ijodkorlik – “bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tkazish” – bu jarayonda qoidalarning yangi qolipi, chizmasi, ma’lum tuzilmalarning yangi turi yuzaga keladi. Yangi yaratilgan shakllar eski shakllarning yangicha talqini bo‘lmaydi. Lekin narsalarni anglashning haqiqatan yangi usullari va yangi shakllari sifatida paydo bo‘ladi, metaforalarning qo‘llanilishi – bu bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tkazish “transformatsion” ijodkorlikka misol bo‘ladi.

Bu ijodkorlik uchun evristik jarayon shakl va qoidalardan boshqariladigan shakl qoidalarini rivojlanishi uchun tug‘ilayotgan imkoniyatlar sari harakat qiladi. Ijodkor shaxs qoidalar yaratilishi bilanoq, ularga suyangan holda, yangi qoidalar yaratish ustida ish boshlaydi. Undan so‘ng faoliyat shakllarini ochish, oldin hech qachon qo‘llanilmagan shakllarni kashf etish uchun bosh qotiradi.

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish haqida fikr bildirar ekanmiz, ijodiy intuitsiya va tahlil, ya’ni o‘z ijodini mantiqiy anglash, badiiy ijodning bosqichlaridir. Obrazli fikrlash, intuitsiya, baholash faoliyati va emotsional kayfiyatsiz ijodiy jarayon mavjud bo‘lmaydi. Ijodiy faoliyat bilan rivojlanadigan estetik negizlar va psixologik mexanizmlar barcha ijod elementlarida mavjud. Borliq va san’atni estetik tasavvur etilishi avtomatik ravishdagi odatiy tasavvurni bartaraf qilishni nazarda tutadi. Estetik tuyg‘u paydo bo‘lishi uchun, avval, buyumga e’tibor berilmagan tomonlarni ko‘rish kerak, uni yangi nuqtayi nazar bilan ko‘zdan kechirish lozim.

Intuitsiya – bu faraz, ziyraklik, sezgirlik. Ko‘p amaliy masalalarni yechishda, shu jumladan, pedagogik muhitni loyihalashda, ijodiy intuitsiyaga asoslangan usullar (aqliy hujum usuli) keng tarqala boshlandi. Ko‘pincha bu masalalar hisoblash yordamida emas, balki intuitsiya asosida yechiladi. Pedagogni kasbiy faoliyatida ishlash jarayonida intuitiv faraz va mantiqiy tuzilishlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, navbatma-navbat almashib turadi va murakkablashib boradi. Pedagogda intuitiv fikrlash vujudga kelishi uchun ong ostiga taalluqli elementlarni ajratib olishi kerak. Ijodiy masalani yechgan paytda formal-

mantiqiy komponentni susaytiradigan imkoniyatni yaratish lozim.

Shaxsning fikrlash faoliyatida individual farqlar mavjud bo‘lib, ularning eng asosiylari aqlning kengligi, chuqurligi, mustaqilligi, moslashuvchanligi va tezligi hisoblanadi. Bu sifatlarni fikrlashga oid masalalarni yechish jarayonida, pedagoglarning o‘quv-ijodiy faoliyatining kechishi davomida rivojlantirish mumkin.

O‘quv-bilish faoliyati davomida shaxsning psixologik jarayonlarini va pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi ijodiy faoliyatini faollashtirish usullarini tahlil qilib, biz quyidagi xulosalarga keldik:

– pedagoglarni kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirishda ularga sifatli bilim berish ularning ijodiy faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish hisoblanadi. Bunda o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, o‘qitish jarayonida tanlab olingan maqbul metodikalarning qo‘llanilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega;

– amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida nazarda tutilayotgan materialni o‘rganishlarini nazorat qilish, murakkab materialni auditoriyadagi har bir pedagog o‘zining tayyorgarligi darajasiga bog‘liq holda idrok qilinishi yo‘llarini izlashi zarur;

– pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning muvaffaqiyatliligi muntazam to‘g‘ri tashkil etilgan mashqlarga bog‘liq bo‘lib, miqdoriy jihatdan to‘planib, sifat darajasiga o‘tadi;

– o‘quv-amaliy va ijodiy faoliyatda egallanadigan bilimlar pedagoglarning irodasiga, qiziqishlariga, intilishlariga bog‘liq bo‘lib, u shaxsning ehtiyojlari bilan tartibga solinadi;

– o‘rganilayotgan materialga diqqat e’tibor materialning faqat tushunarliligi bilan emas, balki uning ahamiyati, unga bo‘lgan munosabat, ya’ni pedagoglarning ehtiyojlari va qiziqishlari xususiyatlari bilan ham belgilanadi;

– sezgi va idrok intellektual jihatdan bilimlarning darajasi va mazmuniga, avvalgi tajribalariga bevosita bog‘liq;

– agar faoliyat hissiy kechinmalarga boy hamda pedagogning qiziqish va ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lsa, xotira va o‘quv materialini eslab qolish ongli bo‘ladi; xotira mexanizmini faollashtirish sharti o‘quv jarayonini xotirani faollashtirishning psixologik usullari va zamonaviy vizual kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda tashkil etish hisoblanadi;

– pedagoglarni o‘quv-ijodiy faoliyatining borishi to‘g‘risidagi tasavvurlari tartibga solingan mashqlar va ularni amalga oshirish jarayonida ijodiy vaziyatning mavjudligini o‘z ichiga oluvchi o‘quv jarayonini tashkil etish natijasida shakllanadi;

– tafakkur o‘quv faoliyati jarayonida pedagoglarni tahlil qilishga, sintezlashga, taqqoslashga, umumlashtirishga, aniqlashtirishga o‘rgatishda, tartibga solingan mashqlar olib borilganda faol shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Брякова И.Е. Креативная компетентность педагога // Профессиональное образование. Столица – Москва. 2008. – № 12. –С. 27-28.*

*2. Jalilova Sh.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. – T.: TDPU, 2010. – 161-b.*

*3. Жантлеува Ш.К. Формирование профессиональных компетентности студентов в процессе педагогической практики: Автореф. дис. … канд. пед. наук. – Алмата: КазНПУ, 2016. – С. 24.*

**Sohibjamol JO'RAYEVA,**
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti,
psixologiya fanlari nomzodi, "Psixologiya va pedagogika"
kafedrasi dotsenti
**Anjim SHAMSHETOVA,**
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti,
psixologiya fanlari nomzodi "Psixologiya va pedagogika" kafedrasi dotsenti

# KURSANTLARDA KASBIY KOMPETENTLIK VA KREATIVLIKNI SHAKLLLANTIRISH MEXANIZMLARI

**Annotatsiya**

Ushbu maqola harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan kursantlarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillarga e'tibor berish, kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o'quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo'nalishlarini kuchaytirish, yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etishda kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish masalalariga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar.** Kreativlik qobiliyat, kreativ faollik, kompetentli yondashuv, kasbiy faoliyat, intellekt, intuitsiya, mantiqiy fikrlash, kreativ qiziqish.

В данной статье рассматриваются вопросы уделения внимания факторам развития творческих способностей у курсантов, обучающихся в военном учебном заведении, развития навыков творческого мышления, формирования творческой активности, ведения образовательного процесса в направлении научно-исследовательских и проблемных исследований, достижения подходов к опыту творческой деятельности как компоненту содержания профессиональной деятельности в военном учебном заведении.

**Ключевые слова.** Способность к творчеству, творческая деятельность, компетентностный подход, профессиональная деятельность, интеллект, интуиция, логическое мышление, творческий интерес.

This article focuses on the issues of paying attention to the factors that develop creative abilities in cadets studying in a military educational institution, development of creative thinking skills, formation of creative activity, conducting the educational process in the direction of research and problematic research, achieving approaches to the experience of creative activity as a component of the content of professional activity in a military educational institution.

**Key words.** Creativeness ability, creative activity, competency approach, professional activity, intellect, intuition, logical thinking, creative interest.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4732-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PQ-4947-son

qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

XXI asr globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda barcha sohalarda raqobat asri hisoblanadi. Shu bois, XX asrning oxirlariga qadar pedagog, metodist olimlar kimni, nimani va qanday o‘qitamiz degan savollar doirasida tadqiqot ishlari olib borgan bo‘lsalar, XXI asrdagi shiddatli ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika taraqqiyoti ta’lim tizimini shaklan va mazmunan modernizatsiya qilishni taqozo etdi. Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida zamonaviy pedagogik texnologiya hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijani oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Ko‘rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta’sirida kechadi.

Kursantlarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda kursantlarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

– kursantlarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

– ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

– o‘quv jarayonini kursant shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– kursantlarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash;

– kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Mavzu doirasida interfaol o‘qitish jarayonida kursantlarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodaladik:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich kursantlarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innovatsion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Kursantlardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan

strategik rejalarni tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Interfaol o‘qitish metodlari o‘z ichiga**:** aqliy hujum, muammoli bayon; Keys-stadi; tadbirkorlik o‘yinlari; debat; blits-so‘rov; Suqrot dialogi; o‘quv loyihalari; aniq vaziyatlar tahlili (AVT), SWOT-tahlil va boshqalarni qamrab oladi.

Xulosa sifatida quyidagilarni tavsiya sifatida berishimiz mumkin:

1. Kursantlarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar: kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o‘quv jarayonini izlanuvchanlik hamda muammoli tadqiqotchilik yo‘nalishlarini kuchaytirish; kursantlarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish; kursantlarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish; kursantlarning kasbiy ko‘nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo‘naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatish, mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini bilish, o‘z mavqeiga ega bo‘lish, kursantlarning mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish; kursantlarning kreativ layoqatlarini namoyon qilish uchun qulay ijodiy-hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilardan iboratligi aniqlandi.

2. Kursantlarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarini tizimli tarzda o‘rganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida uchraydigan kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion to‘siqlarning bartaraf etishning samarali yo‘llarini belgilash lozim.

3. Kursantlarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalar, konsepsiyalar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Kursantlarning kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya’ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

5. Harbiy ta’lim muassasalarida kursantlar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va kursantlarning kreativ ko‘nikma va malakalarini rivojlanishining o‘zgarishini baholab borish lozim.

6. Harbiy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek, kursantlarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta’minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jo‘rayeva S.N. Kursant shaxsiga kasbiy shakllanish ta’sirining psixologik jihatlari. Navro‘z nashriyoti, 2015-y. 8-25-betlar.

2. Jo‘rayeva S.N. O‘qituvchining malaka va kasbiy kompetensiyasini baholash/ Monografiya. Navro‘z nashriyoti, 2018. –144-b.

3. Asadov Y.M. Ruhiy holatlar diagnostikasi va korreksiyasi. – T., 2000

4. Бодалев А.А, Столин В.В. Общая психодиагностика. СПб.: Речь, 2001

**Mohinur MAMATALIYEVA,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti magistratura talabasi

# MAXSUS FANLARNI O‘QITISHDA MASOFAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

**Annotatsiya**

Maqolada mamlakatimiz ta’lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash uchun keng ko‘lamda samarali qo‘llanilayotgan o‘qish jarayoni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan masofaviy ta’lim metodikasi qo‘rib chikilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ma’sofaviy ta’lim, metod, innovatsiya, masofaviy ta’lim modellari, birlamchi model, ikkilamchi model, konsorsium, franchayzing.

В статье расматривается учебный процесс, широко применяемый для подготовки качественных кадров в системе образования страны, представляет собой дистанционную методику обучения, основанную на современных информационно-коммуникационных технологиях.

**Ключевые слова.** Дистанционное обучение, инновации, модели дистанционного обучения, первичная модель, вторичная модель, консорциум, франчайзинг.

The educational process, which is widely used to train high-qualified personnel in the country’s education system, is a distance learning method based on modern information and communication technologies.

**Key words.** Distance education, innovation, distance learning models, primary model, secondary model, consortium, franchise.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining ijtimoiy yo‘nalishida oliy ta’lim muassasalari uchun pedagoglarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk va komil shaxslarni tarbiyalash, ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda shart-sharoitlarni yaratish, ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik manbalarni o‘rganish va taxlil qilish, qishloq va suv xo‘jaligi sohasida “Kasb-ta’limi” bo‘yicha kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlov kurslarini tahlil qilish bo‘yicha muxim vazifalar qo‘yildi. Ta’lim to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 23-sentabr 2020-yildagi O‘RQ-637-sonli qonunida keltirib o‘tilgan. Ushbu qonunning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hisoblanadi. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun xujjatlari ushbu Qonun va boshqa boshqa hujjatlaridan iborat. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilar:

– ta’lim ustuvorligining tan olinishi;
– ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
– ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
– ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;
– ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
– ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlari;
– ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

– o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;

– davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

– o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

– insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;

– jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

– ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

– bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;

– ta’lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvining uyg‘unligi;

– ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik;

Oliy ta’lim muassasalari magistrantlarining kasbiy-pedogogik rivojlanishi uchun ularning mustaqil fikrlashlari, faolliklari, ijodkorliklari, dunyoqarash kengligi, bilimlarni boyitib borishga bo‘lgan harakatlari, izlanuvchanligi bilan tavsiflanadi. Magistrantlarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda faol hamda samarali metodlar qo‘llaniladi. Bu ta’lim turining bir necha modellari mavjud bo‘lib, ular masofaviy ta’lim tashkil qilinishiga sabab bo‘lgan vaziyatlari bilan farqlanadi.

Birlamchi model. Ushbu model faqat masofaviy talabalar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning har biri virtual o‘qituvchiga biriktirilgan bo‘lib, konsultatsiyalar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun regional bo‘limlar bo‘ladi. Bunday o‘quv kurslarda o‘qituvchi va talabalarga o‘quv shaklini va formasini tanlashda imkoniyatlar va erkinliklar beriladi. Bu modelga misol qilib, Buyuk Britaniya davlatidagi Ochiq Universiteti ta’limini olishimiz mumkin.

Ikkilamchi model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta’lim talabalar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhda bir xil o‘quv dasturi va darslar jadvali, imtihonlar va ularni baholash mezonlari mavjud bo‘ladi. Bunday o‘quv muassasalarda kunduzgi kurslarning soni masofaviylarga qaraganda ko‘p. Ushbu masofaviy kurslar pedagogika va uslubiyotdagi yangi yo‘nalishlarni izlanishlarida qo‘llaniladi. Bu modelga misol qilib Yangi Angliya va Avstraliya Universitetidagi ta’limni olish mumkin.

Aralashgan model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta’lim turlarini integratsiyalashtirish uchun yaratiladi. Talabalar o‘quv kursining bir qismini kunduzgi, boshqa qismni esa masofadan o‘qiydi. Shu bilan birga bu ta’lim turiga virtual seminar, prezentatsiyalar va ma’ruzalar o‘tkazish ham kiradi. Bu modelga misol qilib, Yangi Zelandiyadagi Massey Universitetidagi ta’limni olish mumkin.

Konsorsium. Ushbu model ikkita universitetlarni bir-biri bilan birlashishini talab qiladi. Ushbu muassasalardan biri o‘quv kurslarini tashkil qilib ishini ta’minlasa, ikkinchisi esa ularni tasdiqlab, kurslarga talabalarni ta’minlaydi. Shu bilan birga bu jarayonda butun universitet emas, balki ta’lim sohasida ishlaydigan korxonalar ham qatnashishi mumkin. Ushbu modelda o‘quv kuslarini doimiy ravishda nazorat qilish va muallif xuquqlarini tekshirish zarur bo‘ladi. Bu modelga misol qilib, Kanadadagi Ochiq O‘quv Agentligidagi ta’limni olish mumkin.

Franchayzing. Ushbu model ikkita universitetlar bir-biri bilan o‘zlari yaratgan o‘quv kurslari bilan almashishadi. Masofaviy ta’lim sohasida yetakchi bo‘lgan o‘quv muassasa bu sohada ilk qadam qo‘yadigan muassasaga o‘zining o‘quv kurslarini taqdim etadi. Ushbu modelda ikkala model muassasa o‘quvchilari bir xil ta’lim va diplom olishadi. Bu modelga misol qilib, Ochiq Universitet Biznes maktabi va Sharqiy Yevropa Universitet-

lari bilan bo‘lgan hamkorligi bo‘lishi mumkin.

Masofaviy ta’lim metodikasida talabalar onlayn ma’ruzalarda va onlayn seminar darslarda qatnashib, darslarni o‘zlashtiradi. Internet orqali elektron kutubxonalardan foydalanadi, o‘quv materiallari va shaxsiy elektron modul tizimi orqali topshiriqlar oladi hamda internet yordamida o‘qituvchilar bilan maslahatlashish, kerakli tavsiyalar va bilimlarni olish imkoniyatini beradi.

Biroq, qishloq va suv xo‘jaligi sohasida mutaxassislar uchun amaliyot darslarni o‘zlashtirishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda ekin maydonlar sharoitini o‘rganish, qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish uchun maqbul rejimlarni tashkil etish, tuproq meliorativ holatini va relyefni aniqlash, iqlim va gidrogeologiyasini o‘rganishda amaliy bilimlar muhim o‘rin tutadi.

Masofadan o‘qitish metodikasi quyidagi kamchiliklarga ega:

– Kuchli motivatsiya zarur. Talabalar mustaqil ravishda darslarni o‘zlashtiradi va buning uchun ular tashqi nazoratlarsiz bilim olishga intilishi kerak.

– Masofaviy ta’lim muloqot qobiliyatini rivojlantirish xamda katta auditoriyalarda talaba erkin ma’ruzalar qilish qobilyatini rivojlantirishga xos emas.

– Amaliy bilimlarning yetishmasligi. Yuqorida keltirib o‘tilgan qishloq va suv xo‘jaligi sohasida, tibbiyot sohalarida masofaviy ta’lim “jonli” amaliyot o‘rnini bosa olmaydi.

– Talabani identifikatsiya qilish muammosi. O‘qituvchilarda talabaning onlayn test imtihonlarini mustaqil o‘zi topshirishini nazorat qilish imkoniyati bo‘lmaydi.

– Kompyuter savodxonligining yetishmasligi. Onlayn tarzda bilim olish bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompyuter bilan bog‘liq. Masofaviy ta’lim jarayonida kompyuterdan foydalanish bilimlariga ham ega bo‘lishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, malakali kadrlarni tayyorlashda pedagoglarning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda maxsus fanlarni o‘qitishda masofaviy ta’lim metodikasi qulay va samarali ta’lim metodi hisoblanadi. Axborot va kommunikatsiya jadal rivojlanyotgan davrda yangi pedagog kadrlarimiz talabalarga avvalgi dars jarayonlariga nisbatan kam vaqt sarflab, ko‘proq bilim va yangiliklar yetkazish, pedagog talabalar bilan individual shug‘ullanishi, ularga kerakli maslahat va bilmlarni bera olishi mumkin. Talabalar amaliy darslar bilan ko‘proq shug‘ullanishi, nazariy bilimlarni o‘zlariga qulay vaqtda onlayn tarzda o‘zlashtirib olish imkoniyati yaratiladi. Qishloq va suv xo‘jaligi soxasida ham asosan, ekin maydonlarning holati bo‘yicha masofadan turib zamonaviy dasturlash tizimlari orqali ma’lumotlar olish imkoni yaratilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to‘plami. – T., –2017. – 39-bet.

2. Ismailova Z.Q, Maxsudov P.M, Ergashev O.K, Matkarimov K.J, “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma. – T., – 2018. –7-bet.

3. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. –Toshkent, Moliya-iqtisod, 2008.

4. Ximmataliyev D.O., Baybayeva M.X., Farxutdinova M. Kasb-hunar ta’limi tizimining o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashda innovatsion ta’lim texnologiyalarni qo‘llash. Uslubiy qo‘llanma. – T. TIMI. 2015.

**Bayramali MUQIMOV,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, ‘‘Umumtexnika fanlari’’ kafedrasi dotsenti

# TALABALARNI MUSTAQIL ISH JARAYONIDA INTERFAOL TA’LIM METODLARI ASOSIDA DIDAKTIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

**Annotatsiya**

Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ishi (TMI) nafaqat o‘quv jarayonining muhim shakli, balki uning asosiga aylanishi bo‘icha fikrlar bayon etilgan. Bu bilimlarni o‘zlashtirishning faol usullariga, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga va shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘z fikr va mulohazalarini keltirib o‘tgan.

**Kalit so‘zlar.** Ta'lim metodlari, individual ta'lim, innovatsiya, didaktik kompetensiya.

В статье рассматривается идея о том, что самостоятельная работа студентов высших учебных заведений (ТМИ) является не только важной формой учебного процесса, но и его основой. Он дает представление об активных способах приобретения знаний, развития творческих способностей учащихся и учета потребностей и возможностей человека.

**Ключевые слова.** Образовательные технологии, индивидуальное образование, инновации, дидактическая компетентность.

The independent work of the students of higher education institutions (TMI) should not only be an important form of the educational process, but also become its basis. This includes the transition from continuous to individual education, taking into account the active methods of mastering knowledge, the development of students ' creative abilitiestirishga and the needs and opportunities of the individual.

**Key words.** Educational techniques, individual education, innovation, didactic competence

Oliy ta’limning asosiy vazifasi o‘z-o‘zini rivojlantirishga, mustaqil o‘qishga, innovatsion faoliyatga qodir mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdir. Faqatgina tayyor bilimlarni o‘qituvchidan talabaga berish orqali ushbu muammoni hal qilish qiyin. Talabani passiv bilim iste’molchisidan muammoni qanday shakllantirishni, uni hal qilish yo‘llarini tahlil qilishni, maqbul natijani topishni va uning to‘g‘riligini isbotlashni biladigan faol ijodkoriga o‘tkazish kerak. Talabalarning mustaqil ishi (TMI) nafaqat o‘quv jarayonining muhim shakli, balki uning asosiga aylanishi kerak. Bu bilimlarni o‘zlashtirishning faol usullariga, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga va shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda uzluksizdan individual ta’limga o‘tishni o‘z ichiga oladi. Bu nafaqat mustaqil ish uchun soat sonini ko‘paytirish bilan bog‘liq. Talabalarning mustaqil ishlashi rolini kuchaytirish o‘quv jarayonini tashkil qilishni tubdan qayta ko‘rib chiqishni anglatadi, bu esa o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish, o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish, olingan bilimlarni ijodiy qo‘llash va zamonaviy dunyoda kasbiy faoliyatga moslashish usullari kabi shakllantirilishi kerak.

Talabalarning mustaqil mashg‘ulotlari va darsdan tashqari talabalarning individual qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilligini hisobga oladigan ajralmas pedagogik tizim sifatida kognitiv faoliyatini mustaqil ravishda motivatsion, protsessual va texnologik qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor talab qilinadi.

Talabalarning mustaqil ishlashiga faqat jiddiy va barqaror turtki bilan erishish mumkin. Ya’ni kuchli rag‘batlantiruvchi omil – bu yanada samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir. Mustaqil ishni faollashtirishga yordam beradigan ichki omillarni ko‘rib chiqamiz. Ular orasida quyidagilar mavjud:

1. Bajarilgan ishning foydali tomonlari. Agar talaba o‘z ishining natijalari ma’ruza kursida, o‘quv qo‘llanmasida, laboratoriya seminarida yoki boshqa usulda qo‘llanilishini bilsa, topshiriqni bajarishga bo‘lgan munosabat yaxshi tomonga o‘zgaradi va bajarilgan ishning sifati ortadi. Shu bilan birga, talabani psixologik jihatdan shakllantirish, unga bajarilgan ish qanday zarurligini ko‘rsatish kerak.

2. Foydali omildan foydalanishning yana bir varianti mashg‘ulotlarda ish natijalarini faol qo‘llashdir.

3. Talabalarning ijodiy faoliyatda ishtiroki. Bu har hafta konferensiya, ilmiy-tadqiqot, uslubiy ishlarning sikl komissiyasida ishtirok etishi bo‘lishi mumkin.

4. Muhim motivatsion omil intensiv pedagogika hisoblanadi. Bu o‘quv jarayoniga faol usullarni, birinchi navbatda, innovatsion va tashkiliy-faol o‘yinlarga asoslangan o‘yinlar tayyorlashni kiritishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuvning birinchi bosqichi ishbilarmonlik yoki vaziyatli bandlik, shu jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi.

5. O‘quv fanlari bo‘yicha olimpiada, ilmiy yoki amaliy ishlarda tanlovlarda ishtirok etish.

6. Bilimlarni boshqarishning rag‘batlantiruvchi omillaridan foydalanish (baholar, reytinglar, testlar, nostandart imtihon jaeayonlari). Muayyan sharoitlarda ushbu omillar raqobatbardoshlikka intilishni keltirib chiqarishi mumkin, bu o‘z-o‘zidan talabalarning o‘zini takomillashtirish uchun kuchli motivatsion omil hisoblanadi.

7. Talabalarni o‘qishlarida va ijodiy faoliyatlarida muvaffaqiyat uchun rag‘batlantirish (stipendiyalar, mukofotlar, mukofot ballari).

8. Auditoriyada ham, undan tashqari ham bajariladigan vazifalarni individuallashtirish, ularni doimiy ravishda yangilab turish.

9. Intensiv o‘quv ishlarida va, mustaqil ishda rag‘batlantiruvchi omil – bu o‘qituvchining shaxsi. O‘qituvchi talabaga professional, ijodiy shaxs sifatida namuna bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchiga ijodiy potensialini ochishda, uning ichki rivojlanish istiqbollarini aniqlashda yordam berishi kerak.

10. Mustaqil ta’lim faoliyati uchun motivatsiyani o‘quv jarayonini tashkil etishning siklli o‘qitish shaklidan foydalanish orqali oshirish mumkin. Ushbu usul materialni o‘rganishni jadallashtirishga imkon beradi, chunki ma’lum bir fan bo‘yicha darslar oralig‘ini qisqartirish tarkibga doimiy e’tiborni talab qiladi. Ushbu turdagi mashg‘ulotning o‘zgarishi bu amaliy mashg‘ulot bo‘lib, kursning bir nechta mavzularini qamrab oladi va muammolarni yechishga qaratilgan.

Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo‘yicha talabalarga zaruriy uslubiy ko‘rsatma va tavsiyalar hamda turli shakldagi mustaqil ish topshiriqlari ishlab chiqildi.

Og‘zaki mustaqil topshiriqlar:

– darslik bo‘yicha materialni o‘rganish va takrorlash, chizmalar va sxemalarni o‘qish, turli texnik adabiyotlar, hujjatlar va materiallarni o‘rganish asosida o‘qituvchi savollariga javob tayyorlash, ishlab chiqarish faoliyati tahlili kabilar kiradi. Materiallar

mustahkamlash va yodlashga mo‘ljallangan.

Didaktik kompetensiyani shakllantiruvchi mustaqil topshiriqlar:

– o‘quv materiali mazmuni va mohiyatini yorituvchi o‘quv axborotlari majmuini hamda didaktik materiallarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Yozma mustaqil topshiriqlar:

– hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to‘ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to‘g‘risida hisobotlar tuzish va shunga o‘xshash vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Grafik mustaqil topshiriqlar:

– ularga turli chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash, (ayrim detal va tugunlarni chizib ko‘rsatish va h.k), sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o‘xshash vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlar:

– talabalar o‘qituvchi topshirig‘i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida ma’lum detal tayyorlash, tugun va mexanizmlarni yig‘ish, texnik jarayonlarni ishlab chiqadi. Ushbu ishlarni bajarganda talabalar asbob-uskunalarni tanlash, ishlov berish rejasini aniqlash va hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellar, namunalar kabi ishlarni amalga oshiradi.

Talabalarda mustaqil ish jarayonida didaktik kompetensiyasini takomillashtirishda interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish talabalarning o‘quv-tarbiya jarayoniga munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirishi aniqlandi: o‘rganish predmetidan olingan ma’lumotni mashq bajaruvchi subyektga mustaqil ravishda (yakka tartibda yoki guruhda) kerakli axborotlarni olishga erishish va asoslash. Interfaol o‘qitish usullaridan foydalanganda o‘qituvchining kasbiy mavqei o‘zgaradi: ta’lim mazmunining tarjimonidan boshlab, u aloqa tashkilotchisi, maslahatchi va mutaxassis (ekspert)ga aylanadi, muammolarni hal qilish jarayonini tashkil qiladi va maslahat beradi hamda talabalar tomonidan olingan natijalar (yechimlar)ni o‘rganadi.

Mustaqil ta’limni dars, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari, pedagogik va ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amal qilishining o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tildi. Mustaqil ta’lim qaysi shaklda bajarilishidan qat’i nazar, talaba shaxsida bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Talabaga bo‘lajak mutaxassis sifatida erkin fikrlash, kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalashi asosida ijtimoiy faol malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Ismailova Z.K., Muqimov B.R. Amaliy ta’lim metodlari // – T., Kasb-hunar ta’limi. 2014. № 4. – 2-8-betlar.*

*2. Мамирова Н.Т. Применение блочно-модульной технология в развитии профессиональной деятельности студентов колледжа // Молодой ученый, 2013. № 9. – С. 385-387.*

*3. Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochiligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari: Diss…. ped.fan. nomz. – T.: 2001. – 140-b.*

*4. Abduquddusov O. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005, – 157-b.*

**Xayrullox TO‘YCHIYEV,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti tayanch doktoranti

# BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA INTERFAOL TA’LIM VOSITALARINI QO‘LLASH BO‘YICHA DIDAKTIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish tizimidagi interfaol ta’lim vositalarini qo‘llash, ular haqida ma’lumot va didaktik ko‘nikmalar haqida to‘liq ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ko‘nikma, didaktika, interfaol, metod, kompetensiya, axborot texnologiyalari, onlayn ta’lim.

В статье представлена подробная информация об использовании интерактивных учебных пособий в системе обучения в высших учебных заведениях, информация о них и дидактических навыках.

**Ключевые слова**. Умение, дидактика, интерактив, метод, компетенция, информационные технологии, онлайн-обучение.

The article provides detailed information on the use of interactive teaching aids in the education system in higher educational institutions, information about them and didactic skills.

**Key words.** Skill, didactics, interactive, method, competence, information technology, online learning.

Dunyo miqyosida ta’lim sifati zamonaviy jamiyatning axborot, global va ekstremal ijtimoiy o‘zgarishlar bilan xarakterlanuvchi holatga o‘tishi, jamiyatning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining yuksak ko‘rsatkichlariga intiluvchan professional faoliyatni amalga oshirishga qodir, maxsus kompetensiyaga ega mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Innovatsion ta’lim modellari, uslublari va texnologiyalarini qo‘llash, o‘quv jarayonining qisman yoki to‘liq axborot muhitiga o‘tkazish ta’limning xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi omiliga aylanmoqda.

Oliy o‘quv yurtida ta’lim olish jarayonida zamonaviy axborot vositalarini qo‘llash nuqtayi nazaridan bo‘lajak o‘qituvchilarni didaktik tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Didaktik tayyorgarlik ularning kasbiy-pedagogik shakllanishi jarayoni quyi tizimining ajralmas qismi bo‘lib, oliy o‘quv yurti bitiruvchilari o‘quv jarayonini tashkil etishda katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda, zamonaviy axborot vositalarini qo‘llash bo‘yicha didaktik ko‘nikmalarning yetarli darajada emasligi hozirgi kunning asosiy masalalaridan biridir.

Axborot va texnologiyalarini rivojlantirish bilan bog‘liq didaktika va didaktik tizimning o‘zgarish va rivojlanish dinamikasini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Didaktika (yunon tilidan didaktikos – ibratli) – pedagogikaning bir qismi bo‘lib, o‘qitish va ta’lim nazariyasini (o‘quv maqsadlari, mazmuni, va tamoyillari), shuningdek, ta’lim jarayonida tarbiya berishni ishlab chiqadi. Zamonaviy nuqtayi nazardan, didaktika – *bu o‘qitishning ped-*

*agogik nazariyasi*. Didaktika, shuningdek, bilim, ko‘nikma va malakani o‘zlashtirishning mohiyati, tamoyillari va qonunlarini ochib beruvchi, *o‘qitish va ta’limning umumiy nazariyasi* sifatida qayd etilib, ta’lim mazmuni hajmi va tuzilishini belgilaydi, uning usullari va tashkiliy shakllarini takomillashtiradi, o‘quv jarayonining o‘quvchilarga ta’sirini o‘rganadi.

Didaktika, pedagogika fanining har qanday sohasi kabi, doimiy rivojlanishdadir, unda o‘qitishning mazmuni yangilanadi, uning yangi usullari va shakllari paydo bo‘ladi, o‘qitishning texnik vositalari takomillashtiriladi hamda faol ravishda axborot texnologiyalari joriy etiladi.

Didaktik tizim deyilganda, ma’lum bir texnologiya bo‘yicha o‘quv jarayonini amalga oshiradigan muhit tushuniladi. Didaktik tizim o‘qituvchilar, talabalar, maqsadlar, tarkibi, usullar, o‘qitish vositalari va shakllarini o‘z ichiga oladi. Didaktik tizim umumiy instrumental elementlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘qitishning bir xil usullari yoki vositalari. Shu bilan birga, ta’limning samaradorligi butun didaktik tizim tomonidan aniqlanadi. Didaktik tizimning barcha elementlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ulardan birining o‘zgarishi qolganlarning o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun, o‘qitishning har qanday yangi vositalari butun pedagogik jarayonni o‘zgartiradi.

O‘qitish vositasi – o‘quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan obyekt xisoblanib, pedagogikada o‘qitish vositalari deganda, o‘quv jarayonining turli materiallari va vositalari tushuniladi, ulardan foydalanganda esa, o‘qitish maqsadlariga yanada muvaffaqiyatli va kamroq vaqt ichida erishiladi. O‘qitish vositalari didaktik tizimning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir, u o‘quv jarayoni bilan jihozlashning zaruriy elementi bo‘lib, ta’lim mazmuni bilan bir qatorda axborot va fan vositasi hisoblanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, o‘qitish vositalari didaktik tizimning boshqa tarkibiy qismlari bilan o‘zaro bog‘liqligi quyidagi eng muhim xususiyatlarga ega:

– pedagog uchun o‘qitish vositasi – pedagogik mehnat vositasidir, bu uning funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi;

– o‘quvchi uchun o‘qitish vositasi – bilim vositasi va o‘quv funksiyalarini amalga oshirish vositalaridan biri hisoblanadi;

– ta’lim mazmuniga nisbatan o‘qitish vositasi – uning mazmunini yetkazish va o‘rganishni tashkil etish usuli;

– o‘quv-tarbiya jarayoni uslublari va o‘qitishni tashkil etish shakllariga nisbatan o‘quv vositasi – bu ularning xilma-xilligi va takomillashuvi, pedagogik muloqot tarkibiy qismlarining yangi birikmalarini ishlab chiqish va qo‘llash variantlaridan biri;

– o‘qitish vositalariga nisbatan maqsad ularni yaratish va qo‘llashda umumiy yo‘nalish rolini o‘ynaydi, bunda o‘qitish vositasi natijaga erishish uchun o‘zaro yordam berishi kerak, bu esa o‘z navbatida, ularning yordami bilan aniqlanishi mumkin.

O‘qitish vositalarining asosiy didaktik maqsadi – o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonini tezlashtirish, ya’ni o‘quv jarayonining eng samarali xususiyatlariga yaqinlashtirishdir.

Har bir o‘qitish vositasining didaktik roli va vazifalari ularga loyihalash va ishlab chiqarish bosqichida qo‘yiladi. O‘qitish vositalarining asosiy didaktik vazifalari quyidagilardir:

– *kompensator* – ya’ni o‘quv jarayonini yengillashtiradigan, o‘qituvchi va o‘quvchilarning vaqtiga, kuchiga va sog‘lig‘iga ketadigan vaqtni hamda xarajatlarini kamaytirish;

– *informatik (axborot)* – o‘qitish uchun zarur bo‘lgan axborotni uzatish;

– *integratsionlik* – o‘rganilayotgan obyekt yoki hodisani qisman va to‘laqonli ko‘rib chiqish;

– *instrumentallik (vositali)* – o‘quvchilar va pedagoglarning muayyan faoliyatlarini

xavfsiz va oqilona ta’minlash hisoblanadi.

So‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida o‘qitishning axborot vositalaridan foydalanish juda faollashdi. O‘qitishning axborot vositalari deganda, o‘qitishning ko‘plab funksiyalarini bajaradigan kompyuterlar yordamida o‘quv ma’lumotlarini saqlash, qayta ishlash va uzatishning elektron vositalarini tushuniladi. Ushbu vositalar o‘quv axborotining manbai bo‘lib xizmat qiladi, talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishdagi faolligini va o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi, o‘qitish natijalarini baholaydi, shaxsiy maslahat yordamini taqdim etadi, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot olish imkonini beradi va shu bilan bir qatorda o‘quvchilarning ijodiy kreativ faolliklarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida ushbu turdagi axborot o‘qitish vositalari asosan o‘qitish jarayoni subyektlari o‘rtasidagi muloqotni tashkil etish uchun ishlatiladi. Yaqin vaqtgacha o‘qitish vositasi sifatida Internet tarmog‘ining asosiy didaktik funksiyasi o‘quv jarayoni ishtirokchilarining turli ijodiy topshiriqlarni bajarishida qo‘shimcha ma’lumot bilan ta’minlash bo‘lgan. Internet tarmog‘ining pedagogik roli o‘qitish jarayoni ishtirokchilariga ta’limni davom ettirish, kasb-hunarga yo‘naltirish va h. k.larni taqdim etishdan iborat.

Axborot vositalarini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati quyidagilardir:

– o‘quv ma’lumotlarini idrok etishni yangicha, murakkab, tizimli va ko‘p qirrali tarzda tashkil etish;

– o‘quvchilarning bilimga qiziqishini rag‘batlantirish, o‘qitishning motivatsion maydonini va uning hissiy munosabatini saqlab qolish;

– o‘quv natijalari bo‘yicha o‘z-o‘zini joriy, tezkor, yakuniy nazorat qilishni tashkil etish.

O‘quv jarayonida o‘qitish axborot vositalaridan foydalangan holda turli xil o‘qitish modellarini amalga oshirish mumkin. Ayniqsa, talabalar uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quv natijalariga qo‘yiladigan talablar darajasini pasaytirmasdan individual dastur bo‘yicha ta’lim olish imkoniyati paydo bo‘ladi.

O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida Internet tarmog‘ida ishlashni tashkil etishda o‘qitish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan turli xil o‘qitishni boshqaruvchi tizimlardan foydalanish mumkin. O‘qitishni boshqarish tizimi deganda, biz onlayn o‘quv materiallarini ularga kirish huquqi bilan ishlab chiqish, boshqarish va tarqatish uchun foydalaniladigan o‘quv faoliyatini boshqarish tizimining asosini tushunamiz. Ushbu materiallar yaratilgan vizual o‘quv muhiti ularni o‘rganish tartibini belgilaydi. Tizim turli xil shaxsiy vazifalarni, kichik guruhlarda ishlash uchun loyihalarni va barcha talabalar uchun mazmunli komponent va kommunikativ asosda o‘quv elementlarini o‘z ichiga oladi. Tizim tarkibiga va kommunikativ tarkibiga qarab har xil individual topshiriqlar, kichik guruhlarda ishlash uchun loyihalar va barcha talabalar uchun o‘quv elementlari ham kiradi.

Onlayn interfaol o‘qitish vositalaridan foydalanishda didaktik ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish jarayoniga ilmiy-amaliy yondashuvlarning tahlili ushbu hodisaga hissa qo‘shadigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash imkonini berdi. Bular quyidagilardan iborat:

– universitetda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning bo‘lajak kasbiy faoliyatining yaxlit tuzilmasini shakllantirishga yo‘naltirilishini faollashtirishga ko‘maklashuvchi axborot ta’lim muhitini yaratish, uning tarkibiy qismi onlayn interfaol ta’lim vositalaridan foydalanishdagi didaktik ko‘nikmalardir;

– kelajakda kasbiy faoliyati yaxlit tuzilishini shakllantirish uchun universitetda bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash strategik orientatsiya, tarkibiy qismi onlayn interaktiv

o‘qitish vositalari foydalanish didaktik ko‘nikmalari hisoblanadi;

– talabalarning kasbiy muhim fazilatlarni rivojlantirish bilan didaktik ko‘nikmalarini shakllantirish munosabatlar, qobiliyat va tayyorligi ta’lim jarayonida onlayn interaktiv o‘qitish vositalari foydalanish kasbiy muammolarni hal qilish uchun ularni ishlatish;

– talabalarning didaktik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun tarmoqlararo hamkorlikning barcha mavzularining o‘zaro bog‘liq faoliyatiga qaratilgan ketma-ket bosqichma-bosqich harakatlar majmuini qo‘llash.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, o‘zgaruvchan axborot-ta’lim muhitining zamonaviy imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘qitishning usul va vositalari ishlab chiqishga erishilsa, interfaol ta’lim sohasidagi o‘zaro ta’sirlar muammosini hal qilish mumkin. Shunday qilib, zamonaviy pedagogikada didaktikaning rivojlanishi axborot-ta’lim muhiti va uning tarkibiy qismlari (o‘qitish shakllari va usullari) bilan bog‘liq.

Yuqoridagi berilgan xulosalarga tayanib, oliy o‘quv yurtlarida tarmoq interfaol ta’lim vositalarini qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– an’anaviy va interfaol o‘qitish usullarini taqqoslashda talaba faolligi pedagogning faolligi o‘rnini bosishi kerak;

– pedagogning vazifalariga talabalar tomonidan faoliyatning o‘zgacha, ya’ni lokal tarmoq tizimi orqali malumotlarni onlayn berish va onlayn topshirish uchun sharoit yaratish muhim o‘rin tutadi;

– o‘quv amaliyotlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni olib borishga ayni shu soha bo‘yicha ta’lim interfaol texnologiyalaridan, Internet tarmog‘idan to‘g‘ri foydalanish uchun talabalarga yo‘riqnomalar, uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagilarga asoslanib ta’kidlash lozimki, bugungi kunga kelib oliy o‘quv yurtlarida tarmoq interfaol ta’lim vositalarini qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini yanada oshirish dolzarb masalaligicha qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hamidov J.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., – 2017-y.

2. Полат Э. Интегративная теория и практика многоуровневого непрерывного профессионального образования – СПб: Ин-т профтехобразования РАО, 2002. – 240 с.

3. Косырев В.П. Методическая подготовка инженеров-педагогов / В.П.Косырев. – М.: МГАУ им. В.П.Горячкина, 2003. – С.144.

4. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. … ped. fan. dokt. – T., 2004. – 314-b.

5. Ismailova Z, Maxsudov P, Zhumanov A, TuychievKh. Desingning the prossesos education and training of future teachers on the basis of individual prinsiples. International journal of psychosocial rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020, P. 6653-6659

**Dilrabo MUKUMOVA,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti dotsenti
**Sevara Yarova,**
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti stajyor tadqiqotchisi

# SAMARALI HAMKORLIKNI YARATISHDA BOSHQARUV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH PSIXOLOGIYASI

**Annotatsiya**

Samarali boshqarish uchun eng maqbuli bu mavjud resursdan to'g'ri foydalish. Bugungi kunda resurslarning asosini odamlar tashkil etishi hech kimga sir emas. Lekin odamlardan yuqori daromad olishingiz uchun samarali boshqaruv usulini qo'llagan xolda erishishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar.** Boshqaruv, resurs, texnologik jarayon, texnik nazorat, subyekt, kuzatuv.

Эффективное управление предполагает максимально полное использование того широкого набора ресурсов, который имеется в распоряжении организации. Сегодня уже никому не надо доказывать, что из всех ресурсов главный ресурс – это люди. Но от людей можно получить высокую отдачу лишь при определенных условиях.

**Ключевые слова.** Управление, ресурс, технологический процесс, технический контроль, предмет, наблюдение

Effective management involves making the most of the wide range of resources available to the organization. Today, no one needs to prove that the main resource of all resources is people. But you can only get high returns from people under certain conditions.

**Key words.** Management, resource, technological process, technical control, subject, observation.

Inson tabiatida tug'ilganidan boshlab kimgadur tasir qilish, kimnidur boshqarish tushunchalari shakllanib boradi shu bilan birga, ilk bolaligidan inson "boshqaruv" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Boshqaruv turli xil va turli shakllarda mavjud bo'lib, bu tabiiy va texnologik jarayonlar, masalan, issiqlik ta'minoti, poyezd va samolyotlarning harakati, mashinalarda qismlarga ishlov berish bo'yicha amalga oshiriladigan texnik nazorat bo'lishi mumkin. Bu huquqiy tizim, vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat organlari kabi turli institutlar orqali jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotini davlat tomonidan boshqarish bo'lishi mumkin. Bu turli siyosiy partiyalar va guruhlar tomonidan shakllantirilgan jamiyat a'zolari ongiga uning rivojlanish tushunchalarini kiritishdan iborat mafkuraviy boshqaruv bo'lishi mumkin.

Bu boshqaruv faoliyatining barcha turlarini umumlashtirib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, boshqaruv – insonning ongli maqsadli faoliyati bo'lib, u orqali tashqi

muhit elementlari – jamiyat, jonli va jonsiz tabiat, texnologiyani o‘z manfaatlariga buysundiradi va bo‘ysunadi. Bu faoliyatning boshqaruv obyektini tashkil etishga qaratilgan elementlari. Boshqaruv faoliyati direktori boshqaruv subyekti deb atalib, u shaxs yoki kishilar guruhi bo‘lishi mumkin. Boshqaruv faoliyatining subyekti – bu boshqaruv munosabatlari amalga oshiriladigan shaxsdir.

Boshqaruv faoliyati mehnat jarayonining o‘ziga xos turi bo‘lib, mehnat predmeti, mehnat vositalari, mehnatning o‘zi hamda uning natijalari bilan tavsiflanadi. Boshqaruvda ish predmeti axborotdir. Boshqaruv faoliyati natijasida turli manbalardan to‘plangan va olingan barcha ma’lumotlar tahlil qilinadi va unga asoslanib yechimlar yaratiladi, ya’ni boshqaruv obyekti aniq harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarga asoslanadi.

Kompyuterlar, telefonlar, qalamlar va qog‘ozlardan inson tanasining organlarigacha bo‘lgan ma’lumotlar bilan operatsiyalarni osonlashtiradigan narsalar. Boshqaruv inson tomonidan neyropsixologik sa’y-harakatlar (tinglash, o‘qish, gapirish, murojaat qilish, kuzatish, fikrlash va boshqalar) shaklida amalga oshiriladigan aqliy mehnat kategoriyasini anglatadi. Barcha boshqaruv harakatlari o‘zining maqsadi, o‘ziga xos mazmuni, amalga oshirish shakllari va usullari hamda murakkablik darajasi bilan farqlanadi.

Boshqaruvning murakkabligi hal qilinadigan muammolar ko‘lami, soni va tuzilishi, ular o‘rtasidagi munosabatlar, qo‘llaniladigan usullarning xilma-xilligi va tashkiliy tamoyillar bilan belgilanadi. Murakkablik, shuningdek, qabul qilingan qarorlarning yangiligi darajasi, talab qilinadigan o‘zgarishlar hajmi, noan’anaviy yondashuvlarni izlab topish, shuningdek, qabul qilinishi zarur bo‘lgan samaradorlik, mustaqillik, javobgarlik va xavf-xatarli qarorlar darajasi bilan tavsiflanadi.

Boshqaruv odamlarni boshqarish va tashkilot faoliyatini boshqarishga bo‘linishi mumkin. Tashkilotdagi boshqaruv – menejer va uning quyi xodimlari o‘rtasidagi munosabatlar bo‘lib, tashkilot faoliyati natijalariga erishishga qaratilgan. Menejment tashkilot oldida turgan vazifalarni bajarish uchun barcha inson va moddiy resurslarni bog‘laydi. Shunday qilib, boshqaruv faoliyatining butun sohasini ikki qismga ajratish mumkin: faoliyatni boshqarish va odamlarni boshqarish.

*Inson resurslarini boshqarish – tashkilot xodimlarini boshqarish.* Boshqaruvning bu sohasi bevosita menejer mehnati bilan bog‘liq. Boshqaruvning bu turiga quyidagilar kiradi: jamoada hamkorlikni ta’minlash, kadrlar siyosati, kadrlar tayyorlash, xabardor qilish, xodimlarni rag‘batlantirish va menejer ishining boshqa tarkibiy qismlari.

Boshqaruv faoliyat, atrof-muhit yoki odamlarni boshqarishga taalluqli bo‘lishidan qat’i nazar, ko‘p aqliy mehnatni talab qiladi. Tashkilot faoliyatini boshqarish maksimal natijalarga erishishga intilish demakdir.

Menejerning ishi odamlarning shaxsiy maqsadlariga erishishga qaratilgan. Boshqaruv faoliyati yaxshi bajarilishi uchun bir qator shartlar bajarilishi kerak:

1) boshqaruv subyekti va obyekti bir-biriga mos kelishi kerak. Agar ular bu jarayonda bir-birlarini tushuna olmasalar, o‘z salohiyatlarini amalga oshira olmaydi. Demak, menejer va bo‘ysunuvchi psixologik jihatdan mos kelmasa, ular o‘rtasida nizolar boshlanadi, bu esa ish natijalariga yomon ta’sir ko‘rsatadi.

2) boshqaruv subyekti va obyekti mustaqillikka ega bo‘lishi kerak. Boshqaruv subyekti obyektning barcha manfaatlarini va turli vaziyatlarda o‘z harakatlari uchun mumkin bo‘lgan variantlarni oldindan ko‘ra olmaydi. Boshqaruv obyekti vaziyat, istak to‘g‘risida o‘z qarashlariga ega bo‘lgan kishilar bo‘lsa, fikrlash orqali ular o‘z imkoniyatlarini ishga solishlari lozim. Agar buning iloji bo‘lmasa, odamlar o‘z faoliyatlarini

bostiradilar yoki o‘z fikrlarini olishga harakat qiladilar.

3) boshqaruvning subyekti va obyekti aniq o‘zaro ta’sirdan manfaatdor bo‘lishi; biri – zarur buyruqlarni berishda, ikkinchisi-ularning o‘z vaqtida bajarilishida.

Subyektningboshqarish qobiliyati obyektning kiruvchi buyruqlarni bajarishga tayyorligi bilan belgilanadi. Boshqaruv faoliyati ishtirokchilarining o‘z maqsadlariga erishishlari darajasi boshqaruvning o‘z maqsadlariga erishish darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak. Bu esa uning subyekti va obyekti mulkiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan holatda boshqaruvning butun muammosidir. Shunday qilib, boshqaruv doimo inson faoliyati bilan bog‘liq degan xulosaga kelishimiz mumkin. Va har bir inson faoliyatini boshqarish kerak.

Motivatsiyani boshqarish haqida gapirganda shuni hisobga olish kerakki, ularning ishga bo‘lgan munosabatini belgilovchi ehtiyojlar, munosabat va qadriyatlar turli toifadagi xodimlar uchun sezilarli darajada farq qiladi. Turli korxonalarda o‘tkazilgan ko‘plab so‘rovlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, hatto shu korxona ichida ham xodimlarning turli toifalari uchun mehnat motivatsiyasida sezilarli farqlar mavjud.

Oddiy xodimlar uchun ish haqi, mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va kelajakka ishonch birinchi o‘ringa chiqsa, boshqaruv jamoasi, martaba istiqbollari va ishda mustaqillikni amalga oshirish qobiliyati muhimroq va ish haqi faqat uchinchi o‘rinda turadi. Kadrlar motivatsiyasini boshqarishga har tomonlama yondashish kadrlar motivatsiyasiga ta’sir etish uchun mumkin bo‘lgan eng keng vositalar majmuasidan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Quyida mavjud vaziyatni hisobga olgan holda turli kompaniyalarda foydalanish mumkin bo‘lgan xodimlar motivatsiyasiga ta’sir ko‘rsatishning asosiy vositalari haqida qisqacha ma’lumot keltirilgan.

Xodimlar motivatsiyasiga ta’sir ko‘rsatishning yuqoridagi vositalariga ham qiya qarash shuni ko‘rsatadiki, xodimlar motivatsiyasini boshqarishda asosiy rolni tashkilot boshqaruv jamoasi o‘ynashi kerak. Xodimga turtki maqsadli ta’siri uchun, menejer ishida o‘zgarishlar ta’sir qilish mumkin, ma’naviy rag‘batlantirish, individual yondashuv usullaridan keng ko‘lamli foydalanishingiz mumkin, u, bo‘ysunuvchilar uchun ish maqsadlarini belgilab baholaydi va ularning natijaga erishilishini nazorati turli boshqaruv uslublari va intizomiy chora-tadbirlar foydalanishni farq qilishi mumkin, eng muhim masalalar bo‘yicha ma’lum menejeri hisoblanadi. Qo‘l ostidagilar motiviga maqsadli ta’sir ko‘rsatish rahbarlardan nafaqat inson boshqaruvi masalalaridan ko‘proq xabardor bo‘lishni, balki boshqaruv faoliyatining yangi modellarini o‘zlashtirishni ham talab etadi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Аверченко Л.К., Залесов Г.М. и др. Психология управления. Курс лекций.– М.: ИНФРА – М, 2000.

2. Басаков М.И. Управление персоналом. Конспект лекций. – Ростов н/Д:

4. Вудкок М., Фрэнсис Д. Раскрепощенный менеджер: Для руководителя-практика. / Пер. с англ. М., 2001.

5. Mukumova D.I. Factors for Developing the Professional Competence of Professional Teachers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, – Hindiston, Vol. 24, Issue 04, 2020.

**Barno KARIMOVA,**
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti,
“Psixologiya va pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI HARBIY-TEXNIK INSTITUTI KURSANTLARI HUQUQIY TARBIYA SUBYEKTI SIFATIDA

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan Milliy gvardiya tizimida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchi va xodimlarning huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiyani yuksaltirish uchun olib borilayotgan ishlar haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Huquqiy ta’lim, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquqiy ta’lim, huquqiy tarbiya, differensial yondashuv.

В статье представлена информация о проводимой в нашей стране работе по повышению правовых знаний, правовой культуры и правового просвещения правоохранительных органов, в частности военнослужащих и сотрудников Национальной гвардии

**Ключевые слова.** Правовое воспитание, правовое сознание и правовая культура, правовое воспитание, правовое воспитание, дифференцированный подход.

This article provides information on the work carried out in our country to improve legal knowledge, legal culture of legal edication of law enforeement ageneies, in particular,military personnel and employees of the National Guard.

**Keywords.** Legal education, legal consciousness and legal culture, legal education, legal education, differentiated approach.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Har qanday davlatning ijtimoiy rivojlanishi o‘sha davlat fuqarolarining, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining ***“huquqiy bilimi”, “huquqiy ongi” va “huquqiy madaniyati”*** bilan bog‘liq bo‘ladi. Chunki, yuksak darajada rivojlangan huquqiy ***“bilim-ong-madaniyat”***isiz huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish mumkin emas.

Bugungi kunda jamiyatda huquqiy ta’lim va tarbiya davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan, zero, ‘‘...qonun ustuvorligini ta’minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi’’.

Shuning uchun ham O‘zbekistonda Harakatlar strategiyasining “Qonun ustuvorligi va sud-huquq sohasidagi islohotlar” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan tub islohotlar birinchi navbatda, jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, xususan, Milliy gvardiya tizimida Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan.

Mazkur talablardan kelib chiqqan holda Milliy gvardiya tizimini tubdan isloh qilish, ularni aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatadigan, har bir xodim tomonidan ***“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”***ni o‘z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘nal-

tirilgan professional tuzilmaga aylantirish ustuvor vazifa qilib belgilandi. Milliy gvardiya faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha “jiddiy islohotlar amalga oshirilishiga qaramasdan, ochiq tan olish kerak, ushbu idoralar hali xalqchil tuzilmaga, fuqarolarning chinakam himoyachisiga aylangani yo‘q”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi” prinsipi talablariga muvofiq, *birinchidan,* O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi, *ikkinchidan,* davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar, *uchinchidan,* O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi, *to‘rtinchidan,* O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas, *beshinchidan,* birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Mazkur konstitutsion talablardan kelib chiqqan holda barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarda, xususan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi (2020-yil 18-noyabr № 647-sonli) qonunning 5-moddasi “qonuniylik” ular faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilangan.

“O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunning mazkur moddasi talablariga muvofiq Milliy gvardiya tizimining har bir harbiy xizmatchi va xodimi qonuniylik prinsipining:

a) Milliy gvardiya tizimining har bir harbiy xizmatchi va xodimi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga aniq rioya etishi hamda ularni bajarishi shart;

b) qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko‘ra yuz berganidan qat’i nazar, qonuniylikni buzish hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, Milliy gvardiya tizimi uchun professional kadrlar tayyorlashda huquqiy tarbiyani samarali tashkil etishning asosiy shartlaridan biri huquqiy ta’lim nazariyasidagi ‘‘huquqiy ong‘‘, ‘‘huquqiy tarbiya’’, ‘‘huquqiy ta’lim’’, ‘‘huquqiy bilim’’, ‘‘huquqiy madaniyat’’ kabi tayanch tushunchalarni qo‘llash va amalga oshirishda ularning bir-biri bilan bog‘liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishini, biridagi bo‘shliq yoki buzilish, albatta ikkinchi birida salbiy oqibatlarni vujudga kelishiga olib keladi.

Yuridik adabiyotlarda ‘‘huquqiy tarbiya’’ tushunchasi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi va izohlar beriladi. ‘‘Huquqiy tarbiya – shaxslar va ijtimoiy guruhlarning huquqiy ongiga ko‘rsatiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan va huquqiy tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta’sir jarayonidir’’.

Tadqiqot va kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalaridagi, xususan, davlat boshqaruvi, sud-huquq, ta’lim-tarbiya sohasidagi bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlar, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar huquqiy tarbiya jarayoniga hamma vaqt ham bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Agarda mazkur voqea, hodisa va jarayonlar, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar ijobiy bo‘lsa ular huquqiy tarbiyaning natijalari samarali bo‘lish imkoniyatini oshiradi, agarda ular salbiy bo‘lsa huquqiy tarbiyani murakkablashtiradi, qiyinlashtiradi hamda samarali bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, umuman ta’lim-tarbiya, huquqiy tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar nafaqat jamiyat ichida, xususan, uning barcha

bo‘g‘inlarida, balki undan tashqarida ham mavjud bo‘lib, bugungi globallashuv davrida vertual axborot tizimining rivojlanishi oqibatida ularning ta’siri yanada kuchayib bormoqda. Huquqiy tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida jamiyatdagi boshqaruv tizimidagi adolatsizliklarni, korrupsiya holatlarini, urug‘-aymoqchilikni, “ommaviy madaniyat” tarqalishini, milliy qadriyatlarimizga yot g‘oyalarning mavjudligi, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatning pastligi, uning barcha bo‘g‘ini va sohalaridagi g‘ayri ijtimoiy munosabatlarni kiritishimiz mumkin.

Huquqiy tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan barcha shaxslar ushbu holatlarni hisobga olishi hamda mazkur salbiy omillar ta’siridan o‘sib kelayotgan avlodni, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi uchun tayyorlanayotgan yoshlarni himoya qilish, ularda bunday salbiy illatlar ta’siriga tushib qolmasligini ta’minlaydigan fazilatlarni “axloqiy va kasbiy immunitetni” shakllantirishga asosiy e’tiborni qaratishi kerak.

Yuridik adabiyotlarda ko‘rsatilganidek, huquqiy tarbiya natijasida quyidagi murakkab vazifalar hal etiladi: *birinchidan*, ta’lim oluvchilarga o‘zini va boshqa shaxslarning xatti-harakatlarini baholash, amaliy faoliyatda olingan huquqiy bilimlarni mustaqil tatbiq etish ko‘nikmalarini hosil qilish; *ikkinchidan*, qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq faqat qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini shakllantirish; *uchinchidan*, har qanday huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz bo‘lish fazilatini tarbiyalash imkonini beradi. Ana shundagina olingan huquqiy bilim har qanday sharoitda faqat qonunga monand harakat qilishga qat’iy odatlanish tizimini yaratishga, huquqbuzarlikka qarshi jadal kurash olib borishga xizmat qiladi.

**Konstitutsiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to‘liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog‘i lozim.**

Har bir soha va yo‘nalish, ta’limning barcha bosqichlari uchun huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslangan dasturi tayyorlanishi kerak.

Bunda, avvalambor, Konstitutsiyani o‘rganishga jiddiy yondashish lozim. Umumta’lim maktablari uchun “Konstitutsiya alifbosi”, “Konstitutsiya saboqlari”, “Konstitutsiya asoslari” kabi darsliklarni yaratish zarur.

Adliya, Maktabgacha ta’lim, Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari bu ishlarga mas’ul bo‘ladi.

Ushbu fanlardan dars beradigan o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning siyosiy, huquqiy va ma’naviy saviyasiga alohida ahamiyat berish lozim. Shuningdek, hayotdagi adolat tantanasi, qonuniy haq-huquqlar tiklangani haqida qiziqarli ko‘rsatuvlar, seriallar, badiiy filmlar, teatr asarlari yaratish ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, “qonun va adolat tantanasi uchun kurashadigan insonlar bugungi kunning qahramonlari bo‘lishi kerak” degan g‘oyalarining amalda to‘liq va samarali ta’minlashi jamiyatda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmonining qabul qilinishi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha ta’lim muassasalarida huquqiy tarbiyani kuchaytirish, mazkur yo‘nalishda ma’rifiy tadbirlar va uchrashuvlarni yanada kengaytirish, xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini yosh avlod ongida shakllantirish orqali vatanparvarlik hissini kuchaytirish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish imkonini bermoqda.

Mazkur Farmonda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllanti-

rishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmaganligini, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatayotganligi aytib o‘tilgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institutida ham Milliy gvardiya tizimi harbiy-xizmatchilari va xodimlarini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, huquqiy tarbiyani kuchaytirish maqsadida bir qancha darsliklar, o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazish borasida bir qator ijobiy ishlar qilinmoqda. Xususan, institut boshlig‘i professor M.X.Rustamboyev tomonidan beshta tomdan iborat bo‘lgan “O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi”, “Jinoyat ijroiya huquqi” darsliklari, institut professor-o‘qituvchilari tomonidan “Huquqshunoslik”, “Konstitutsiyaviy huquq”, “Ekologiya huquqi”, “Flora huquqi”, “Inson huquqi”, “Tergovga qadar surishtiruv”, “Kriminalistika”, “Yuristning nutq madaniyati”, “Milliy gvardiya xodimlarining kasb etikasi” nomli dasrliklar, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi”, “Inson huquqlari umumiy nazariyasi”, “Huquqshunoslik”, “Odam savdosi milliy qonunchilik va xorijiy tajriba”, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga sharhlar”, “Jinoyatchilikni profilaktika qilishda xorijiy mamlakatlar politsiyasi ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari”, “Saylov huquqi”, “Fuqarolik protsessual huquqi”, “Jinoyat- ijroiya huquqi” kabi ko‘plab turdagi monografiya, o‘quv, o‘quv-amaliy qo‘llanmalar tayyorlangan va tayyorlanmoqda.

Shuningdek, Harbiy-texnik institut kursantlari o‘rtasida Konstitutsiya va qonunlar, xususan, Milliy gvardiya tizimi faoliyatiga oid qonunlarning mazmun-mohiyatiga bag‘ishlab turli xil konkurs, tadbir va viktorinalar ham o‘tkazib kelinmoqda.

Harbiy xizmatchilar faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlash va ta’minlanishi bevosita va bilvosita ularning huquqiy ongiga tarbiyasiga, huquqiy madaniyatiga bog‘liq. Ularning huquqiy ongi albatta harbiy huquq bilan, buyruqlar ko‘rsatmalar ta’sirida shakllanadi. Harbiylar faoliyatida tartib intizom, qonunlarni ijrosi boshliqlarning faoliyatiga, qo‘mondonning harbiylarni qo‘llab-quvvatlashiga, ijrochilik intizomini qay darajada yo‘lga qo‘yishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Harbiy intizom har bir kursantdan ya’ni bo‘lg‘usi ofitserdan Harbiy Nizomlarni bilishni, qasamyodga sodiq qolishni, komandirlarni buyruqlarini so‘zsiz bajarishni talab qiladi bu esa qonunni bilishga, rioya qilishga asoslanadi. Ushbu talablar (qonunni bilish, unga rioya qilish) eng avvalo, kursantlarni huquqiy ongini shakllantirishda, huquqiy tarbiyalashda bosh tarbiya subyekti hisoblangan ofitserlarga, serjantlarga bog‘liq, chunki ularni o‘zi harbiy qonundan uzoq bo‘lsa, qo‘l ostidagi kursantlardan buyruqni to‘g‘ri bajarishni talab qila olmasa, qonunlarni, normativ hujjatlarni o‘zlari yaxshi bilishmasa qanday qilib kursantlardan talab qilishadi degan oddiy savolga javob izlamoq kerak.

Kursantlar huquqiy tarbiyaning obyekti sifatida, doimo huquq targ‘ibotchisi, tashviqotchisi, huquq tarbiyachisi hisoblanadi. Huquqiy targ‘ibot bo‘lmas ekan huquqiy tarbiya o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga har doim ham erisha oladi deb ayta olmaymiz. Kursantlarni huquqiy tarbiyalashda bir qancha tarbiya subyektlari mavjud bo‘lib, ular turli mansabdagi, turli huquqiy bilim egalari bo‘lgan shaxslar bo‘lgani bilan (ofitserlar, Milliy gvardiyaning turli darajadagi qo‘mondonlari) ularning maqsadi bitta kursantlarning huquqiy ongini shakllantirish va huquqiy tarbiyalashdir.

Kursantlarning huquqiy tarbiyasining o‘zi bir necha bosqichlardan iboratdir, buni biz bevosita va bilvosita kursantlarni xatti-harakatini kuzatishimiz orqali bilishga harakat qildik. Masalan, naryadga tushish jarayonida, patrulda yurish vaqtida, qorovulga tushish chog‘ida, turli darajadagi yig‘ilishlarda, majlislarda, komandirlik o‘qishlarida, xizmatdan tashqari vaqtlarda kursantlar va ofitserlar bilan bo‘lgan munosabatlarda, fuqarolar bilan bo‘lgan muloqot jarayonida. Huquqning barcha turlarini bilishni kursantlarni kasbiy-amaliy faoliyati talab qiladi, lekin buning iloji yo‘q. Turli tabaqadagi fuqarolar bilan bo‘lgan kasbiy huquqiy muloqot kursantlarni huquqiy madaniyatini, huquqiy faolligini oshiradi.

Kursantlarni huquqiy tarbiyalash o‘zining tarkibiy qismlariga ega bo‘lib, bizningcha ushbu tarkibiy qismlar huquqiy tarbiyaning bir butunligini ta’minlashga xizmat qiladi, masalan:

a) huquq norma tizimi sifatida bo‘lib davlatning manfaatini ifodasini aks ettiradi;

b) huquq orqali huquqiy-ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi;

v) huquqiy ong huquqiy tarbiyani yuzaga keltirishda shakllantirishda eng katta ta’sir etuvchi va etiluvchi omil hisoblanadi;

g) huquqiy tarbiya axloqiy tarbiyaning bir bo‘lagi sifatida o‘z mohiyatini namoyon qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimida, xususan Milliy gvardiya tizimi uchun kadrlar tayyorlashda huquqiy tarbiyani: a) pedagogika, psixologiya va huquqshunoslik sohasidagi ilg‘or ta’limotlariga asoslanib; b) ta’lim-tarbiya sohasidagi ilg‘or va interfaol usullarni qo‘llab; v) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib; g) har bir sohaviy xizmatlar faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda differensial yondashuv asosida; d) harbiy xizmatchi va xodimlarning, shuningdek, kursantlarning kasbga oid va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tizimli va uzluksiz amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilgan bu esa tizimni qonuniy ta’minlanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T., O‘zbekiston NMIU, 2018. – 109-b.*

*2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir// https://president.uz/uz/lists/view/3119*

*3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // https://president.uz/uz/lists/view/3324*

*4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 10-aprel, PF-5005-son Farmoni. Lex.uz.*

**Xamidahon XAKIMJONOVA,**
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshkaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

# PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAHBAR XODIMLARINING KASBIY KOMPETENLIGINI ANDRAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING SAMARADORLIGI

**Annotatsiya**

Maqolada professional ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining kasbiy kompetenligini andragogik takomillashtirishning samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim muassasalari, rahbar, kompetentlik, androgogik malaka, kommunikativ.

В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности совершенствования профессиональной компетентности руководящих кадров профессионального образования с помощью андрагогического подхода.

**Ключевые слова.** Образовательные учреждения, лидерство, компетентность, андрогинность, коммуникативность.

This article deals with the issues of improving the effectiveness of improving the professional competence of the leading personnel of professional education using the andragogical approach.

**Key words.** Educational institutions, leadership, competence, androgyny, communication.

Ta'lim muassasalari rahbar xodimlari bilimlarini chuqurlashtirish va yangilashga qaratilgan o'quv faoliyati, ko'nikma va malakalar doirasini kengaytirish, ularning ishchanlik sifatlarini takomillashtirish, faoliyatiga tegishli bilimlarni olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi vazifalarining tarkibiy qismidir.

Shunday ekan, professional ta'lim tizimi rahbar xodimlarining kasbiy kompetenligini andragogik yondashuv asosida takomillashtirish yo'llarini tadqiq qilish muhimdir.

Pedagogik tahlillar asosida professional ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining kasbiy kompetentligi – tayanch, intellektual, kreativ, kommunikativ, ijtimoiy, axborot kompetensiyalarini o'zida mujassamlashtiradigan tizimdir degan xulosaga keldik.

Kommunikativ kompetentlik – kasb doirasida ifodalangan murakkab kommunikativ ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lish, yangi ijtimoiy tuzilmalarda yetarli ko'nikmalarni shakllantirish, muloqotdagi madaniy me'yorlar va cheklovlarni bilish, muloqotdagi urf-odatlar, odob-axloq qoidalarini bilish, madaniy me'yorlarini bilish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, yaxshi tarbiya, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan kommunikativ

vositalardan foydalanish.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Shunday ekan, professional ta’lim muassasalari rahbar xodimlarining malakasini oshirishda kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning chuqurlashtirish bilan bir qatorda kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Rahbar xodimlarining malakasini oshirish o‘quv rejalariga “Andragogika, kattalar ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari” moduli kiritildi.

| Toifa | Professional ta’lim muassasalari rahbar xodimlari |
|---|---|
| Nazariy mashg‘ulot | – Kattalar ta’limining rivojlanishini;<br>– Andragogikani;<br>– Kattalar ta’limi bo‘yicha xalqaro tajribalarni;<br>– Katta yoshdagi ta’lim oluvchilarning xususiyatlarini;<br>Professional ta’lim muassasalarida andragogik yondashuvlarini biladi |
| Amaliy mashg‘ulot | – Andragogik modelni joriy etish;<br>– D.Kolb modeli asosida mashg‘ulotni rejalashtirish;<br>– Kattalar ta’limini baholash;<br>– Ijobiy kommunikatsiya muhitini yaratish;<br>– Kommunikativ to‘siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish;<br>Guruh dinamikasini oshirish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘ladi |
| Onlayn test | Ta’lim natijalari sinovdan o‘tkazildi |

Professional ta’lim muassasalari rahbar xodimlarini malakasini oshirish kursi tinglovchilarining asosiy faoliyat obyektlari – rahbarlar, rahbar o‘rinbosarlari, ish beruvchi korxonalar xodimlari, muassasa xodimlari, professor-o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’lim ustalari, bo‘lim boshliqlari, ish beruvchilar, ota-onalar bo‘lib ular kattalar hisoblanadi. Kattalarga esa andragogik yondashuvni amalga oshirish lozim.

Rahbar xodimning faoliyati malaka oshirish mobaynidagi o‘zgarib o‘qish jarayonida “o‘quv faoliyati” tushunchasi bilan tavsiflanishi mumkin, bu esa rahbarning mustaqil ravishda malaka oshirish bo‘yicha o‘z o‘quv dasturini mustaqil tuza olishi va amalga oshira olishida o‘z ifodasini topadi. Boshqacha qilib aytganda, o‘quv faoliyati ularning malakasini oshirish esa o‘quv faoliyatida o‘ziga xos xususiyat sifatida qaraladi.

Shaxs muammosi individual tajribaga asoslangan ijtimoiy faoliyat subyekti sifatida uzoq vaqtlardan buyon psixologik-pedagogik adabiyotlarda keng rivojlangan. Subyektivlikning turli hodisalari, subektiv tajribaning tarkibiy qismlari, shaxsning asosiy ehtiyojlari, subyektivlikning turli xususiyatlari, subyektivlikni rivojlantiruvchi ta’lim tizimlarini tashkil etish tamoyillari tahlil qilib boriladi.

Shu munosabat bilan subyektivlik tushunchasiga murojaat qilamiz. B.G. Ananev: “... inson, avvalo, asosiy ijtimoiy faoliyat – ish, muloqot va bilishning predmeti bo‘lib, u orqali tashqi harakatlarning o‘zaro interiorizatsiyasi (psixikasining ichki tuzilmalarini shakllanishi) hamda eksteriorizatsiya (ichki psixik harakatni tashqi harakatga aylantirish jarayoni) amalga oshiriladi”, deb yozadi.

A.K. Osnitskiy subyektiv tajribaning quyidagi komponentlarini belgilaydi:

1) qiymatli tajriba (manfaatlarini shakllantirish bilan bog‘liq, axloqiy normalar va imtiyozlar, ideallari va e’tiqodi);

2) refleksiv tajribasi (insonning o‘z imkoniyatlari va amalga oshishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar bilan o‘z faoliyati talablari va shu bilan birga vazifalar bilan bog‘lashlarni

to‘play olishi);

3) odatiy moslashish tajribasi (oldindan tayyor bo‘lish, ish faoliyatida yuz beradigan o‘zgarishlarga tez moslashuvchanlik, muayyan harakatlar va muvaffaqiyat ma’lum bir darajada tayyorlik);

4) operativ tajriba (shu jumladan, umumiy mehnat, kasbiy bilim va ko‘nikmalar hamda o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalari);

5) hamkorlik tajribasi (birgalikdagi faoliyat doirasida atorofdagilar bilan o‘zaro aloqada bo‘lganda yuzaga keluvchi).

Yuqorida biz malaka oshirish tizimida rahbar xodimlarni andragogik yondashuv asosida o‘quv faoliyatini rivojlantirish muammosining nazariy jihatlari pedagogik shart-sharoitlari samaradorligini o‘rganib tajriba o‘tkazish zaruratini yuzaga kelganligini angladik. Bunga tinglovchilarning malakasini oshirish jarayonida andragogik yondashuvni joriy etish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari orqali erishish mumkin.

Tajriba ishining maqsadi – rahbarning malaka oshirish jarayonida o‘quv faoliyatini pedagogik shart-sharoitlar yaratish yordamida rivojlantirish orqali biz ilgari surgan farazni sinab ko‘rish: dars mashg‘ulotlari andragogik yondashuv asosida amalga oshiriladi; rahbar malaka oshirish jarayonida yakka tartibda ta’lim yo‘lini tanlaydi; tinglovchi kurs ta’limi jarayonida loyiha faoliyati texnologiyasini o‘zlashtiradi; ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining doimiy o‘zaro munosabati o‘quv-mashg‘ulot jarayonida va dars oralig‘idagi davrlarda ta’minlanadi.

Tajriba-sinov ishlarining miqdor va sifat jihatidan tahlili asosida samaradorligini aniqlash maqsadida natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida professional ta’lim tizimi rahbar xodimlarining kasbiy kompetentligini oshirilganlik darajasini aniqlashning mezonlari shakllantirildi. Ushbu mezonlar asosida rahbarlarda rivojlantiruvchi seminar-trening ko‘rinishidagi mashg‘ulotlar asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayon samaradorligini bir necha darajalar bo‘yicha baholash kvalimetrik jihatdan to‘g‘ri deb topildi hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari “yuqori”, “o‘rta”, “past” darajalar bo‘yicha baholandi.

**Professional ta’lim tizimi direktorlarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlili 1- jadval**

| Tinglovchilarning o‘zlashtirish darajalari (%) | Tajriba-sinov guruhi | | | | Nazorat guruhi | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Tajriba boshida | Tajriba-sinov guruhi boshida ( %) | Tajriba oxirida | Tajriba-sinov guruhi oxirida ( %) | Tajriba boshida | Nazorat guruhi tajriba boshida ( %) | Tajriba oxirida | Nazorat guruhi tajriba oxirida ( %) |
| Yuqori | 21 | 18,10 | 61 | 54,95 | 27 | 27,0 | 26 | 27,4 |
| O‘rta | 44 | 37,93 | 50 | 45,05 | 39 | 39,0 | 36 | 37,9 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Past | 51 | 43,97 | 0 | 0,00 | 34 | 34,0 | 33 | 34,7 |
| Jami | 116 | 100 | 111 | 100 | 100 | 100,0 | 95 | 100,0 |

***1-rasm.*** **Nazorat va tajriba sinov guruhlaridagi tinglovchilarning kasbiy kompetentlik darajalari diagrammasi**

Professional ta’lim muassasalari direktorlarining tajriba natijalarini hisoblaymiz:

n=116 – tajriba guruhi tinglovchilari soni;

m=100 – nazorat guruhi tinglovchilari soni.

δ –tajriba boshi; o–tajriba oxiri.

$$\bar{x}_\delta = \frac{\Sigma x_i n_i}{n} = 3{,}74$$

$$\bar{y}_\delta = \frac{\Sigma y_i m_i}{m} = 3{,}93$$

Samaradorlik koeffitsienti $\eta_\delta = \frac{\bar{x}_\delta}{\bar{y}_\delta} = 0{,}95$

Tajriba boshidagi tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha kvadratik og‘ish kattaliklari:

$$S_x^2 = \frac{1}{n} \Sigma n_i * (x_i - \bar{x})^2 = 0{,}55$$

Standart xatolik $S_x = \sqrt{S_x^2} = 0{,}74$

$$S_y^2 = \frac{1}{m} \Sigma m_i * (y_i - \bar{y})^2 = 0{,}61$$

$$S_y = \sqrt{S_y^2} = 0{,}78$$

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{n} * \bar{x}} * 100\% = 1{,}85\ \%$$

$$C_y = 25{,}45\ \%$$

Ishonchlilik oralig‘i:

$$a_x \in \left[\bar{x} - \frac{t}{\sqrt{n}} * S_x;\ \bar{x} + \frac{t}{\sqrt{n}} * S_x\right] = [3{,}61;\ 3{,}88]$$

$$a_y \in \left[\bar{y} - \frac{t}{\sqrt{m}} * S_y;\ \bar{y} + \frac{t}{\sqrt{m}} * S_y\right] = [3{,}91;\ 3{,}95]$$

Bu yerda t – normallashgan chetlanish ishonch ehtimoli P asosida aniqlanadi. Bunda P=0,05 da t=1,97ga teng. Student T – statistik qiymat quyidagiga teng:

$$T = \frac{|\bar{y} - \bar{x}|}{\sqrt{\frac{s_x^2}{n} + \frac{s_y^2}{m}}} = 1{,}81$$

Styudent ozodlik darajasi K=214

Kritik qiymat: $T_{0,05}(214) = 1{,}97$

Demak, $T_{кр} = 1{,}97$>T=1,81, bo‘lsa $H_1$ faraz rad etilib $H_0$ qabul qilinadi. Yuqoridagi xisob-kitoblarga ko‘ra tajriba va nazorat guruhlardagi tinglovchilarning bilim darajalarida farq katta emasligi aniqlandi.

Tajriba oxirida tajriba-sinov va nazorat guruhlari uchun hisoblash ishlari amalga oshirildi va quyidagi natijaga erishildi:

| Ko‘rsatkichlar | Guruh | Direktorlar |
|---|---|---|
| O‘rtacha | Tajriba guruhi | 4,55 |
| | Nazorat guruhi | 3,93 |
| Samaradorlik koeffisienti | | 1,16 |
| Tanlama dispersiya | Tajriba guruhi | 5,05 |
| | Nazorat guruhi | 3,73 |
| Standart xatolik | Tajriba guruhi | 2,25 |
| | Nazorat guruhi | 1,93 |
| Aniqlash ko‘rsatkichi | Tajriba guruhi | 4,69 |
| | Nazorat guruhi | 5,05 |
| Ishonchlilik oralig‘i | Tajriba guruhi | 4,13 |
| | | 4,97 |
| | Nazorat guruhi | 3,54 |
| | | 4,32 |
| Statistikaning ozodlik darajasi | | 198,0 |
| Student statistikasi | | 2,14 |
| Kritik qiymat | | 1,97 |
| Faraz | | H1 |

Demak, $T_{кр} = 1{,}97$ <T=2,14, bo‘lsa $H_0$ faraz rad etilib $H_1$qabul qilinadi.

Professional ta’lim muassasalari rahbar xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun taklif etilgan o‘qitish metodlarining ishonchliligi matematik-statistika elementlari yordamida o‘z tasdig‘ini topdi. Mashg‘ulot turlari hamda mazmuni tinglovchilarning bilim darajasini va kasbiy kompetentligini oshirdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


*1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 13-modda.*

*2. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati/O‘zR Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 2009. –B. 251.*

*3. Ананьев, Б.Г. Избранные психологические труды: в 2 т./Б.Г.Ананьев.-М., 1980.-Т. с.315.*

**Sherzod TO‘RAXONOV,**
Surxondaryo viloyati Angor tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining
tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, mayor

# HARBIY OILALARDA PSIXOLOGIK MUHITNING FARZANDLAR TARBIYASIDAGI VATANPARVARLIK SIFATLARINING O‘RNI

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada harbiy oilalarda psixologik iqlimning farzand kamolatiga ta’siriga oid psixologik qarashlar bayon etilgan. Shuningdek, oilada psixologik iqlimning mazmun mohiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Oila, harbiy oila, vatanparvarlik, oilaviy munosabat, psixologik iqlim.

В статье описаны психологические взгляды о влияние психологического климата на развитие детей в семьях военнослужащих. Также подчеркивается содержание психологического климата в семье.

**Ключевые слова.** Семья, семья военнослужащих, патриотизм, семейные отношение,психологический климат.

The article describes psychological views on the influence of the psychological climate on the development of children in military families. The content of the psychological climate in the family is also emphasized.

**Keywords.** Family, military family, patriotism, family relations, psychological climate.

Mamlakatimiz kelajagining porloq bo‘lishida shijoatli, qat’iyatli, ilmu fan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta egallagan, davr talablari asosida ta’lim va tarbiya olgan, maqsadni aniq qo‘yib, shu asosda harakat qilayotgan yoshlarning o‘rni katta. Bugungi globalashuv sharoitda inson ongi va qalbini zabt etish uchun kurashlar keskin tus olayotgan bir davrda xalqaro maydonda yoshlarni har qanday xavf va tahdidlardan asrash, ularning mustaqil fikri, e’tiqodini va qat’iy hayotiy pozitsiyasini shakllantirish eng muhim va kechiktirib bo‘lmas vazifalardan bir bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, vatanparvarlik yoshlarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas’uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini, faol hayotiy pozitsiya va qat’iy e’tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Bundan unumli foydalangan holda yoshlarimizda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, Ona-yurt taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash, ularni o‘z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rishni taqozo qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng

muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi. Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli mutaxassis kadrlarni yetishtirish uchun zamin yaratmoqda.

Oila – rivojlanayotgan jamiyat ijtimoiy tuzilishining zaruriy tarkibiy qismi, tarixan o‘zgarib turuvchi hodisa. U ziyoli shaxslarni ko‘paytiradigan institut sifatida faoliyat yuritadi, bu ijtimoiy shakllanish bo‘lib, unda shaxs hayotni tashkil etishning birinchi tajribasini o‘zining asosiy ko‘rinishlarida – ishlab chiqarish faoliyati va kundalik hayotda oladi. Oilaviy munosabatlar va kundalik xatti-harakatlarni, kelajakdagi oilaviy hayot saboqlarini, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi g‘oyalarni egallaydi, madaniyatga va jamiyatning ijtimoiy me’yorlariga qo‘shiladi. Bu oilaning asosiy maqsadi hamdir.

Bolaning shaxsiyatiga oilaning ta’siri muammosini ko‘rib chiqishning ahamiyati ota-onalar bolani, uning ehtiyojlarini, qiziqishlarini, psixologik holatlarini va tajribalarini qanday qabul qilishlari va tushunishlari va shunga yarasha u bilan o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq. Dastlab bolani, so‘ngra o‘spirinni o‘zini-o‘zi idrok etish va baholash, ‘‘men’’ning ijobiy yoki salbiy qiyofasini shakllantirish, shaxsini qabul qilish yoki rad etish yuqoridagi jarayonlarga bog‘liq holda shakllanadi. Ota-onalarning farzandlarga bo‘lgan munosabati ularning xatti-harakatlari va faoliyatining motivlari to‘g‘risida xabardorligiga, qadriyat va ideallarning shakllanishiga, kasbiy qiziqishlarining tarkib topishiga, o‘zlarini va atrofdagi odamlarni baholashlari asosida ijtimoiy baholash va o‘zini-o‘zi baholashlariga ta’sir qiladi. Bularning barchasi bolalarning shaxsiyatini shakllantiradi.

Oila – bu aholining ko‘payishi va yangi avlodlarning ijtimoiylashuvi uchun aniq vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga qodir bo‘lgan davlatning noyob tizimidir. Aynan shu sabablarga ko‘ra, mamlakatimizda oilani ijtimoiy tizim, oila va davlat o‘rtasidagi munosabatlar va davlat oilaviy siyosatining konseptual asoslari sifatida kasbiy o‘rganish vazifasi amalga oshirilmoqda. Oila ayniqsa, bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda nihoyatda muhim rol o‘ynaydi. Hayotning dastlabki daqiqalaridan boshlab bola oilada ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadi. Ota-ona hayotiy maqomini avtomatik ravishda egallaydi, chunki jismoniy hayot to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noda ularga bog‘liqdir; kelajakda ularning sevgisi va ma’qullanishiga bo‘lgan ehtiyoj u uchun xuddi shunday ma’noga ega bo‘ladi. Ota-ona bilan munosabatlarda bola o‘zini tutish ko‘nikmalarini, shaxslararo muloqot qobiliyatlarini, jinsiy xulq-atvor modellarini va boshqalarni jalb qiladi va o‘rganadi. Shu tufayli ota-ona oiladagi shaxslararo munosabatlarning muhim jihatlaridan biridir.

Russo J.J. ta’kidlashicha, “har bir keyingi o‘qituvchi bolaga avvalgisiga qaraganda kamroq ta’sir ko‘rsatadi.” Uyda tarbiyaning o‘ziga xosligi, avvalambor, yaqin odamlarning ularga bo‘lgan biologik va psixologik bog‘liqligi tufayli bola hayotidagi ustuvorligi, alohida ahamiyati bilan izohlanadi.

Vatanparvar insonlarni tarbiyalashda xalqimizning tarixiy merosi katta ahamiyatga ega. Shu sababli tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va kelajak avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2018-yil 23-fevralda e’lon qilingan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”da yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, qa-

dimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish kabilar asosiy vazifalar etib belgilangan.

Inson ulg‘aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchalari ham kengaya boradi. Yurtimizda tug‘ilib-o‘sgan har bir inson “Vatanim” deganida o‘z uyini, qishlog‘ini yoki shahrini emas, balki O‘zbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa Vatan tuyg‘usining, vatanparvarlikning xalqimiz qalbidagi ifodasidir. Vatan tuyg‘usi – bu aziz va go‘zal yurtimizga hurmat va sadoqatli bo‘lish. Vatan tuyg‘usi – bu Turon, Movarounnahr, Turkiston va hozirda O‘zbekiston deya atalgan zaminda yashab kelayotgan xalqimizning oltin merosini, uning tarixini o‘rganishga intilishdir.

O‘z davrida “Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq – mening o‘limim, sening uchun o‘lmoq – mening tirikligimdur”, deb yozgan edi Fitrat [3]. Bu so‘zlarda vatanparvar insonning qalb nolalari ifodasini topgan. O‘sib kelayotgan yoshlarni, ya’ni Vatanimizning bo‘lg‘usi himoyachilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – davr talabi. Vatanparvarlik insonning o‘z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o‘z so‘ziga sodiqligidir. Agar insonni bolalik chog‘idan o‘z xalqiga, uning an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida tarbiya qilmasak, unda vatanparvarlik hissi bo‘lmaydi.

Vatan ravnaqi – milliy g‘oyamizning yuksak tushunchalaridan biri bo‘lib, u shaxsning bilimi va kamoliga bog‘liq. Inson, qaysi sohada xizmat qilishidan qat’i nazar, bu haqiqatni to‘liq anglagan holda, o‘zining ma’naviy kamoloti uchun mas’uliyatni his etishi, shaxsiy manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashi va o‘sib kelayotgan yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi “Biz global iqtisodiy inqiroz ta’siriga qaramasdan, harbiy xizmatchilarimiz va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, harbiy shaharchalarni obodonlashtirish, ularda zamonaviy infratuzilmalar barpo etish bo‘yicha tizimli ishlarimizni izchil davom ettirayapmiz.” – deb ta’kidladilar. Bu esa harbiylar, ularning oilalari, harbiy oilalar farzandlarining kelgusi shu oilaga xos fazilatlarini egallashi, ota-onalarining yo‘lidan borib, chinakam vatanparvar bo‘lib yetishishlari uchun katta kuch bag‘ishlaydi.

Tadqiqot ishimizda harbiy oilalardagi ma’naviy-psixologik muhitning farzandlarda vatanparvarlik hissi va intellekt rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishdan iboratligi bois, xarbiy oilalaga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni hamda harbiylar oilasidagi ijtimoiy psixologik iqlimni o‘rgandik.

Xizmat faoliyati xususiyatiga ko‘ra, harbiylik kasbi va ularning oilasi boshqa soha vakillari oilalaridan tubdan farq qiladi. Harbiy xizmatchilar kecha-yu kunduz, ba’zan zarurat tug‘ilganda, hafta, oy davomida oilasidan uzoqda Vatan himoyasi yo‘lida xizmat olib boradilar. Har qanday vaziyatlarda saf oldida turib, Vatan uchun kurashga shay turadilar. Harbiy xizmatchilar oilasida shuning uchun ham turli muammolar uchrab turadi. Harbiy xizmat bilan bog‘liq holatlarning ko‘pligi va ularning asosiy faoliyatlari jarayonida o‘z oilasidan uzoqda bo‘lishi oilaning o‘ziga xosligidan biri hisoblanadi. Shuning uchun harbiylar oilasidagi munosabatlar barqarorligi bir tomondan harbiy xizmatchi uchun, ikkinchi tomondan esa oilaning boshqa a’zolari, ayniqsa, farzandlar kamoli uchun juda ham zarur hisoblanadi.

Psixolog X. Sharafutdinovaning yozishicha; – “Harbiy oilalardagi xavotir qo‘rquv,

vahima kabi salbiy hislar oila a'zolariga psixik jarayonlarning normal kechishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda sezuvchanlikning o'ta oshib ketishi yoki pasayishi vaziyatning mohiyatini tushunmaslik, idrok etishning yomonlashuvi kabi holatlarni kuzatish mumkin. Xavotir tafakkur jarayoniga ham ta'sir ko'rsatib, ba'zi insonlarda fikrlashning ravonlashuvi va vaziyatdan tezroq chiqib ketishga intilish bilan namoyon bo'lsa, boshqalarda, aksincha, tafakkur mahsuldorligining pasayishi, nutq va harakatlarda mantiqsizlik aks etadi. Juda ko'p holatda irodaviy soha zaiflashib, inson biror qaror qabul qilishga, vaziyatni nazorat qilishga o'zida kuch topa olmay qoladi. Xavotir vaqtida ko'pincha nutq buzilib, tovushda titroq paydo bo'ladi. Xavotir va xavotirlik diqqat jarayoniga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Odatda, diqqat juda tarqoqlashib, inson o'z diqqat e'tiborini bir yerga to'play olmay qoladi va ba'zan, aksincha, diqqatining barqarorligi oshib, aynan bir obyektga tomon yo'naltirilganligini ham ko'rish mumkin."[6]

Oilada ijobiy ijtimoiy-psixologik iqlimning holati oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, o'zaro qo'llab-quvvatlash, o'zaro tushunish, o'zaro hurmat kabi muloqotning insoniy sifatlari bilan belgilanadi. Ko'pincha oila a'zolari o'rtasida muloqotning hissiy-emotsional komponentlariga taalluqli jihatlaridagi ayrim muammolar oilalarda turli nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqadi va oqibatda oiladagi ijtimoiy-psixologik iqlim salbiy tomonga o'zgarishi mumkin.

Vatan himoyasini o'zining sharafli burchi deb bilib, hayotini umrini xalq tinchligi uchun safarbar etayotgan harbiylar oilasini qo'llab-quvvatlash ularda xizmat vazifalarini yanada sadoqat bilan bajarishlariga undaydi. Shuningdek, harbiy xizmatchilardagi jasorat, botirlik, irodalilik, vatanni sevish kabi fazilatlar ularning oilasida tarbiyalanayotgan farzandlar qalbida vatanparvarlik hissi ota-onalari timsolida joy olishi shubhasizdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


*1. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi haqida. Vazirlar Mahkamasining 23.02.2018 yildagi 140-son qarori.*

*2. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. –T. 14.01.2021.*

*3. Boltaboev H., Fitratning ilmiy merosi. –T., 1996.*

*4. Лидерс А.Г. Семья как психологическая система. Очерки психологии семьи. – Москва-Обнинск. ИГ-СОЦИН, 2004. – С.294.*

*5. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре или принципы политического права / Ж. Руссо. – Москва : Издательство Юрайт, 2019. – С.146.*

*6. Шарафутдинова Х.Г. "Низоли вазиятларда муаммоларни конструктив ечимини топиш йўллари", Онлайн Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами – Т, 2020 - йил 29 - июнь, 45-48 бетлар.*

**Suxrob SADRIDDINOV,**
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
**G‘ayrat IKMATULLAYEV,**
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti

# AXBOROT XURUJINING YOSHLARGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

**Annotatsiya**

Maqolada ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy globallashuv jarayoni jadal davom etilayotgan davrda, ko‘p funksional mazmunga ega bo‘lgan axborot “qurol”ga aylanib borayotgani, uning vositasida ijtimoiy, madaniy, intellektual, iqtisodiy, demografik kabi omillarning harakati ta’minlanib, kuchga aylanayotgani haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Diskreditatsiya, dezinformatsiya, kommunikatsiya, materiya, gegemon, axborot, axborotning psixologik xavfsizlig,

В статье отмечается, что в период быстрой социальной, экономической, культурной и политической глобализации многофункциональная информация становится “оружием’’, с помощью которого обеспечивается движение социальных, культурных, интеллектуальных, экономических и демографических факторов.

**Ключевые слова.** Дискредитация, дезинформация, общение, материя, гегемон, информация, психологическая безопасность информации,

The article notes that in the period of rapid social, economic, cultural and political globalization, multifunctional information becomes a "weapon", with the help of which the movement of social, cultural, intellectual, economic and demographic factors is ensured.

**Key words.** Discrediting, disinformation, communication, matter, hegemon, information, psychological safety of information.

Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy globallashuv jarayoni jadal davom etilayotgan davrda, ko‘pfunksional mazmunga ega bo‘lgan axborot “qurol”ga aylanib bormoqda. Chunki uning vositasida ijtimoiy, madaniy, intellektual, iqtisodiy, demografik kabi omillarning harakati ta’minlanib, kuchga aylanadi. Bu masalani ikki jihati mavjud bo‘lib, birinchisi bu – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan **madaniy jihat**. Va ikkinchisi – gegemonlikni namoyon etish (yoki qo‘lga kiritish) uchun axborotdan qurol tarzida foydalanish, ya’ni **harbiy-siyosiy jihat**. Agarda har qanday axborotning yaratuvchisi, uzatuvchisi va foydalanuvchisi borligini inobatga olsak, axborotni qurolga aylanishi turli shakldagi muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoldan holi emas. Shu sababli, axborot va uning ijtimoiy-psixologik tavsifidan xabardor bo‘lish uchun, quyidagi holatlarga e’tibor qaratish lozim:

– materiyaning umumiy tarkibini tavsiflovchi – axborotdir;
– inson-tabiat-jamiyat orasidagi munosabatlarni ta’minlovchi - axborotdir;
– har qanday faoliyat turini ta’minlovchi – axborotdir;
– borliqni idrok etishini ta’minlovchi – axborotdir;
– tasavvurni shakllantiruvchi va harakat yo‘nalishini ta’minlovchi – axborotdir.

Ruhiy-informatsion ta’sir asosan quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:
– diskreditatsiya – voqeaning ahamiyatini pasaytirib berish;
– dezinformatsiya – axborotning ma’nosini o‘zgartirgan holda taqdim etish;
– tuhmat;
– e’tiborni chalg‘itish;
– faktlarni manfaat uchun buzib talqin qilish.

Ruhiy-informatsion ta’sir ommaviy axborot va global kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi hamda davlatning ichki siyosatiga ishonchsizlik uyg‘otish, ichki ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, muxolif kayfiyatlarni qo‘zg‘otish, hattoki isyonga undash kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Axborot quroli deganda, aniq mazmunni qamrab olgan axborotni turli vositalar (kanallar) yordamida boshqa bir ob’yekt faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida uzatilish ketma-ketligini tushunish lozim. Ta’sir ko‘rsatish ikki xil tarzda kechishi mumkin, faollashtirish (takomillashuvini ta’minlash) yoki passivlashtirish (izdan chiqarish, chalg‘itish). Chunki, kuch sifatida foydalaniladigan axborot ma’lum bir g‘oyalarga tayangan tarzda yaratiladi. Faylasuf-psixolog R. Samarovni ko‘rsatib o‘tishicha, “axborotga oid nazariyalarning g‘oyalarini inobatga olish lozim. Ular:

– tashqi dunyodan olingan va unga moslashish jarayonida mazmunning belgilanishi nazariyasi (Viner);
– entropiyani inkor etish nazariyasi (Brillyuen);
– kommunikatsiya va aloqa jarayonida bartaraf etiladigan noaniqliklarni belgilash nazariyasi (Shennon);
– xilma-xillikning uzatilish nazariyasi (Eshbi);
– tizimlarning murakkablik o‘lchovini belgilash nazariyasi (Mol);
– tanlovni ehtimolligi nazariyasi (Yaglom);
– axborotning hissiy nazariyasi (P.Simonov);
– real borliqni tasvirlab beruvchi, tizimlashtirilgan moddiy belgilar (shakllar) majmuasi nazariyasi (R.Samarov)” kabilardan iborat.

Axborot, qurolga aylantirilganda uning tarkibiga maxsus vositalar (insonni emotsional-irodaviy, aqliy kabi sohalariga ta’sir ko‘rsatuvchi) kiritilib, turli texnologiyalar (biryanchilik effekti, rang, ovoz va obraz, yoki g‘azabni keltirish kabilardan foydalanib) jamiyat hayotiga (biron-bir sohasiga) ta’sir ko‘rsatish uchun yo‘naltiriladi. Jamiyat hayotini tanlanishi esa, axborotni yaratuvchisi va uzatuvchisini aniq maqsadi asosida amalga oshiriladi. Bunda turli sohalar, jumladan, iqtisod (tovarlarni reklamasi vositasida ishlab chiqaruvchi korxonalarni obro‘sizlantirish yoki nufuzini oshirish), sog‘liqni saqlash kasallikni oldini olish yoki bartaraf etish uchun samarali vosita faqat shu – dori ekanligini targ‘ib etish), ta’lim (dunyoni mashhur kishilari, olim va siyosatchilar shu muassasada o‘qiganligini ommaviylashtirish), mudofaa (harbiylar o‘z vazifasini yuqori darajada bajarilganligi yoki bajara olmaganligini ko‘rsatish) kabilar tanlanishi mumkin. Manbalarda yozishicha, bu ma’nodagi axborotdan qurol sifatida foydalanishda, mavjud axborot tizimiga quyidagi tartib asosida ta’sir ko‘rsatilishi mumkin:

– obyekt faoliyatini ta’minlovchi axborot tizimiga noma’lum bo‘lgan yangi axborot

(g‘oyani, qarashni, munosabatni)ni kiritish;

– jarayon (voqyea, hodisa, baho) haqida aniq bo‘lmagan axborotni kiritish;

– axborotni qayta ishlashning (eski qoidalarning to‘g‘riligiga nisbatan shubha keltirib chiqarish yo‘li bilan) yangi qoidalarini kiritish;

– qabul qilingan qaror (xulosa, munosabat) xato ekanligini uqtirish shular jumlasidandir.

Inson (shaxs) va jamiyat xavfsizligini ta’minlash nuqtayi nazari bilan munosabatda bo‘lsak, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlashga darajaviy yondashish maqsadga muvofiqdir. Bunda:

– **birinchi darajada** insonda (shaxsda) axborotni idrok etish va axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish lozim;

– **ikkinchi darajada** jamiyatda (ishlab chiqarish jamoalari, mahalla, ta’lim muassasalari va b.) psixologik savodxonlikni oshirish lozim;

– **uchinchi darajada** fuqarolarga uzatiladigan axborotlarning sifatini (yangiligi, dolzarbligi, aniq dalillarga ega ekanligi, madaniy mazmun kasb etganligi, “deydi” va “ekan” kabi sof ta’kidlardan holi bo‘lgan) ta’minlash lozim. Shu o‘rinda, akademik Baxtiyor Nazarovni “Yaqin-yaqinlarda “Ommaviy madaniyat” degan ibora bizda ahyon-ahyon qo‘llanilguchi edi. Endi bu iborani, hayotdan kelib chiqib, tez-tez ishlatishimizga to‘g‘ri kelyapti[1]” deb yozganiga diqqat qaratsak, uchinchi darajadagi masalani dolzarblashganligini kuzatishimiz mumkin.

O‘tkazilgan tadqiqotlarimizning natijasiga ko‘ra, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan uchta daraja doirasida olib boriladigan ishlarimizga e’tibor qaratsak, axborotni psixologik xavfsizligini ta’minlashda ommaviy tarzda yondashish samara bermasligini ko‘rsatmoqda. Chunki axborotni qurol sifatida qo‘llashda;

– **birinchidan**, inson ongiga ta’sir ko‘rsatib, uning xulqida ma’lum o‘zgartirishlar kiritiladi (afsuski, bu ko‘pincha og‘ishli shaklga ega bo‘ladi);

– **ikkinchidan**, biron bir davlatni “xaloskor”, “demokratiya bayrog‘ini tashuvchisi” sifatida gavdalantirib, ekspansiya (iqtisodiy, siyosiy, madaniy shakldagi) o‘tkaziladi;

– **uchinchidan**, moliyaviy manfaat ko‘rish maqsadida milliy manfaatlarga (milliy an’ana va qadriyatlarga, joriy etilgan ijtimoiy me’yorlar va ijtimoiy munosabat tarziga) putur yetkaziladi.

Bu o‘z navbatida, axborotning xavfsizligini ta’minlash masalasini dolzarblashtiradi. Axborotning xavfsizligi deganda, uni texnik jihati emas (afsuski juda ko‘p manbalarda uzatgich kanallarini buzilishi, axborotni kompyuterdan “o‘g‘irlash” kabilar nazarda tutiladi), balki mazmundorligi jihatidan ta’sir kuchiga (u salbiy yoki ijobiy bo‘lishi mumkin) e’tibor qaratish nazarda tutilmoqda.

Axborotlashuv jarayonida, axborot uzatiladigan kanallar (vositalarni) chegaralab bo‘lmasligini anglash qiyin emas. Chunki, birini chegaralab qo‘yish, ikkinchisini vujudga kelishiga turtki bo‘ladi. Axborot, inson ongida yaratiladigan, turli kanallar vositasida uzatiladigan va jamiyatning moddiy-ma’naviy boyligiga aylangan turli bilimlarning ko‘rinishi bo‘lib, alohida insonni, jamoani faoliyat yo‘nalishini belgilab beruvchi kuchdir. Inson axborotni idrok etish jarayonida, uni “kerakli”, “kerak bo‘lib qolar” va “kerak bo‘lmagan” – “ahamiyatsiz” axborot kabilarga ajratadi. Va shu “mezon” asosida ax-

[1] Hobfoll S. E. & Lilly R. S. Resource conservation as a strategy for community psychology // Journal of Community Psychology. 1993, № 21., Теория и практика обеспечения информационной безопасности. – М.: Яхтсмен, 1996., Расторгуев С. П. Информационная война. – М.: Радио и связь, 1998., Джуманов О.И., Инатов А.И. Методы и алгоритмы контроля достоверности передачи и обработки изображений непрерывных объектов сложной структуры // Sam DU Ilmiy axborotnomasi, 2014-йил, 3A-son (85).

borotni uzatadi. Bunda, axborotni qabul qiluvchi uchun ahamiyatlilik darajasini inobatga olib, axborotni iste'molchi uchun qulay shaklda yetkaziladi va axborot bilan bog'liq bo'lgan barcha muammolar shu joyda yaqqol ifodalanadi. Shu sababli Lassuell–Samarovning axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash modelidan foydalanish samaraligini ta'kidlab, bu modelni ilmiy tavsifini keltiramiz. Modelda keltirishicha, har qanday axborot ma'lum xabarni biron-bir obyektga (iste'molchiga) yetkazishga qaratilgandir. Shu sababli, birinchi navbatda, xabarni kimga yetkazilayotganligiga (kompetentli shaxsmi? aniq manbami?), xabar qaysi kanal vositasida yetkazilishi (rasmiymi? norasmiymi?), xabar kimga yetkazilmoqda (kimga mo'ljallangan?), xabarni uzatishda qaysi effektlardan (ta'sirchanlik darajasini ta'minlash uchun rahm keltirish, g'azabini chiqarish) foydalanilgan, xabar nima maqsadda yetkazilmoqda (xarabni tayyorlashdan maqsadi nima?), xabarni qabul qilgach, xabar qabul qiluvchi qanday harakatlarni (shoshib qoladimi?, harakatini yoki munosabatini o'zgartiradimi?) amalga oshiradi, amalga oshirishgan harakatlar ketma-ketligi nimalarga (qanday oqibatga?) olib keladi, salbiy (buzg'unchi) harakatlarning oldini olish uchun qanday mazmundagi choralarni ko'rish (chegaralab qo'yish kerakmi?, befarqlarcha ish tutish kerak-mi?) lozimligini belgilab beradi.

Lassuell–Samarovning axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash modeli, ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etib, turli kasbiy faoliyatda (shu jumladan, harbiy faoliyatda, pedagogik faoliyatda) hattoki, maishiy munosabatlar doirasida ham qo'llanilishi mumkin. Modelni qo'llash natijasida asossiz ayblov qo'yish, shubha va taxminlardan holi bo'lish holati vujudga keladi. Ilmiy faoliyatda esa, tadqiqot mavzusi bo'yicha foydalaniladigan manbani birlamchi yoki ikkilamchiligini (sharhlangan, ko'chirilgan) belgilash imkonini beradi. Modelni amaliyotda qo'llash natijasida insonda murakkab kognetiv jarayon kechib, uni tafakkur tarzida ijobiy o'zgarishlar quyidagi tartibda kuzatiladi:

– inson, yetkaziladigan xavf – xatarni faol tarzda idrok etadi;

– inson, xavf – xatarni betaraf tarzda idrok etadi;

– inson, xavf – xatarni passiv tarzda idrok etadi.

Keltirilgan ijtimoiy-psixologik tasnif inson hayot-faoliyatida axborot vositasida yetkaziladigan xavf – xatarni o'z vaqtida aniqlash va zararsizlantirish uchun to'g'ri yo'l tutish yoki aniq chora-tadbirlarga amal qilish uchun imkoniyat yaratadi. Modelni nazariy ko'rinishi quyidagicha: "Xabarni kim yetkazmoqda→Qaysi kanal vositasida yetkazmoqda→Kimga yetkazmoqda→Qaysi effekt bilan yetkazmoqda→Nima maqsadda yetkazmoqda→Xabarni qabul qilgach, xabar qabul qiluvchining galdagi harakatlar majmuasi qanday tarzda kechadi→Harakatlar ketma-ketligi nimalarga olib keladi→Qanday mazmundagi choralarni ko'rish lozim"[2].

Ko'rinib turibdiki, modelda axborotning funksiyasiga alohida diqqat qaratib, uni ta'sir ko'rsatish darajasi inobatga olingan. Chunki axborot:

· joriy etilgan ijtimoiy me'yorlarga amal qilishni;

· qadriyatlar tizimiga amal qilishi va takomillashtirilishi;

· individual va ommaviy ongi shakllanishi, rivojlanishini;

· fuqarolarni ma'naviy kamolotini ta'minlashni;

· fuqarolarning psixologik salomatligini ta'minlashni nafaqat boshqaradi, balki uni rivojlanishni, mazmundorlik darajasini ta'minlaydi.

Shu sababli, axborotni qurol vositasiga aylanishiga yo'l qo'ymaslik lozimligi ayon bo'lsada, ayrim subyektlar tomonidan biron-bir maqsadga erishish uchun undan qurol

[2] Adabiyotdagi yo'l xaritasi // Jahon adabiyoti jurnali, 2018, 1-son. 126-b.

vositasida foydalanadi. Shu sababli axborot tizimi tushunchasi qo‘llaniladi va u barcha sohalarda turli masalalar yechimini topishda axborotni ishlab chiqish (yaratish), qidirish, jamlash, saqlash, uzatishni ta’minlaydigan majmua tarzida idrok etiladi. Axborot tizimidan foydalanishda kompyuter va boshqa axborot tashuvchi texnik qurilmalar amaliy mazmun kasb etadi. Ular, axborotni qabul qilish, saqlash va ishlov berishning asosiy vositasi hisoblanadi, ammo har qanday axborot insonni ishtirokida vujudga kelishi, ishlov berilishi va uzatilishini inobatga olish maqsadga muvofiq. Bunda kompyuter texnologiyalari, axborot tizimi va axborotni ishlab chiqaruvchi (inson) o‘rtasidagi funksional farqni ajratish lozim. Har qanday dasturiy vosita bilan jihozlangan kompyuterlar axborot tizimlari uchun texnik negiz, anjom, uzatish yoki saqlash jarayonini ta’minlash uchun vosita hisoblanadi. Axborotga ishlov berish inson tomonidan amalga oshiriladi, shuning uchun birinchi navbatda, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash, ya’ni agressiv xulq namunalarini targ‘ib etish yoki yot g‘oyalarni e’tirof etishga “majburlash”, nomaqbul hayot tarzini ibrat ko‘rinishida singdirish kabilardan holi etish lozim bo‘ladi.

Bugungi kunda ijtimoiy xavfi katta bo‘lgan muammolardan holi bo‘lish uchun yurtimizda ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish bo‘yicha yirik milliy loyihani yaratish zaruriyati tobora ortib borayapti. Boisi, ‘‘Google’’ kompaniyasi tahlillariga ko‘ra, O‘zbekistondan kuniga ‘‘odnoklassniki.ru’’ saytiga 200000, ‘‘Facebook’’ saytiga 90000ga yaqin, ‘‘Moy mir’’ saytiga 40000 nafardan ortiq foydalanuvchi tashrif buyurmoqda. Vaholanki, yurtimizdagi daryo.uz, ziyonet.uz, odnoklassniki.uz, sinfdosh.uz, muloqot.uz kabi saytlarda ro‘yxatdan o‘tganlarning barchasi jamlansa ham yuqoridagi saytlarning foydalanuvchilari miqdoriga yetmaydi. Shu bois Internet tarmog‘ini milliy qadriyat va an’analarimizni o‘zida aks ettiruvchi veb-saytlar bilan boyitish, ta’lim muassasalarini Internet tarmog‘iga ulashda odob-axloq qoidalariga muvofiq bo‘lmagan veb-saytlardan foydalanishga cheklovlarni joriy etish, yoshlarda axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Bunda aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo‘lishini ta’minlash, har bir fuqaro tafakkurida mafkuraviy immunitetning shakllanishiga sharoit yaratish, g‘oyaviy tahdidlarga qarshi ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotni kuchaytirish, axborot xurujlarining oldini olishga qaratilgan milliy qonunchiligimizga zarur o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlashda ijtimoiy va iqtisodiy jihatlar ifodalanib, jamiyatda kechadigan ijtimoiy munosabatlarda ifodalanishi mumkin bo‘lgan turli ko‘rinishdagi nizolarni, ziddiyatlarni vujudga kelmasligi ta’minlanadi, mudofaa va xavfsizlikka oid sarf-xarajatlarni miqdorini oshmasligiga erishiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Adabiyotdagi yo‘l xaritasi // Jahon adabiyoti jurnali, 2018, 1-son. 126-b.*

*2. Аллахвердов В. М. Психика и сознание в логике познания // Ж. Вестник СПбГУ. Сер. 16. 2016. Вып. 1. – С.35.*

*3. Rashidov R. Davlat va davlatchilik tushunchalari: mohiyati, qarashlar va yondashuvlar / J. O‘zMU xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 1/4 - son. 2015. 122-b.*

*4. Samarov R.S. Axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash mexanizmi (uslubiy qo‘llanma). – T.: Universitet, 2015. – 91-b.*

**Orif AVLAYEV,**
Chirchiq davlat pedagogika instituti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,‘‘Psixologiya’’ kafedrasi dotsenti
**Umida BUTAYEVA,**
Samarqand davlat universiteti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, ‘‘Psixologiya’’ kafedrasi dotsenti

# SHAXS KAMOLOTINING PSIXOLOGIK DETERMINANTI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada talabalar kamolotining psixologik determinantini empirik o‘rganish natijalarini ilmiy-amaliy talqini keltirib o‘tilgan. Shuningdek, psixologik kamolot haqida olimlar fikr mulohazalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Talabalarning psixologik kamoloti, psixologik yosh, ijtimoiy yosh, senzitivlik, xulq-atvor egiluvchanligi.

В статье представлена научная и практическая интерпретация результатов эмпирических исследований психологических детерминант зрелости студентов. Есть также научные комментарии о психологической зрелости.

**Ключевые слова.** Студенты обладают психологической зрелостью, психологическим возрастом, социальным возрастом, чувствительностью, поведенческой гибкостью.

The article presents a scientific and practical interpretation of the results of empirical studies of psychological determinants of student maturity. There are also scientific commentaries on psychological maturity.

**Key words.** Students have psychological maturity, psychological age, social age, sensitivity, behavioral flexibility.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlarning ma’naviy hamda ijtimoiy yetukligi, shu bilan birgalikda psixologik yetuklik masalasidagi va yoshlarga oid islohotlar samaradorligini yanada oshirishdagi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o‘rinda shaxs bilan bog‘liq tushunchalar qatorida uning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, ma’naviy, falsafiy dunyosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bir tushuncha bor bu – kamolot tushunchasi.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati Z.M.Ma’rufov tahriri ostida “kamolot – yetuk tushunchasi bilan izohlangan, yetuk – jismoniy jihatdan to‘la rivojlangan, kamolotga erishgan, bilimli, ilmli, o‘z ishida katta tajriba, bilim, mahorat orttirgan; tajribali, yuqori saviyada ishlagan; pishiq, puxta” deb ta’riflangan.

Shaxs kamoloti davrining asosiy xususiyatlaridan biri – ijtimoiy yetuklikning jadal sur’atlar bilan ro‘yobga chiqishidir. Bunday yetuklik shaxsdan zarur aqliy qobiliyatni, hayot va faoliyatda bajariladigan turli rollarni egallashni talab qiladi. Ayniqsa, aqliy yetuklik (kamolot) muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs kamolotida faqat aqliy rivojlan-

ishining o‘zi yetarli emas. Shaxs kamolotida sotsial intellektini amaliy intellekt bilan integratsiyalashuvi muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy psixologiyada bugungi kunda yetuklik tushunchasi tez-tez qo‘llanilmoqda. Bu tushuncha barcha yosh davrlariga nisbatan qo‘llanilib, ularning mazmun-mohiyatini ochishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda kamolot tushunchasi insonning turli yosh davrlariga izoh berishda qo‘llanilmoqda. XX asrning 60-70-yillarida kamolot tushunchasi “o‘rta yosh”, “yetilish” deb talqin qilingan. D.Birren tadqiqotlarida “kamolot” insonning qarilik davri bilan uyg‘unlashadi. U kamolotni quyidagi davrlarga bo‘ladi: o‘spirinlik — 12-17 yosh; erta kamolot — 17-25 yosh; kamolot — 25-50 yosh; kech kamolot — 50-75 yosh; qarilik — 75 yosh.

Ma’lumki, har bir yosh davri, o‘ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bularga: oilada va maktabda bola holatining o‘zgarishi, ta’lim va tarbiya shakllarining o‘zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat turlari, organizmdagi ayrim xususiyatlarning yetilishi singari jarayonlarni kiritish mumkin.

Ko‘p hollarda ko‘plab adabiyotlarda “yetuk shaxs” tushunchasi komillik bilan bog‘lab kelingan. Rus psixologlari yetuk shaxs xususiyatlariga faollik, yo‘nalganlik, anglanilganlik va xulq-atvor, atrofga bo‘lgan munosabat, shaxslararo munosabatlar, ustanovka va shaxs dispozitsiyalarini kiritishgan.

Kamolot davrida optimum (yuqori natijaga erishish) ijodiy faoliyatda ham yorqin namoyon bo‘ladi. Kamolot davrida, masalan, ilmiy faoliyatda optimum 35-45 yoshda namoyon bo‘lsa, 20-25 yoshda xoreografik, 30-35 yoshda musiqa va she’riyat, 40-55 yoshda siyosat va boshqaruv faoliyatida yuqori natijalar kuzatiladi. Albatta, kamolot davrida faqat optimum emas, balki inqiroziy orqaga ketish yoki to‘xtab turish holatlari ham kuzatiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, kamolot davridagi imkoniyatlarni to‘g‘ri aniqlash va baholash shaxs imkoniyatlarini to‘g‘ri taqsimlash imkoniyatini beradi. Bu inson intellektining produktiv davrini bilish va uni ishga solishga yordam beradi. Albatta, intellektning optimumi va inqirozi hammada ham bir xil vaqtda namoyon bo‘lmasligi mumkin. Bu shaxsning individual xususiyatlari, tashqi va ichki omillar, motivatsiyaga, yashash muhitiga bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bejiz ham kamolot davrida ijod ahli vakillari bir xilda samarali mehnat qilishmaydi. Bu bevosita zamon va makon hamda shaxsga bog‘liqdir. Quyidagi 1-jadvalda umumiy holatda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bir necha fan yo‘nalishlarida shaxs optimumi va inqirozi davrlarini ko‘rishimiz mumkin.

**1-jadval**

**Ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarining ontogenestik dinamikasi**

| Start | 1-optimum | 1-inqiroz | 2-optimum | 2-inqiroz | 3-optimum | 3-inqiroz |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Matematiklar** | 23-39 | 39-45 | 45-54 | 54-58 | 58-67 | 67yoshdan keyin |
| **Fiziklar** | 27-41 | 41-45 | 45-55 | 55-60 | 60-70 | 70yoshdan keyin |
| **Biologlar** | 31-40 | 40-47 | 47-55 | 55-60 | 60-75 | 75yoshdan keyin |
| **Psixologlar** | 30-40 | 40-45 | 45-59 | 59-65 | 65-70 | 70yoshdan keyin |
| **Fiziologlar** | 28-42 | 42-46 | 46-55 | 55-60 | 60-70 | 70yoshdan keyin |

Shaxs erta kamolot davrida shaxsiy hayotiy obrazini, kasbiy rolini, ijtimoiy faolligini tasavvur qiladi va yaratishga zamin yaratadi. O‘rta kamolot davrida ijtimoiy va kasbiy rollar konsolidatsiyasi yuzaga keladi. Kamolotning quyi davrida faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra kasbiy va ijtimoiy rollar dominant hisobiga o‘zgarishi, qayta ko‘rib chiqilishi, oilaviy munosabatlar strukturasiga o‘zgartirishlar kiritilishi bilan xarakterlanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Inson kamoloti masalasi tahliliy jihatlari madaniy muhit va ta’lim jarayoni subyektlari misolida tadqiq etish yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazishga erishdik. Tadqiqotda bir qator metodikalardan foydalanildi. Metodikalar talabalarning psixologik yetukligini bir necha jabhada o‘rganishga yo‘naltirilgan.

**Tadqiqot natijalari,** birinchi navbatda, talabalarning bir necha metodikalar bo‘yicha so‘rovnomalarga javoblari umumlashtirilgan jadval asosida tahlil qilindi. Shuningdek, talabalarning psixologik kamolot xususiyatlari bo‘yicha ijtimoiy va psixologik yosh ko‘rsatkichlari, nosituativ mas’uliyat va vaziyatning asosiy sababini aniqlash mezonlariga tayanildi. Respondentlardan olingan natijalar tahlili metodikalarning mezoniga muvofiq psixologik kamolotning darajalari aniqlash bo‘yicha amalga oshirildi. Psixologik kamolot darajalari metodikalarning xususiyatidan kelib chiqib, quyi, o‘rta, o‘rtadan yuqori, yuqori va juda yuqoriga ajratildi. Natijalar o‘zaro darajalar bo‘yicha qiyosiy talqin etildi.

Respodentlarning psixologik yetukligini aniqlash borasidagi dastlabki natijalar umumiy xarakterga ega. Psixologik kamolot shaxs egallashi lozim bo‘lgan muhim shaxs sifatlari mujassamlashtirilgan timsol bilan belgilandi. Uning “Men timsoli”, “Men va boshqalar”, “Men va jamiyat” munosabatlarda uyg‘unlashgan eng muhim shaxs sifatlari o‘z aksini topdi. Respondentlar tomonidan keltirilgan natijalarning ko‘rsatilishicha, shaxs yetukligini uning psixologik va ijtimoiy kamoloti bilan baholanadigan jihatlari mavjudligi aniqlandi.

**2-jadval**

**Talabalar psixologik yetukligini baholash metodikalari ko‘rsatkichlari (quyi va o‘rta kamolot darajasi, n=142 )**

| Shkalalar | Darajalar | M | σ | t |
|---|---|---|---|---|
| Psixologik yosh | Quyi | 82,69 | 6,307 | -12,883** |
| | O‘rta | 94,76 | 2,589 | |
| Ijtimoiy yosh | Quyi | 2,76 | 0,431 | -1,000 |
| | O‘rta | 2,85 | 0,472 | |
| Vaziyat | Quyi | 4,54 | 1,640 | -1,096 |
| | O‘rta | 4,92 | 1,471 | |
| Ikkilanish | Quyi | 1,56 | 0,708 | 0,905 |
| | O‘rta | 1,42 | 0,644 | |
| NOM | Quyi | 9,57 | 2,037 | 0,262 |
| | O‘rta | 9,45 | 2,441 | |
| VAS | Quyi | 13,11 | 3,380 | -1,646 |
| | O‘rta | 14,57 | 3,569 | |

Izoh:***r≤0,001

Psixologik kamolot va ijtimoiy kamolotni talqin qilishda shaxsning psixologik imkoni-

yati, o‘zini emotsional-irodaviy tartibga solish usullarini o‘zlashtirganligi, ijtimoiylashuvni to‘liq bosib o‘tganligi, o‘tmish, bugun va kelajak timsoliga ko‘ra, shaxsning rivojlanishi uzviy kamol topayotganligini belgilab beradi. Tadqiqotning ilk natijalaridan biri – psixologik kamolot darajasi quyi va o‘rtacha bo‘lgan talabalar natijalari talqin qilinganda, statistik jihatdan ahamiyatli ko‘rsatkichga ega bo‘lgan holat birgina ko‘rsatkichda kuzatildi. Bu holat talabalarning “psixologik yosh” shkalasi natijalarida kuzatildi. Bu holat psixologik yosh ko‘rsatkichi o‘rta darajalilar bo‘yicha (94,76 va 82,69) farqlar ishonchliligi aniqlandi (t=-12, 883, r≤0,001). Psixologik kamolotni baholashning qolgan shkalalari o‘rtasida katta farq kuzatilmadi. Psixologik yoshdagi tafovut mavjud bo‘lgan sharoitda ijtimoiy yoshda shaxslarda tafovut yoki farqlar kuzatilmasligi mumkin ekan. Bu ijtimoiy yosh alohida mezonlar va shaxs sifatlari bilan bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Bundan ko‘rinadiki, quyi va o‘rtacha psixologik yetuk bo‘lganlarda psixologik yosh ko‘rsatkichlari talabalarda emotsional zo‘riqishlarni bartaraf etish, o‘zining imkoniyatlari, emotsional intellekt, umumiy intellekt, faoliyat motivlari shakllanganligi bilan bog‘lanadi.

**3-jadval**

**Talabalar psixologik yetukligini baholash metodikalari ko‘rsatkichlari (o‘rtacha va o‘rtachadan yuqori kamolot darajasi, n=144)**

| Shkalalar | Darajalar | M | σ | t |
|---|---|---|---|---|
| Psixologik yosh | O‘rtacha | 94,76 | 2,589 | -53,281*** |
| | O‘rtachadan yuqori | 103,85 | 2,998 | |
| Ijtimoiy yosh | O‘rtacha | 2,77 | 4763 | 0,684 |
| | O‘rtachadan yuqori | 2,72 | 503 | |
| Vaziyat | O‘rtacha | 4,81 | 1,448 | 0,107 |
| | O‘rtachadan yuqori | 4,78 | 1,534 | |
| Ikkilanish | O‘rtacha | 1,41 | 628 | -0,484 |
| | O‘rtachadan yuqori | 1,46 | 581 | |
| NOM | O‘rtacha | 9,85 | 2,437 | 0,436 |
| | O‘rtachadan yuqori | 9,68 | 2,278 | |
| VAS | O‘rtacha | 13,97 | 3,612 | -1,389 |
| | O‘rtachadan yuqori | 14,80 | 3,387 | |

Izoh:***r≤0,001

Psixologik kamolot darajasi o‘rtacha va o‘rtachadan yuqori darajali talabalarning metodikalar bo‘yicha ko‘rsatkichlari o‘rtasida ishonchlilik farqi ham oldingi guruh respondentlar singari psixologik yosh shkalasi bo‘yicha kuzatildi. Xususan, (94,80 va 82,69) farqlar ishonchliligi aniqlandi (t=-53, 281, r≤0,001). Boshqa shkalalarda esa hech qanday ortiqcha tafovutlar kuzatilmadi. Bundan ko‘rinadiki, psixologik yosh nuqtayi nazaridan psixologik yetukligi quyi, o‘rta va o‘rtachadan yuqori jihatlilar bir-birlaridan shaxs sifatlarining kamol topganligi bilan ajralib turgan bir sharoitda ularning ijtimoiy yoshi bo‘yicha tafovutlanishlari kuzatilmaydi. Talabalarning ijtimoiy yoshi ularning shaxs sifatida o‘zlarini ijtimoiy muhitda qanday tutishlari, ijtimoiy muhitga moslashuvchanligi, “Men va boshqalar” munosabat tizimida o‘zini tutishi, “Men va jamiyat” munosabatidagi egallagan pozitsiyalari bilan belgilanadi.

1. Tadqiqotning ilk natijalaridan biri – talabalarda psixologik kamolot darajasi quyi, o‘rtacha, yuqori va juda yuqori psixologik yosh darajasi aniqlandi. Metodika natijalari tahliliga ko‘ra, talabalar psixologik yetukligini oldingi an’anaga muvofiq quyi, o‘rta, o‘rtachadan yuqori, yuqori va juda yuqori darajalar bo‘yicha ajratilgan holat bo‘yicha tahlil qilindi.

2. Psixologik kamolot borasidagi izlanishning ushbu bosqich natijalariga ko‘ra, talabalardagi tafovutli holatlar o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha doimiy ravishda shaxs yetukligining har bir darajasida o‘ziga xos ijobiy ahamiyatli sifatlar kuzatilishi mumkinligi bo‘ldi. Kamolotning bir-biriga yaqin darajalari orasida esa, tafovutlar keskinlashishi yoki tenglashishi mumkinligi ham kuzatilar ekan.

3. Yuqori va juda yuqori psixologik yosh darajasiga ega bo‘lgan talabalarning natijalarida ayrim shkalalardagina statistik tafovutlar aniqlandi. Bu esa, statistik tafovutga ega bo‘lmagan shkalalar bo‘yicha talabalar psixologik kamolot ko‘rsatkichlari bo‘yicha mavjud shaxs sifatlarida bir-birlariga yaqin darajada ekanliklaridan dalolat beradi.

4. Talabaning psixologik kamolotida uning ongi, faoliyati, o‘z-o‘zini anglashidan iborat ichki yo‘naltiruvchi mexanizmi muhim ahamiyatga ega, chunki uning shaxs sifatida rivojlanishi, qiziqishi, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyati bilan belgilanadi. Ana shu xususiyatlar rivojlanib, uning ijtimoiy hayotga, kishilarga, jamiyatga bo‘lgan munosabati ma’lum bosqichga yetganda u psixologik kamolot darajasiga ko‘tariladi.

5.Talaba psixologik kamolotining shakllanishiga ta’limiy faoliyat mavjud ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etilgandagina muvaffaq bo‘linadi. Unda ta’lim jarayonini demokratlashtirish insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish, differensiyalash, ta’lim jarayoniga yangi texnologiyalarni kiritish hamda shaxs intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan g‘oyalar ustuvor o‘rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


*1. Avlayev O.U., Abdujalilova Sh. A. The role of social intelligence in personality maturity. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Scopus. Vol. 24, Issue 06, 2020 ISSN: 1475-7192. Page No. 428-436.*

*2. Avlayev O.U., Burkhanov A.A., Ismoilova D.M., Norkuzieva M.A. Factors Affecting the Intellectual Dynamics of the Individual .“TEST engineering & management”. Scopus. May-June 2020 ISSN: 0193-4120 Page No. 693-702.*

*3. Ананьев В. А. Основы психологии здоровья. Книга 1. Концептуальные основы психологии здоровья. – СПб, 2006.*

*4. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. –М., 1977 Наука. 158-159.*

*5. Burkhonov A., Avlayev O., Abdujalilova Sh. Responsibility as a criterion for determining personal maturity. E3S Web of Conferences 244, 11059. (2021) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202124411059*

*6. Бодалев А.А. Межличностное восприятие и понимание. Личность и общество.–М., Педагогика, 1983.*

**Nozima KARIMOVA,**
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

# PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada pedagogning kasbiy kompetentligi mazmuni, kasbiy kompetensiya tushunchasining “professionalizm”, “kasbiy mahorat”, “malaka”, “o‘z kasbining ustasi” atamalaridan farqli jihatlari, kasbiy kompetensiyani baholash mezonlari haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Kompetentlik, kompetensiya, tayanch bilim, kasbiy bilim, individual, kasbiy sifatlar.

В данной статье рассматриваются понятия профессиональная компетентность педагога, понятие профессиональной компетентности как “профессионализм”, “профессиональные навыки”, “квалификация” и критерии оценки профессиональной компетентности.

**Ключевые слова.** Компетентность, компетенция, ключевые знания, профессиональные знания, профессиональная компетентность педагога, индивидуальность, профессиональные качества.

In given article concepts professional competence of teachers, concept of professional competence as “professionalism”, “professional skills”, “qualification” and criteria of an estimation of professional competence are considered.

**Key words.** Competence, key knowledge, professional knowledge, professional competence of the teacher, individual, professional qualities.

Kasbiy tayyorgarlikka qo‘yilayotgan zamonaviy talablar umumiy va kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni yaxlit tizimini, muhim kompetensiyalarni shakllantirishni taqazo etmoqda. Bu hozirgi zamon ta’lim sifatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda pedagogika sohasida “kompetentlik”, “kompetensiya”, “kompetentli” tushunchalaridan tez-tez foydalanilmoqda. Bu ta’lim mazmunini isloh qilish zarurati bilan uzviy bog‘liq.

Kompetentlik deyilganda, ko‘pincha shaxsning integral sifatlari tushuniladi. Ular shaxsning umumiy qobiliyatida, uning ta’lim olish va ijtimoiylashish jarayonida o‘zlashtirgan bilimi va tajribasiga asoslangan faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko‘nikma va malaka tushunchalaridan ko‘ra, kengroq ma’noni anglatadi. Chunki, ular shaxsning yo‘nalganligi (motivatsiyasi, qadriyati va yo‘nalishlari), muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, fikrlash qobiliyatini; xarakterini – mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, irodaviy sifatlarni qamrab oladi.

Bugungi kunda professional ta’limi muassasalari uchun yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqishga katta qiziqish bilan qaraydigan, ilg‘or g‘oyalarga, yuksak intellek-

tual imkoniyat va konsepsiyalarga ega o‘qituvchilar zarur. Pedagog yaxshi metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishi, darsda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning turli metodlarini egallashi kerak. Ko‘pgina professional kollejlarining rahbarlari bugungi kunda o‘qituvchilar faoliyatiga qanday pedagogik talablar qo‘yilayotganligi haqida to‘la tasavvurga ega emaslar. Professional ta’limni amalda muvaffaqiyatli joriy etish uchun o‘qituvchilar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim, jumladan:

— ta’limdagi shaxsga yo‘naltirilgan, individual va kompetent yondashuvlarni hamda ularni amaliy joriy etishning metodologik asoslarini;

— predmetlar bo‘yicha ta’lim mazmuni (tayanch va kasbiy bilimlarni);

— effektiv kurslarni ishlab chiqish va tashkil etish metodikasini;

— o‘quvchilarning loyihalash va ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish metodikasini.

Pedagog quyidagilarni uddalay olishi kerak:

— o‘qitishni maksimal darajada individuallashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini loyihalash, o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati asoslarini kuchaytirish, tadqiqot faoliyati va ijtimoiy amaliyotini rivojlantirish;

— o‘quvchilar faoliyatini xilma-xil shakl va turlaridan foydalanish (loyiha, individual va guruhiy shakllari, axborotning turli manbalari) va tayanch ma’lumotlari bilan mustaqil ishlash; ijtimoiy amaliyot; o‘quv muhitini tabaqalashtirish: sinf-o‘quv xonalari, laboratoriyalar va boshqalar);

— o‘quv jarayonida o‘quvchilarning bosqichma-bosqich rivojlanishini aniqlashning yangi shakl, metod va vositalaridan foydalanish (bunda o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi);

— o‘quvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda predmetini o‘qitish mantig‘ini qurish; jamoa va har bir o‘quvchining rivojlanish vaziyatini tashxis etish hamda nazorat qilish; o‘quv jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni bashorat qilish, ularning sabablarini va bartaraf etilishi yo‘llarini aniqlash;

— o‘quvchilarning axborotlarni to‘plash va tahlil etish bo‘yicha amaliy malakalarini shakllantirishga, mustaqil ishini qo‘llab-quvvatlashga, tajribalarni mustahkamlash va ma’suliyat bilan faoliyat ko‘rsatishiga, o‘zini-o‘zi kamol toptirishiga, qadriyat yo‘nalishlarining shakllanishiga imkon beruvchi zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va metodlarini qo‘llash;

— o‘quv jarayonida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish;

— ta’limning amaliy yo‘nalganligini ta’minlash, o‘quvchilarda ma’lum kompetensiyalarni shakllantirish (intellektual, kommunikativ, bilish, informatsion, fuqaroviy-huquqiy va boshqalar);

— o‘quvchilarning kasbiy o‘z-o‘zini belgilashga ko‘maklashish.

Ushbu mezonlar asosida kasb ta’limini tashkil etish jarayonida o‘qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni o‘rganish mumkin. Olingan natijalar asosida pedagogning kasbiy kompetentligi rivojlantiriladi.

Kasbiy kompetentlik darajalarini kvalimetrik yondashuv asosida aniqlash yaxshi samara beradi, ya’ni sifat ko‘rsatkichlari va tayyorgarlik darajalarini baholashning obyektivlik xususiyatlari kengaytiriladi.

Kvalimetriyaning amaliy tarmog‘i bo‘lgan pedagogik kvalimetriyada kadrlarni tayyorlashda malaka talablari etalon sifatida qabul qilingan bo‘lib, pedagogik kadrlarning kasb malakasi va pedagogik mahorati sifati taqqoslash orqali aniqlanadi.

Pedagogik kvalimetriyani qo‘llashda quyidagi mantiqiy yondashuvlar mavjud:

1. Pedagogik kvalimetrik jarayonni deduktiv mantiqiy yo‘nalishda tashkil etish;

2. Pedagogik kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo‘nalishda tashkil etish;

Pedagogik kvalimetrik jarayonni deduktiv mantiqiy yo‘nalishda tashkil etilishiga oliy ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish, akkreditatsiyalash, oliy ta’lim muassasalarining reytingini aniqlash jarayonlarini misol qilib olish mumkin.

Mazkur jarayonda ekspertiza metodi vositasida oliy ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy hujjatlari, o‘quv kurslarining didaktik va metodik ta’minoti, moddiy-texnik bazasi tahlil qilinib, ekspertizadan o‘tkaziladi. Yuqorida qayd etilgan hujjatlar ekspertizadan o‘tgandan so‘ng, oliy ta’lim muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayon kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Pedagogning kasbiy kompetensiyalari diagnostikasi murakkab jarayon hisoblanadi va quyidagicha tavsiflanadi:

Ta’lim-tarbiyaning boshlang‘ich va hozirgi holati diagnostikasi. Bu ta’lim jarayoni kechishi va natijasi bilan aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat. Diagnostika o‘zi ichiga quyidagilarni qabul qiladi:

– nazorat: aniqlash, o‘lchash, baholash;

– statistik ma’lumotlarni to‘plash va ularning tahlili;

– o‘zgarish, intilishni aniqlash;

– voqealarning keyingi rivojlanishini oldindan aytish.

O‘qituvchi nazorat va hisobga olishni to‘g‘ri tashkil etsa, ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim.

Nazorat ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o‘lchash tekshirish deb ham ataladi.

Tekshirish nazoratning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasida qayta aloqani ta’minlash, pedagog tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashni ta’minlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat pedagogning bilim darajasi, sifati, shuningdek, uning o‘quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bosqichi har bir mavzularni o‘zlashtirish jarayonidagi ma’lum bir muddatga rejalashtirilgan joriy baholashdir. Joriy baholash amaliy mashg‘ulotda ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv dasturida belgilangan ayrim elementlarni o‘zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur baholashning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni o‘rganishdir.

Kasbiy kompetentlikni o‘zlashtirilgan va shakllantirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish layoqati bo‘lib, kasbiy kompetentlik darajasi o‘qituvchining qay darajada kasbiy faoliyatga tayyor ekanligini aniqlash mezonidir. Kasbiy kompetentlik darajasini baholashda reyting tizimidan foydalanish qo‘l keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Корчагина М.И. Формирование компетентной личности педагога.// Профессиональное образование. Столица. – М., 2008. – № 5. – С. 32-33.

2. Muslimov N.A., Karimova N.N. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini amaliy kompetentligini shakllantirishda ixtisoslik fanlarining o‘rni // Pedagogik ta’lim. –T., 2012. – № 1. – 61-64-betlar.

3. Nazarova B.A. Pedagogika kollejlari bo‘lg‘usi o‘qituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash: Ped. fan. nomz. ... dis. – T.: TDPU, 2009. – 144-b.

**Xadichaxon SHARAFUTDINOVA,**
Termiz davlat universiteti, psixologiya fanlari nomzodi,
“Psixologiya” kafedrasi mudiri

# OILAVIY MUNOSABATLAR DESTRUKSIYASIDA KOGNITIV PSIXOTERAPIYANI QO‘LLASH

**Annotatsiya**

Maqolada shaxsning destruktiv xulq-atvorining oilaviy munosabatlarga ta’siri, oilaviy munosabatlar destruksiyasini bartaraf etishda kognitiv psixoterapiya elementlarini qo‘llashning ahamiyati bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Oila, oilaviy munosabatlar, destruksiya, destruktiv xulq-atvor, oilaviy munosabatlar destruksiyasi, kognitiv psixoterapiya.

В статье описывается влияние деструктивного поведения на отношения в семье, важность использования элементов когнитивной психотерапии в преодолении разрушения семейных отношений.

**Ключевые слова.** Семья, семейные отношения, разрушение, деструктивное поведение, разрушение семейных отношений, когнитивная психотерапия.

The article describes the impact of destructive behavior on family relationships, the importance of using the elements of cognitive psychotherapy in overcoming the destruction of family relationships.

**Key words.** Family, family relationships, destruction, destructive behavior, destruction of family relationships, cognitive psychotherapy.

O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev – “Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir,” – deya ta’kidlagan. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng erkin fikrlaydigan, o‘z-o‘zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa eng avvalo, insonlarning ichki ruhiy ma’naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqozo etadi.

Shaxs jamiyat a’zosi bo‘lishi bilan birga jamiyat mahsuli hamdir. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy muhiti, jamiyatda qabul qilingan qonun, me’yorlar uning a’zolarida o‘ziga xos ma’naviy-psixologik qiyofaning shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Dastlab oilada, keyinchalik, turli ijtimoiy institutlarda tashkil etiladigan tarbiyaviy-ta’limiy ta’sirlar shaxsni jamiyatning bir bo‘lagi sifatida yashashi, harakat qilishi, muayyan xulq-atvorni namoyon etib, kishi insoniylik, oliyjanoblik kabi yuksak fazilatga erishadi. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to‘g‘rilik va boshqalar shakllanadi.

Ammo, xuddi shunday insonning yuksalishi uchun imkoniyatlar bergan jamiyatda ba’zan, oila a’zolarida jamiyat kishisiga xos bo‘lmagan, salbiy psixologik xususiyatlar

ham kuzatilmoqda. Ularda johillik, hasadgo‘ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo‘rlik, g‘iybat qilishlik, ko‘rolmaslik, yovuzlik, qo‘poruvchilik, tajovuzkorlik, o‘z oilasi, vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy destruktiv xulq-atvor shakllanadi. Bu kabi xususiyatlar oilada shaxslararo munosabatlarning buzilishiga, oilaning tinchligi buzilishiga hamda ajralishlarga olib keladi.

Destruktiv xulq-atvor psixologiyada yetarli darajada tadqiq etilmagan, ‘‘destruksiya’’, ‘‘destruktiv munosabat’’, ‘‘destruktiv xulq’’ tushunchalarining mazmuni, sabablari chuqur o‘rganilmagan. Ko‘pchilik tadqiqotchilar destruksiyaning xususan, o‘smirlik davrida kuzatiladigan xulq og‘ishi, ayol va erkaklardagi agressivlik, qotillik, suitsid, terrorchilik faoliyati singari turli ko‘rinishlariga e’tibor qaratganlar. Kuzatishlarga ko‘ra, destruktivlikning ayrim ko‘rinishlari biolog, genetik, psixolog, seksopatolog, tarixchi, huquqshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Muammoni yaxlit holda tadqiq etish uning mohiyatini anglashga yordam berishi mumkinligini hisobga olganda, destruksiya muammosi, destruktiv xulq, uning sabablari va oqibatlarining yetarli darajada o‘rganilmaganligi muammoning dolzarbligini asoslaydi.

Mazkur mavzuni chuqur tadqiq etish, destruktiv xulq-atvor asosini va uning har xil ko‘rinishlari namoyon bo‘lishini tahlil qilish, destruktivlik muammosini hal etishning jahon tajribasini umumlashtirish insonning vayronkor tabiatini jilovlab turishga va destruktiv mayllarni boshqa faoliyat sohalariga yo‘naltirishga imkon beruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni yaratish imkonini berishi mumkin. Olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda inson destruktiv faoliyatiga ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida baho berishga harakat qilingan. Xususan, uning biologik, neyrofiziologik, psixologik va ijtimoiy asoslarini tahlil qilish, insonning tabiatidan kelib chiqib, destruktiv xulq mohiyatini tushuntirib berish mumkinligi ta’kidlanadi.

Jumladan, Allan va Barbara Piz singari olimlar o‘z tadqiqotlarida kishilar organizmida kuzatiladigan gormonal jarayonlar (ayollar va erkaklardagi menstrual va monopauza holatlari) va shunga bog‘liq holda ularda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar insonlar xulqiga ta’sir etishi, jumladan, jinoiy xatti-harakatlar va jinoyatlarni amalga oshirishga undashi mumkinligi xususida ko‘plab dalillarni to‘plaganlar.

Shuningdek, inson gormonal tizimining xususiyatlari va uning destruksiyaga moyillik o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lshi mumkinligi to‘g‘risidagi taxminlar ham mavjud. Jumladan, Tranzakt tahlil nazariyasining asoschisi E.Bern ta’kidlashicha, biz ko‘pincha ichki sekretsiya bezlari yordamida ishlab chiqilgan gormonlarning xususiyatlarini hisobga olmaymiz, ular esa biror narsani yaratish yoki vayron qilishga intilish hissini tug‘dirishi mumkin.

Insonlarning destruktiv xulq-atvorining mohiyatini tushunishga L.S.Vigotskiyning madaniy va tarixiy konsepsiyasi imkon beradi. U har bir shaxsni bir-biridan biologik yetukligi va madaniy rivojlanishini aniq ajratib turadi. Birinchisi, shaxsiyatni shakllantirish uchun tug‘ma asos bo‘lib, uni, albatta, e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ikkinchisi, ijtimoiylashuv jarayonida shakllangan va rivojlangan shaxsiy rivojlanish mazmuni, bu har bir insonni o‘rab turgan jamiyatdagi real munosabatlar interiorizatsiyasining samarasidir.

O‘zbekistonlik psixolog U.D.Qodirovning “Yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari” nomli kitobida “Inson destruktiv faoliyatini tahlil qilish jarayonida asosiy e’tiborni ijtimoiy-madaniy kontekstda sodir bo‘ladigan neyrofiziologik jihatlarga qaratgan ma’qul. Destruksiya biologik jihatdan asosiy, determinantlashgan omil deyishdan ko‘ra, biologik jihatdan ahamiyatli degan fikr haqiqatga

yaqindir. Yuqoridagi mulohazalarda destruktiv faoliyatning biologik va neyrofiziologik asoslari bayon qilingan bo‘lib, uning psixik negizlarini ham o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqdir,” – deb ta’kidlagan.

Albatta, destruktiv xulq-atvorning shakllanishida shaxsning oila muhiti, guruh, jamoa va ijtimoiy ta’sirlarning roli katta. Ammo, bizning nazarimizda destruktiv xulq-atvor shaxsga xos bo‘lib, uning shakllanishida shaxsda shakllangan xarakterologik xususiyatlar alohida o‘ringa ega. Jumladan, qaysarlik, manmanlik, o‘jarlik, hasadgo‘ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, tekinxo‘rlik, g‘iybatchilik, ko‘rolmaslik, yovuzlik, qo‘poruvchilik, tajovuzkorlik, agressivlik kabilar. Mazkur xususiyatlarning shakllanishida ijtimoiy omillarning ta’siri bilan bir qatorda biologik asosga ham ega.

O‘zbek oilalarida destruksiyani keltirib chiqaruvchi shaxsiy xulq-atvor xususiyatlarini o‘rganish maqsadida olib borgan tadqiqotlarimizda quyidagi ijtimoiy psixologik so‘rovnomani qo‘lladik:

Ijtimoiy psixologik so‘rovnoma.

***Ko‘rsatma:*** quyida birinchi qatorda keltirilgan 14 ta shaxsning xarakterologik xususiyatlarini o‘zbek oilalarida destruktiv munosabatlar shakllanishidagi o‘rni, ya’ni eng ko‘p sabab bo‘lishiga qarab ikkinchi qatorga 1 dan 14 gacha joylashtiring.

Jadval 1

| № | Xarakterologik xususiyatlar | № | Xarakterologik xususiyatlar |
|---|---|---|---|
| 1 | Qaysarlik | 1 | |
| 2 | Manmanlik | 2 | |
| 3 | O‘jarlik | 3 | |
| 4 | Hasadgo‘ylik | 4 | |
| 5 | Beparvolik | 5 | |
| 6 | Xudbinlik | 6 | |
| 7 | Yalqovlik | 7 | |
| 8 | Tekinxo‘rlik | 8 | |
| 9 | G‘iybatchilik | 9 | |
| 10 | Ko‘rolmaslik | 10 | |
| 11 | Yovuzlik | 11 | |
| 12 | Qo‘poruvchilik | 12 | |
| 13 | Tajovuzkorlik | 13 | |
| 14 | Agressivlik | 14 | |

Ijtimoiy psixologik so‘rovnomada 164 nafar respondentlardan olingan tadqiqot natijalari bo‘yicha birinchi beshta o‘rinni quyidagi xususiyatlar egalladi.

| Xarakterologik xususiyatlar | **O‘rin** | **Foizlarda** |
|---|---|---|
| Qaysarlik | 1 | 32% |
| Beparvolik | 2 | 24% |
| Agressiya | 3 | 22% |
| Manmanlik | 4 | 20% |
| Yalqovlik | 5 | 18% |

Demak, o‘zbek oilalarida destruktiv munosabatlar shakllanishida asosan, qaysarlik,

beparvolik, agressivlik, manmanlik va yalqovlik kabi xususiyatlar alohida o‘rin egallaydi degan xulosa chiqarishimiz mumkin. Shaxsning oilaviy munosabatlari hayoti davomida ta’sir ko‘rsatadi. Agar munosabatlar destruktiv xarakterga ega bo‘lsa, kishining butun faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu tufayli oilaviy munosabatlar destruksiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi shaxsning xarakterologik xususiyatlarini aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali vositalaridan foydalanish amaliy psixologiya vazifasidir. Bu borada, albatta, turli psixokorreksion usullar bilan birga kognitiv psixoterapiya usullarini qo‘llash ham yaxshi samara beradi.

Kognitiv-psixoterapiya yo‘nalishi tarafdorlari fikricha, inson o‘z hayotida xatti-harakatlarini sodir etayotgan narsalar haqidagi g‘oyalari asosida qurishiga asoslanadi. Inson o‘zini, odamlarni va hayotni qanday ko‘rishi uning fikrlash tarziga, fikrlashi esa uning qanday qilib o‘ylashga o‘rgatilganiga bog‘liq, degan g‘oyani ilgari suradi. Biror kishi salbiy, konstruktiv bo‘lmagan yoki shunchaki samarasiz, noto‘g‘ri fikrlashdan foydalansa, u noto‘g‘ri yoki samarasiz g‘oyalarga ega bo‘ladi, shuning uchun noto‘g‘ri yoki samarasiz xatti-harakatlar va bundan kelib chiqadigan muammolarga duchor bo‘ladi. Kognitiv xatti-harakat yo‘nalishi bo‘yicha odamlar davolanmaydi, aksincha, yaxshiroq hayot kechirishga yordam beradigan yaxshiroq fikrlashga o‘rgatiladi. Kognitiv psixoterapiya usullaridan foydalanib, destruktiv munosabatli oila a’zolari bilan mashg‘ulotlar olib borilishi, ularning oilaviy vaziyatlarini to‘g‘ri tahlil qilishi, turli ekstremal vaziyatlarga nisbatan har bir oila a’zosining adekvat munosabatini shakllanishiga xizmat qiladi.

Inson yoshligidanoq turli hissiy kechinmalarni boshdan kechiradi, yosh o‘tishi bilan turli muammolar, tashvishlar, g‘am-anduhlar bilan o‘zi xohlamagan tarzda to‘qnash keladi. Hayot davomida boshdan kechiriladigan xilma-xil hissiyotlar turli vaziyatlarda muammolarga munosabatimizning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, kutilayotgan vaziyatlarga nisbatan yuzaga keladigan salbiy hissiyotlar: qo‘rquv, vahima, xavotirlanish kishining hayotiy munosabati sifatida ongida, tasavvur va tafakkurida, vaziyatni idrok qilishida qat’iy o‘rinni egallab olib, ko‘pincha uning butun harakatlarini boshqarishi mumkin. Bularning barchasi kundalik turmushda uchrab turadigan odatdagi noxush, kutilmagan stressli vaziyatlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.

Kognitiv psixologiyada disfunksional e’tiqodlarni rad etish va yanada aniqroq adaptiv fikrlashni targ‘ib qilish uchun ham kognitiv, ham ba’zi xulq-atvor usullari qo‘llaniladi. Kognitiv psixokretsiya – shaxsning muammolari, destruktiv xulqi asosan, noto‘g‘ri taxminlar va qarashlarga asoslangan haqiqatning muayyan buzilishlaridan kelib chiqadi deb taxmin qiladi. Ushbu noto‘g‘ri tushunchalar shaxsning kognitiv rivojlanishi jarayonini noto‘g‘ri o‘rganish va talqin qilish natijasida paydo bo‘ladi. Kognitiv psixoterapiyada psixolog mijozga fikrlashdagi buzilishlarni topishga va o‘z tajribasini shakllantirishning muqobil, yanada aniqroq usullarini o‘rganishga yordam beradi.

Agar inson o‘zini yaxshi anglagan, hissiy-emotsional holatini nazorat qila oladigan, maqsadlarini to‘g‘ri qo‘ygan va unga yetishish uchun astoydil harakatda bo‘lsa, unda hech qachon salbiy psixologik holat yuzaga kelmaydi. Har qanday sharoitda ham irodali, shijoatli kishilar oldinga qarab intiladi. Salbiy kayfiyatidagi kishilarni kuzatsak, ular har qanday kichik muammoni ham kattalashtirib yuborishadi, behudaga asabiylashishadi. Chunki, bu toifadagi shaxslar o‘ziga berilgan hayot imkoniyatidan to‘g‘ri foydalana olmaydi.

Psixologlarning e’tirof etishlaricha, inson o‘zini yangitdan shakllantirish to‘g‘risida ham bosh qotirishi kerak. Psixologlar mijoz bilan ishlayotganda ularga ‘‘O‘zingizga

savol bering. Men kimman? Nima uchun yashayapman? Qanday zaif tomonlarim bor? Nima qilsam hayotim yaxshilanadi? Atrofimdagi insonlar uchun qanday yordam bera olishim mumkin? O‘zimdagi qaysi nuqsonlarni o‘zgartirishim kerak? O‘zimdan nima istayapman?” kabi savollar bilan murojaat qilib, shaxsni o‘zini anglashga yo‘naltiradi. Inson ana shu kabi savollarni o‘ziga berishi bilan hayotga shunchaki kelmaganini, oldida ulkan vazifalar turganini anglaydi. Mana shu anglash uni fikrlashga undaydi, fikrlash esa oldida turgan vazifalarning yechimiga olib boradi.

Shuningdek, psixologlar inson ruhiyatini sog‘lomlashtirish uchun “Minnatdorchilik”, “Shukronalik”ni mashq qilishga o‘rgatadi. Doimiy tushunish va minnatdorchilik bildirish har kimga yoqadi, kayfiyatni ko‘tarib, farovonligini yaxshilaydi.

Kognitiv psixoterapiyada psixolog shaxsni haqiqiylikdan ajramasligiga harakat qiladi. Ruhiy salomatlik uchun o‘tgan kunlar to‘g‘risida o‘ylamasdan bugungi kun bilan yashash juda muhimligi haqida, hozirgi zamon bilan yashash, o‘zini va o‘z tanasini his qilish orqali anglash yoki tushunish ro‘y berishini qabul qilishga o‘rgatadi. Chunki, inson hayotni to‘g‘ri anglash orqali to‘g‘ri qarorlar qabul qiladi, butun vaziyatni tushunadi, nima xohlayotganini biladi, hayotni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T., – 2017.

2. Выготский Л.С. История развития высших психических функций // Выготский Л.С. Собр.соч. –М., 1983. Т. 3. С. 5-328.

3. Злоказов К. В. Деструктивность и идентичность личности // Научный ежегодник Ин-та философии и права Урал. отд-ния Рос. акад. наук. 2014. № 1.

4. Пиз А., Пиз Б. Язык взаимоотношений: мужчина-женщина. – М. 2005.

5. Берн Э. Введение в психиатрию и психоанализ для непосвященных. СПб.: МФИН, 1992. С.36.

6. Aaron Beck, Arthur Freeman. Cognitive Therapy of Personality Disorders, 1990

7. Sharafutdinova X.G. Destruktion of family pelations psychoprorkophylaxis family – neighborhood educational institution. South Asian Academic Research Journals South Asian Academic Research Journals, 10 Issue 11, November 2020.

8. Шарафутдинова Х.Г., Нормуминова Д.Э. Преодоление тревожности с помощью когнитивно-поведенческой психотерапии, “Педагогическое образование и наука”, 2020. №1, стр.124-128.

9. Qodirov U. Shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilmasiga oid ayrim mulohazalar. // Ta’lim muammolari, 2012-yil, –№2.

**Olmosbek ESHMURADOV,**
Jizzax viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

# OILAVIY MUNOSABATLARNI BARQARORLASHTIRISHNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK OMILLARI

**Annotatsiya**

Maqolada oilaviy munosabatlarda qaynona va kelin munosabatlarining ijtimoiy omillari, shuningdek, bugungi kunda ushbu masalaga yangicha zamonaviy metodlar va psixologik yechimlar asosida yondashish yuzasidan ilmiy-nazariy fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Oila, qaynona, kelin, muhit, davlat, jamiyat, psixolog, depressiya, stress, hissiy kechinma, adaptatsiya, barqarorlik, ziddiyat, ajrashish.

В статье рассматриваются социальные факторы отношений свекрови и невестки в семейных отношениях, а также научно-теоретические взгляды на подход к этой проблеме сегодня на основе новых современных методов и психологических решений.

**Ключевые слова.** Семья, свекровь, невеста, окружающая среда, состояние, общество, психолог, депрессия, стресс, эмоциональный опыт, адаптация, стабильность, конфликт, развод.

The article examines the social factors of mother-in-law and daughter-in-law relations in family relations, as well as scientific and theoretical views on the approach to this problem today based on new modern methods and psychological solutions.

**Key words.** Family, mother-in-law, bride, environment, state, society, psychologist, depression, stress, emotional experience, adaptation, stability, conflict, divorce.

Oila davlat va jamiyat tayanchi, balki uning asosiy negizi hamdir. Har bir davlat va jamiyat sog‘lom turmush-tarziga intilar ekan eng avvalo, bu masalani oila timsolida ko‘radi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, bugungi kunda oila instituti jamiyatning barqarorlik kafolati bo‘lib qolmasdan balki uning kelajak istiqbolini ta’minlab beruvchi omildir. Uning muqaddasligini e’tirof etish, daxlsizligini ta’minlash har bir inson ongi va tafakkurida, faoliyat turida, hissiy munosabatarida birinchi hayotiy zarurat ekanligini inson omili nuqtayi nazarida yondashmoqligi zarur.

Oiladagi ijtimoiy psixologik muhitning barqarorligi ko‘p jihatdan qaynona va kelin munosabatlarini qaysi darajada tashkil etilganligiga bog‘liq desak masalaga to‘g‘ri yondashgan bo‘lamiz. Ushbu masalani ilmiy jihatdan tadqiq etar ekanmiz, oila degan muqaddas dargoh aynan mana shu qaynona va kelin funksional rolni bajaruvchi insonlarning xarakter xususiyati va dunyo qarashi timsolida, sog‘lom yoki nosog‘lom muhitni yuzaga keltirishi oydinlashmoqda. Bugungi kun jamiyatimiz oilalarida ma’lum ziddiyatli munosabatlar, nosog‘lom psixologik muhit qaynona va kelin suhbatlarida aks etmoqda. Buning oqibatida, oila a’zolori o‘rtasida konflikt yuzaga kelib, muqaddas

atalmish oila dargohi taqdiri xavf ostida qolishi ortib bormoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, oilalarning buzilishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy psixologik omillardan biri bu – aynan qaynona va kelin o'rtasida yuzaga kelayotgan munosabatlardagi ziddiyatdir.

Statistik ma'lumotlarga murojaat etilganda oilaviy ajrimlar soni yildan-yilga ortib borayotganligining sabablaridan biri, aynan qaynona va kelin munosabatlari nosog'lom va nostandart psixologik munosabatlar negizida shakllanayotganligidan ekanligi ta'kidlangan[1](er-xotin oilaviy munosabatlari va ularning shaxsiy hayotiga boshqalarning aralashuvi va ular o'rtasidagi o'zaro mojarolar 15,0%)[2]. Ushbu masalani diniy va psixologik tomonlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Diniy bilimlar bilan to'yingan milliy qadriyatimiz oilada ota-ona va qaynota – qaynonaning o'rni beqiyos ekanligini barcha davrlarda avloddan-avlodga singdirib kelgan. Bugungi kunda insonni mulohazaga chorlaydigan masalalar kun tartibida turibdi. Nega oldingi davrlarda oilada qaynona bir nechta kelin bilan ahil yashagan, hozirga kunda qaynona bilan bittagina kelin ham ziddiyatli munosabatlar iskanjasida qolib ketayotganligi kuzatilmoqda? Ushbu davrda kelinlarning barchasi qaynonasiga itoatda bo'lib hurmat ko'rsatgan bo'lsa, ayni vaqtda yakka-yu yagona kelin uning teskarisini amalga oshirmoqda.

Qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarga putur yetishining asosiy omilini mana shu faktorlar bilan izohlash ayni haqiqatni yuzaga chiqaradi. Ushbu masalani yana bir tomoni borki, oilaga tashqi aralashuv jumladan, er va xotin munosabatini qaynona o'g'lining xotiniga ijobiy muomalasini noto'g'ri talqin qilgan holda uni tanqid qilishi, ba'zi oilalarda o'g'lini kelindan "qizg'onish" holatlariga ega bo'lgan potologik yondashuvlarning mavjudligidir. Oqibatda, kelinga nisbatan qaynonada dushmanlik hissining paydo bo'lishi, unga noto'g'ri munosabatda bo'lgan holda, har bir harakatidan kamchilik izlash borgan sari ortib boradi hamda onalik fitratiga putur yetkazadi.

Bugungi kunda yoshlarni oilaga tayyorlash yuzasidan bir qator dastur va loyihalar ishlab chiqilayotganligi barchamizga ma'lum. Qator davra suhbatlari va ommaviy ravishda teleko'rsatuvlar namunali tarzda keng jamoatchilikka yetkazilib borilmoqda. Albatta, bu tahsinga sazovar masala. Biroq, bir achchiq haqiqatni tan olish va ushbu masalaga psixolog nuqtayi nazaridan qarash mutaxassislar e'tiboridan chetda qolib ketmoqda.

Shu nuqtayi nazarda yangi kelinlarga xonadon sohiblari qanday munosabatda bo'lish yuzasida deyarli umuman psixologik yondashuv yo'qligi yuzasidan fikrimizni bildirmoqchimiz. Bu masalaga befarq yondashuv nafaqat qaynona-kelin munosabatlarida balki, oila a'zolari bilan istalgan vaqtda ziddiyatli vaziyatni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy psixologik muhitga zamin bo'lishi mumkin.

Kelin bo'lish har bir qizning orzusi bo'lgani kabi, boshqa xonadonga kirib borish va undagi ijtimoiy psixologik muhitga adaptatsiya qilish haqidagi ichki xavotir barcha narsadan ustun ekanligini bir o'ylab ko'rsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Biz bu masalada birorta bilim va tushunchaga egamizmi? Yangi kelinda kechayotgan kuchli ruhiy holatni hisobga olyapmizmi? Uning adabtatsiya jarayoniga munosib sharoit yaratib berayapmizmi? Undagi kuchli depression holatni yumshatish borasida qanday samarali psixologik munosabatni amalga oshiryapmiz? Yangi muhit, har xil odamlar, har xil xarakterlarni o'rganish va ular bilan munosabatning muvozanatli nuqtasini topish uchun qancha vaqt kerak? Bu holat kelinlarda kuchli yashirin stress holatni yuzaga keltirishi,

[1] https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan

[2] https://oilamarkazi.uz/conducted-research/sirdaryoda 0 ajrashish

asabiylashishi, o‘zini boshqarishda qiynalishi va oqibatda o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holda noto‘g‘ri gapirishi yoki xatoga yo‘l qo‘yishi masalasida biror-bir mutaxassis gapirdimi? Yo‘q! Bu borada birorta yo‘l-yo‘riq ishlab chiqildimi? Yo‘q! Yangi kelin tushayotgan xonadon sohiblari bu masalada bilim va tushunchaga yetarli darajada egami? Yo‘q!

Masalaga oydinlik kiritish vaqti yetib kelgandir. Oddiy qilib aytganda bu masalani majoziy ma’noda tushuntirishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Tafakkur qiling kelin yosh nihol, kelin borgan xonadon u o‘nib o‘sishi lozim bo‘lgan zamin? Xo‘sh niholni tomir otib yashnab ketishi va hosilga kirishi uchun niholni o‘ziga ishlov berish kerakmi yoki zaminni yaxshilab tayyorlash kerakmi? Albatta zaminni!

Xulosa qilib aytganda, biz qaynona – kelin munosabatlarini bir tomonlama va noxolis o‘rganayotganligimiz tufayli, faoliyatimiz samarasiz natija berayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu masalani yanada kengroq va har tomonlama o‘rganish lozim deb o‘ylagan holda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

– bo‘lajak kelinlar bilan to‘ydan oldin yangi muhitga moslashtirish yuzasidan psixotrening o‘tkazish;

– bo‘lajak kelinlardagi ichki xavotir va depression holatni bartaraf etish yuzasidan, qaynonalar uchun psixolog tavsiya va takliflariga asoslangan zamonaviy ommabop o‘quv-qo‘llanmalarni yaratish;

– kelin tushirayotgan oila vakillarini kelin bilan munosabatini psixologik omillar asosida yo‘lga qo‘yish;

– bo‘lajak qaynonalar maktabini tashkil etish va psixologik bilimlar berishning maqsadli dasturini ishlab chiqish;

– kelinlarni yangi xonadonga tez moslashishi yuzasidan sog‘lom psixologik muhitni yuzaga keltirish;

– keng jamoatchilikni ushbu masala qaynona va kelin munosabatlaridagi ziddiyatni keltirib chiqaruvchi asosiy omil ekanligi to‘g‘risidagi targ‘ibot va tashviqot bilan yaqindan tanishtirish;

– bu masalada davra suhbatlardan voz kechgan holda, ommaviy axborot vositalari orqali psixolog mutaxassis tavsiya va takliflarini muntazam yetakib berishni yo‘lga qo‘yish;

– ommaviy axborot vositalari orqali oilaviy munosabatlar yuzasidan xonanda, aktirisa hamda kino va san’at soha vakillarini fikr bildirish uchun jalb etishdan voz kechish va faqat psixolog fikr-mulohazalarini keng jamoatchilikka yetkazish;

– bu borada (jamiyatimizda oilashunos psixolog va sotsiologlar borligini unitib qo‘ygan) jurnalistlar savodxonligini oshirish va qarashlarini to‘g‘ri tarbiyalash lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Faxr-ul Banot Sibhatulloh qizi. Oila saboqlari. –T.: Yozuvchi, 1992. – 96-b.*

*2. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T.,Sharq, 2007.*

*3. XXI asr oilasi konsepsiyasi. Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi. – T.: NISIM, 2002. – 28-b.*

*4. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. Учебное пособые. – М.: Гайдарики, 2005. –С.320.*

*5. Социология семьи: Учебник, под. ред. проф. А.И.Антонова- 2-е изд., перераб. и доп.–М.: ИНФРА-М, 2005. – С.640.*

**Salomat ALMARDANOVA,**
Termiz davlat universiteti, ‘‘Psixologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

# TALABALAR KASBIY SHAKLLANISHI PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Annotatsiya**

Maqolada talabalar kasbiy shakllanishi psixologik muammo sifatida talqin etilgan bo‘lib, unda talabalar kasbiy shakllanishi omillari, talabalarning kasbiy shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Shaxs, talaba, kasb, kasbiy qiziqishlar, kasbiy shakllanish.

В статье профессиональное становление студентов трактуется как психологическая проблема, в которой описаны факторы профессионального становления студентов, факторы, препятствующие профессиональному становлению студентов, и пути их преодоления.

**Ключевые слова.** Личност, студент, профессия, профессиональные интересы, профессиональное становление.

In the article, the professional development of students is interpreted as a psychological problem, which describes the factors of professional development of students, factors that impede the professional development of students, and ways to overcome them.

**Key words.** Personality, student, profession, professional interests, professional development.

Kadrlar salohiyati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy shakllanishi va ularning kamolotini ta’minlash jamiyat oldidagi eng asosiy muammolardan biri sanaladi. Darhaqiqat, talabalarning kasbga munosabati, mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalasi juda muhim ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, bevosita uning ilmiy, ma’naviy, moddiy salohiyatini belgilaydi.

Sharq mutafakkirlari ta’limotida o‘g‘il va qizlarga ta’lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o‘rgatish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Milliy an’analarimizga binoan hunarmand va kasb, me’mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to‘quvchi va nonvoy ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirib kelmoqda. Dono xalqimiz “Ustozidan o‘zmagan shogird – shogird emas”, “Hunarli kishi aslo xor bo‘lmas”, “Ustoz otangdek ulug‘”, “Ta’lim bergan ustozingdan ayrilma” singari maqollarni ijod etganlar va farzandlarining barkamol bo‘lib ulg‘ayishini orzu qilganlar.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to‘g‘risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta’lim – so‘z va ko‘nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish – harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo‘lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelgan. Mutafakkirning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga

o‘rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olish va mustaqil hunar tufayli oilani ta’minlaydigan bo‘lsagina, otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi. O‘spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Kasb-hunar egallash orqali o‘spirinlarda sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Ta’lim tizimida talabalarni kasbga yo‘naltirish, kasbiy tashxis, ularning mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalalari doimo jamiyatning diqqat markazida bo‘lsa-da, ammo shaxsning o‘z kelajagini o‘zi o‘ylab ko‘rishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda talabalarning kasbiy shakllanishiga to‘siq bo‘luvchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

– mutaxassislarga qo‘yiladigan kasbiy va shaxsiy talablarning davr nuqtayi nazaridan o‘sib borayotganligi;

– kasb tanlashga sabab bo‘luvchi omillarning davriy xususiyatga egaligi va kasblar to‘g‘risidagi ijtimoiy ideallarda yagona me’yorning mavjud emasligi;

– o‘spirin kasbiy tasavvurlarining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga, bozor munosabatlariga hamohang o‘zgarayotganligi hamda kasb-hunar va tegishli mutaxassislik yo‘nalishlari o‘rtasidagi tafovutning keskin ortayotganligi;

– yoshlarning mutaxassislik yo‘nalishlarini tanlashlarida aniq tasavvurga, maqsadga, faoliyat yo‘nalishiga, istiqbol rejalarini belgilash qobiliyatiga ega emasligi va boshqalardir.

Yuqoridagi omillarni hisobga olib talabalar kasbiy shakllanishi, kasbiy faoliyat muammolarini tadqiq etishni dolzarb va keng qamrovli psixologik- pedagogik masala sifatida baholash mumkin. Ma’lumki, har bir shaxs farovonlikda va yaxshi ta’minlangan sharoitda yashashni istaydi. Shu sababli ham insonlar farovon turmushni ta’minlashga xizmat qiluvchi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga intiladi va moddiy boyliklarni o‘zlashtirishga imkon yaratuvchi kasb-hunar sohalari hamda mutaxassisliklarni egallashga harakat qiladi. Ba’zi holatlarda ma’lum bir kasbni tanlash va uni egallashda shaxsning imkoniyati yetarli bo‘lmaydi. Insonning qiziqishlariga va psixologik imkoniyatlariga to‘g‘ri kelmaydigan kasbning tanlanishi, tabiiyki, uning shaxs sifatida kamol topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan shaxsning ichki intilishi va imkoniyatlariga tanlangan kasb bilan shaxs orasidagi munosabati masalasi o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Talabalarning kasbiy shakllanishida buni, albatta, e’tiborga olish muhim.

Shaxsning ichki intilishi va imkoniyatlariga tanlangan kasb bilan shaxs orasidagi munosabati masala bo‘yicha T.V.Kudryavsev shaxsning kasbiy shakllanishi to‘rt asosiy bosqichga ajratadi. Ularga quyidagilar kiritilgan: a) kasbiy intilishlarning shakllanishi; b) kasbiy ta’lim; v) kasbiy moslashish; g) shaxsning kasbiy faoliyatga qisman va to‘liq o‘zini-o‘zi bag‘ishlashi. Mazkur bosqichlarga mos holda kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlash jarayoni ham sodir bo‘ladi. Kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlash jarayoni psixologik adabiyotlarda yetarli darajada chuqur yoritilgan bo‘lib, psixologlar ayniqsa, kasbiy intilishning shakllanishiga, kasb tanlash bosqichlariga alohida e’tibor qaratgan.

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholidan yuksak madaniyatni, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan kasbiy faoliyatning ikki xil jihati: psixologik va pedagogik jihatlari farqlanadi. Kasbiy faoliyatning psixologik jihatlari xodimlarning kelajakda o‘z burch va majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun ularga zarur bo‘lgan psixologik-pedagogik tamoyillar, kate-

goriyalar, tushunchalarni singdirish hamda kasb madaniyati va etikasi talablariga muvofiq xatti-harakatlarini izohlash, xizmat vazifalarini to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish, o‘z kasbiga mehr-muhabbat, insonga hurmat bilan qarashni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi.

Talabalar kasbiy shakllanishida kasbiy faoliyatning pedagogik jihatlariga talabalar xulqidagi mavjud axloqiy-siyosiy xususiyatlarda aks etib, axloqiy tamoyillar va me’yorlarning shaxs ongida qanday hosil bo‘lishi bilan belgilanadi. Talabalar kasbiy axloqining shakllanishida atrofdagi turli xulq-atvordagi kishilar, shaxsiy tajriba, muayyan tiplar to‘g‘risidagi hamda ommaviy axborot vositalarida yoritilayotgan ma’lumotlar katta ahamiyatga ega.

Talabalarning kasbiy shakllanishida shuningdek, kasbiy o‘z-o‘zini aniqlashning quyidagi beshta bosqichini amalga oshishi muhimdir:

1. Kasbni ilk tanlash bosqichi. Bu bosqichda bola kasblar olami haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘ladi, lekin o‘z ichki imkoniyatlari to‘g‘risida kam biladi, uning kasbiy intilishi hali sust darajada bo‘ladi. Bu bosqich kichik maktab yoshiga taalluqli bo‘lib, unda kasbning mazmuni va ish sharoitlari haqida bolada savollar tug‘ilmaydi.

2. Kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini aniqlash bosqichi katta maktab yoshiga to‘g‘ri keladi (15-17 yoshlar). Bu bosqichda ilk kasbiy intilishlar paydo bo‘ladi va rivojlanadi hamda mehnatning turli xil sohalari ichidan o‘ziga ma’qulini tanlash jarayoni kuzatiladi.

3. Kasbiy ta’lim bosqichida tanlangan kasbni o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘ladi.

4. Kasbiy moslashish bosqichi kasbiy faoliyat individual uslubining paydo bo‘lishi hamda kishining ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog‘lanishi bilan tavsiflanadi.

5. Mehnatda o‘zini ko‘rsatish bosqichi (qisman yoki butunlay) kasbiy mehnatga taalluqli bo‘lgan talablar (kutilmalar)ning bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan bog‘liq holda kechadi.

Talabalar tomonidan to‘g‘ri tanlangan kasb, bir tomondan, shaxsning ichki imkoniyatlariga mos tushadi va uning insoniy baxti hamda kamolotini belgilaydi, ikkinchi tomondan esa yaxshi kasb egasining samarali mehnati ta’sirida jamiyat rivoji jadallashadi.

Ijtimoiy motivlar bevosita jamoa burchi, qarindoshlar va yaqin kishilar oldidagi burch, o‘qishni umuminsoniy madaniyat, qadriyat, ma’naviyatni egallash tasavvuri bilan bog‘liq vosita, ushbu vosita odamlarga foydali shaxs tariqasida namoyon bo‘lish, o‘z imkoniyatini ro‘yobga chiqarish, ezgu niyatini ushalishga intilish funksiyasini bajarishi mumkin. Turtki, undovchi usul vazifasini bajaruvchi qo‘zg‘atuvchi yosh xususiyatlari davriga qarab u yoki bu darajada aks etadi, ammo ular har doim ham anglashilgan shaklga ega emas, shuning uchun ifodalanish darajasi past.

Ijtimoiy motivlar talabalarning shaxsiy intilishlari bilan ham aloqador bo‘lib, ularda o‘qishga nisbatan qiziqish yo‘q bo‘lsa-da, lekin barcha topshiriqlarni yuksak darajada bajaradi, chunki o‘qituvchi ularni “a’lo” baholashi, kurs peshqadami qilib tayinlashi, hech qanday shubha bilan qaramasligi ehtimol o‘quv jarayoni bunday xususiyatli odamlarga shaxsiy muvaffaqiyat yoki yutuqqa erishishning, nufuz (obro‘-e’tibor)ning, yalovbardorlikning birdan-bir yo‘li deb tasavvur qilinadi. Talabaning bunday yo‘lni tanlashi ba’zan vijdonga xilof xatti-harakatlarga olib boradi va shaxsni shakllanish jarayoniga salbiy ta’sir etadi. Shu boisdan ijtimoiy deb qabul qilingan motivlar jamoa ehtiyojini qamrab oladi, goho ular shaxsiyatparastlik, tor saviyali shaxs xususiyatini mujassamlashtiradi.

Pedagoglar mashg‘ulotlar davomida o‘quv faoliyatining zarur motivatsiyasini shakllantirsa, ularning mavjud ehtiyojlariga tayanib ish tutsa, talabada bilishga qiziqish

barqarorlashadi. Shuning uchun qiziqish, motiv, motivatsiya shaxsning xatti-harakati ichki regulyatsiyasi funksiyasini bajarib, ehtiyojni qondirish, xohish-istak, ezgu niyat, orzu tilakni amaliyotda ro‘yobga chiqarishning bosh omili bo‘lib hisoblanadi. Motiv va motivatsiya talabalarda faqat bilimlarni o‘zlashtirish, o‘quv ko‘nikmalari va malakalarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, balki shaxsning xulq-atvori, ya’ni shaxsga oid xususiyatlarining namoyon bo‘lishini ham izohlashga xizmat qiladi.

Psixologik jihatdan har qanday faoliyat muayyan motivlar ta’sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida o‘zlashtirish, egallash va o‘rganishni amalga oshirishni ta’minlash uchun talabalarda o‘quv motivlari mavjud bo‘lishi shart. Bilish motivlari shaxsning (subyektning) gnoseologik maqsad sari, ya’ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltiriladi.

Talabalar kasbiy shakllanishini yuksaltirishda ularda kasbiy nomuvofiqligining oldini olish va ularni munosiblashuvini ta’minlashga yordam beruvchi holat “Mutaxassislikka kirish kurslari” va unda mashg‘ulotlarni professiografik jadval bo‘yicha tashkil etish masalasidir. Dastlabki kursda talabalar tomonidan kasbiy bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, kasbning mazmunini va mohiyatini tushunmaslik ularda tanlagan kasbiga munosabatining salbiylashishiga olib keladi. Bunday holatning oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

· O‘quv materiallarini, umuman ta’limni hayot bilan bog‘lash.

· Ma’lumotlarni o‘zlashtirishda shaxsiy faollikni shakllantirish.

· O‘tgan bosqichdagi faoliyatdan qoniqish va kelgusi faoliyat uchun ijobiy zamin hozirlash.

· Istiqbol rejani muvofiqlashtirish va kursning yuqorilashuviga qarab buni takomillashtirib borish.

· O‘quv-metodik qiyinchilik bilan shaxsiy nomurosasizlik belgilari o‘rtasidagi uzviylikni yo‘qotish.

· Kasbiy faoliyat hayotning muhim qismi bo‘lib, ishdagi muvaffaqiyatlar o‘ziga ishonishga yordam berishligini inobatga olish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Qodirov B.R., Qodirov I.B. “Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami” –T., 2003-y.*

*2. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” –T., 2003-y.*

*3. Кондаков И.М. “Диагностика профессиональных установок подростков” 1997 г.*

*4. Кудряшова А.Ф. “Лучшие психологические тесты для профотбора и профориентатора” –М., 1992 г.*

*5.Климов Е.А. “Как выбрать профессию”, –М., 1990 г.*

*6. Пряжников, Н.С. Мотивация трудовой деятельности: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений/ Н.С. Пряжников. –М.: изд. центр Академия, 2008. – С.368.*

*7.Технология личности/ Л.Д.Столяренко, С.Н.Самыгин. – Ростов Н/Д: Феникс, 2009. – С.575.*

**Temur MARATOV,**
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

# IDENTIFIKATSIYA MUAMMOSINING NAZARIY-METODOLOGIK TAHLILI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada shaxsda identifikatsiya ijtimoiy fenomen sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muhokama qilingan. Shuningdek, identifikatsiya muammosini fundamental tadqiq etish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Identifikatsiya, shaxs, psixologiya, axborot olami, inqiroz, ong.

В статье рассматриваются формирование идентичности как социального явления, его социально-психологические особенности. Также освещаются вопросы фундаментальных исследований проблемы идентификации.

**Ключевые слов.** Идентификация, личность, психология, информационный мир, кризис, сознание.

This article discusses the formation of identity as a social phenomenon, its socio-psychological features. It also covers issues of fundamental research on the problem of identification.

**Key words.** Identification, personality, psychology, information world, crisis, consciousness.

So‘nggi yillarda “identifikatsiya” atamasi, unga nisbatan bir necha o‘n yillik nisbiy befarqlikdan so‘ng, yana ijtimoiy fanlarda, jumladan, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya lug‘atlarida keng qo‘llanila boshlandi. Ushbu tushuncha kishi, guruh, etnik guruh va boshqalarga nisbatan ilgari ommalashgan “o‘z-o‘zini anglash”, “o‘zini-o‘zi belgilash” iboralarining muqobil variantiga aylandi. Biroq, turli xil nazariy muhitlarda uning ma’nolari bir xil qabul qilinmaydi. Bu esa ushbu tushunchaning yanada murakkab ekanligini, uni kompleks o‘rganish zarurati mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida identifikatsiya (lot. Identificare – aynanlashtirmoq, tenglashtirmoq) shaxsning umumiy va xususiy belgilarining majmuiga qarab aynanligini aniqlash yoki tekshirish deb tarjima qilinadi.

Rus tilidagi matnlarda “identifikatsiya” va “aynan o‘xshashlik”, “bir xillik” so‘zlari bilan ma’no jihatidan to‘liq mos keladi. Biroq, ijtimoiy fanlarga tatbiq etilishiga ko‘ra, identifikatsiya so‘zi o‘zbek tilida ham rus tilida ham tushuncha sifatida deyarli ishlab chiqilmagan, nemis va ingliz tilidagi adabiyotlarda esa bir nechta batafsil ta’riflar va barqarorlikni tavsiflashda muhim kognitiv ahamiyatga ega bo‘lgan toifadagi maqomlar berilgan.

Identifikatsiya tushunchasi psixologiyada juda uzoq tarixga ega. Biroq, bu identifikatsiya muammosini yetarli darajada tadqiq etilganligini anglatmaydi. Ushbu hodisani nazariy va eksperimental nuqtayi nazardan tushunishga qaratilgan ko‘plab urinishlarga qaramay, bugungi kunda identifikatsiyalashning yagona konsepsiyasi, shuningdek, ko‘rib chiqilayotgan tushunchaning aniq va yagona ta’rifi mavjud emas. Ushbu atama-

ning semantik mazmuni haqidagi tadqiqotchilar o‘rtasidagi bahslardan uning mazmuni borasida yagona yechimga kelinmaganligini ko‘rishimiz mumkin. N.N.Avdeyeva “identifikatsiya tushunchasi ortidagi psixologik voqeiylikning fenomenologik boyligi va uning konsepsiyasini ishlab chiqishda noaniqliklarga yo‘l qo‘yilishi, ehtimol identifikatsiya hodisasining zamonaviy psixologiya uchun jozibador bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin” deb ta’kidlaydi. E.V.Sayko “Identiklik va identifikatsiya muammosi zamonaviy reallikni anglashga xizmat qiladi, u inson taraqqiyotida o‘z kelajagini, hozirgi va tarixiy holat va xususiyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda muhim omilga aylanib bormoqda”, deb ta’kidlaydi.

Identifikatsiya tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan “identiklik” atamasi XX asr 70-yillaridan boshlab ommalashib borgan. Ko‘plab sohalarga tegishli adabiyotlarda turli ma’nolarda qo‘llanilgan.

Tadqiqot ishining asosiy tushunchalarini (identiklik va identifikatsiya) birma-bir talqin qilish qiyinligini va ularning o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha tadqiqot pozitsiyalarining ba’zi bir nomuvofiqliklarini hisobga olgan holda, ushbu hodisalarni psixologik tadqiqotlar predmetlari sifatida batafsilroq ko‘rib chiqish maqsad qilingan.

Identifikatsiya tushunchasi lotincha “identifico” (aynanlashtirish, o‘xshatish, aniqlashtirish) so‘zidan olingan bo‘lib, psixologiya va sotsiologiyada ushbu atama an’anaviy ravishda emotsional va boshqa ko‘rinishlarda o‘zini o‘zi aniqlashtirish, o‘xshatish hamda shaxslar yoki guruhlar o‘rtasida aloqani o‘rnatish jarayonini bildiradi. Etimologik nuqtayi nazardan “iden” ildizi yetarlicha uzoq vaqt davomida bir xil bo‘lgan narsa” degan ma’noni anglatadi.

Shuningdek, identifikatsiya fenomeni psixologik lug‘atlarda turli xil ta’riflarga ega bo‘lib, quyidagi psixologik jabhalarda kategoriya sifatida keng foydalaniladi:

1. O‘zini-o‘zi hissiy bog‘lanish asosida boshqalarga (asosan ota-onasiga) ongsiz ravishda o‘xshatishdir. Identifikatsiya mexanizmi orqali bolalik davridan boshlab ko‘plab shaxsiy xususiyatlar va xulq-atvor stereotiplari, jinsi, o‘ziga xosligi va qadriyat yo‘nalishlari shakllana boshlaydi. Vaziyatli identifikatsiya ko‘pincha bolaning rolli o‘yinlarni o‘ynash jarayonida sodir bo‘ladi.

2. Inson o‘zi uchun ahamiyatli deb bilgan o‘zgalarga o‘zini barqaror o‘xshatishi yoki o‘xshatish istagidir. Birlamchi identifikatsiya bolaning onasi bilan, so‘ng ota-onasi bilan hamda bolaning o‘z jinsini tanishi bilan kechadi. Ikkilamchi identifikatsiya esa ontogenezning navbatdagi bosqichlarida ota-onadan boshqa insonlarni tanish bilan ifodalanadi.

3. Inson o‘zini-o‘zi biror badiiy asar qahramonining xarakteri bilan identifikatsiyalash, shu tufayli asarning semantik mazmuniga, uning estetik tajribasiga kirib borishi va empatiyaning paydo bo‘lishi.

4. Qo‘rquv yoki xavotirga sabab bo‘lgan obyektga ongsiz ravishda assimilyatsiya qilishdan iborat psixologik himoya mexanizmi. (Psixologik himoya: Edip kompleksi).

5. Identifekatsiyaning yana bir muhim va asosiy turi bu – inson o‘zini guruh yoki jamoa bilan barqaror bog‘lashi, uning maqsadlari va qadriyat tizimlarini qabul qilishi, o‘zini ushbu guruh yoki jamiyat a’zosi sifatida anglashidir. Bunga diniy identifikatsiyani misol keltirish mumkin.

Bundan tashqari, psixologik adabiyotlarda perseptiv identifikatsiya (ingl. *Perceptional identification*) idrok aktlaridan bir ko‘rinishi sifatida idrok etilayotgan ikki obyektni biri-biri bilan taqqoslash jarayonida foydalaniladi.

Identifikatsiya bo‘yicha mavjud tadqiqotlarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki,

uning quyidagicha ko‘rinishlari mavjud:

– emotsional hodisa: emotsional aloqaga asoslangan holda (ko‘pincha ongsiz ravishda) inson uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqalarga o‘zini o‘xshatish (N.N.Avdeyeva, E.Z.Basina, V.S.Muxina, A.V. Petrovskiy va boshqalar);

– guruhdagi shaxslararo munosabatlar hodisasi: biron bir atribut asosida bir obyektni boshqasi bilan taqqoslanishi, natijada o‘xshashlik yoki farqning aniqlanishi (V.A.Petrovskiy);

– Odamlarning bir-birini bilish va tushunish mexanizmlaridan biri (N.N.Avdeyeva, B.D.Parigin); N.N.Obozov talqinida – boshqaning shaxsiyatini anglashning universal mexanizmi;

– shaxsiyatni rivojlantirish mexanizmi (A.A.Bodalev, V.S.Muxina L.V.Popova, B.F.Porshnev);

– shaxsning semantik sohasini shakllantirish mexanizmi (E.Z.Basina, E.L.Dotsenko);

– ijtimoiylashuv mexanizmi: guruhga qo‘shilish paytida ijtimoiy rollarni qabul qilish, guruhga mansubligini anglash, ijtimoiy qarashlarni shakllantirishda namoyon bo‘ladi (A.A.Leontiyev, D.I.Feldshteyn);

– guruh a’zolarining shaxslararo o‘zaro ta’sir mexanizmi (E.M.Dubovskaya, R.L. Krichevskiy, D.Julian, F.Redl, E.Hollander v.b.).

Odatda, identifikatsiya muammosini tadqiq etuvchilar ushbu hodisaning emotsional, kognitiv va xulq-atvor jihatlariga turli yondashuvlar asosida e’tibor qaratishadi. Shu bilan birga, “Men” konsepsiyasini tavsiflashda mualliflar tomonidan foydalaniladigan an’anaviy ravishda aniqlangan ushbu komponentlar identifikatsiyaga doir tadqiqotlarda bitta butun tarkibiy qismlar sifatida tavsiflanmaydi. Aksincha, identifikatsiyaning emotsional tarkibiy qismiga e’tibor qaratish yoki uni kognitiv va emotsional tarkibiy qismlarning kombinatsiyasi sifatida taqdim etish holatlari kuzatiladi.

“Identifikatsiya” tushunchasining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi psixoanaliz, bixeviorizm, kognitiv yo‘naltirilgan psixologiya, ramziy interaksionizm kabi maktablarning bu boradagi bahs-munozaralar ta’siri ostida shakllangan.

Klassik psixoanalizda (Z. Freyd tomonidan ushbu tushuncha kiritilgandan boshlab) identifikatsiya shaxs ongsizlik sohasida mavjud bo‘lgan va shaxsni shakllantirish mexanizmi vazifasini bajaradigan hissiy hodisa sifatida nazarda tutiladi. Identifikatsiyaning asosiy tuzilish funksiyasi bolalik davrida amalga oshirilishi va identifikatsiyalashning asosiy obyektlari ota-onalar ekanligi haqidagi qarashlar tufayli kattalardagi identifikatsiyaning namoyon bo‘lishiga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan. O‘rganilayotgan hodisa haqidagi g‘oyalarni keyinchalik Z. Freydning qizi A. Freyd davom ettirdi. Uning nazariyasida identifikatsiyaning muhim motivi bolaning kattalardan kutuvchi xatti-harakatlarni amalga oshishi, shuningdek, kattalar xatti-harakatlarining o‘ziga xos jozibali shakllariga intilishidir.

E. Fromm nazariyasiga ko‘ra insonning ikkita asosiy ehtiyoji mavjud bo‘ib, ular:

– biror narsaga mansub bo‘lishlik;

– identifiksiya atamasi bilan sinonim sifatida foydalaniladigan yakkalanish, ajralib turish ehtiyojlaridir.

Biror narsaga mansublik tashqi dunyo va boshqa odamlar bilan aloqani o‘rnatish zarurati hamda inson mavjudligining mohiyati sifatida insonning eng muhim ehtiyoji sifatida baholanadi. Yakkalanish ehtiyoji esa insonni tabiat va jamiyat kuchlaridan ajratib olish jarayoni bo‘lib, u “individualizatsiya” deb ataladi va inson o‘z erkinligi va mustaqil-

ligini, o‘zini alohida mavjudot sifatida anglashi bilan belgilanadi.

Ego psixologiyasining T. Ogden, A. Reyx, S. Ritvo, A. Solnit, J. Sandler kabi tarafdorlari identifikatsiyani egoning shakllanish mexanizmi sifatida e’tirof etishadi, uning mohiyatiga ko‘ra, bola ota-onasiga taqlid qilgan holda o‘zini-o‘zi anglab boradi. Keyinchalik psixoanalitik yo‘nalish nazariyalari avvalgi talqinlarning nomukammalligini tan olib, identifikatsiyani bolalik davri va ongsizlik bilan bog‘liq degan qarashlar bilan cheklanib qolmasdan, dinamik jarayon sifatida qaray boshladi. Shunga qaramay, biologizatsiya tendensiyasi identifikatsiya jarayonini ijtimoiy kontekstda tekshirishga urinishlar uning mohiyatini to‘liq ochib bera olmaganini ta’kidlamoqda.

Demak, shaxs identifikatsiyasi shaxs hayotining mazmunini o‘zga insonlarning hayot mazmuni bilan qiyoslash mexanizmi bo‘lsa demak, identifikatsiya – bu aynan o‘sha mexanizmnig harakatlanishidir. Identifikatsiya fenomenini o‘rganishning murakkabligi shundaki, ushbu hodisa murakkab tahlillarni talab etuvchi juda ko‘plab psixo-ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liqligidir. Shu boisdan, ushbu fenomenni mavjud nazariy tushunchalarini yanada chuqurroq tahlil qilish talab etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G‘oziyev E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.

2. Davletshin M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.

3. Баранова Т.С. (1993) Теоретические модели социальной идентификации личности // Социальная идентификация личности. М.

4. Василюк Ф. (2004)., Исповедь и психотерапия // Московский психотерапевтический журнал, №4.

5. Василюк Ф. (2003)., Молитва и переживание в контексте душепопечения // Московский психотерапевтический журнал, №3.

6. Демченко О.Н., Мытиль А.В. Социальная (1995)., идентификация и адаптация личности, // Социологические исследования. –№6. – С. 110-119

7. Заковоротная М.В, Идентичность человека. (1999)., Социально философские аспекты. – Ростов - на - Дону: СКНЦВШ. – С.261.

8. Рубинштейн С. Л. (2001)., Основы общей психологии. – СПб.: Питер, – С.866.

9. Хантингтон С. (2003). Столкновение цивилизаций. – М.: АСТ.

10. Шнейдер Л.Б. (2000)., Профессиональная идентичность. – М.

11. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur G‘ayrat o‘g‘li, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.6

12. Maratov Temur G‘ayrat o‘g‘li (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.

**Bog‘zoda MAMARADJABOVA,**
Termiz davlat universiteti, ‘‘Psixologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

# SHAXS O‘Z-O‘ZINI ANGLASHINING PSIXOLOGIK TUZILMASI

**Annotatsiya**

Maqolada shaxsning o‘z-o‘zini anglash fenomeni, o‘z-o‘zini anglash xususiyatlari va uning shakllanishi, o‘z-o‘zini anglashning ontogenezda rivojlanish bosqichlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, o‘z-o‘zini anglashning tarkibiy tuzilishi, o‘z-o‘zini anglash shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kategoriyalarga ta’rif berilgan.

**Kalit so‘zlar.** O‘z-o‘zini anglash, shaxs, o‘z-o‘zini anglash strategiyasi, ijtimoiy rol, ijtimoiy maqom.

В статье расмотрена проблемы феномена самосознания личности, особенности и формирования самосознания, основные этапы развитие самосознания в онтогенезе. Также, дана определение сторение самосознания, и социально-психологическим категориям воздействуюших на самосознания личности.

**Ключевые слова.** Самосознание, личност, стратегия самосознания, социальный рол, социальный статус.

The article provides information about the phenomenon of self-awareness of the individual, the characteristics of self-awareness and its formation, the stages of development of self-awareness in ontogeny. It also describes the structural structure of self-awareness, the socio-psychological categories that affect the formation of self-awareness.

**Key words.** Self-awareness, personality, self-awareness strategy, social role, social status.

O‘z-o‘zini anglashni o‘rganish zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Bu mamlakatimizdagi ijtimoiy o‘zgarishlar, shuningdek, insonning ekzistensial asoslariga qiziqishning ortishi, shaxsni rivojlantirish va ruhiy salomatligini saqlash uchun ichki resurslarni izlash bilan bog‘liq. O‘z-o‘zini anglash haqli ravishda shaxsning yadrosini tashkil etadi va uning psixologik mohiyatini anglash uchun xususiyatlari, funksiyalari va tarkibiy qismlariga murojaat qilish kerak. O‘z-o‘zini anglash – bu odamning o‘ziga bo‘lgan munosabati, bu o‘zini yaxshilash istagi bilan chambarchas bog‘liqligini aniqlash mumkin. An’anaga ko‘ra, o‘z-o‘zini anglash inson ruhiyatining eng yuqori cho‘qqisi sifatida quyidagi uchta o‘zaro bog‘liq komponentlarni o‘z ichiga oladi: • o‘zini-o‘zi bilish, • o‘zini-o‘zi boshqarish, • o‘zini takomillashtirish.

O‘z-o‘zini anglash strukturasini ifodalash uchun biz “tuzilma” tushunchasining ta’rifiga murojaat qilishimiz kerak. Ilm-fanda “tuzilma” “moddiy yoki konseptual tizim elementlari o‘rtasidagi munosabatlar yoki munosabatlar tizimi” deb tushuniladi. Binobarin, o‘z-o‘zini anglashning tuzilishi bir-biri bilan barqaror aloqada bo‘lgan, ma’lum bir hodisaning asosiy xususiyatlarini har xil tashqi va ichki o‘zgarishlar otsida saqlanishini ta’minlaydigan va bitta butunlikni ifodalovchi elementlar to‘plami sifatida ta’riflash mumkin.

Ma’lumki, subyektning odam zotiga mansubligi individ tushunchasida ifodalanadi. Psixologik manbalarda – “Individ’’ tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgan. Yangi tug‘ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyi odamni ham, madaniyatli mamlakat kishisini ham individ deb hisoblash mumkin” deya ta’riflangan.

Ammo, inson individi alohida sotsial fazilat kashf etib, shaxs bo‘lib yetishishi bilan xarakterlanadi va u shaxs tushunchasida ifodalanadi. ‘‘Shaxs’’ va ‘‘Individ’’ tushunchalarining bir-biriga o‘xshashligini yetakchi psixologlar – B.G.Ananyeev, A.N.Leontev va boshqalar inkor etishadi. ‘‘Individ’’ va ‘‘Shaxs’’ tushunchalarining bir-biriga mos kelmasligi va aynan o‘xshash emasligi faktidan shu narsa ayonki, shaxs tushunchasi birgalikdagi faoliyatning har bir ishtirokchisi uchun ushbu faoliyatning mazmuni, qadriyatlari va mohiyati orqali namoyon bo‘ladigan shaxslararo barqaror bog‘lanishlar tizimidagina anglanilishi mumkin.

Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlarning faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. Individuallik o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. ‘‘Individ’’ va ‘‘Shaxs’’ tushunchalari bir-biriga o‘xshash bo‘lmagani singari, o‘z navbatida shaxs va individuallik ham birlikni tashkil qiladi, lekin ular bir-biriga o‘xshash emasdir. Psixologiyada individuallikning ko‘pgina xislatlari – moslashuvchanlik, tajovuzkorlik, moyillik darajasi, tashvishlanish va shu kabilar aniqlangan. Bular jamlanib, individning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Bu psixologik hodisalar o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘zaro munosabatda bo‘lib, oshkora yoki oshkora bo‘lmagan holda allaqanday muhitning mavjudligini taqozo etadi. Shaxs aynan ana shunday muhitga nisbatan moslashuvchanlik, tajovuzkorlik, tashvishlanish va hokazolarni namoyon qiladi. Shunday qilib, inson shaxsining tuzilishi individuallikning tuzilishiga qaraganda keng ekanligi shubhasizdir.

Shaxs tuzilishining uch tarkibiy qismi mavjud bo‘lib, unga quyidagilar kiradi:

– individualligining tizimli tuzilishi. Shaxs tuzilishining birinchi tarkibiy qismi – uning individ ichkarisidagi (intraindivid) kichik tizimining alohida namoyon bo‘lishidir.

– shaxsning shaxslararo munosabatlarda, aloqalarda mavjud bo‘lishidir, ya’ni individning organik tarzdagi gavdasidan tashqaridagi ‘‘bo‘shliqda’’, ‘‘fazoda’’ namoyon bo‘lishdir.

– metaindivid (individning ustki ko‘rinishi) kichik tuzilishini ham alohida ko‘rsatish imkoniyati. Bunda shaxs individning organik gavdasidan tashqariga chiqarilib qolmasdan, balki uning boshqa individlar bilan ‘‘shu yerda va endilikda’’ mavjud bo‘lgan aloqalaridan ham tashqarida joylashtiriladi.

Shunday qilib, inson shaxsining tuzilishi uchta tarkibiy qismdan, uchta kichik tizimdan iboratdir: shaxsning individualligi, uning shaxslararo munosabatlar tizimida gavdalanishi hamda shaxsning o‘zi kelib chiqishiga ko‘ra individlararo, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar subyekti sifatida mavjud bo‘lishidir. Har uchchala kichik tuzilish birligi shaxs obro‘-e’tiborida namoyon bo‘ladi.

Darhaqiqat, odam biologik zot bo‘lishi bilan bir vaqtda ijtimoiylik fazilatiga ham egadir. Taraqqiy etayotgan jamiyatda inson ijtimoiyligining ko‘plab mezonlarini keltirish mumkin. Ta’kidlash joizki, inson eng avvalo, o‘zini anglash xususiyati bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi. Shaxsning o‘zini anglashi o‘zi haqidagi tasavvurlari yig‘indisi sifatida qaraladi. Kishi o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy hisoblangan munosabatlar tizimiga kirgan, odamlar bilan o‘zaro birgalikda harakat qilgan va munosabatda bo‘lgan holda o‘zini atrof muhitdan alohida ajratib ko‘rsatadi, o‘zining jismoniy va psixologik holati,

harakatlari va jarayonlarining subyekti sifatida aks etadi. O‘zi uchun ‘‘boshqalarga’’ qarshi turgan va ayni chog‘da ular bilan bog‘liq bo‘lgan ‘‘Men’’ sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxs o‘zini anglashining elementar ko‘rinishi sifatida 2-3 yoshli bolalardayoq ‘‘Men’’ siymosi shakllana boshlaydi. (‘‘Seniki emas – meniki’’, ‘‘Menga besh’’ va hokazo (I.S.Kon). Katta yoshdagilarda o‘z xususiy ‘‘Men’’ siymosi qat’iy shakllanadi. ‘‘Men’’ siymosi – individning o‘zi haqidagi nisbatan barqaror, ko‘proq yoki ozroq darajada anglanilmagan, betakror deb his qilinadigan tasavvurlar tizimidirki, individ boshqalar bilan o‘zaro birgalikda harakat qilishda ana shunga asoslanadi.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, shaxsning tug‘ma xususiyati hisoblanmaydi. U shakllanishning uzoq evolyutsion taraqqiyotni bosib o‘tadi. Shunga qaramasdan o‘z-o‘zini anglashning dastlabki o‘xshash elementlari go‘daklik yoshida ham kuzatiladi. Umuman olganda, shaxsning o‘z-o‘zini anglashining rivojlanishi ramziy ma’noda ajratish mumkin bo‘lgan quyidagi bir qancha ketma-ketlikdagi bosqichlarni bosib o‘tadi.

1-bosqich (bir yoshgacha) – bolaning odamlar va predmetlar olamidan o‘zini ajratishi. Dastlab bola uni qurshab turgan va unga g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotganlarning harakatlarini anglamaydi. Birinchi navbatda, qo‘llari va oyoqlari bilan, keyinchalik esa motor faoliyatida o‘zining passiv va faol o‘rnini birinchi bor farqlash ikonini beruvchi tashqi olamdagi obyektlar bilan amalga oshadigan o‘yin orqali yuzaga chiqadi. Bu kabi tajriba o‘zining shaxsiy jihatlarini anglashga yordam beradi. Bola nutqining paydo bo‘lishi va rivojlanishi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning atrofidagi odamlar bilan munosabatga kirishishiga zamin tayyorlaydi.

2-bosqich (1-3 yosh) – keskin va ahamiyatli psixik rivojlanish bilan kechadi. Bu davrda bolaning o‘z-o‘zini anglashi amalga oshiradigan harakatlari kechishi va uning boshqarilishi bilan bog‘liq. O‘zini atrofdagilarga qarshi qo‘yishi negativ holat hisoblanadi. Aynan shu kabi xususiyatlar bilan bolaning o‘z ma’naviy “Men”ini farqlash boshlanadi.

3-bosqich (3-7 yosh) – rivojlanish tekis va sokin kechadi. 3 yoshida bola o‘zi haqida uchinchi shaxsda gapirishdan to‘xtaydi, o‘zining shaxsiy erkinligini his qilishni va boshqalarga o‘z gapini o‘tkazishni xohlaydi. Bolaning bu kabi o‘zini tan oldirishga bo‘lgan urinishlari atrofdagilar bilan bir qator ziddiyatlarga olib keladi.

4-bosqich (7-12 yosh) – zaxiralarning to‘planishi davom etadi, o‘z-o‘zini jarayoni sezilmas inqirozlar va sakrashlar bilan kechadi. O‘z-o‘zini anglashda birinchi navbatda, ijtimoiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan (maktab) aniq va ahamiyatli o‘zgarishlar kuzatiladi.

5-bosqich (12-14 yosh) – bola yana o‘zining shaxsi bilan qiziqa boshlaydi. Bola boshqalardan farq qilishi va o‘zini qarshi qo‘yishga intilishi bilan yangi inqiroz davri rivojlanadi. Bu davrda ijtimoiy o‘z-o‘zini anglash yaqqol ko‘zga tashlanadi.

6-bosqich (14-18 yosh) – aynan shu yoshda shaxs kelajakda o‘z-o‘zini anglashiga ta’sir etuvchi yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu davrda o‘zini topish, o‘zining o‘zligi haqida bilimlarga ega bo‘lish birlamchi o‘ringa ko‘tariladi. Bu esa yetuklikning boshlanganligini ko‘rsatadi.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi yuqoridagi bosqichlarda shakllanib, rivojlanishi jarayonida kuchli sistemaga aylanadi va uning butun hayoti va faoliyatining kechishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu tufayli ota-onalar, pedagoglar turli yoshdagi bolalarning o‘zini anglashi jarayonini kuzatib borishi, zarurat bo‘lganda uni to‘g‘ri yo‘naltirishi zarur.

Ayniqsa, o‘smirlik va o‘spirinlik davrida o‘z-o‘zini anglashning asoslari shakllanib boradi. Aynan shu bosqich, ya’ni 11-20 yoshlar o‘smirning o‘z tengdoshlari orasida o‘z

o‘rnini topish, ijtimoiy fikrlarni baholash, o‘zining faoliyati va ideal Men bilan real “Men” ni taqqoslashga ta’sir ko‘rsatadi. O‘z-o‘zini anglash shakllanishining hal qiluvchi kategoriyalari dunyoqarash va o‘zini tan oldirish chiqarish hisoblanadi. Dunyoqarash – bu insonning o‘zi, atrof-olam, hayotiy pozitsiyalar va odamlarning harakatlari to‘g‘risidagi qarashlarining yaxlit tizimidir. U individning shu vaqtgacha egallagan tajriba va bilimlariga asoslanadi va faoliyatiga anglangan xarakter kasb etadi.

Shuningdek, shaxsning o‘z-o‘zini anglashi shakllanishining muhim kategoriyalari sifatida ijtimoiy rol va ijtimoiy maqomini ham ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning aniq bir hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Shaxsning ijtimoiy roliga nisbatan, kimdir “tartibli, ba’mani, fozil, axloqli va odobli” deyilsa, kimdir – be’mani, bebosh, o‘zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya’ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda – betartib) degan hayotiy mavqega ega bo‘lib qoladi.

Ijtimoiy rol individning o‘zini anglashi rivojlanishiga alohida ta’sir ko‘rsatib, aynan ijtimoiy munosabatlar individning hayotga moslashishiga sezilarli darajada ta’sir etadi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko‘pligi sababli ham turli vaziyatlardagi uning mavqei – statusi ham turlicha bo‘lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o‘zi uchun o‘ta ahamiyatli bo‘lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o‘sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ананьев Б. Г. О проблемах современного человекознания. – М. 1977, – С. 369-371.

2. Андреева К.В. Методологические проблемы исследования самосознания // Ежегодник Российского Психологического Общества. – Спб., 2003.

3. Бороздина Л.В. Что такое самооценка? // Психологический журнал. – 1992. – том 13. №4. – С. 99-100.

4. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya, O‘zbekiston faylaso‘flari milliy jamiyati nashriyoti, – T., 2010, 54-55-betlar.

5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun – T.: , 2007. – 176-b.

6. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс.- СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК, 2002 – С. 512.

7. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi – T., 2010. – 360-b.

**Sohibjamol JO‘RAYEVA,**
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy texnika instituti,
‘‘Psixologiya va pedagogika kafedrasi’’o‘qituvchisi
**Muhayyo KARIMOVA,**
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

# HARBIY XIZMATCHILAR OILASIDA POZITIV IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKILLANTIRISH

**(Xorijiy tadqiqotlar misolida)**

**Annotatsiya**

Maqolada harbiy xizmatchilarning baxtni his etishiga ta’sir etuvchi omillar xorijiy tadqiqotlar misolida yoritilgan, shuningdek, baxtni belgilashda adaptatsiya darajasi nisbiyligining psixologik tahlili ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar.** Baxt, hasad, eyforiya, adaptatsiya, kayfiyat, taqqoslash, mehnat, farzand, sog‘liq.

В статье освещаются факторы, влияющие на чувство счастья военнослужащих на примере зарубежных исследований, а также проводится психологический анализ степени обожания при определении счастья.

**Ключевые слова.** Счастье, зависть, эйфория, адаптация, настроение, сравнение, труд, дети, здоровье.

The article highlights the factors that affect the feeling of happiness of military personnel on the example of foreign studies, and also provides a psychological analysis of the degree of adoration in determining happiness.

**Key words.** Happiness, envy, euphoria, adaptation, mood, comparing, labour, child, health.

Baxt tushunchasi har kim uchun o‘ziga xos nisbiylikka ega bo‘lib, xoh harbiy, xoh fuqoralik holatida bo‘lishidan qat’iy nazar uning yuqori yoki past darajada deb hisoblanishi shaxs hayotiy qarashlariga doir bir qancha omillar bilan bog‘liq. Bunda har kimning o‘z turmush tarziga adaptatsiyasi darajasi asosiy o‘rin tutadi.

Bugungi kunda jamiyatda odamlar o‘zining, boshqalarning hamda jamiyat hayotining baxtliligi darajasini belgilash bo‘yicha bir qator qarashlar mavjud. Hozirgi vaqtda jamiyat taraqqiyoti insonni baxtli his etish imkoniyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari baxtni belgilashda adaptatsiya darajasining nisbiyligi nisbatan baxtga berilgan ta’rif va talqinlardan psixoanalitik yondashuvni keng o‘rganish, shaxsning ongi va ongsizligi o‘rtasidagi bevosita aloqalarni psixoanalitik nuqtayi nazardan tahlil etishdir. Shaxsning baxtni his etish xususiyatlarini – irodaviy sifatlari, emotsional tomonlarini ham o‘rganish talab qilinadi. Bundan tashqari, baxtni his etish jarayon xarakteri, uning qonuniyatlari va bosqichlari haqida birmuncha aniq tasavvurga ega bo‘lish kerak. Bu masalalarni yoritish ushbu mavzu uchun yangi vazifalarni ham belgilaydi.

Baxt psixologiyasi fanida muallif shaxsining psixoanalitik talqiniga klassik yondashuvlardan Z. Freyd, A. Adler, E. Fromm, L.S. Vigotskiy, E. G‘oziyevning ilmiy ishlari

bizga ma’lum. So‘nggi yillarda fanlar integratsiyasi natijasida faylasuf, tarixshunos va adabiyotshunos olimlarning ham ilmiy ishlarida ushbu mavzu yoritilib kelinmoqda.

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, yuqori baxt darajasi va o‘z hayotidan mamnunlik ko‘pincha xudojo‘y odamlarda, yuksak ma’naviyatli, yuksak e’tiqodli, mafkuraviy immuniteti mustahkam, o‘z kasbining ustasi, kasbidan, daromadidan, mehnat sharoitidan, mehnat qilish bilan dam olishi muvozanatidan qoniqishi yuqori bo‘lgan shaxslarga xosdir.

Sog‘liq bilan bog‘liq baxtni his qilish shaxsning sog‘lomligi, salomatligining mustahkamligi, baquvvatlik va yosh davrlari bo‘yicha salomatligining noziklashib borishi, kamquvvat bo‘lib borishi hamda qisqa, uzoq vaqt bemorlik, shuningdek, qisqa, uzoq vaqt yoki doimiy nogironlik holatlari bilan bog‘liq. Shaxsning bunday holatlarga adaptatsiyasi darajasiga muvofiq ravishda uning hayotdan qoniqishi va baxtni his qilish darajasi shakllanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, turli vaziyatlar va holatlarda bu hissiyot muayyan nisbiy o‘zgarishlarga uchrashi mumkin.

Xorij psixologlari 128 nafar shol bo‘lib qolgan o‘quvchilar ustida olib borilgan maxsus tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ularning ko‘pchiligi suitsid sodir qilishni xohlar ekan. Jismoniy kamchilikka ega bo‘lish – bu kundan-kunga sizga bo‘ysunmaydigan tanadan hafsalangiz pir bo‘lib yashash demakdir. Shunga qaramasdan bir yildan so‘ng boryo‘g‘i – 10% dan ortig‘i o‘z hayot sifatini yomon deb hisoblagan, ko‘pchiligi esa uni yaxshi yoki a’lo deb hisoblashgan. “Tez yordam”ning 223 nafar xodimi o‘zlarini shunday holatda yillar o‘tgach qanday his qilishlari mumkinligini tasavvur qilishganida, ularning faqat 39 foizigina “o‘zidan qoniqishi” mumkinligini taxmin qilgan. Lekin real bemorlarning 95 foizi o‘zlarini shunday his qilishadi, 98 foizi esa ularni loyiq shaxs degan fikrga qo‘shiladilar.

Odamlar juda yomon xabarlarning uzoq davom etadigan emotsional oqibatlariga haddan ziyod ortiqcha baho berib yuborishga moyil.

Yorqin ifodalangan ijobiy voqealar ta’sirchanligi ham vaqtinchalik xarakterga ega. Eyforiyada, lotereyada yutganlar odatda baxt holatini o‘zgarmas deb topishadi.

Boylik bilan bog‘liq baxtni his qilish shaxs hayotidagi moddiy boylik, ehtiyojlarni oshirish imkoniyatlari yoki pasaytirish talablari, o‘rtahollik, kam ta’minlanganlik, yetishmovchilik holatlari bilan bog‘liq. Asosiy me’yor ehtiyojlarning moddiy ta’minlanganlik darajasiga mos bo‘lishiga erishish va shu darajani saqlash bilan bog‘liq.

Ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, boylikdan ko‘ra farog‘atga erishish mushkulroq ekan. Ko‘pchilik pulim ko‘proq bo‘lganida o‘zimni baxtliroq his qilardim deb o‘ylashadi. Shunday bo‘lishi ham mumkin, ammo bu ***faqat vaqtincha***, uzoq istiqbolda boylikning o‘sishi baxtga unchalik ham ta’sir qilmaydi. Ko‘pgina boy mamlakatlarda badavlat odamlar, o‘zini ta’minlashgagina yetadigan mablag‘ga ega bo‘lgan odamlarga nisbatan, unchalik ham baxtli emas. ***Boylik xuddi sog‘liqqa o‘xshaydi: yo‘qligi aziyat keltiradi, borligi ham baxtni kafolatlamaydi.*** Ko‘pchilik odamlar baxtni pulga sotib olib bo‘lmasligiga qo‘shilishsa-da, katta miqdordagi pul ularni qat’iyatli, mamnun va baxtli qiladi deb hisoblashadi. Xo‘p, to‘lov cheklarimizning ko‘payishi bilan vaqt o‘tib baxtimiz ham ko‘payadimi? Yo‘q, ko‘paymaydi. So‘nggi qirq yilda o‘rtahol amerikalik fuqaroning xaridorlik imkoniyati ikki barobarga ortdi. 1957-yilda odam boshiga o‘rtacha daromad, 1995-yil dollar ekvivalentida o‘rtacha 9000 dollarni tashkil qilgan; 1996-yilga kelib boylarning yanada boyigani va ayollar bandligining ortgani sababli daromad deyarli 20000 dollarni tashkil qilgan. Ikki barobarga oshgan, uning yordamida aholi jon boshiga ikki marta ko‘p avtomobil va ko‘plab rangli televizorlar, videomagnitofon, shaxsiy kompyuterlar, konditsionerlar sotib olish imkonini beruvchi bu boylik ko‘p baxt sotib

olish imkonini berdimi? O‘rtahol amerikalik hozirgi kunda ikki marta badavlatroq, ammo baxtliroq emas. 1957-yilda 35 foizga yaqini o‘zlarini “juda baxtli” deb ta’kidlashgan, 1996-yilda esa 30 foizini tashkil etdi. Haqiqatan ham, ajralishlarning ikki barobarga ortganligi, o‘smirlar o‘rtasida xulq buzilishining uch barobarga, jinoyatchilikning besh barobarga ortishi va depressiyaning kuchayishiga qarab xulosa qilsak, zamonaviy amerikaliklar ko‘pincha baxtsiz ko‘rinishadi. Yaponiya va yevropa mamlakatlarida ham xuddi shu ahvol: ularda odamlar yaxshiroq ovqatlanishadi, yaxshiroq tibbiy xizmat, ta’lim va fanga ega, va ular qaysidir ma’noda juda qashshoq davlatlarda yashovchi odamlarga nisbatan baxtliroqdirlar. Biroq real daromadning ortishi baxtning ham ortishiga olib kelmaydi. Bunday misollar materializmning foydasiga emas: boy mamlakatlardagi iqtisodiy o‘sish axloq va ijtimoiy farovonlikning oshib-toshishiga olib kelmadi.

Ikkita psixologik prinsip nima uchun juda qashshoq odamlardan tashqari barcha uchun ko‘p miqdordagi pulga faqat vaqtinchalik baxt sotib olish mumkinligini va nima uchun bizning his-tuyg‘ularimiz go‘yoki ularni uchib ketishi yoki qulab tushishidan saqlab, orqaga tortib turadigan rezina ipga biriktirilganga o‘xshashini izohlaydi. Bu prinsiplardan har biri baxt – bu nisbiy tushuncha degan taxminga asoslangan.

Adaptatsiya darajasi fenomeni biz o‘tmishda boshimizdan kechirgan hodisalarga aloqador turli-tuman rag‘batlantiruvchi omillar haqida bizning mulohazamiz tendensiyasini tasvirlaydi. Psixolog Garri Xelson tushuntirganidek, har bir shaxs o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda neytral darajasini belgilaydi – tovush baland ham, past ham bo‘lmagan nuqtalar; temperatura – qaynoq ham, sovuq ham emas; voqealar – yoqimli ham, yoqimsiz ham emas. Keyin esa bu neytral daraja yuqoriga va pastga o‘zgarsa, uni his etadi va ularga e’tibor qaratadi.

Shunday qilib, agar bizning daromadimiz yoki ijtimoiy mavqeyimiz o‘rtacha nuqtadan oshar ekan, biz dastlab huzur-halovat oqimini his qilamiz. So‘ngra yutuqlarimizning yangi darajasiga moslashamiz, uni normal deb hisoblay boshlaymiz va baxtning keyingi oqimini his qilish uchun yanada ko‘prog‘ini talab qila boshlaymiz. Bolaligimda oilamizda birinchi bo‘lgan 12 dyumli (30 sm) oq-qora televizorga qanday quvonch bilan qaraganimni eslayman. Hozir 25 dyuymli (62,5 sm) televizorda rang yo‘qolsa, o‘zimni nimadandir norozi bo‘lgandek his qilaman. Moslashuv darajasi qanchalik yuqorilarkan, men ilgari yaxshi deb hisoblagan narsani endi yomon deb hisoblayman. Kechagi hashamat bugungi kunda odatiy talabga aylanadi. Huzur va nafrat, omad va omadsizlik – o‘tmishdagi tajriba bilan taqqoslaganda bularning barchasi nisbiy ekanligini yodda tutish juda muhim.

Xo‘sh, unda biz qachonlardir yer yuzida umrboqiy ijtimoiy jannat yaratishimiz mumkinmi? Bu savolga Donald Kempbell “yo‘q” deb javob beradi: agar siz ertaga o‘z fantaziyangizda – pul, kasalliklar yo‘q bo‘lgan, hammasi a’lo darajada bo‘lgan, sizni sadoqat bilan sevadigan inson bor joyda uyqudan uyg‘onsangiz – bir qancha muddatga eyforiyani his qilasiz. Ammo, tezda moslashuv darajasini yangitdan sozlab, yana tag‘in goho yutuqlaringiz kutganingizdan ko‘ra, ko‘proq bo‘lganida huzur-halovat, goho yutuqlaringiz kutganingizni oqlamasa, yo‘qotishlarni his qila boshlaysiz, ba’zida esa neytral holatda bo‘lasiz. Bu bizga nima uchun million dollar yutib olgan lotoreya g‘oliblari va paraplegiklar fojeasiga qaramasdan, har ikkalalari ham bir xildagi baxt darajasi haqida aytishlarini tushunishga yordam beradi. Bu bizga yana nima uchun moddiy talablarning chegarasi yo‘qligini, nega ko‘plab bolalarga bor-yo‘g‘i bittagina Nintendo o‘yini zarurligini va nima sababdan qashshoqlikda o‘sgan va hashamat ichida yashayotgan Imelda Markos Filippin prezidentining rafiqasi bo‘lganida 1060 juft, ya’ni butun

umri davomida ham kiyib ulgura olmaydigan poyafzal sotib olganini tushunish imkonini beradi. Agar g‘olib tantiq odamlar sirasiga kirsa va odamning mulki uni egallab olsa, adaptatsiya darajasi nazoratdan chiqib ketadi.

Farzandlar bilan bog‘liq baxt shaxsning serfarzandligi, kamfarzandligi, farzandlarining turli yosh davrlaridagi hayot, ularning sog‘ligi, ta’lim-tarbiyasi, yutuqlari, ulardan qoniqish, uning davriyligi, o‘zgaruvchanligi kabi holatlarga bog‘liq. Bunda farzandlarning ota-ona rahnamoligida komil inson bo‘lib yetishishi va baxtli hayot kechirishga erishishi asosiy omil hisoblanadi.

Farzand bu – “ayolning baxti”, degan ma’noni anglatadi. Hayotga qarasak, buning naqadar haqqoniyligini ko‘p ko‘rasiz.

Ko‘pincha sevgi bolalarni dunyoga keltiradi. Ko‘plab odamlar uchun, bu hayot o‘zgarishlarining eng sabrli qismi baxtli hodisadir. Milliy so‘rovnomada Amerikalik onalarning 93 foizi “Men boshqa narsalarda his qilmagan behisob sevgini bolalarimda his qilaman” – deb javob berishgan. Ko‘plab otalar ham shuni his qilishadi. Mening birinchi farzandim tug‘ilganidan bir necha haftadan so‘ng men bu anglashdan hayratda edim: bu mening ota-onam men haqimda nimani his qilishi edi.”

Xullas, hamma ish, tashvishlarimiz farzandlarimizni baxtli qilishga vosita. Bosh maqsad – o‘g‘il-qizlarimizning baxti ekan.

Boshqalar bilan taqqoslash shaxsning o‘zini boyga, kambag‘alga, ilmliga, ilmsizga, odobliga, odobsizga, hurmatliga, hurmatsizga, ko‘p jihatlari o‘z tengiga, qaysidir jihatlari o‘zidan yuqori yoki past bo‘lganlarga va shu kabi boshqalarga taqqoslashini o‘z ichiga oladi. Baxt nafaqat bizning o‘tmish tajribamiz bilan, balki boshqa odamlar bilan taqqoslaganda ham nisbiydir. Biz doim o‘zimizni kimdir bilan taqqoslaymiz. Biz o‘zimizni yaxshi yoki yomon his qilishimiz ham bu odamlarning kimligiga bog‘liq. Qachonki, atrofdagi odamlar aqli past va beo‘xshov bo‘lsa, ulardan biz epchil va aqlliroq bo‘lsak, natijada, o‘zimizdan qoniqish his eta boshlaymiz. Bu esa, baxtiyorlik his-tuyg‘ular oqimini boshlab keladi.

Shu singari taqqoslashlar bizga nima uchun ma’lum bir mamlakatning o‘zlarini nisbatan kambag‘al odamlar bilan taqqoslaydigan, o‘rta va yuqori daromadga ega bo‘lgan odamlari ancha omadsiz qo‘shnilariga nisbatan o‘z hayotlaridan mamnunlar. Shunga qaramasdan, odam farovonlikning mo‘tadil bir darajasiga ega bo‘larkan, farovonlikning keyingi ortib borishi baxtning ortishiga kam ta’sir qiladi. Nega? Chunki, ma’lum bir muvaffaqiyatga erishgach, ular o‘zlarini asosan o‘zlarining darajasidagi yoki o‘zlaridan mavqei va moddiy ta’minoti yuqoriroq inson bilan taqqoslaymiz. Shuning uchun ***o‘zimizni taqqoslaydigan odamlarimizdan ko‘ra yomonroqmiz, bu esa salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi.***

O‘rtahol odamlar uchun sportchilarning maoshlari emotsional jihatdan hech qanday ahamiyatga ega emas. “Qashshoqlar millionerlarga hasad qilishmaydi, ammo ular albatta, boshqa, o‘zlaridan ko‘ra omadliroq qashshoqlarga hasad qilishadi”, – degan edi Bertran Rassel. Shu sababli “Napoleon Sezarga hasad qilgan, Sezar Iskandarga, Iskandar esa, taxmin qilishga jur’at qilaman, hech qachon mavjud bo‘lmagan Geraklga hasad qilgan. Bundan kelib chiqadiki, siz faqatgina muvaffaqiyat vositasida hasaddan qochib qutula olmaysiz, chunki voqea yoki afsonada doimo sizdan ko‘ra omadliroq odam topiladi”.

Mehnat qilarkanmiz yoki dam olarkanmiz, ko‘pchiligimiz qiziqarli murakkab faoliyatdan zavq olamiz. Masalan, insonlar aqliy ish yoki faol hordiq bilan band bo‘lganida passiv holatda bekor o‘tirgandagiga qaraganda o‘zlarini ancha baxtli his qilishadi.

Masalan, hordiq qanchalik arzon va odatda qiziqarliroq bo‘lsa, hordiq chiqaruvchilarga shunchalik o‘zlarini ko‘tarinki kayfiyatini his etishgan. Shuningdek, odamlar o‘z tomorqalari bilan shug‘ullanganlarida yoki do‘stlari bilan suhbatlashganlarida, televizor qarshisida o‘tirganlariga qaraganda o‘zlarini baxtliroq his qilishadi. Baxtli o‘smir yoshlar moddiy mablag‘ va obro‘ga nisbatan shaxsiy yutuqlar va yaqin munosabatlarga ko‘proq moyil bo‘ladilar. Shunday xulosa qilish mumkinki, kimning ishi, hordig‘i va do‘stlik aloqalari ularni butunlay egallab olgan bo‘lsa va tanlagan faoliyatlari ijobiy tuyg‘ularini his etishga imkon bersa, o‘sha odam baxtlidir.

Qoniqish, mamnunlik olib keladigan vazifa va munosabatlar bizning baxtimizga ta’sir qiladi, ammo genetik zanjir chegarasida. 254 nafar egizaklar ustida tadqiqot olib borib, Devid Likken va Auk Tellegen shunday xulosaga kelishdi: baxt darajasida 50 foiz farq irsiyat bilan bog‘liq. Hatto birga o‘sib, katta bo‘lmagan egizaklar ham aksariyat hollarda bir xil darajada baxtni his etishlari mumkin. Qarashlarimiz va orttirilgan tajribamizga qarab bizning baxtimiz “uni sinash nuqtasi” atrofida chayqalib turadi. Bu nuqta ba’zilarni ko‘tarinki kayfiyatga chog‘laydi, boshqalarni esa – tushkun kayfiyatga.

Baxt, yaxshi kayfiyat odamlarga atrof olamni yaxshiroq qabul qilishga va ularning boshqalarga yordamlashish istagiga imkon beradi. Joriy kunning yaxshi yoki yomon voqealari tufayli paydo bo‘lgan kayfiyat juda kam hollarda shu kun chegaralaridan chiqadi. Hatto eng yaxshi voqealar ham masalan, daromadning sezilarli o‘sishi, odamni kamdan-kam hollarda uzoq vaqtga baxtli qila oladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, harbiy oilasi baxtini uning hayotiy omillarga adaptatsiyasi darajasi belgilaydi. Bu adaptatsiya darajasi nisbiy ravishda o‘zgarib borish xususiyatiga ega. Rotatsiya holatlaridan qat’iy nazar shaxsning baxtni his qilishi o‘z kasbidan, mehnatidan, oilasi, farzandlari, yashash va mehnat muhiti, ijtimoiy himoyalanganligi va shu kabi boshqa omillardan qoniqqanligi darajasi bilan birga, uning bilimlari, iymon-e’tiqodi, yuksak ma’naviyat va mafkuraviy immunitetga egaligiga bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


*1. Ананьев Б. Г. О проблемах современного человекознания. – М., 1977.*

*2. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, – T., 2010.*

*3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun – T., 2007.*

*4. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi – T., 2010.*

**Go‘zal QAYUMOVA,**
**Dilfuza G‘AFFOROVA,**
Termiz davlat universiteti, magistratura talabalari

# NIKOH MOTIVLARI VA OILAVIY AJRIMLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

**Annotatsiya**

Maqolada oila va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq muammolar, talabalarda nikoh motivlarining namoyon bo‘lishi va oilaviy ajrimlarning sabablari to‘g‘risidagi tasavvurlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Oila, motiv, nikoh motivi, oilaviy ajrimlar, muammo, psixologik moslik, rag‘batlantirish,munosabat.

В статье представлена информация о проблемах, связанных с семьей и семейными отношениями, проявлением брачных мотивов у студентов и их представлениями о причинах семейных разводов.

**Ключевые слова.** Семья, мотив, брачный мотив, семейные разводы, проблема, психологическая совместимость, мотивация, отношение.

The article provides information on the problems associated with family and family relationships, the manifestation of marriage motives among students and their ideas about the causes of family divorce.

**Key words.** Family, motive, marriage motive, family divorces, problem, psychological compatibility, motivation, attitude.

Oila bu eng muhim ijtimoiy institutlardan biri bo‘lib, doimiy ilmiy izlanishlarni talab etadi. Mamlakatimizda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o‘zgarishlar davrida oilaviy muammolarni o‘rganish hamda oila muammolari hal etishning metodik asoslarini takomillishtirish zaruratga aylanmoqda.

Oilaviy ajrimlar sonining ko‘payishi, ayniqsa turmushning dastlabki yillarida ortib borayotganligi yoshlarning oilaviy hayotga munosabatini mustahkam negizda shakllantirish, oilani barqarorlashtirish yo‘llarini izlash, xususan, yoshlar orasida yetarlicha imidjni shakllantirish, kelajakdagi turmush o‘rtog‘ini tasavvur qilishi, va turmush qurganidan keyingi hayot haqidagi tasavvurlari bilan haqiqiy hayot o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashni taqazo etmoqda.

Turmush qurgan juftlik oilani kichik guruh va ijtimoiy birlik sifatida shakllantirish uchun asosdir. Oila bir qator hayotiy vazifalarni bajaradi, jumladan, asosiylari: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, relaksatsiya, boshqaruv kabilar.

Ko‘pgina tadqiqotchilar oilasi va yoshi har xil bo‘lgan odamlar bilan suhbatlashish orqali turmush o‘rtoq tanlash sabablarini o‘rganishgan. Ushbu tadqiqotlar davomida, eng jiddiy xatolar yoshlar tomonidan turmush qurishdan oldin ham, uchrashuvlar paytida sodir etilishi aniqlandi. Ko‘pgina yoshlar turmush o‘rtog‘ida oilaviy hayotda ahamiyatsiz, ikkinchi darajali rol o‘ynaydigan xususiyatlarni ta’kidlab, ko‘pincha beparvolik bilan qaror qabul qilishadi.

Kelajakdagi turmush o‘rtog‘ining obrazi – bu istalgan turmush o‘rtog‘ining psixofizik, psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy-psixologik va ma’naviy xususiyatlarining subyektiv ideal namoyishi bo‘lib, u interiorizatsiya va belgilar, tarkibiy xususiyatlar va aloqalarni namoyish qilish natijasida hosil bo‘ladi. Nikoh sherigining aqliy jihatdan qurilgan qiyofasi – bu ma’lum bir daqiqada insonning xohlagan turmush o‘rtog‘ining jismoniy, psixologik va ma’naviy xususiyatlarini aks ettiruvchi haqiqiy g‘oyasi bo‘lib, u er-xotinlarning uyg‘unlik qonunlarini hisobga olmagan holda shakllanadi.

Yoshlarda nikoh motivlari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ayrim nomuvofiq nikoh motivlarining ustunlik qilishi ularning oila qurganlaridan so‘ng xulq-atvorida destruktiv xulq-atvor shakllanishiga ta’sir etishi mumkinligini nazariy materiallarning psixologik tahlil natijalari ko‘rsatmoqda.

Sherik tanlashning quyidagi modellari ko‘pincha umumlashtiriladi va ta’kidlanadi: (o‘ziga o‘xshash sherik tanlash; hamdardlik sherigini tanlash; qiymat jihatidan sherik tanlash; psixologik moslik bo‘yicha sherik tanlash.) Sherik o‘zi bilan oilada qabul qilingan turmush qurgan senariyni takrorlash imkoniyatiga qarab tanlanadi. Turmush o‘rtog‘ini tanlash haqida ko‘plab nazariyalar mavjud. Biroq, ushbu nazariyalarning aksariyati kelajakdagi turmush o‘rtog‘i bilan munosabatlarning rivojlanish bosqichlari ketma-ketligini tavsiflaydi.

Nikoh sherigini tanlashning eng keng tuzilgan va rivojlangan nazariyasi Bernard Morshteynning “Rag‘batlantirish-qadriyat-rolli” konsepsiyasi bo‘lib, u nikoh davridagi barcha munosabatlar (turmush o‘rtog‘ini tanlash va turmushga tayyorgarlik ko‘rish davridagi) ketma-ket uchta bosqich mavjudligini ta’kidlaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, barcha uch bosqichni boshidan kechirgan juftliklargina munosib turmush qurish imkoniyatiga ega. Birinchi bosqich – rag‘batlantirish – bir kishini ko‘plab odamlardan ajratishdan iborat. Shunga asoslanib, sherikning birinchi tanlovi, xush yoqish paydo bo‘ladi. Ushbu bosqichda tanlov mezonlari tashqi ma’lumotlar, ijtimoiy mavqei, sherikning o‘zini namoyon qilish xususiyatlari, uning psixologik fazilatlarini namoyish etadi.

Rag‘batlantirish bosqichi nafaqat sherikni baholash, balki o‘z fazilatlarini baholash bosqichidir. Shaxsning o‘zi sherikni qanchalik qiziqtirishi mumkinligini taxmin qilish. Rag‘batlantirish bosqichida sheriklar o‘rtasidagi hududiy yaqinlik yaqinlashish va o‘zaro hamdardlik uchun asos bo‘lish muhimdir. Shuning uchun ko‘pchilik odamlar o‘zlarining turmush o‘rtog‘ini qo‘shnilar, hamkasblar, tanishlar yoki sinfdoshlar orasida topishadi.

O‘zaro munosabatlarning birinchi bosqichida tashqi ma’lumotlarning turmush o‘rtog‘ini tanlashga ta’sirini ham o‘rganilgan. Olimlar shuni aniqladilarki, erkaklar ham, ayollar ham yonida jozibali sherik ko‘rishni afzal ko‘rishadi. Erkaklar o‘zaro munosabatlarning dastlabki bosqichlarida sherikning ko‘rinishiga ko‘proq sezgir bo‘lishadi, ayollar uchun esa sherikning jozibali ko‘rinishi bu yetuk bosqichlarda munosabatlarni mustahkamlovchi omil hisoblanadi.

Kishining nikoh qurishga munosabati, nikohga tayyorligi va nikoh qurish motivlarini o‘rganishda asosan so‘rovnoma va anketalardan foydalaniladi. Jumladan, sotsiolog S.I. Golod tomonidan ishlab chiqilgan ‘‘Nikoh qurish motivlari’’ anketasi ham aynan nikoh qurish motivlarini o‘rganishga qaratilgan. Mashhur rus sotsiologi Sergey Isayevich Golodning fikriga ko‘ra, turmush qurishning yetakchi sabablari:

– sevgi;
– umumiy qarashlar va qiziqish;
– yolg‘izlikni his qilish;
– rahm-shafqat;

– farzand kutish;
– tasodifiy;
– moddiy ta’minlanganlik;
– bo‘lajak turmush o‘rtog‘imning boshpanaga egaligi.

Ushbu anketa shartlariga ko‘ra, respondent S.I. Golod taklif qilgan 8 ta variantdan o‘zi uchun maqbul bo‘lgan faqat bitta asosiy variantni tanlashi kerak. Nikoh qurish motivlarini o‘rganish maqsadida ‘‘Nikoh qurish motivlari’’ anketasidan foydalanib tadqiqot olib bordik. Sinaluvchilarga 8 ta nikoh motivlari keltirilgan qator taqdim etilib, ulardan birini tanlash taklif etildi. Tadqiqotlarda 144 nafar talabalar ishtirok etdilar. Natija quyidagicha bo‘ldi:

**“Nikoh qurish motivlari” metodikasi bo‘yicha respondentlarning ko‘rsatkichlari (n=144)**

| Nikoh motivlari | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ***Ko‘rsatkichlar soni*** | 42 | 12 | 3 | 5 | 12 | 8 | 33 | 19 |
| ***Ko‘rsatkichlar foizi*** | 29% | 8,3% | 2% | 3,5% | 8,3% | 5,5% | 23% | 20,5% |

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki bizning tadqiqot guruhimizdagi talaba yoshlarda eng yuqori o‘rinni egallagan nikoh motivlari sifatida sevgi, moddiy ta’minlanganlik, bo‘lajak turmush o‘rtog‘imning boshpanaga egaligi egalladi. Darhaqiqat, ko‘pchilik yoshlar nazarida sevgi bu mustahkam oilaning asosi deb tasavvur etiladi. Albatta, yoshlar sevgi-muhabbatni ustun deb bilishlari mumkin. Lekin oilaviy hayotdagi zavq-shavqlar o‘z-o‘zidan g‘oyibdan berilmaydi. Buning uchun kurashish, intilish, oilada bardoshli bo‘lish, uning sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tish va uni berilgan umrning oxirigacha parvarish qilib, saqlab qolishga va umrning yakunida uni farzandlarga, kelajak avlodga eng muqaddas meros qilib qoldirishga harakat qilish kerak.

Ayrim yoshlar esa boylikni, mansabni, moddiy yoki ijtimoiy manfaatdorlikni ko‘zlab oila qurish “Agar shu yigitga turmushga chiqsam, boy-badavlat yashayman” yoki “Shu qizga uylansam, uning ota-onasi yordamida ma’lum bir mansab, mavqega erishaman”, – degan fikrlar asosida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy kelajak hayotini tasavvur qiladi. Bu esa aksariyat hollarda yoshlar tasavvuri va orzu-havaslarining chippakka chiqaradi. Yoshlarni oilada, avvalo, ota-onalarining qo‘llab quvvatlashlari bilan birga o‘z harakatlari va kuchlariga tayanishlariga o‘rgatish lozim.

Shuningdek, turmush qurish yoshidagi talaba yigit va qizlarda nikoh qurish motivlarining xususiyatlarini o‘rganish maqsadida “Oilaviy ajrim sabablarini aniqlash” metodikasini ishlab chiqdik.

Mazkur metodika turli yoshlardagi oilaviy ajrimlarning sabablari to‘g‘risidagi tasavvurlarini diagnostika qilishga mo‘ljallangan.

***Ko‘rsatma:*** “Sizningcha oilaviy ajrimlarning asosiy sabablarini nimadan iborat ekanligini baholashingiz lozim. Buning uchun sizga taqdim etiladigan shkalalarni eng asosiy o‘riniga ko‘ra 1 dan 10 gacha oraliqda raqamlashingiz va har bir sababning darajasini belgilashingiz kerak bo‘ladi”.

***Oilaviy ajrimga sabab bo‘ladigan asosiy omillar***

1. Xiyonat
2. Iqtisodiy qiyinchilik

3. Oilani qadrlamaslik
4. Farzandsizlik
5. Er-xotinnig o‘zaro bir-birlarini tushunmasligi
6. Ijtimoiy zararli odatlarga berilish

**Javob varaqasi**
Ismi va sharifi _____ Yoshi _____Jinsi_____
1. _____
   **1 2 3 4 5 6 7 8 9 10**
2. _____
   **1 2 3 4 5 6 7 8 9 10**
3. _____
   **1 2 3 4 5 6 7 8 9 10**
4. _____
   **1 2 3 4 5 6 7 8 9 10**
5. _____
   **1 2 3 4 5 6 7 8 9 10**
6. _____
   **1 2 3 4 5 6 7 8 9 10**

Tajriba jarayoni sinaluvchilar mazkur 6 ta shkalani oilaviy ajrimga sabab bo‘ladigan asosiy omillarning keltirilgan raqamiga mos holda belgilaydi va uning darajasini 1-10 gacha oraliqdagi diapazonda belgiladi.

Oilaviy ajrimlarning sabablari haqidagi talabalarning tasavvurlari bo‘yicha birinchi o‘rinni “Er xotinning o‘zaro bir-birlarini tushunmasligi”, ikkinchi o‘rinni “Iqtisodiy qiyinchilik”, uchinchi o‘rinni esa “Hiyonat” egalladi. Keyingi o‘rinlarda “Farzandsizlik”, “Oilani qadrlamaslik”, “Ijtimoiy zararli odatlarga berilish” tashkil etdi.

Bizning nazarimizda oilaviy ajrimlarning asosiy sabablari sifatida birinchi navbatda “Oilani qadrlamaslik” ko‘rsatish mumkin edi. Chunki xalqimizda oila – eng oliy qadriyat, muqaddas dargoh deb qaraladi. Oilani qadrlagan kishi o‘z oilasining tinchligi va mustahkamligi uchun kurashadi.

Tadqiqot ishimizda olib borilgan amaliy ishlar asosida nikoh qurgungacha davrdagi nikoh qurish motivlari nikoh qurilgandan keyin o‘zgarishi namoyon bo‘ldi. Respondentlar bilan o‘tkazilgan suhbat davomida ular ichida ko‘proq, turmush qurguncha haqiqiy oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarining noto‘g‘ri bo‘lishi, o‘zi uchun turmush o‘rtog‘ini tanlashda muhim jihatlarga, sharqona ta’lim tarbiya jihatlariga e’tibor qaratilmasligi oilaning mustahkamligiga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi

## Foydalanilga adabiyotlar:


*1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun – T., 2007.*

*1. Ismailova, Zukhra, Ruzimurot Choriev, and Aynisa Musurmanova Mahfuza Aripjanova. “Methods of training of teachers of university on advanced training courses.” Journal of Critical Reviews 7.5 (2020): 413- 416.*

*2. Narbaeva, T.K, Musurmanova, A. “Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family”. Annals of the Romanian Society for Ceff Biology 25.1 (2021): 6485-6496.*

**Малохат КОМИЛОВА,**
Ташкентская медицинская академия, кафедра ‘‘Педагогика и психология’’,старший преподаватель
**Феруза ИСКАНДЖОНОВА,**
Ташкентская медицинская академия, кафедра ‘‘Педагогика и психология’’, преподаватель

# РОЛЬ И КРИТЕРИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

**Annotatsiya**

Maqolada psixologo-pedagogik fanlarni o‘rganishda tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida masofadan o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Talabalarning aralash ta’lim tizimining afzalliklari va kamchiliklari, xususiyatlari, asosiy jihatlari, elementlari, tarkibiy qismlari, modellari, samaradorlik mezonlari, o‘quv jarayonining uslubiy tarkibiy qismini ta’minlash nuqtayi nazaridan aniqlanadi.

**Kalit so‘zlar.** Aralash ta’lim, innovatsion texnologiyalar, masofaviy format, duragaylik turi.

В статье рассматриваются особенности применения дистанционных образовательных технологий в медицинских высших учебных заведениях при изучении психолого-педагогических дисциплин. Определяются преимущества и недостатки, особенности, основные аспекты, элементы, компоненты, модели, критерии эффективности системы смешанного обучения студентов, с точки зрения обеспечения методологической составляющей учебного процесса.

**Ключевые слова.** Смешанное обучение, инновационные технологии, дистанционный формат, тип гибридности.

The article examines the features of the use of distance learning technologies in medical higher educational institutions in the study of psychological and pedagogical disciplines. The advantages and disadvantages, features, main aspects, elements, components, models, criteria for the effectiveness of the blended learning system of students, from the point of view of ensuring the methodological component of the educational process, are determined.

**Key words.** Blended learning, innovative technologies, distance format, type of hybridity

Внедрение инновационных технологий в процесс обучения привело к появлению такой формы работы преподавателей и студентов, как смешанное обучение. Понятие смешанного обучения (blendedlearning) появилось не так давно, и определения носят достаточно описательный характер. Так, ДарлинПейнтер (DarlingPainter) в статье ‘‘MissedSteps’’ предлагает под смешанным обучением понимать объединение строгих формальных средств обучения-работы в аудиториях, изучении теоретического материала – с неформальными, например, с обсуждением посредством электронной почты и Интернет-конференций.

**“*Смешанное обучение — это образовательный подход, совмещающий обучение с участием учителя (лицом к лицу) с онлайн-обучением и предполагающий элементы самостоятельного контроля учеником пути, времени, места и темпа обучения, а также интеграцию опыта обучения с учителем и онлайн*”.**

Предпосылками к возникновению смешанного обучения стали:

во-первых, повышение доступности персональных компьютеров и гаджетов. В 80-е годы XX столетия персональные компьютеры стали доступны широким слоям населения за рубежом, а в 90-е началось стремительное распространение персональных компьютеров.

Во-вторых, это высокий уровень проникновения интернета и расширение каналов, позволяющих передавать с хорошим качеством не только текст, но и видео, а также рост количества различных обучающих роликов и других учебных материалов в сети Интернет. В последние годы возможность посмотреть видеоролики онлайн из любой точки мира появились у каждого обладателя смартфона.

В-третьих, это развитие теорий и практики программированного обучения. Возникшее в 50-е годы XX в., это направление в психологии образования стремительно развивается. Потребность в современных формах образования, развития новых компетенций является, наверное, основной предпосылкой для появления смешанного обучения и для его актуализации в период перехода к постиндустриальной экономике.

Внедрение смешанного обучения в учебный процесс требует от педагога огромное количество сил и времени, нежели традиционная и привычная форма работы. Особенно это затрудняется отсутствием психологической подготовки учителя для изменения своей роли в процессе обучения из наставника в помощника. Внедрение смешанного обучения как инновации ведет за собой ряд изменений в самоопределении и способах деятельности ученика и учителя. Ученик приобретает пространство свободы и ответственности, в котором он учится делать осознанный выбор и отвечать за его последствия. Учитель же начинает работать в новых для себя ролях, уходя от роли транслятора к роли тьютора, и его ключевым инструментом становится учебная среда, в которой трудно ощутить границы между классной средой и online-средой.

В итоге разбора и анализа смешанного обучения можно выделить основные преимущества, связанные использованием цифровых образовательных ресурсов:

1) неограниченный доступ к учебной и иным видам информации, размещённой на электронных носителях и в online-пространств. В смешанном обучении учитель уже не является единственным источником информации, а избыточность информации, которую находит и получает ученик, позволяет формировать у него разные навыки работы с ней;

2) возможность “тонкой настройки” содержания, способов и методов обучения, которая позволяет удовлетворить запросы практически каждого студента;

3) прозрачность и понятность системы оценивания, особенно в той её части, где выставление отметки происходит на основе электронных заданий с автоматической проверкой, а субъективное мнение преподавателя не влияет на отметку;

4) возможность отслеживать процесс обучения через LMS1 с разнообразным функционалом.

Важными особенностями смешанного обучения являются:

1. Повышение вовлеченности студентов в обучение
2. Улучшенное взаимодействие учителя и студента
3. Ответственность за обучение
4. Тайм-менеджмент
5. Улучшение результатов обучения студентов
6. Гибкость во времени
7. Повышение институциональной репутации
8. Более гибкая среда преподавания и обучения
9. Предлагает круглосуточный доступ к обучающим ресурсам.
10. Отслеживайте эффективность сотрудников и их развитие.
11. Снижение затрат на обучение.
12. Обеспечивает индивидуальный подход к тренировкам
13. незначительную себестоимость образовательного контента;
14. повышение мотивации студентов к учебе;
15. учет индивидуальных особенностей обучающихся.

Критерии эффективности системы смешанного обучения студентов, с точки зрения обеспечения методологической составляющей учебного процесса и административных механизмов, используемых в вузе, представляют собой:

1. Совокупность качественной ИКТ-компетентностной подготовки профессорско-преподавательского состава к работе с Электронными образовательными ресурсами (ЭОР)

2. Четкое управленческое регулирование локальных нормативно-правовых аспектов данного вопроса;

3. Возможность эффективного механизма взаимодействия преподавателей и администрации вуза;

4. Продуманный мотивационный механизм поощрения и стимулирования преподавателей к использованию ЭОР в образовательном процессе.

Таким образом, суть концепции смешанного обучения заключается в актуализации механизмов согласования, сопровождения, интеграции и нелинейного сочетания традиционного и электронного форматов получения знаний. Можно также утверждать, что оно является комплементарной основой для построения полимодального учебного процесса с учетом возможностей “дополненной” реальности.

В смешанном обучении, также как и в традиционном, предусматривается проведение аудиторных занятий и учебными планами по направлениям подготовки. В то же время в системе смешанного обучения как совокупности элементов, объединенных регулярным взаимодействием для выполнения функций образовательного процесса, на первый план выходят основные аспекты:

– институциональный – наличие в организации стратегии электронного, в частности смешанного обучения;

– управленческо-технологический – организация и управление учебным процессом, в котором соединены традиционные формы и электронные технологии;

– педагогический – разработка методик, моделей и учебно-методического обеспечения образовательного процесса в электронной среде обучения.

Основные элементы смешанного обучения представлены в таблице 1.

| | |
|---|---|
| Институциональный | 1. Стратегия организации по развитию электронного обучения, включающая: обеспечение ресурсами и функционирование инфраструктуры смешанного обучения; решение вопросов администрирования, академического и студенческого обслуживания; наличие внутренних нормативных документов, регламентирующих процесс смешанного обучения. |
| Управленческо-технологический – реализация образовательного процесса в электронной среде обучения | 2. LMS, инструменты ИКТ, позволяющие осуществлять процесс смешанного обучения – доставку информации, оценку знаний, синхронное и асинхронное взаимодействие преподавателей, студентов, персонала.<br>3. Службы управления процессом смешанного обучения, осуществляющие программно-техническое сопровождение и организационную поддержку образовательного процесса. |
| 3. Педагогический – реализация образовательного процесса как совместной деятельности преподавателя и студентов | 4. Методики смешанного обучения общеуниверситетские и по отдельным дисциплинам. Контент, включающий дидактические и создаваемые в процессе обучения ресурсы. |

Анализ литературы позволяет разработать классификацию современных моделей смешанного обучения, применяемых в вузе. Основой классификации послужили функциональный подход к проектированию элементов смешанного обучения, а также теоретические положения К. Бонка и Ч. Грехэма об уровневом сочетании базовых компонентов смешанного обучения, которые включают виды деятельности, дисциплины / курсы, учебные программы, организации. Данные компоненты представлены на четырех уровнях:

● институциональном (внедрение онлайн-курсов в образовательные программы);

● технологическом (использование ИКТ);

● дидактическом (обучение, преподавание; синхронность / асинхронность);

● синергетическом (комплексные модели, учитывающие не только включение новых электронных элементов в процесс обучения, но и изменение самой системы обучения как таковой).

Институциональные модели предусматривают административное и информационно-технологическое сопровождение. Примером может служить включение онлайн-курсов в образовательную программу вуза.

Основу технологических моделей смешанного обучения составляет технологическая доминанта проектирования образовательного процесса. Одной из наиболее востребованных моделей этого типа в практике высшего образования США, Европы и России является широко известная разработка американских ученых Х. Стейкера и М. Хорна из института КлейтонаКристенсена (США), включающая разные виды смешанного обучения.

Модель ‘‘Face-to-Face’’ предполагает освоение учебной программы в традиционном формате при вспомогательной роли дистанционного компонента, которая заключается в предоставлении доступа к электронным ресурсам в компьютерном классе во время занятий и т. д.

Модель ‘‘Rotation’’ основывается на периодичности поочередного использо-

вания очного и дистанционного компонентов. Модель “Flex” реализуется за счет доминирования дистанционного формата обучения при вспомогательной роли традиционного подхода, в рамках которого предлагаются индивидуальные консультации в очном режиме.

Модель “Self-Blend” предусматривает самостоятельный выбор студентами онлайн-курсов дополнительно к очному режиму работы.

Модель “OnlineDriver” заключается в преобладании дистанционного формата с подключением очной аттестации студентов. В практике отечественного образования разработаны модели, в которых учитываются доля использования электронного взаимодействия, особенности содержания обучения, соотношение аудиторной и самостоятельной работы, контроль над ходом учебного процесса.

На этой основе выделяются следующие виды моделей:

● замещающая, специфика которой состоит в широком задействовании информационно-коммуникационных технологий и соотношении очного и электронного форматов. Очная форма обучения предполагает применение интерактивных методов, в то время как электронный формат основан на репродуктивных методах самостоятельной работы.

● поддерживающая, которая предполагает синтез дистанционного компонента, используемого в качестве комплементарного, и очной составляющей, реализуемой на практике с помощью активных методов обучения;

●модель электронно-образовательного центра, основанная на замещении традиционных аудиторных занятий очными занятиями в компьютерных классах.

Проведенный анализ моделей смешанного обучения позволяет сделать вывод о том, что основанием выделения разных форм получения знаний является “тип гибридности” синхронности и или асинхронности.

